

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**B.IBRAGIMOV, M.IBRAGIMOV**

**SPORT TURLARI BO`YICHA MUSOBAQALAR  
O`TKAZISH VA HAKAMLIK QILISH**

**Buxoro-2020**

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**IBRAGIMOV BEHZOD BAXTIYOROVICH**  
**IBRAGIMOV MANUCHEXR BAXTIYOROVICH**

**SPORT TURLARI BO`YICHA MUSOBAQALAR**  
**O`TKAZISH VA HAKAMLIK QILISH**

*5112000-“Jismoniy madaniyat” ta’lim yo’nalishi bo`yicha tahsil olayotgan  
talabalar uchun*

**DARSLIK**

**Buxoro-2020**

## **Annotatsiya**

Ushbu darslik talabalarga “Sport turlari boʻyicha musobaqalar oʻtkazish va hakamlik qilish” fani boʻyicha yengil atletika, suzish, sport oʻyinlari va milliy kurash boʻyicha musobaqalar oʻtkazish va hakamlik qilish, musobaqalarni tashkil qilish va oʻtkazish metodlari, talabalarni sport turlarida hakamlik qilish tartiblari, qoidalari bilan nazariy va amaliy tanishtirish, ularni sport turlari va musobaqalar oʻtkazish, hakamlik qilishga oid amaliy koʻnikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat.

Darslik Oliy taʼlim muassasalari jismoniy madaniyat fakultetlarining 5112000-“Jismoniy madaniyat” taʼlim yoʻnalishi boʻyicha tahsil olayotgan talabalar, sportchilar, mutaxassislar, murabbiylar, oʻrta-maxsus taʼlim muassasalarining jismoniy tarbiya fani oʻqituvchilari uchun moʻljallangan.

## **Аннотация**

В этом учебнике студенты узнают, как организовать и проводить соревнования по легкой атлетике, плаванию, спортивной и национальной борьбе. А также научиться организовать и проводить соревнования по предмету “Спортивные соревнования и судейство”. Подробно освещена методика преподавания, теоретические и практические приемы ознакомление студентов с правилами и процедурами арбитража в спорте, оснащение их практическими навыками и компетенциями в арбитража в спорте и соревнованиях.

Учебник предназначен для студентов, спортсменов, специалистов, тренеров, преподавателей физического воспитания средних специальных учебных заведений, обучающихся по направлению образования: 5112000 – “Физическая культура” факультетов физической культуры высших учебных заведений.

## **Annotation**

In this tutorial, students will learn how to organize and conduct referee competitions in athletics, swimming, sports and national wrestling. And also learn how to organize and conduct competitions in the subject of “Sports competitions and refereeing”. The teaching methodology, theoretical and practical methods, familiarizing students with the rules and procedures of arbitration in sports, equipping them with practical skills and competencies in arbitration in sports and competitions are described in detail.

The textbook is intended for students, athletes, specialists, trainers, physical education teachers of secondary specialized educational institutions, students studying in the field of education: 5112000 – “Physical Culture” of the physical education departments of higher educational institutions.

## **Mualliflar:**

**B.B.Ibragimov** – Oʻzbekiston Milliy Olimpiya qoʻmitasi bosh mutaxassisi

**M.B.Ibragimov** – BuxDU, “Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport” kafedrasida tayanch doktoranti

## **Taqrizchilar:**

**H.A.Botirov** BuxDU “Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti” kafedrasida professori, p.f.n

**F.Xoʻjayev** Pedagogika fanlari nomzodi, professor

**A.K.Ibragimov** BuxDU “Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport” kafedrasida mudiri, dotsent

## KIRISH

Respublikamiz ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi bosqichida jismonan sogʻlom, maʼnan, teran, axloq-odob va umumbashariy gʻoyalar ruhida kamol topgan, bilimli, dono avlodni tarbiyalash, milliy genofondni sogʻlomlashtirish masalasi davlat siyosati darajasiga koʻtarildi. Yoshlar oʻrtasida sportga boʻlgan qiziqishni orttirish, sportni ommaviylashtirish davlatimiz rahbariyati oldidagi birinchi navbatda bajariladigan ishlar darajasiga koʻtarildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda sogʻlom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini roʻyobga chiqarish, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga toʻliq javob beradigan, har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish boʻyicha keng koʻlamli, aniq yoʻnaltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.<sup>1</sup>

Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ham yosh avlodni jismonan baquvvat qilib tarbiyalashga, chuqur va mustahkam bilim berishga katta eʼtibor berilgan. Shunday ekan, jismoniy tarbiya jarayonida yoshlarimizning jismonan barkamolligiga erishishni bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri, deb hisoblash mumkin.

Jismoniy madaniyat va sport taʼlimini takomillashtirishda davlatimizning shu soha boʻyicha yetakchi mutaxassis olimlari samarali mehnat qilmoqdalar. Ularning olib borayotgan kuzatuvlari, ilmiy tadqiqot ishlari asosida jismoniy madaniyatning hamma sohasiga oid darsliklar, oʻquv qoʻllanmalar, monografiyalar, metodik qoʻllanmalar yaratilmoqda. Bularning kelajakda shu soha boʻyicha kadrlarni tayyorlash, aholini sogʻlomlashtirish, sportchilarning sport mahoratini oshirish jarayonini takomillashtirish ishlarida samara berishi aniq.

Jismoniy tarbiya oʻqituvchilarining, sport mutaxassislarining, ustoz-murabbiylarning chuqur bilim, malaka, boy tajriba va mahoratga ega boʻlishi, har tomonlama yetuk, maʼnaviy barkamol kadrlar tayyorlash garovidir. Zero, ustozlar

---

<sup>1</sup> Ibragimov M.B. Futbol madaniyati. Oʻquv qoʻllanma. – T., 2013. B. 3.

har jihatdan shogirdlariga namuna bo`la olsagina, kelajak uchun ishonchli zamin tayyorlanadi. Namunali ustoz-murabbiy bo`lish uchun o`qituvchilar tinimsiz izlanishlari, o`z bilim va malakalarini oshirib borishning barcha imkoniyat va vositalaridan, shu jumladan fanga tegishli adabiyotlardan, samarali foydalanishlari, rivojlangan mamlakatlarning zamonaviy ta`lim texnologiyalari, ilg`or tajribalari bilan tanishishlari, uni o`quv jarayonida qo`llay bilishlari kerak.

Talaba-yoshlarni jismonan baquvvat qilish uchun tarbiyaviy ishlarni har bir fan bo`yicha, ta`lim - tarbiyaning hamma bosqichlarida: jismoniy tarbiya darslarida, sinfdan tashqari olib boriladigan sport mashg`ulotlarida, turar joylarda o`tkaziladigan mashg`ulotlarda uzluksiz olib borish kerak.

Insonning jismonan baquvvat, sog`lom bo`lib kamol topishida, hamma sport turlari bilan bir qatorda sport o`yinlari ham muhim o`rin tutadi. Futbol – Ona zaminimizda eng ommalashgan millionlar sevgan sport o`yinlaridan biridir. Bizning mamlakatimizda ham bu sport o`yinini turli yoshdagi ko`plab odamlar yaxshi ko`rib o`ynashadi.

Vatanimiz mustaqillikka erishgach, sportni, shu jumladan sport o`yinlarini rivojlantirishga e`tibor kuchaytirildi.

O`zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to`g`risida”gi Qonuni 1992-yilning 14-yanvarida, uning yangi tahrirlangan ko`rinishlari esa 26-may 2000-yilda, 4-sentyabr 2015-yilda qabul qilindi.

Mamlakatimiz ijtimoiy – iqtisodiy hayotidagi tub islohotlar ta`lim tizimi oldiga yangidan – yangi vazifalarni qo`ymoqda. Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan yaxshilash hamda rivojlantirish bugungi kunning asosiy talabi bo`lib qoldi. O`sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan, har tomonlama etuk va yuksak ma`naviyatli, komil insonlar etib tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan hisoblanadi.

Mazkur darslikda sport o`yinlari, yengil atletika, suzish, kurash va sport turlari bo`yicha dastlabki qoidalari, maydon o`lchamlari, sport turlari bo`yicha hakamlarning vazifalari, musobaqalarni tashkil etish va o`tkazish uslubiyotlari haqida to`liq ma`lumotlar berilgan.

Mazkur adabiyotda jismoniy tarbiya instituti, pedagogika universiteti jismoniy tarbiya fakulteti talabalari va jismoniy tarbiya o'qituvchilari va murabbiylari faoliyati davomida foydalanish uchun mo'ljallangan.

5112000-“Jismoniy madaniyat” ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni kelgusida jismoniy tarbiya o'qituvchisi va murabbiyligi sohasida faoliyat ko'rsatishida “Sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish va hakamlik qilish” fani bo'yicha nazariy va amaliy bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallashi muhim ahamiyatga ega bo'lib, talabalar mazkur fanning mazmuni va mohiyatini to'raligicha tushunib etishi, fanni tarkibidagi sport turlari bo'yicha hakamlik qilish qoidalari, musobaqalar tashkil qilish va o'tkazish qoidalarini o'zlashtirishi lozim. “Sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish va hakamlik qilish” fanini o'zlashtirishda ushbu fanni tarkibidagi sport turlari dastlabki va hozirgi qoidalarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

Ushbu darslikda “Sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish va hakamlik qilish” bo'yicha gimnastika, yengil atletika, harakatli o'yinlar, sport o'yinlari va milliy kurash bo'yicha musobaqalar o'tkazish va hakamlik qilish, musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazish metodlari yoritilgan. Talabalarni sport turlarida hakamlik qilish tartiblari, qoidalari bilan nazariy va amaliy tanishtirish, ularni sport turlari va musobaqalar o'tkazish, hakamlik qilishga oid amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat.

Darslik “Sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish va hakamlik qilish” fanining ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarida bo'lajak mutaxassislariga gimnastika, yengil atletika turlari bo'yicha musobaqalar tashkil qilish va o'tkazish, harakatli o'yinlar bo'yicha quvnoq startlar musobaqasi, sport o'yinlaridan futbol, voleybol, basketbol va qo'l to'pi turli usullarda musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazish jarayonida hakamlik qilish qoidalari va tartiblarini mustahkam o'rgatish, sport turlari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun atroflicha bilim berish. Sport turlari bo'yicha hakamlik qilish malakalarini shakllantirish, musobaqalar o'tkazish usullarini va nizomlarini tuzishga o'rgatishdan iborat.

# **1-MODUL. YAKKA KURASH SPORT TURLARI BO`YICHA MUSOBAQALAR O`TKAZISH VA HAKAMLIK QILISH.**

## **I BOB. YENGIL ATLETIKA TURLARI BO`YICHA MUSOBAQALAR O`TKAZISH VA HAKAMLIK QILISH**

Ushbu bob talabalarning shu mavzusidagi bilimi va ko'nikmalarini chuqurlashtirish va malakasini oshirishga mo'ljallangan. Yengil atletika bo'yicha musobaqalarni tayyorlash va o'tkazishda bosh kotib hamda kotibiyat ishlarini tashkillashtirish va o'tkazish ko'p vaqt, kuch va muayyan harakatlarni talab qiladi.

Tayyorlangan darslik talabalar hamda yosh hakamlarning musobaqalarga hakamlik qilish masalalariga doir bilimlarni egallashi va ularga o'z vaqtida hozirlik ko'rishi uchun juda kerak.

Bosh kotib faoliyatining juda muhim holatlari ko'rsatilgan va ular musobaqa jarayonida ko'p xatoliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Bu degani har bir sportchi hakamlik qila oladi degani emas. Buning uchun ko'plab musobaqalarda ishtirok etish va kerakli ko'nikma va tajribalarni orttirish zarur bo'ladi.

### **I. Vazifalar**

- Musobaqalarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan barcha materiallar va hujjatlarni tayyorlash;
- Musobaqa ishtirokchilari ko'rsatgan natijalarga tezkor ravishda ishlov berish, ularni tizimlashtirish va shaxsiy hamda jamoa birinchiliklarida g'oliblarni aniqlash;
- Natijalar va jamoaviy bellashuvlarning borishi to'g'risidagi ma'lumotlarni ishtirokchilar, jamoalarning vakillari, matbuot hamda tomoshabinlar e'tiboriga o'z vaqtida yetkazish;
- Rasmiy materiallarni bosib chiqarish (texnik hisobot).

### **II. Tuzilishi**

Kotibiyat ishiga bosh kotib rahbarlik qiladi. U kotibiyat hakamlarining o'zaro, shuningdek, kotibiyat hamda hakamlar hay'atlari va xizmatlari orasidagi hujjatlar aylanishi bilan bog'liq barcha hatti-harakatlari izchilligini belgilaydi,

o'tkazilayotgan muayyan bir musobaqada hujjatlar aylanishining axborotlar oqimi umumiy tizimini ishlab chiqadi.

Kotibiyat faoliyati tizimini ishlab chiqishda hujjatlar ro'yxati va axborot turlarini belgilab olish ularni turli toifadagi foydalanuvchilarga yetkazib berish usullari va vositalarini aniqlash zarur.

- ishtirokchilarga – jamoa vakillari orqali;
- hakamlar hay'atiga – bevosita kotibiyat orqali;
- matbuot vakillariga – matbuot markazi yoki kotibiyat orqali;
- tomoshabinlarga – axborot xizmati orqali.

Har bir musobaqada kotibiyat faoliyatining tuzilishi va texnologiyasi uning darajasi hamda texnik jihozlanganligiga ko'ra aniqlanadi.

Kotibiyat faoliyati shartli ravishda uch asosiy bosqichga bo'linadi:

- musobaqalarga tayyorlanish;
- bevosita musobaqalarni o'tkazish;
- texnik hisobotni rasmiylashtirib, topshirish.

### **Musobaqalarga tayyorlanish**

Kotibiyatning musobaqalarga qadar bajaradigan ishlari.

Tayyorgarlik davrida (musobaqalar boshlanguniga qadar) bosh kotib katta ishlarni amalga oshirishi kerakki, ular musobaqa jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan qator anglashilmovchilik va xatolarning oldini oladi.

#### I. Nizomni o'rganish:

1. Musobaqalar dasturi, jamoalar tarkibini, kotibiyatning miqdoriy tarkibi hamda blanklar, qog'oz va boshqa moddiy ta'minot ashyolarining zarur miqdorini aniqlash uchun jamoaviy hisob turlarini tahlil qilish.

2. Nizomning quyidagilarga nisbatan turlicha talqin etilishi mumkin bo'lgan bandlarini aniqlash:

- jamoalar joyini belgilash tartibi;
- ishtirokchilarning navbatdagi musobaqa davrasiga o'tishi tartibi;
- ishtirokchilarning shaxsiy joylarini belgilash tartibi;
- parallel hisob imkoniyatlari;



- ishtirokchilarni joylarga, seriyalarga taqsimlash yo'li;
- shaxsiy birinchilik va v/k ga qo'yish;
- qur'a tashlash yo'li va h.k.

Mazkur masalalar bo'yicha qabul qilingan qarorlar va kiritilgan aniqliklar jamoa vakillariga yetkazilishi shart.

3. Nizomda texnik tur bo'yicha malakaviy me'yorlar, sakrash turida plankani ko'tarish tartibi to'g'risidagi ko'rsatmalarning mavjudligi.

## II. Musobaqa o'tkazuvchi tashkilot bilan ishlash.

Musobaqalar talab darajasida o'tkazilishi uchun ularni o'tkazayotgan tashkilot oldiga bir qator masalalar qo'yilishi va ijobiy hal etilishi zarur:

1. Oddiy va namoyish etiluvchi qaydnomalar, rekordlarni qayd etish dalolatnomalari blanklarining mavjudligi.
2. Nusxa ko'chirish uskunalari, qog'oz, devonxona ashyolari bilan ta'minlash imkoniyatlari.
3. Malakali kompyuterchilar (mashinistkalar), rassomlar, nusxa ko'chirish uskunalarida ishlovchi xodimlarning mavjudligi.
4. Musobaqa o'tkazish uchun sarflanadigan harajatlar smetasi, kotiblar va texnik xodimlarga haq to'lash toifalari va tartibi.
5. Hakamlar hay'ati va kotibiyatning miqdoriy tarkibi.
6. Taklif etiladigan hakamlar tarkibi ro'yxati. Boshqa shahar hakamlar ro'yxati, zarur kishilarni chaqirish imkoniyatlari.
7. Rekordlar ro'yxatini olish.
8. Ishtirokchilarni shaxsiy birinchilikga kiritish tartibi, kim va qancha muddatda kiritadi.
9. Ko'krak raqamlarining zarur miqdordagi to'plamlari mavjudligi.
10. Talabnomalarni qabul qilish joyi va vaqti.
11. Yakuniy materiallarning zarur miqdori.
12. Musobaqa to'g'risida taqdim etiladigan hisobot shakli.
13. Qur'a tashlash kimga topshiriladi.

14.Uzoqda joylashgan sport inshootlaridan musobaqa natijalarini yetkazish vositalari.

15.ABT mavjudligi (avtomatik boshqaruv tizimi).

16.Kotibiyat materiallari kimga beriladi.

17.Uzoqda joylashgan startlardan (mas., krossda) start qaydnomalarini yetkazish uchun aloqachilarni harakat vositalari bilan ta'minlash.

18.Xalqaro musobaqa va uchrashuvlar o'tkazilganda:

- materiallar nashr etiladigan tillar;
- kotibiyat uchun tarjimonlar;
- chet tillaridagi atamalarni aniqlashtirish;
- kotibiyatning jamoa vakillari bilan aloqasi.

### III. Bosh kotib bilan muvofiqlashtiriladigan masalalar.

1. Nizomning barcha bandlari talqini hamda musobaqalar reglamentini muvofiqlashtirish.

2. Kotibiyat va nusxa ko'chirish uskunalari imkon qadar bir me'yorda ishlashi, shuningdek, jamoaviy natijalarning tez hisob-kitob qilinishi va musobaqalarning so'nggi kunida natijalarni zudlik bilan bosmadan chiqarish uchun imkon yaratish nuqtai nazaridan dasturning barcha tur va bosqichlarini o'tkazish jadvali loyihasini tahlil etish.

3. Musobaqalar boshlanguniga qadar jamoa vakillariga e'lon qilish zarur bo'lgan masalalar ro'yxatini tayyorlash.

4. Jamoa vakillari kengashini o'tkazish muddatlari va joyi.

5. Jamoa vakillarining qur'a tashlashda qatnashishiga ruxsat berish to'g'risida.

6. Kotibiyat tarkibini (miqdoriy jihatdan va nommanom) muvofiqlashtirish.

7. Shaxsiy va jamoaviy natijalarni tasdiqlash tartibi.

8. Kotibiyatning bosh hakam, uning muovinlari va referi bilan tezkor aloqa qilish yo'llari.

9. Dispetcherlik jadvalini tayyorlash muddati.

10. Musobaqalarga qadar va ular o'tkazilayotgan davrda hakamlar hay'ati materiallarini kompyuterchilar (mashinistkalar) va nusxa ko'chirish uskunalari zimmasiga yuklash.

11. Talabnomalar, qayta talabnomalar berish, shikoyatnomalarni taqdim etish va ko'rib chiqish muddatlari.

12. Bosh hakam, uning muovnlari, referi orasida vazifalarning taqsimlanishi.

13. ABT bilan o'zaro munosabatlar.

14. Bosh hakam, uning muovnlari, referi, apellyastiyasi hay'ati, marradagi katta hakam, katta vaqt o'lchovchi hakam, musobaqa o'tkazuvchi tashkilot vakilining imzo namunalari.

15. Start bayonnomalari va yakuniy materiallarni jamoa vakillariga topshirish vaqti va tartibi.

16. Ishtirokchilarning yig'ilish va badan qizdirish mashqlarini o'tkazish joylari (qaydnomalar va oraliq natijalar namoyish etiladigan taxtalar miqdori).

17. Kotibiyat tomonidan musobaqalar to'g'risidagi hisobot uchun tayyorlanadigan masalalar ro'yxati.

#### IV. Mandat hay'ati.

1. Kotibiyat va ishtirokchilar hamda jamoalarni musobaqalarga kiritish bo'yicha hay'atning ish vaqti va joyini muvofiqlashtirish.

2. Mandat hay'ati xodimlarining imzo namunalari hamda ishtirokchilar va jamoalarni musobaqalarga kiritish bo'yicha qarorlarning turlari.

3. Jamoalar va ishtirokchilarni qo'shimcha talabnomalar bo'yicha qo'shimcha ravishda musobaqalarga kiritish tartibi.

4. Mandat hay'atining musobaqalar to'g'risidagi hisobotga taqdim etadigan ma'lumotlari ro'yxati.

#### V. Matbuot markazi.

1. Kotibiyat matbuot markaziga taqdim etadigan hujjatlarning turlari, miqdori va taqdim etish vaqti.

2. Nusxa ko'chirish uskunalaridan hamkorlikda oqilona foydalanish imkoniyatlari.

3. Axborot almashish uchun tezkor aloqa shakllari (ishtirokchilar va jamoalar tarkibidagi o'zgarishlar, jadvalning o'zgarishi; natijalarni aniqlashtirish, ishtirokchilar raqamining o'zgarishi, rekord natijalar va h.k.).

#### VI. Tibbiy ta'minot bo'yicha bosh kotib muovini.

1. Taqdim etilgan jamoaviy talabnomalarni nazorat qilish vaqti va joyi.

2. Musobaqalar o'tkazilayotgan vaqtda tibbiyot xodimlarining sport inshootlarida joylashuvi. Sportchilarni tibbiy ko'rsatkichlari bo'yicha musobaqalarda ishtirok etishdan ozod qiluvchi hujjatlarning namunalari.

3. Musobaqalarda ishtirok etishdan ozod qilingan sportchilar to'g'risida xabar berish uchun tibbiy xizmatning kotibiyat bilan tezkor aloqasini ta'minlash yo'llari.

#### VII. Stadion ma'muriyati.

1. Kotibiyat faoliyat ko'rsatadigan joy.

2. Kotibiyat faoliyati uchun zarur bo'lgan asbob-anjomlarning mavjudligi.

3. Yorug'lik manbalarining yaroqliligi, nusxa ko'chirish uskunalari uchun razetkalarining mavjudligi.

4. Namoyish taxtalari uchun joylar va ularni jihozlash.

5. Kotibiyat xonalarida hujjatlar va jihozlarning dahlsizligini ta'minlash.

6. Stadion uchun zarur bo'lgan hisobot berish turlari.

#### VIII. Axborot xizmati.

1. Axborot xizmatining kotibiyatdan olingan dastlabki materiallar (taqdimnomalar, poyga va seriyalar tarkibi va h.k.) bilan ishlash vaqti hamda joyi.

2. Kotibiyatning ishchi hujjatlari (ishchi qaydnomalar, yakuniy materiallar va h.k.) shaklini muvofiqlashtirish.

3. Axborot xizmatiga poygalar tarkibidagi o'zgarishlar, ko'krak raqamlarining almashtirilganligi, natijalar, rekordlar, jadvallarning o'zgarishi va b. haqida xabar berish uchun tezkor aloqa shakllari.

4. Axborot xizmati faoliyati uchun zarur bo'lgan kotibiyat hamda matbuot markazi materiallari miqdori (start qaydnomalari, oraliq va final natijalari, jamoaviy kurashning borishi va h.k.).

5. Axborot xizmati tomonidan kotibiyat materiallarini qabul qilib olish shartlari.

6. Rekordlar ro'yxatini tekshirish.

#### IX. Kotibiyat xodimlari (kotiblar).

1. Musobaqalar Nizomi hamda reglamenti bilan tanishuv:

- bosh hakamlar hay'ati tarkibi;
- jamoalar tarkibi;
- musobaqa dasturi;
- jamoa hisobi turlari;
- ishtirokchilarning musobaqa davralari bo'ylab harakatlanishi tartibi;
- shaxsiy o'rinlarni aniqlash tartibi;
- kotibiyat tomonidan chiqariladigan hujjatlar turlari va miqdori;
- yakuniy materiallarni berish muddatlari;
- qayta talabnoma va qo'shimcha talabnoma qabul qilish muddatlari hamda tartibi;

- hakamlar hay'atining asosiy xizmatlari bilan o'zaro munosabat shakllari;
- boshqa xizmat bilan tezkor aloqa shakllari;
- hakamlar guruhlariga qo'yiladigan talablar;
- boshqa xizmatlarga kotibiyat materiallarini etkazish tartibi.

2. Ish vaqti tartibi va uni hisobga olish.

3. Kotibiyat xodimlarini bir-biri bilan tanishtirish.

4. Vazifalarni taqsimlash.

5. Sport inshootlariga kirish ruxsatnomalarini berish.

6. Jamoa vakillari bilan ishlash tartibi.

X. Materiallarni taqdim etish tartibi va quyidagilar bilan tezkor aloqa shakllari:

- dispetcher bilan;
- ishtirokchilarni tayyorlash xizmati bilan;
- start guruhi bilan;
- marra guruhi bilan;

- nazoratchi bilan;
- apellyastiya hay'ati bilan;
- ABT bilan;
- tashkilot rahbariyati bilan;
- tablo xizmati bilan;

### **Kotibiyatning tuzilishi**

Bosh kotib uning muovinlari	Dispatcher
-----------------------------	------------

Hujjatlarni berish guruhi	Hakamlar hujjatlarini qabul qilish guruhi	Statistika va rekordlar guruhi	Varaqalarga ishlov berish guruhi	Jamoaviy natijalar guruhi
---------------------------	---	--------------------------------	----------------------------------	---------------------------

Ma'lumot berish guruhi
------------------------

Materiallarning nusxasini ko'paytirish guruhi
---

Turli toifali musobaqalarda guruhlar va ulardagi kotiblar miqdori o'zgarishi mumkin. Barcha hollarda kotibiyatning o'ziga xos tuzilishini hamda ish tartibini ishlab chiqish lozim.

#### **Bosh kotibning faoliyati**

Bosh kotib musobaqaning bosh hakamiga bo'ysunadi. Bosh kotibning majburiyalari:

- bosh kotibiyat a'zolari orasida vazifalarni taqsimlash va ularning ishini tashkil etish;
- shaxsiy va texnik talabnomalarning qabul qilinishini tashkil etish (ishtirokchilarni musobaqalarga kiritish hay'ati bilan hamkorlikda);
- qaydnomalarni tayyorlash va ularni barcha xizmatlarga tarqatish;
- alohida sport turlari bo'yicha kotiblar guruhlariga ko'rsatmalar berish va ular faoliyatini nazorat qilish;
- shaxsiy va jamoaviy musobaqalar, shuningdek, ko'pkurashlar natijalarini chiqarish;

- rekord dalolatnomalari tuzilishining to'g'riligini ta'minlash va nazorat qilish;

- natijalar to'g'risidagi ma'lumotlarni bosib chiqarish va nusxasini ko'paytirishga rahbarlik qilish;

### **Startyor va uning yordamchilari**

1. Startyorlar hay'ati tarkibiga kiradigan hakamlar startyor etib tayinlanishi mumkin.

Asosiy startyorning eng muhim vazifasi – ishtirokchilarning ham start signaligacha yugurishni boshlab yubormaydigan tarzda start berishdan iborat, qo'shimcha startyorlarning vazifasi – agar ishtirokchilar start qoidasini buzgan bo'lsalar va asosiy startyor ularni qaytarmagan bo'lsa, to'xtash va joylariga qaytish uchun signal berishdan iborat.

Startyorning majburiyatlari:

- ishtirokchilarning kelganligini tekshirish, start bayonnomasiga qayd etish, keyin marradagi kotibga topshirish;

- startda mavjud jihozlarni tekshirish;

- startda ishtirokchilar egallagan holatning to'g'riligini tekshirish;

- agar oldinroq qur'a tashlanmagan bo'lsa, uni amalga oshirish.

### **Marradagi hakamlar**

Marradagi hakamlar to'g'ridan-to'g'ri kuzatib yoki maxsus asbob-uskunalar yordamida ishtirokchilarning marraga yetib kelish tartibini (ketma-ketligini) aniqlaydilar, o'rta va uzoq masofalarga yugurishda davralar hisobini olib boradilar.

Qisqa masofalarga yugurishda (400 m.gacha) hakamlar marraga yetib kelgan poyganing alohida qatnashchilariga orasidagi masofani marra chizig'i oldidagi 5 metrlik belgi chegarasida aniqlaydilar, hakamlar varaqasini to'ldirib, uni katta hakamga beradilar.

### **Vaqt o'lchovchi hakamlar**

Vaqt o'lchovchi hakamlar hay'ati tarkibidan vaqt o'lchovchi hakamlar tayinlanadi. Ular yugurish va yurish bo'yicha musobaqa ishtirokchilarining masofani bosib o'tish vaqtini aniqlaydilar. Masofani birinchi bo'lib yakunlagan

ishtirokchi ko'rsatgan vaqtni qo'l sekundomerlaridan foydalangan holda uch nafar vaqt o'lchovchi hakam qayd etishi kerak.

### **Fotomarradagi hakamlar**

Fotomarradagi hakamlar fotomarra tizimiga birlashtirilgan maxsus uskunalar yordamida yugurish hamda yurish bo'yicha natijalarni: ishtirokchilarning marraga yetib kelish tartibi va ularning masofani o'tgan vaqtini aniqlaydilar.

### **Masofadagi hakamlar**

Masofa hamda to'siqlar oldidagi hakamlar:

- masofa bosib o'tilishi, estafeta tayoqchasining uzatilishi va barerlardan oshib o'tish to'g'ri bajarilayotganligini kuzatadilar, qulagan barerlar o'z vaqtida joyiga qo'yilishini nazorat qiladilar.

### **Shamol tezligini o'lchovchi hakamlar**

Shamol tezligini o'lchovchi hakamlar 200 m.gacha masofalarga yugurish hamda uzunlikka va uch hatlab sakrash bo'yicha musobaqalar o'tkazilayotgan vaqtda maxsus uskunalar yordamida yugurish yo'nalishidagi shamolning o'rtacha tezligi kattaligini aniqlaydilar.

### **Sakrash va uloqtirish bo'yicha hakamlar**

Sakrash va uloqtirishlarning har bir turi bo'yicha musobaqalar o'tkazish uchun katta hakam, o'lchovchi hakamlar hamda kotibdan iborat hakamlar guruhi tayinlanadi.

### **Musobaqa o'tkaziladigan joylar, jihozlar va asbob-uskunalarni tayyorlash xizmati hakamlari**

Jihozlar va asbob-uskunalar bo'yicha hakamlar:

- yugurish yo'lakchasi, sakrash va uloqtirishlar bo'yicha musobaqalar badan qizdirish mashqlari o'tkaziladigan joylarda belgi chiziqlari to'g'ri chizilganligini tekshiradilar;

- jihozlar markirovkasini tekshiradilar;

- musobaqalar o'tkaziladigan joylarga jihozlar va asbob-uskunalarni yetkazib berish hamda ularni yig'ib olish ishlarining reja-jadvalini tuzadilar.



### **Statistika va rekordlar guruhi**

- turli statistik ma'lumotlarning hisob-kitobi bilan shug'ullanadi;
- yangi rekordlar, sport ustasi va xalqaro toifadagi sport ustasi unvonlari uchun me'yorlarning bajarilishini kuzatadi;
- rekord natijalar uchun dalolatnoma tayyorlab, rasmiylashtiradi;
- rekordlar tekshirilganidan keyin hakamlar hujjatlarini qabul qilib olish guruhidan olingan ishtirokchilar varaqalarini ularga ishlov beruvchi guruhga jo'natadi;
- materiallardan nusxa ko'chirish guruhidan yakuniy qaydnomalar nusxasini oladi;
- musobaqalar davomida tegishli qaydlarni kirita borib, bosh hakam hisobotini tayyorlaydi.

### **Ishtirokchilarning varaqalariga ishlov berish guruhi**

- yakuniy qaydnomalarni bosmadan chiqarish uchun olingan varaqalarga to'la ishlov berish bilan shug'ullanadi;
- ishchi qaydnomalardagi natijalarni ishtirokchilarning shaxsiy varaqalariga ko'chirishni amalga oshiradi;
- ko'rsatilgan natija qaysi razryadga muvofiqligini belgilaydi;
- dasturning ushbu turida ishtirokchi egallagan o'rinni belgilaydi;
- natijani ochkolarda baholaydi (jumladan, rag'batlantiruvchi ochkolarni);
- shamol tezligini ko'rsatadi;
- ishtirokchilarning varaqalarini jamoaviy natijalar guruhiga yetkazadi.

### **Har bir guruhning ish tartibi**

1. Hujjatlarni beruvchi guruh;
  - barcha axborot iste'molchilarini bosmadan chiqarilgan materiallar bilan ta'minlaydi;
  - start qaydnomalarini musobaqalardan kamida 1 soat 30 daqiqa oldin osib qo'yadi;
  - start, oraliq va yakuniy qaydnomalarni quyidagi ro'yxat asosida taqdim etadi:

Start qaydnomalari	Oraliq (davralar bo'yicha) va yakuniy
BHH – GSK	Nazoratchi
Nazoratchi	Musobaqa o'tkazuvchi tashkilot
Musobaqa o'tkazuvchi tashkilot	Tablo
Ishtirokchilar	Axborot
yig'iladigan nazorat punkti	
Peshlavha (namoyish taxtasi)	Matbuot markazi
Start	Jamoalar vakillari
Dispatcher	Vakillar uchun peshlavha (namoyish taxtasi)
Tablo	Ma'lumotlar markazi
Axborot	Kotibiyatning statistika guruhi
Ma'lumotlar markazi	
Jamoalar vakillari	
Matbuot markazi	
Hakamlar guruhi	
Mukofotlash	
Doping-nazorat	
Masofa	
Fotomarra	

## 2. Hakamlar hujjatlarini qabul qilib olish guruhi:

- ishtirokchilarni musobaqalarga qo'yish hay'atidan talabnoma hamda varaqalarni oladi, ularni tekshiradi va qur'a o'tkazish, start hamda ishchi qaydnomalarini bosib chiqarish uchun taxlaydi;

- hakamlar hujjatlarini qabul qilib oladi va ularning to'g'ri to'ldirilganligini tekshiradi.

Kotibiyatga tushgan hujjatlar ushbu jihatlardan tekshiriladi:

A) hakamlar guruhidagi rasmiy shaxslar hamda bosh hakamning ish bo'limlari bo'yicha muovini yoki referi imzolari qo'yilganligi;

B) dasturdagi yugurish turlari bo'yicha start qaydnomalarining mavjudligi;

- namoyish taxtasiga o'tkazilgan musobaqa davralari qaydnomalarining nusxalarini osib qo'yadi.

Kotibiyatning namoyish taxtasi: "musobaqalarning start qaydnomalari", "musobaqa natijalari qaydnomalari", "erkaklar", "ayollar" ko'rsatkichlariga ega bo'lishi lozim. Unda: afisha, musobaqalar o'tkazilayotgan joylar hamda xizmatlarning manzili, musobaqalar jadvali va shartlari, ishtirokchi jamoalar tarkibi, jamoaviy musobaqalarning borishi jadvalini joylashtirish maqsadga muvofiq.

Axborot materiallari osilgan peshlavhalar sportchilar, vakillar hamda tomoshabinlarning tanishishi uchun qulay joylarda tashkil etiladi.

Musobaqalarning navbatdagi davrasi tarkibi musobaqalar o'tkazilayotgan kunlarda tuzilib, ularning start qaydnomalari musobaqa turi boshlanishidan kamida 1 soat avval osib qo'yiladi.

Yakuniy natijalar (ishchi qaydnoma nusxalari) mazkur tur bo'yicha musobaqalar tugagan zahoti osiladi.

Musobaqa rahbariyatining ishtirokchilarga beradigan xabarlarini axborot taxtasiga darhol osib qo'yiladi:

- sport turi bo'yicha musobaqalar tugaganda, ishtirokchilarning varaqalarini statistika va rekordlar guruhiga jo'natadi;

- musobaqalarning navbatdagi davrasi o'tkazilgan hollarda qur'a tashlashga tayyorlanadi va varaqalarni nusxa ko'chirish guruhiga jo'natadi;

- qaydnomalar va boshqa hakamlar hujjatlarini arxivda to'playdi, yakuniy qaydnoma bosib chiqarilganidan so'ng varaqalar ham nusxa ko'chirish guruhidan shu yerga qaytariladi;

- mazkur tur bo'yicha barcha guruh va davralarning materiallarini (qaydnomalar, varaqalar) bir to'pga (podborga) yig'adi.

Guruhlarning kotiblaridan olingan qaydnomalarga ishlov berishda quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

- dasturdagi yugurish turlarida ishtirokchilarning varaqalariga faqat katta hakam va katta vaqt o'lchovchi hakamning marra varaqalaridan yoki fotomarra qaydnomalaridan olingan natijalargina qayd etiladi. Ayni vaqtda ular tomonidan musobaqalarning ishchi qaydnomasida natijalar va ishtirokchilarning yetib kelish tartibi to'g'ri qayd etilganligi tekshiriladi;

- sakrash va uloqtirishlarda – ishchi qaydnomadan natijalarni shaxsiy varaqalarga ko'chirish vaqtida qaydnomaga tegishli belgi qo'yiladi;

- ishtirokchilarning shaxsiy varaqalarini natijalariga ko'ra egallagan o'rinlariga qarab taxlagan vaqtda masofadan chiqib ketgan, diskvalifikatsiya qilingan, musobaqaga kelmagan hamda tanlovdan tashqari ishtirok etganlarning varaqalari oxiriga joylashtiriladi. Masofadan chiqib ketgan, diskvalifikatsiya qilingan, musobaqaga kelmagan hamda tanlovdan tashqari hisoblangan ishtirokchilar jamlovchi qaydnomaga tartib raqami ko'rsatilmagan holda kiritiladi;

- musobaqalarda keyingi davralarning ishtirokchilari yugurish dasturining har bir turida keyingi davraga chiqish shartlariga muvofiq ravishda aniqlanadi. Yarim final va finalda poygalar bo'yicha va yo'lkacha uchun qur'a tashlash albatta o'tkazilishi shart;

- sakrash va uloqtirishlarda malakaviy me'yorlarini bajargan yoki malakaviy musobaqalarda eng yaxshi natija ko'rsatgan 12 nafar sportchi asosiy musobaqalarga qo'yiladi. Asosiy musobaqalarda qur'a tashlashni o'tkazish majburiy hisoblanadi;

- sportchi ko'rsatgan razryad ishtirokchining varaqasida musobaqalarning eng yaxshi natijasi tartibiga ko'ra (musobaqalarning qaysi davrasi ekanligidan qat'iy nazar) qayd etiladi;

- sportchi ko'rsatgan natijani jamoa hisobiga kiritish uchun baholash asosiy musobaqalar bo'yicha o'tkaziladi.

## **I. Dasturdagi yugurish turlarida ishtirokchilarning egallagan o'rinlarni aniqlash**

1. Bir davra musobaqasi o'tkazilganda, egallagan o'rin eng yaxshi natijaga ko'ra aniqlanadi.

2. Bir necha davrali musobaqa o'tkazilganda, mazkur masofada g'olibni hamda sportchilar egallagan o'rinlarni aniqlash, ishtirokchilar musobaqaning dastlabki davralarida ko'rsatgan vaqtdan qat'i nazar, final natijalariga ko'ra amalga oshiriladi. Finalga chiqmagan ishtirokchilar orasida o'rinlar finaldan avvalgi davralarda ko'rsatilgan natijalar bo'yicha taqsimlanadi.

3. Qo'shimcha finallar o'tkazilganida, sportchilarga o'rinlar "A" final natijalari, keyin "B", "V" finali, keyin esa finalchilar tarkibiga kirmagan ishtirokchilar ko'rsatgan natijalarga ko'ra taqsimlanadi.

4. Musobaqaning biror bosqichiga uzrsiz sabab bilan kelmagan sportchi diskvalifikatsiya qilinadi, uning natijasi esa bekor qilinadi. U, shuningdek, boshqa turlar (jumladan, estafetali yugurish) bo'yicha musobaqalarda qatnashishga ham qo'yilmaydi.

5. Uzrli sabab bilan kelmagan sportchi musobaqaning mazkur davrasida oxirgi o'rinni egallaydi.

## **II. Balandlikka va langarcho'p bilan sakrashlarda**

1. O'rinlar asosiy musobaqalarda ko'rsatilgan natijalarga muvofiq taqsimlanadi.

2. Agar balandlikni bir necha sportchi egallagan bo'lsa, u holda bunga eng kam urinish sarflagan sportchiga ustunlik beriladi.

3. Bu ko'rsatkichlar ham bir xil bo'lsa, mazkur musobaqada barcha balandliklarda (so'nggi egallangan balandlikni ham hisobga olganda) muvaffaqiyatsiz urinishlari miqdori eng kam bo'lgan sportchiga ustunlik beriladi.

4. Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar bo'yicha g'olibni aniqlash mumkin bo'lmasa, unda qayta sakrash o'tkaziladi.

5. Qayta sakrash musobaqalarning davomi hisoblanib, qaydnomaga kiritiladi, muayyan shaxsni aniqlash uchun xizmat qiladigan natijalar rekord sifatida

tasdiqlanishi va razryad me'yorlarini bajarish deb inobatga olinishi mumkin. Sakrashlar eng oxirgi (egallanmagan) balandlikdan boshlanadi, bittadan urinish imkoni beriladi. Qaydnomadagi yozuvlarga muvofiq balandliklar ko'tariladi yoki pasaytiriladi. Ishtirokchi asosiy musobaqalarda o'tkazib yuborgan balandliklariga ham sakrashi shart. Boshqa sportchilar egallagan balandlikni ololmagan ishtirokchilar qayta sakrashdan chiqib ketadi. Boshqa sportchilar ololmagan balandlikni egallagan ishtirokchiga birinchi o'rin beriladi. G'olib aniqlanganidan so'ng, qayta sakrash to'xtatiladi va unda ishtirok etgan boshqa sakrovchilarning o'rinlari taqsimlanadi. Birinchi o'ringa da'vo qilmagan ishtirokchilarning ko'rsatkichlari teng bo'lsa ham o'rinlar taqsimlanadi.

### **III. Uloqtirishlar, yadro irqitish, uzunlikka va uch hatlab sakrashlarda**

1. Dasturdagi mazkur turlarning birortasida maydonga chiqadigan sportchilar orasida o'rinlarning taqsimlanishi asosiy hamda final musobaqalarda 6 ta urinishning barchasida ko'rsatilgan natijalarning eng yuqorisi bo'yicha final ishtirokchilari uchun o'tkaziladi. Qolgan barcha ishtirokchilar uchun asosiy musobaqalardagi uch urinishning eng yaxshi natijasi bo'yicha o'tkaziladi. Agar ikki yoki bir necha ishtirokchi bir xil natija ko'rsatgan bo'lsa, u holda o'rinlar bu ishtirokchilarning (asosiy va final musobaqalarda) qolgan urinishlardagi eng yaxshi natijalari bo'yicha taqsimlanadi.

Malakaviy musobaqalarning natijalari asosiy musobaqalarda shaxsiy birinchilikni aniqlashda hisobga olinmaydi. Zaruriyat tug'ilganda, asosiy musobaqalarga qo'yilmagan ishtirokchilar orasida o'rinlar malakaviy musobaqa natijalari bo'yicha taqsimlanadi.

### **IV. Ko'pkurashlarda**

1. Har bir tur bo'yicha ko'rsatilgan natijalar maxsus jadval asosida ochkolarda baholanadi. Yakuniy natijalar mazkur ko'pkurash tarkibiga kiruvchi barcha turlar uchun olingan ochkolar yig'indisiga ko'ra aniqlanadi.

2. Yugurish bo'yicha barcha natijalar yo 0,01 sek aniqlikkacha, yoki (agar fotomarra bo'lmasa) 0,1 sek. aniqlikkacha olinadi.

3. Agar bir necha ko'pkurashchida ochkolar yig'indisi bir xil bo'lsa, ko'pkurashning ko'proq turlari bo'yicha raqibidan oldinda bo'lgan sportchiga ustunlik beriladi. Bu ko'rsatkich ham bir xil bo'lsa, ko'pkurashning biror turi uchun ochkolarda eng yuqori baho olgan sportchi ustunlikka ega bo'ladi.

4. Ko'pkurashning bir turi bo'yicha musobaqaga kelmagan (uzrsiz sabab bilan) ishtirokchi musobaqalardan chiqarib yuboriladi.

5. Nol baho olish ishtirokchini musobaqadan chiqarib yuborish uchun sabab bo'la olmaydi.

#### **V. Jamoaviy natijalar guruhi**

- jamoaviy hisob natijalarini umumlashtirish bilan shug'ullanadi;
- vakillar uchun peshlavhadagi jamoaviy bellashuvlarning borishi jadvalini to'ldirib boradi;
- o'tgan turlardan so'ng jamoalarning holati to'g'risida ma'lumotlar markazi, axborot va tabloga xabar beradi;
- varaqalarni materiallardan nusxa ko'chirish guruhiga yetkazib beradi.

#### **VI. Materiallardan nusxa ko'chirish guruhi**

- musobaqaning barcha davralariga oid start, ishchi, oraliq va yakuniy bayonnomalarini bosib chiqaradi hamda tekshiradi.

Musobaqalarning ishchi bayonnomalari: dasturning yugurish turlari uchun 10 nusxada, sakrash va uloqtirishlar uchun 9 nusxada bosib chiqariladi.

Musobaqa bayonnomalarida quyidagilar ko'rsatiladi:

- musobaqalarning to'liq nomi (nizomga muvofiq);
  - o'tkazilish joyi va vaqti, stadionning nomi;
  - har bir ishtirokchining to'liq familiyasi va ismi, raqami, qaysi jamoaga mansubligi;
  - mazkur tur bo'yicha erishgan rekord natijalari;
  - boshlang'ich va keyingi olgan balandliklari (balandlikka hamda langarcho'p bilan sakrash);
  - shaxsiy (sh) yoki tanlovdan tashqari (tt) ishtiroki to'g'risidagi belgi.
- Musobaqa bayonnomalari papkalarga quyidagi tartibda joylashtiriladi:

- 1 va 2-nusxalar nusxa ko'chiruvchi qog'oz bilan – marraga yoki polevoy hakamlar guruhiga;

- 3-nusxa – axborot uchun;

- 4-nusxa – e'lonlar taxtasiga;

- 5-nusxa – ishtirokchilar qoshidagi hakamlar uchun;

- 6-nusxa – start guruhiga;

- 7-nusxa – stadion tablosi xizmatiga;

- 8-nusxa – shamol tezligini aniqlash xizmatiga;

- 9-nusxa – fotomarraga;

- 10-nusxa – kotibiyatning nazorat papkasiga.

Marraga va sakrash hamda uloqtirishlarning har bir turiga oid papkalarga final musobaqalari blankining 2 nusxasi, nusxa ko'chiruvchi qog'oz, shuningdek, mukofotlash blankining 2 nusxasi solinadi.

Ishchi papkada dastur turi hamda musobaqalarning boshlanish vaqti ko'rsatiladi. Materiallar yo'qotilishining oldini olish va mas'uliyatni oshirish maqsadida materiallarning kimga berilayotganligi, vaqti, hakamlar guruhlaridan kotibiyatga ishchi qaydnomalarning kelib tushish vaqti yozib boriladi.

Materiallardan nusxa ko'chirish guruhi:

- turli xil hakamlik hujjatlarini bosib chiqaradi;

- yakuniy hujjatlarni zarur miqdorda ko'paytiradi (yakuniy qaydnomalar shakli ilovada keltirilgan);

- hujjatlarni taqdim etish guruhiga materiallarni yetkazib beradi;

- ishlov berilgan varaqalarni arxivga jo'natadi.

Materiallardan nusxa ko'chirishda quyidagilarni ko'rsatish zarur:

1) yengil atletikaning ushbu turi stadionda yoki undan tashqarida o'tkazilgani;

2) yigitlar va qizlar guruhlar uchun snaryadlarning og'irligi;

3) baryerlarning balandligi va ular orasidagi masofa;

4) musobaqalar boshlanadigan sana, vaqt, havo namligi, poyganing boshlanishi, final natijalari;



5) sport jamiyatlarining qisqacha belgisi:

- DFSOP – P;
- “Dinamo” – D;
- (“Mehnat rezervlari” - MR);
- markaziy harbiy sport klubi – MXSK.

#### **Ma'lumotlar xizmati**

- kotibiyatda mavjud barcha axborotni jamlaydi;
- kotibiyatning matbuot markazi hamda hakamlar hay'atining boshqa xizmatlari bilan aloqasini amalga oshiradi;
- olingan axborotni manfaatdor xizmatlarga yetkazib beradi (axborot xizmati, tablo, mukofotlash guruhi va b.);
- manfaatdor tomonlarning so'rovlariga kotibiyat vakolatiga oid bo'lgan masalalar bo'yicha javob beradi:
  - a) dasturning har bir turida musobaqa natijalari;
  - b) shikoyatnomalar va ularni ko'rib chiqish natijalari;
  - v) musobaqa rahbariyatining farmoyish va axborotlari va h.k.

#### **Kotibiyat dispetcheri**

- kotibiyat ichida hujjatlarning ishlanishi va harakatini nazorat qilib boradi;
- materiallarni chiqarish xizmatiga rahbarlik qiladi.

Yengil atletika bo'yicha musobaqalar kotibiyati faoliyati uchun zarur bo'lgan kanselyariya mollarining taxminiy ro'yxati:

1. Karton teztikkichlar.
2. Devonxona plastik papkalari.
3. Devonxona karton papkalari.
4. Yakuniy qaydnomalar uchun sifatli papkalar.
5. Kartondan yasalgan jamlovchi qaydlov papkalari (registratura).
6. Katta xatjildlar (1/2).
7. V-5 xatjildlar (1/4).
8. Kattalashtirilgan xatjildlar (1/4).
9. Kichik bloknotlar.

10. Qora qalamlar.
11. Rangli qalamlar.
12. Sharikli ruchkalar.
13. Sharikli ruchkalar sterjenlari: qora, ko'k, qizil, yashil.
14. Flomasterlar: qora, ko'k, qizil, yashil.
15. Flomasterlar to'plami.
16. Har xil tushlar.
17. Muhr bo'yog'i.
18. Muhr yostiqlashi.
19. 0 dan 9 gacha raqamlarning shtamp to'plamlari.
20. Flyuid.
21. Flyuid uchun eritma.
22. Avtoruchkalar.
23. Avtoruchka uchun siyoh.
24. Qog'oz tikkich.
25. Qog'oz tikish uchun qistirgich.
26. Qog'oz teshish moslamasi.
27. Qalam ochish uchun mexanik moslama.
28. Devonxona qisqichi (№3).
29. Katta devonxona qisqichi.
30. Knopkalar.
31. Kichik to'g'nog'ichlar.
32. Mikroalkulyatorlar.
33. Qaychi.
34. Qog'oz yelimi.
35. Yelim uchun mo'yqalam.
36. Yelimli qalamlar.
37. Yopishqoq tasmalar: - shaffof; - rangli.
38. Chizg'ich: - 30 sm; - 50 sm; - 100 sm.
39. Burchak chizg'ichlar.

40. Devonxona gubkasi.
41. Oddiy o'chirg'ichlar.
42. Plakat perolari.
43. Mumqog'oz.
44. Qog'oz keskich.
45. Raqam uruvchi mashina.
46. Rotoprint bo'yog'i.
47. Rassomchilik guashi.
48. Bo'r.
49. Magnitli mixcha.
50. Xato to'g'rilovchi "shtrix".
51. Rezinali naplechnik.
52. Piska.
53. Yuqori sifatli yozuv qog'ozi.
54. Nusxa ko'chirish texnikasi uchun qog'oz.
55. Vatman qog'ozi.
56. E'lonlar uchun plakat qog'ozi.
57. Nusxa ko'chirish uchun qog'oz.
58. Yupqa qog'oz.

### **Hakamlik hujjatlari blankalari**

Yengil atletika musobaqalarida 50 turga yaqin blanklardan foydalaniladi, lekin buncha miqdordagi blanklar faqat eng yuqori darajadagi musobaqalar uchun kerak.

Hakamlik blanklari o'z vazifasiga ko'ra guruhlarga bo'linadi.

#### Talabnoma hujjatlar:

- talabnoma (erkaklar va ayollar uchun alohida);
- ishtirokchi varaqasi (umumiy, o'ntkurash uchun, yettikurash uchun, estafeta jamoasi uchun);
- ishtirokchi so'rovnomasi, jamoa tarkibi haqida so'rovnoma – ma'lumotnoma.

### Yugurish va sportcha yurish uchun hujjatlar:

- umumiy qaydnoma;
- final qaydnomasi;
- marra qaydnomasi;
- vaqt o'lchovchi qaydnomasi;
- fotomarra qaydnomasi;
- oraliq vaqt qaydnomasi;
- davralar bo'yicha yugurish qaydnomasi;
- masofadagi hakam qaydnomasi;
- sportcha yurish bo'yicha qaydnoma (hakamlik yozuvlari, jamlovchi qaydnoma, uslub bo'yicha hakam qaydnomasi);
- marafoncha yugurish va sportcha yurish trassasida ovqatlanish joyini tashkil etish uchun talabnoma.

### Sakrash va uloqtirishlar uchun hujjatlar:

- uzunlikka va uch hatlab sakrash bo'yicha 6 ta urinishga, shuningdek, uloqtirishlar uchun musobaqa qaydnomalari;
- balandlikka va langarcho'p bilan sakrashlar bo'yicha musobaqa qaydnomasi;

### Yordamchi hujjatlar:

- qo'shimcha talabnoma – qayta talabnoma blanklari;
- boshlang'ich balandliklar haqida ma'lumotlar;
- shamol tezligini o'lchash qaydnomasi;
- hakamlarning tayinlanish qog'ozi;
- musobaqa g'oliblari va sovrindorlari to'g'risida ma'lumotlar;
- rekordlarni qayd etish dalolatnomalari blanklari;
- sportchilar uchun ko'rsatilgan natijalar haqida ma'lumotlar.

### **Ishtirokchilarning raqamlari**

Raqam berishning bir necha tizimi mavjud:

- raqam ketma-ket beriladi;

- raqamlar dasturdagi alohida turlar yoki turlarning guruhlari bo'yicha berilib, bu turlarning qo'shilishi amalda hech qachon yuz bermaydi;

- raqamlar ishtirokchilar guruhlari bo'yicha beriladi (masalan, ommaviy krosslarda – poygalar bo'yicha).

Ayrim tashkilotlarda ishtirokchilarga (yoki jamoalarga) butun mavsum uchun o'zgarmas raqamlar beriladi.

### **Kotibiyat uchun xonalar va ularning jihozlanishi**

Kotibiyat uchun yorug' va yetarlicha keng xona ajratilishi zarur, u marraga hamda musobaqa o'tkazilayotgan boshqa joylarga yaqin bo'lgani ma'qul.

Mebellarni shunday joylashtirish kerakki, kotib-hakamlarning har biri uchun alohida hududlar ajratilsin. Kompyuterlar va nusxa ko'chirish texnikasi alohida yoki natijalarga ishlov berayotgan hakamlardan chekkaroqqa o'rnatiladi.

Imkon bo'lsa, bosh kotibga ayrim xona beriladi yoki umumiy xonadan alohida joy ajratiladi, chunki u boshqa kotiblarga halal bermagan holda jamoalar vakillari bilan ishlay olishi lozim. Hujjatlarning harakatini kamaytirish, keragidan ortiq yurishlarga yo'l qo'ymaslik uchun kotiblar ish sxemasiga muvofiq o'rinlarni egallashi zarur. Kotibiyatni uning ishiga aloqador bo'lmagan shaxslar va hakamlardan chegaralab qo'yish kerak, buning uchun boshqa xizmatlarni ham xonalar bilan ta'minlash lozim. Kotibiyat xonasiga kirish joyi ikkita bo'lgani ma'qul (ba'zan bu sun'iy ravishda amalga oshiriladi): hakamlar guruhlari kotiblari uchun – kirish oldida hakamlik hujjatlarini beruvchi yoki qabul qilib oluvchi kotib o'tiradi (uning o'zi ma'lumotlar bo'yicha kotib vazifasini bajarida) hamda jamoalarning vakillari uchun – kirish oldida bosh kotib yoki uning muovini joylashadi.

### **Talabnomalarni qabul qilish va ularga ishlov berish**

Musobaqaoldi davrida butun dastlabki tayyorgarlik ishlari tugab, bevosita mazkur musobaqa hujjatlari bilan ishlash boshlanadi.

Bosh kotib ish tartibini tuzib, talabnomalarni qabul qilishdan to musobaqa haqida hisobotni chiqarguncha bo'lgan davrda kotibiyatda ishlash uchun ajratilgan har bir hakamga ish joyini belgilab beradi.

Kotib hakamlarni ikkita asosiy ish uchastkasiga taqsimlash zarur: talabnomalarni qabul qilish va musobaqaning ishchi hujjatlarini tayyorlash.

Tayyorgarlik ishlari musobaqaning barcha kotib hakamlariga ko'rsatmalar berish, ularga kotibiyat tanlagan ish tartibining xususiyatlarini, shuningdek, butun hakamlar hay'atining ishlash texnologiyasini tushuntirishni o'z ichiga oladi. Bunda har bir hakam o'z vazifasi hamda hujjatlar almashinuvi jadvalini – kimdan qanday hujjatlar olishini, ular bilan nima qilishini, kimga yetkazib berishini, qanday yangi hujjatlar tayyorlashi va h.k.ni bilishiga ishonch hosil qilish kerak.

Talabnomalarni qabul qilish va ularga ishlov berish – kotibiyatning kelajak faoliyatidagi eng mas'uliyatli amallardan biri. Bu vaqtda ishning xususiyati uni amalga oshirish jadvaliga mos bo'lishi lozim.

Uning o'ziga xos jihati – ishtirokchilarni musobaqalarga kiritish uchun mas'ul bo'lgan hay'at, kotibiyat hamda xo'jalik ta'minoti xizmati faoliyatining bir vaqtda olib borilishidir.

Barcha guruhlarining bir xonada joylashuvi jamoalar vakillariga o'z jamoalarining mazkur bellashuvda ishtirok etishini tez rasmiylashtirish imkonini beradi.

Eslatma: Xalqaro musobaqalar o'tkazilganda, talabnomalar faks orqali yuboriladi. Bunda kotibiyat talabnomani vakil bilan tekshiradi, zarur bo'lsa, unga o'zgarish kiritadi va ishtirokchilarga raqamlarini beradi. Barcha jamoalarning talabnomalari sharti bilan kechki kengashga butun dastur bo'yicha start qaydnomalari tayyorlanadi.

Bosh kotib talabnomani qabul qilayotganda uning musobaqalar Nizomiga muvofiq rasmiylashtirilishini talab qilishi shart. Ayni vaqtda kotibiyatga ishtirokchilarning to'ldirilgan varaqalari topshiriladi. Har bir varaqadagi "Talabnoma" ustunida sportchining dasturda mavjud muayyan nomerda shu mavsumda ko'rsatgan eng yaxshi natijasi qayd etiladi (ayniqsa, yugurishda mazkur natijaning qayd etilmaganligi qur'a ta'sir o'tkazishi mumkin).

Talabnomalarga ishlov berilgach, ular papkaga tikiladi, varaqalar dastur nomerlari bo'yicha taxlanadi va musobaqaning ishchi hujjatlarini tayyorlash uchun taqdim etiladi.

Ishtirokchilar chiqishlarining ketma-ketltgt yengil atletika bo'yicha musobaqa o'tkazish xalqaro qoidalariga muvofiq aniqlanadi (Qoidalariga q.).

### **Musobaqa hujjatlarini tayyorlash va nashr etish**

Musobaqaning barcha hujjatlari shartli ravishda uch guruhga bo'linadi:

- musobaqalarga qadar;
- musobaqalar vaqtida;
- musobaqalardan keyin bosib chiqariladigan hujjatlar.

Ko'pgina hujjatlarni tayyorlash uchun ishtirokchining varaqasi asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Ishda qulaylik yaratish uchun varaqalar dastur nomerlariga qarab xatjildlarga joylanadi va har birining ustiga dastur turi, jinsi, rekordlari, razryad me'yorlari, keyingi davraga chiqish shartlari; mazkur turda ishtirokchilar soni, start vaqti yozib qo'yiladi.

Ishchi qaydnomalar hakamlik blanklariga bosib chiqariladi va ularda mazkur davra to'g'risidagi ma'lumotlar – musobaqalarning nomi va dastur nomeri, musobaqaning boshlanish vaqti, o'tkazilish joyi, rekordlar, malakaviy me'yorlar hamda sportchilarning poyga (guruhlar, seriyalar, joylar) bo'yicha ro'yxatlari albatta ularning qur'a bo'yicha chiqish ketma-ketligiga ko'ra yoziladi.

Ishchi qaydnomalarining nusxasi start qaydnomalari o'rnida ishlatilishi mumkin.

Kotibiyat tomonidan chiqariladigan start qaydnomalari miqdori (adadi) quyidagicha aniqlanadi:

- |                        |  |
|------------------------|--|
| Ma'muriyat             | – rasmiy shaxslar va mehmonlar soniga ko'ra;   |
| Ishtirokchi jamoalarga | – vakillar orqali bir nusxadan chiqarilib, umumiy foydalanish uchun e'lonlar taxtasiga osib qo'yiladi; |
| Matbuot uchun          | – matbuot markaziga barcha hujjatlar 1-2 nusxadan jo'natiladi;   |

Hakamlar hay'atiga – papkalarga joylanib, guruh va xizmatlarning nomi yozib qo'yiladi.

Ishchi hujjatlarning to'plamlari:

- musobaqa Reglamenti;
- musobaqa jadvali;
- toza qog'oz varaqlari;
- ishchi qaydnomalar (taxminiy miqdori – yugurish turlariga – 9, texnik turlar – 7).

Ishchi qaydnomalardan tashqari hakamlar guruhlari papkalariga hakamlik blanklari ham joylanadiki, ular musobaqa o'tkazish uchun zarur hisoblanadi.

Masalan, marradagi hakamlar guruhi uchun:

- marradagi katta hakam qaydnomalari;
- katta vaqt o'lchovchi qaydnomalari;
- davralar bo'yicha yugurish va oraliq vaqt hakamlari qaydnomalari;
- masofadagi hakamlarning yozuvlari blanklari joylanadi.

Sportcha yurish bo'yicha hakamlar uchun – yurish bo'yicha hakamlar yozuvlari, jamlovchi qaydnoma, uslub bo'yicha hakam qaydnomasi va h.k. blanklar taxlanadi.

Agar ishtirokchilarning varaqalariga natijalar hakamlar guruhlari kotiblari tomonidan yozilsa, u holda papkalarga varaqali xatjildlar ham joylanadi, bunda guruhdagi kotiblar soni bir nafar hakamga ko'paytiriladi.

Papkalarining taxminiy miqdori va ularning kimlar uchun tayyorlanishi:

- ishtirokchilar qoshidagi hakam;
- startyor;
- marra;
- axborot;
- fotomarra;
- tablo;
- shamol tezligini o'lchash;
- sakrashlar: uzunlikka, uch hatlab, langarcho'p bilan, balandlikka;



– uloqtirishlar: yadro, disk, nayza, bosqon.

Har qanday darajadagi musobaqada kotibiyat e’lonlar taxtasini o’rnatishi lozim.

E’lonlar taxtasi vakillar va sportchilar ko’rishi mumkin bo’lgan joylarda (masalan, ishtirokchilar yig’iladigan joyda va kotibiyat yaqinida) o’rnatiladi.

Start qaydnomalari va natijalarni alohida joylashtirish maqsadga muvofiq. Jamoalarga oid ma’lumotlarni Nizom, Reglament, jadval bilan bir taxtaga joylashtirgan ma’qul.

### **Musobaqalarni o’tkazish**

#### **Hakamlar guruhlarini kotiblarining vazifa majburiyatlari**

Hakamlar guruhlarining barcha kotiblari kotibiyat tarkibiga kiradilar, lekin o’z hakamlar guruhini ishlayotgan vaqtda guruhning bosh hakamiga bo’ysunadilar. Ularning vazifasi rasmiy ish qaydnomasini to’g’ri va to’la shakllantirish, ishchi va boshqa materiallarni kotibiyatga va boshqa xizmatlarga bosh kotib ko’rsatmalariga muvofiq ravishda o’z vaqtida yetkazishdan iborat.

Qaydnomalarni sharikli ruchka bilan aniq, ravon yozuvda to’ldirish zarur. Barcha holatlarda hisobga olinmagan urinish “X” belgisi bilan ko’rsatiladi;

- urinish o’tkazib yuborilsa, chiziq “\_\_\_\_\_”;
- ishtirokchi startga kelmasa “kelmadi”;
- balandlik egallansa, “O” belgisi qo’yiladi.

Qaydnomada natijalar quyidagi tartibda yoziladi:

- yugurish natijasi (10000 m masofagacha) avtomatlashtirilgan elektron apparatlarida foydalanilganda, 0.01 sek.gacha aniqlashtiriladi: 10.14, 20.02, 48.11, 4:9.18;

- 10.000 m.dan yuqori masofalarda 0.1 sek.gacha yaxlitlanadi. Masalan: 59:26.32 – 59:26.4 deb yoziladi.

To’laligicha yoki qisman stadiondan tashqarida o’tkaziladigan 5000 m va undan yuqori masofalarga yugurish musobaqalarida vaqt keyingi katta to’la sekundgacha aniqlikda qayd qilinadi. Masalan: 2:09:44.32 – 2:09:45.

Uloqtirishlarda natija kamaytirish tomon 1 sm.gacha yaxshilab yoziladi –

60.23.

Sakrashlarda yozuv quyidagicha amalga oshiriladi: 7,63; 2.23; 5.55.

Agar ishtirokchi natijasi qaydnomaga yozilganidek keyin diskvalifikatsiya qilinsa (masalan, yugurishda – yo'lkachadan chiqib ketganligi, estafetani noto'g'ri uzatganligi uchun), u holda uning natijasi qaydnomadan o'chiriladi, yoniga dasturning mazkur nomeri bosh hakami imzo qo'yadi va diskvalifikatsiya qilish sababi yoziladi. Ishchi qaydnomada tuzatishga imkon qadar yo'l qo'yilmaydi, lekin zarurat tug'ilganda, ilgarigi natija o'chirilib, yangisini qayd etish orqali o'zgarish kiritish mumkin (u kotib imzosi bilan tasdiqlanadi).

Dasturning mazkur nomeri tugagach, ishchi qaydnoma bosh hakam, kotib va guruhning boshqa hakamlari, referi tomonidan imzolanadi.

Rekord natija ko'rsatilganida, hakamlar guruhi kotibi rekord blankining to'g'ri to'ldirilishini va uning mazkur musobaqani o'tkazgan guruhning barcha hakamlari tomonidan imzolanishini ta'minlashi lozim.

Musobaqa (yoki navbatdagi davra) tugagach, marradagi kotiblar hakamlarning barcha hujjatlarini kotibiyatga yetkazadilar. Bular:

- hakamlarning yozuvlari;
- masofadagi katta hakamning qaydnomalari;
- shamol tezligini o'lchash qaydnomalari (keyin ishchi qaydnomaga har bir poygada shamol tezligining qiymati kiritib boriladi);
- oraliq marrani qayd etish va h.k.

Uzunlikka va uch hatlab sakrash bo'yicha musobaqa o'tkazayotgan guruh kotiblari o'z musobaqalari tugaganidan so'ng kotibiyatga shamol tezligini o'lchash qaydnomalarini topshirishlari shart.

Ko'pkurashlar bo'yicha kotiblar o'z ko'pkurashchilari guruhini musobaqa o'tkazilayotgan joylarning hammmasiga kuzatib boradilar, har bir tur yakunlanganidan so'ng bellashuvlarning borishi to'g'risidagi ma'lumotlarni axborot guruhiga jo'natadilar.

## **Musobaqalar davomida kotibiyatning ish tartibi**

Musobaqalar boshlanishidan avval har kuni e'lonlar taxtasiga mazkur smena uchun qaydnomalar va jadval osiladi.

Qur'a tashlash boshlanguniga qadar vakillar tomonidan talabnomalarga kiritilgan o'zgarishlar aniqlik kiritish deb qaralishi lozim.

Agar Nizom talablari buzilmagan bo'lsa, u holda qo'shimcha talabnomalar "qayta" talabnomalar qabul qilinadi, ishchi qaydnomalarga o'zgarishlar kiritiladi.

**NA'MUNA**

**"TASDIQLAYMAN"**

O'zbekiston Respublikasi  
Jismoniy tarbiya va sport  
vazirining birinchi o'rinbosari  
«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_y.

## **2006-2007 yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida yopiq binoda yengil atletika bo'yicha O'zbekiston Kubogi va O'zbekiston Respublikasi birinchiligi to'g'risida NIZOM**

### **I. Maqsad va vazifalari.**

- O'zbekiston Respublikasi xududlarida yengil atletika holatini aniqlash.
- Xalqaro musobaqalarda qatnashish uchun O'zbekiston Respublikasi terma jamoasini shakllantirishga kuchli sportchilarni saralab olish.

### **II. O'tkaziladigan joyi va vaqti.**

Musobaqa 2018 yil 3-4 fevral kunlari Toshkent shahridagi Olimpiya zahirolari kollejining majmuasida o'tkaziladi. Yetib kelish kuni – 2 fevral.

### **III. Musobaqani o'tkazishga rahbarlik.**

Musobaqaga tayyorgarlik va o'tkazishga rahbarlik O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, O'zbekiston Yengil atletika federastiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Musobaqani o'tkazish bevosita Respublika hakamlar hay'ati zimmasidadir.

### **IV. Musobaqa qatnashchilari va ishtirok etuvchi tashkilotlar.**

Musobaqada Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari va Toshkent shahri terma jamoalari qatnashadi. Birinchi guruh

jamoalari tarkibi (Toshkent shaxridan 2 jamoa, Toshkent, Samarqand, Andijon, Farg'ona viloyati) – 20 kishi, shu jumladan, 17 nafar sportchi, vakil, 2 nafar murabbiy (trener); ikkinchi guruh (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo, Buxoro, Sirdaryo, Namangan, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Xorazm viloyatlari) – 12 kishi, shu jumladan, 10 nafar sportchi, vakil va murabbiy. Toshkent shahri jamoa birinchilgisiz (sportchilar shaxsiy birinchilikda qatnashadi) uchinchi jamoani tashkil etadi. Qatnashchilar 2006-yilda tug'ilganlar va undan kattalardir.

Shaxsiy birinchilikka O'zbekiston terma jamoasi a'zolari (asosiy tarkib, stajyorlar), shuningdek, 1-razryaddan kam bo'lmagan sport tayyorgarligiga ega bo'lgan sportchilar kiritiladi. Sportchilarga shaxsiy birinchilikda qatnashish ruxsatnomasi O'zbekiston yengil atletika Federastiyasi tomonidan hal etiladi.

Olimpiya zahirolari kolleji o'quvchilari o'zlari kelgan xududdan ishtirok etishadi.

#### **V. Musobaqa dasturi.**

Erkaklar va o'smirlar: 60, 200, 400, 800, 1500, 3000, 5000 m.ga yugurish; 60 m.ga to'siqlar (barerlar) osha yugurish, uzunlikka, balandlikka, uch xatlab, langarcho'p bilan sakrash, yadro uloqtirish, 5 km.ga yugurish.

Ayollar va o'smir qizlar: 60, 200, 400, 800, 1500, 3000, 5000 m.ga yugurish; 60 m.ga to'siqlar (barerlar) osha yugurish, uzunlikka, balandlikka, uch xatlab, langarcho'p bilan sakrash.

#### **VI. Shaxsiy va jamoa birinchiligini aniqlash tartibi.**

Dasturning har bir turiga ikki sportchi tavsiya etilishi mumkin. Har bir sportchi dasturning ikki turi bo'yicha qatnashishi mumkin. O'zbekiston Kubogi dasturida shaxsiy birinchilik har bir turdagi yuqori sport natijalariga ko'ra aniqlanadi.

O'smirlar ichida shaxsiy birinchilik 2006-2007 yillarda tug'ilgan sportchilar orasida o'ynaladi. O'smirlar o'rtasida o'rinlar musobaqaning barcha ishtirokchilari orasida egallagan yuqori joyiga qarab aniqlanadi.

Jamoa birinchiligi qatnashchilar jamlagan ochkolar soniga qarab aniqlanadi. Jamoa birinchiligi hisobiga quyidagilar kiradi:

Birinchi guruh bo'yicha – 22 yaxshi natija;

Ikkinchi guruh bo'yicha – 10 yaxshi natija.

Ochkolar hisobi IAAFning yopiq inshootlar uchun 2003-yildagi natijalar jadvali bo'yicha amalga oshiriladi.

Rag'batlantiruvchi ochkolar jamoaga XTSU me'yorini bajargani uchun 500, SU uchun 300 ochko tarzida qo'yiladi.

### **VII. Mukofotlash.**

O'zbekiston Kubogi dasturining barcha turlari va o'smirlar o'rtasida O'zbekiston Respublikasi birinchiligi g'oliblari O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligining sovg'a va birinchi darajali diplomi bilan taqdirlanadi. O'smirlar o'rtasida O'zbekiston birinchiligi g'oliblariga O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligining birinchi darajali diplomi beriladi. 2 va 3 o'rinni egallagan sportchilar Vazirlikning muayyan darajadagi diplomi bilan taqdirlanadi.

### **VIII. Ishtirokchilar va tashkilotlarni qabul qilish shartlari.**

O'zbekiston Kubogi va 2006-2007 yillarda tug'ilgan yigitlar o'rtasida O'zbekiston Respublikasi birinchiligi qatnashchilari, jamoa vakillari va trenerlarning (murabbiy) safar bo'yicha xarajatlari (yo'l haqqi, kunlik to'lov, maoshni saqlash, ovqatlanish) safarga jo'natgan tashkilot xisobidan qoplanadi.

Musobaqani tashkil etish va o'tkazish bo'yicha xarajatlarni (musobaqaga xakamlarni chaqirish va jo'natish, ovqatlantirish, xakamlar uchun to'lov, sport baza ijarasi, mukofotlash) Jismoniy tarbiya va sport vazirligi zimmasiga oladi. Malakasini oshirishga da'vogar hakamlar safarga jo'natayotgan tashkilot tomonidan musobaqa hakamligiga yuborilishi mumkin.

### **IX. Talabnomalarni yetkazish vaqti va sharti.**

Musobaqa qatnashchilariga ruxsatnoma berish bo'yicha mandat xay'ati

---

o'tkaziladi. (qayerda, qachon, manzili va telefonlari)

Jamoa vakillari mandat hay'atiga quyidagi hujjatlar taqdim etadi:

- tegishli sport qo'mitasi rahbari va shifokori (shaxsiy birinchilikda qatnashayotgan sportchilarga ham) tomonidan tasdiqlangan ariza (zayavka);

- muayyan tur bo'yicha qatnashayotgan sportchiga kartochka (belgilangan o'lchov va barcha jadvalni to'ldirish asnosida);

- jamoa qatnashchilari, shu jumladan, shaxsiy birinchilikdagi sportchilarning pasportlarini ko'rsatish (xarbiy xizmatchilar mustasno).

Shaxsiy birinchilikda qatnashuvchi sportchilarning arizasi ishtirokchi rasmiy vakillari tomonidan beriladi.

Ishtirokchilar, shu jumladan shaxsiy birinchilikdagilar 2001-yilda O'zbekiston Yengil atletika Federatsiyasi tashkilotlariga birlashtirilgan raqamlarda qatnashadi.

**Yengil atletika musobaqalarida qatnashish uchun**

**TALABNOMA**

I.O.	Ishtirokchi №	Tug'ilgan yili	Toifa	Shahar, KSJ	Yugurish, m					Yurish, km		Sakrashlar				Uloqtirishlar				Ko'pku rash	Shifokor ruxsati va muxri			
					60	100	200	400	va x.k.	30	50	balandlikka	uzoqlikka	langarcho'p b-n	uch xatlab	yadro	disk	nayza	bosqon					

Tashkilot vakili \_\_\_\_\_ ( )

Musobaqaga \_\_\_\_\_ qatnashchi qo'yildi.

Jamoa sardori \_\_\_\_\_ ( )

Mandat hay'ati raisi \_\_\_\_\_

Tashkilotning M.O'.

«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 20 \_\_ y.

Shifokorning M.O'.

Tashkilot rahbari \_\_\_\_\_ ( )

Shifokor \_\_\_\_\_ ( )

Eslatma: barcha yugurish turlari bo'yicha musobaqalarda qatnashchining eng yaxshi ko'rsatkichlari ko'rsatilishi kerak.

**O'ZBEKISTON YENGIL ATLETIKA FEDERATSIYASI**  
**ISHTIROKCHI VARAQASI**

Yengil atletika turi \_\_\_\_\_

Jinsi \_\_\_\_\_

Ishtirokchi № \_\_\_\_\_

Ismi, sharifi \_\_\_\_\_

tug'ilgan sana, yil \_\_\_\_\_

bo'yi, vazni \_\_\_\_\_

ko'rsatilgan tur  
bo'yicha razryadi \_\_\_\_\_

Mamlakat, shahar \_\_\_\_\_

JTSJ \_\_\_\_\_

BO'SM, OO'BO'SM, OSMM, OK \_\_\_\_\_

Murabbiyning ismi, sharifi \_\_\_\_\_

Eng yuqori natija \_\_\_\_\_

Sana	Musobaqa turi	Natija	Razryad	O'rin	Ochko

**O'ZBEKISTON YENGIL ATLETIKA FEDERATSIYASI**  
**JAMOAVIY HISOBNING BAYONNOMASI**

Musobaqaning turi, o'tkazilish sanasi \_\_\_\_\_

Jamoa \_\_\_\_\_

Qatnashchining ismi, sharifi	Tur	Natija	Razryad	O'rin	Ochko

Jami ochkolar \_\_\_\_\_

egallagan o'rni \_\_\_\_\_

Kotib \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_)  
(imzo) (ismi, sharifi)

Musobaqa natijalari bilan roziman, jamoa vakili \_\_\_\_\_  
(imzo) (ismi, sharifi)



# O'ZBEKISTON YENGIL ATLETIKA FEDERATSIYASI

**Jamoalar qatnashchilarini musobaqaga qo'yish bo'yicha mandat hay'atining**

## BAYONNOMASI

\_\_\_\_\_

**jamoaning nomi**

\_\_\_\_\_

**musobaqaning nomi**

№	Qatnashchining ismi, sharifi	Tug'ilgan sanasi, pasporti, (metrikasi), seriyasi va raqami	Sport unvoni	Viloyat, shahar, sport tashkiloti	Uy manzili	O'qish joyi	Sport maktabi	Murabbiyning ismi, sharifi
1								
2								
3								
4								
5								

**Jamoa vakili** \_\_\_\_\_

(imzo)

\_\_\_\_\_

(ismi, sharifi)

**Musobaqaga** \_\_\_\_\_ **odam qo'yildi**

**Mandat hay'atining raisi** \_\_\_\_\_

**Mandat hay'atining a'zolari** \_\_\_\_\_

# O'ZBEKISTON YENGIL ATLETIKA FEDERATSIYASI

## Yengil atletika bo'yicha musobaqalar

### BAYONNOMASI

#### Yengil atletika turi

Stadion, manej \_\_\_\_\_ o'tkazish sanasi \_\_\_\_\_ boshlanishi

Tur \_\_\_\_\_ uchun

№	Ismi, sharifi (to'liq)	Tug'ilgan yili	Jamoa	Ishtirokchi №	1	2	3	Eng yaxshi natija	O'rin

Marradagi katta hakam \_\_\_\_\_

Katta vaqt o'lchovchi \_\_\_\_\_

Kotib \_\_\_\_\_

### FOTOMARRA BAYONNOMASI

Plenka shifri \_\_\_\_\_

Oraliq \_\_\_\_\_

Poyga \_\_\_\_\_

Yosh guruhi \_\_\_\_\_

Varaq \_\_\_\_\_

Marra tartibi	Yo'lkacha raqami	Ishtirokchi raqami	Natija
1			
2			
3			
4			
5			

Katta hakam \_\_\_\_\_

Kotib \_\_\_\_\_

## Shamol yo'nalishi va tezligini o'lchash

### BAYONNOMASI

Oraliq \_\_\_\_\_

Aylana \_\_\_\_\_

Yosh guruhi \_\_\_\_\_

Varaq \_\_\_\_\_

Poyga raqami	Yugurish yo'nalishi bo'yicha shamol tezligining o'rtacha ko'rsatkichi, m/s	Shamol yo'nalishining yo'lkachaga nisbatan burchagi, daraja

Hakam imzosi \_\_\_\_\_

« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 20\_\_ y.

### BAYONNOMA

Marradagi katta hakam

Katta vaqt o'lchovchi hakam

Oraliq \_\_\_\_\_ m

Poyga № \_\_\_\_\_

Kelish tartibi	Ishtirokchi №	Sekundomer ko'rsatkichi	Izoh
1			
2			
3			
4			

Katta hakam \_\_\_\_\_

**O'ZBEKISTON YENGIL ATLETIKA FEDERATSIYASI**  
**BAYONNOMA**

**Musobaqaning nomi**

**Shahar** \_\_\_\_\_ **Stadion (manej)** \_\_\_\_\_ **Sana** « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_  
**20**\_\_y.

**Tur** \_\_\_\_\_ **Boshlanishi** \_\_\_\_\_

№	Ismi, sharifi	Tug'ilgan yili	Ishtirokchi №	Shaxar, JTJ	1-urinish		2-urinish	3-urinish	3 urinish-ning eng yaxshi natijasi		4-urinish		5-urinish	6-urinish		6 urinish-ning eng yaxshi natijasi	Egal-lagan o'rni
					m	sm			m	sm	m	sm		m	sm		

**Katta hakam** \_\_\_\_\_ ( ) **Kotib** \_\_\_\_\_ ( ) **Referi** \_\_\_\_\_ ( )

**O'ZBEKISTON YENGIL ATLETIKA FEDERATSIYASI**  
**BAYONNOMA**

**Musobaqaning nomi**

**Shahar** \_\_\_\_\_ **Stadion (manej)** \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ **Sana** « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ **20**\_\_y.

**Tur** \_\_\_\_\_ **Boshlanishi** \_\_\_\_\_

№	Ismi, sharifi	Tug'ilgan yili	Ishtirokchi №	Shahar, JTJ (jamo)													Natija	O'rin

**Katta hakam** \_\_\_\_\_ ( ) **Kotib** \_\_\_\_\_ ( ) **Referi** \_\_\_\_\_ ( )

**O'ZBEKISTON YENGIL ATLETIKA FEDERATSIYASI**

**Mukofot topshiruvchining ismi, sharifi, lavozimi, unvoni**  
**MUSOBAQA G'OLIBLARI VA SOVRINDORLARINI MUKOFOTLAYDI**

<b>Tur</b>	<b>O'rin</b>	<b>Nima bilan mukofotlanadi</b>	<b>Ismi, sharifi</b>	<b>Natija</b>	<b>Shahar, viloyat</b>	<b>JTJ</b>	<b>Murabbiyning ismi, sharifi va unvoni</b>
	1						
	2						
	3						
	1						
	2						
	3						

Mukofotlash bo'yicha katta hakam \_\_\_\_\_ ( )

imzo ismi, sharifi

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JISMONIY TARBIYA VA SPORT**  
**VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON YENGIL ATLETIKA FEDERATSIYASI**

**Musobaqa bayonnomalaridan**

**KO'CHIRMA**

\_\_\_\_\_ musobaqaning nomi

O'tkazilgan sanasi \_\_\_\_\_ O'tkazilgan joyi \_\_\_\_\_

<b>№</b>	<b>Ismi, sharifi</b>	<b>Turi</b>	<b>Natija</b>	<b>Egallagan o'rni</b>
1				
2				
3				
h.k.				

Musobaqa menejeri: \_\_\_\_\_ toifali hakam \_\_\_\_\_

ismi, sharifi

Musobaqaning bosh kotibi \_\_\_\_\_ toifali hakam \_\_\_\_\_

ismi, sharifi

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JISMONIY TARBIYA VA SPORT  
VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON YENGIL ATLETIKA FEDERATSIYASI  
MA'LUMOTNOMA**

**Ushbu ma'lumotnoma**

---

\_\_\_\_\_ ga  
shu haqda berildiki, u « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 20\_\_ yilda \_\_\_\_\_

shahrida

o'tkazilgan

musobaqada \_\_\_\_\_

---

(musobaqaning nomi)

haqiqatan ham \_\_\_\_\_  
natijani ko'rsatdi va mazkur natija O'zbekiston Respublikasi sport  
klassifikatsiyasi me'yorlariga mos keladi. Ma'lumotnoma talab qilingan joyga  
ko'rsatish uchun berildi.

**Musobaqa menejeri, \_\_\_\_\_ toifadagi hakam \_\_\_\_\_**

**Musobaqaning bosh kotibi, \_\_\_\_\_ toifadagi hakam \_\_\_\_\_**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JISMONIY TARBIYA VA SPORT  
ISHLARI VAZIRLIGI**

O'zbekiston Respublikasi sportchilarining \_\_\_\_\_

qatnashganliklari haqida (musobaqaning nomi)

**MA'LUMOT**

Sana \_\_\_\_\_

Sport turi \_\_\_\_\_

O'tkazilgan joyi \_\_\_\_\_

Qatnashgan sportchilar soni \_\_\_\_\_

Shulardan: erkaklar \_\_\_\_\_, ayollar \_\_\_\_\_

**Jamoaviy birinchilik natijalari:**

- |          |           |
|----------|-----------|
| 1. _____ | 9. _____  |
| 2. _____ | 10. _____ |
| 3. _____ | 11. _____ |
| 4. _____ | 12. _____ |
| 5. _____ | 13. _____ |
| 6. _____ | 14. _____ |
| 7. _____ | 15. _____ |
| 8. _____ |           |

**Shaxsiy birinchilik natijalari:**

O'rin	Ismi, sharifi	Tur	Natija	Shahar	Jamiyat	Murabbiy ismi, sharifi

6-ilova

«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_y.

O'zbekiston Yengil atletika federatsiyasi

rayosati majlisida \_\_\_ raqam bilan

**TASDIQLANGAN**

**Federatsiyaning bosh kotibi**

\_\_\_\_\_ ( \_\_\_\_\_ )

Yengil atletika bo'yicha yangi O'zbekiston rekordini

(eng yuqori natijani) ro'yxatga olish haqida

### **DALOLATNOMA**

1. O'rnatilgan vaqti

\_\_\_\_\_

yili, oyi, sanasi, soati

2. Musobaqa o'tkazilgan

joy \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

shahar, stadion, manej

3. Qanday musobaqalar \_\_\_\_\_

4. Yengil atletikaning qaysi turi bo'yicha \_\_\_\_\_

5. Kim o'rnatdi \_\_\_\_\_

ismi, sharifi, otasining ismi

Tug'ilgan sanasi \_\_\_\_\_ Millati \_\_\_\_\_

Sport unvoni (toifasi) \_\_\_\_\_

Uy manzilgohi \_\_\_\_\_

Izoh: Rekord natija jamoa tomonidan o'rnatilgan bo'lsa, dalolatnomada mazkur band ma'lumotlari bilan birgalikda ishtirokchilar ro'yxati xam ilova qilinadi.



6. Texnik natija \_\_\_\_\_  
 \_\_\_\_\_  
 \_\_\_\_\_ raqamlar va so'z bilan

7. Avvalgi O'zbekiston rekordi natijasi \_\_\_\_\_ y.da o'rnatilgan,  
 u \_\_\_\_\_  
 \_\_\_\_\_ ga tegishli bo'lib, ismi, sharifi natijasi \_\_\_\_\_

8. Rekord natijani hisobga olishda qo'llanilgan o'lchash asboblari (avtomatik vaqt o'lchash tizimlari, sekundomerlar, tarozilar, ruletkalar va b.) majburiy metrologik shaxodatdan o'tkazish hamda tamg'alash haqidagi ma'lumotlar

t/r	O'lchash asboblari nomlari	O'lchash asboblari №	Tekshirish joyi, shahar	Tekshirishni o'tkazgan tashkilot	Tekshirilgan sana va guvohnoma №	Musobaqa kunida o'lchash asboblari holati

### 9. Yugurish bo'yicha musobaqalarda:

Vaqt o'lchashning to'la avtomatlashtirilgan tizimi tomonidan qayd etilgan natija (fotomarra, videomarra) \_\_\_\_\_

Sekundometrilar ko'rsatgan natijalar (faqat qo'l vaqt o'lchagichidan foydalanilganda):

\_\_\_\_\_ **sekundomer**  
 № \_\_\_\_\_ Sekundomerchi \_\_\_\_\_  
 ismi, sharifi, toifasi

\_\_\_\_\_ **sekundomer**  
 № \_\_\_\_\_ Sekundomerchi \_\_\_\_\_  
 ismi, sharifi, toifasi

\_\_\_\_\_ **sekundomer**

№ \_\_\_\_\_ Sekundomerchi \_\_\_\_\_

ismi, sharifi, toifasi

**Yugurish bo'yicha menejer**

**Fotomarra bo'yicha katta hakam**

**muovini (referi)**

\_\_\_\_\_ ismi, sharifi, toifasi, imzo

**Marradagi katta hakam**

**Katta vaqt o'lchovchi**

\_\_\_\_\_ ismi, sharifi, toifasi, imzo

Sportcha yurish texnikasi uslubi bo'yicha katta hakam

**Starter** \_\_\_\_\_ ismi, sharifi, toifasi, imzo

Sportcha yurish bo'yicha ikki hakamning ismi shariflari \_\_\_\_\_

ismi, sharifi, toifasi, imzo

**Sakrash va uloqtirishlar bo'yicha musobaqalarda:**

Snaryadlarning yadro, disk, bosqon, nayza IAAF Nizomi talablariga

muvofiqligi \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ firmasi, vazni

Menejer muovini (referi) Katta hakam \_\_\_\_\_

yengil atletika turi

\_\_\_\_\_ ismi, sharifi, toifasi, imzo

O'lchovchi hakam \_\_\_\_\_ ismi, sharifi, toifasi, imzo

### **Ko'pkurash musobaqalarida:**

Mazkur dalolatnomaga ko'pkurashning barcha turlari natijalarining tasdiqlangan bayonnomasi ilova qilinadi.

10. Stadionning (manejning) yugurish yo'lkasi o'lchamlari \_\_\_\_\_

11. Rekord o'rnatilayotgan vaqtda shamolning tezligi \_\_\_\_\_

12. Rekord natija nechanchi urinishda ko'rsatildi \_\_\_\_\_

13. Doping nazoratidan o'tish topshirish:

Laboratoriya \_\_\_\_\_ Ma`sul \_\_\_\_\_

(ismi, sharifi, imzo)

14. Rekord natija ko'rsatilgan haqida telegraf yoki telefon orqali xabar berilgan sana \_\_\_\_\_

15. Musobaqalar \_\_\_\_\_ yilda nashr qilingan Nizomga muvofiq o'tkazilgan.

Menejer \_\_\_\_\_

Bosh kotib \_\_\_\_\_

Texnik vakil (nozir) \_\_\_\_\_

### **O'zbekiston yengil atletika federatsiyasi Rayosatiga**

#### **T A V S I Y A N O M A**

Texnik qo'mita taqdim etilgan hujjatlarning to'g'riligini ko'rib chiqib, dalolatnomani tasdiqdan o'tkazish uchun topshiradi. «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_y.

Texnik qo'mita raisi \_\_\_\_\_

ismi, sharifi, imzo

**Ishtirokchilar guruhlari****faxriylar****yigitlar va qizlar****yosh guruhlariga ko'ra**

A – ayollar	Yosh guruhlari bo'yicha		A 35	E 35
AYu – ayol	Yu 12-13	Q 12-13	A 40	E 45

**Yuniorlar**

E – erkaklar	Yu 14-15	Q 14-15	A 45	E 50
EYu – erkak	Yu 16-17	Q 16-17	A 50	E 55

**Yuniorlar**

A 55 va undan katta

A 60 va undan katta

min (min) – minimum, maks. (max) – maksimum, O.M. – og'irlik markazi, D, d – diametr; R, r – radius, H, h – balandlik; L, l – uzunlik.

S – stadionda o'tkaziladigan musobaqalar

Yo.j. – yopiq joyda o'tkaziladigan musobaqalar

Sh – shosseda (stadiondan tashqarida) o'tkaziladigan musobaqalar.

K – kross masofalaridagi musobaqalar

A.v.o'. – avtomatlashtirilgan vaqt o'lchagich

Q.v.o'. – qo'l va vaqt o'lchagichi

**G'olibni aniqlash va qayta sakrashlar bayonnomasini****yozib borish namunasi**

Ishtirokchilar	Musobaqalarning borishi						Hisobga olinmagan urinishlar	Qayta sakrash			O'rin
	1,75	1,80	1,84	1,88	1,91	1,94		1,91	1,98	1,91	
A		x0	0	x0	xxx		2	x	0	x	2
B	0	x0	0	x0	-	xxx	2	x	0	0	1
V	-	x0	x0	x0	xxx		3	ishtirok etmaydi			3
G	0	x0	x0	x0	xxx			ishtirok etmaydi			3

**Mavzuga oid nazorat savollari.**

1. Musobaqa nizomi qanday tuziladi?

2. Musobaqa talabnomasini qanday tuziladi?
3. Musobaqa ishtirokchisi varaqasi qanday tuziladi?
4. Musobaqada jamoaviy hisob bayonnomasi qanday tuziladi?
5. Jamoalar qatnashchilarini musobaqaga qo'yish bo'yicha mandat hay'atining bayonnomasi tayyorlashni tushuntiring?
6. Yengil atletika bo'yicha musobaqalar bayonnomasini tayyorlashni tushuntiring?
7. Shamol yo'nalishi va tezligini o'lchash bayonnomasini tayyorlashni aytib bering?
8. Musobaqa dalolatnomasini tuzishdan maqsad nima?

### **Adabiyotlar**

1. Olimov M.S. va boshqalar. Yengil atletika nazariyasi va uslubiyati. - Toshkent, 2018.
2. Laxov V.I. i dr. Legkaya atletika. Pravila sorevnovaniy. M., 2003.
3. Legkaya atletika. Pravila sorevnovaniy. Pod obsh. red. V.Zelichenka. M., 2004.
4. Legkaya atletika. Pravila sorevnovaniy. Pod obsh. red. V.Zelichenka. M., 2006.

## II BOB. KURASH TURLARI BO`YICHA MUSOBAQALAR TASHKIL QILISH VA HAKAMLIK QILISH

Yoshlarimizga ta'lim berish va ularni kamol toptirishga yo'naltirilgan xizmatlar ko'rsatuvchi muassasalar tarmog'ini kengaytirish va bunday xizmatlar turlarini masalan, xalq hunarmandchiligi bilan shug'ullanadigan «Ustoz-shogird» guruhlarini ko'paytirish talab etiladi.

Kurash bo'yicha xalqaro tashkilot tuzilganligini avvalo mustaqil Vatanimizning jahondagi yana bir e'tirofi deb baholagan bo'lardik. Yurtimizga kelgan o'ttizga yaqin mamlakatlarning vakillari ta'sis Kongressida milliy kurashimizning dunyo maydoniga chiqishga yakdillik bilan ovoz berdilar. Yaqin vaqtlar ichida o'z davlatlari va boshqa ko'plab mamlakatlarda bu xalqaro Asosastiyaning federastiyalarini tashkil etish istagida ekanliklarini bildirdilar. Dunyodagi barcha xalqlarning, millatlarning o'z tarixi, madaniyati bor. Milliy sport o'yinlari bor. Lekin birdan-bir milliy sport turini dunyo maydoniga olib chiqish hammaga ham nasib etavermaydi. Bu sanoqli davlatlargagina nasib etgan, xolos. Masalan: Angliya futbol vatani deyiladi. Dzyu-do, karate yaponlarniki ekanligini hamma biladi.

Dunyo sport lug'atida misol uchun amerikanacha futbol taylandcha boks kabi iboralar bor. Endi ana shu lug'at kurashimiz qoidalaridagi o'zbekcha «Halol», «Yonbosh», «Chala», «G'irrom», «Dakki», «Tanbeh» kabi so'zlar bilan boyidi. Endi butun dunyoda «o'zbeklarning kurashi» iborasi paydo bo'ldi. Bu bizning juda katta g'alabamizdir. Bu yutuqqa o'z-o'zidan erishilgani yo'q. Kurashimizning ravnaqiga ishonmay, bepisand qaraganlar ham bo'ldi. Lekin mamlakatimiz rahbarining ishonchi, qo'llab-quvvatlashlari bizga juda katta dalda bo'ldi.

Yana shunisi quvonarliki, kurashimizda eng yuqori baho «Halol» so'zi bilan ifodalanadi. Bu sof g'alaba degani. Raqibiga hurmatsizlik qilib, unga noto'g'ri usul ishlatib, nayrang bilan yutmoqchi bo'lgan sportchiga «g'irrom» bahosi beriladi va bu bahoni olgan maydondan chetlatiladi.

Kurash musobaqalarida muxlislar eng odil hakam hisoblanadi. Halol bilan g'irrom o'z olqishu e'tirozlari bilan baholanadi. Kurashning qoidasi oddiy: zo`rmisan yigit, yengildingmi - tan ber!

### **1. Kurash musobaqasining umumiy qoidalari**

Har bir musobaqada muayyan tartibga, qoidaga rioya qilish lozim. Bu tartib va qoidalar har bir mamlakatda o'tkaziladigan xalqaro turnirlar, qit'alar birinchiliklari, jahon birinchiligi va olimpiya o'yinlari dasturiga kurash musobaqalari Xalqaro kurash assotsatsiyasi tomonidan tasdiqlangan hakamlar tomonidan amalga oshiriladi. Biz yuqorida hakamlar hay'atining tarkibini keltirdik, ularning faoliyat mazmuni quyidagilardan iborat:

#### **1. BOSH HAKAM:**

1.1. Bosh hakam yordamchilari, ularning soni gilamlar sonidan bir kishiga ko'p:

- bosh kotib va gilamlar kotiblari;
- gilamdagi hakamlar va gilam chetidagi hakamlar;
- hakam sekundameristi;
- tablodagi hakam;
- hakamlarni almashtiruvchi hakam gilamlar soniga qarab belgilanadi;
- shifokor;
- e'lon qiluvchi hakam;
- musoboqa komendanti.

1. 2. Bellashuvni boshqaruvchi hakamlar:

- bellashuvni olib boruvchi hakam, bosh hakam yordamchisi;
- gilamdagi hakam;
- gilam chetidagi hakamlar, ikki kishi;
- hakam sekundameristi;
- kotib;
- tablodagi hakam;
- hakamlarni almashtiruvchi hakam;
- e'lon qiluvchi hakam;

- nazoratchi hakam.

1.3. Ba'zi bir hollarda o'rtadagi hakam, chetdagi bir hakam bilan yoki uning o'zi gilamdagi kurashni boshqarishi mumkin.

1.4. Har bir hakam hakamlik guvohtomasiga, hakamlik kiyimiga, oq ko'ylak, qora kostyum, shim va galstukga ega bo'lib, kurash qoidalarini mukammal bilishi shart.

## **2. HAKAMLARNING VAZIFALARI**

2.1. Musobaqada hakamlar kurash gilamga chiqqanlarida, o'rtadagi hakam qo'lini ko'ksiga qo'yishi bilan chetdagi ikki hakam ham qo'lini ko'ksiga qo'yish barobarida tomoshabinlarga va bosh hakamga qarab egilib ta'zim qiladilar.

2.2. Hakamlar harakati bosh hakam va hakamlar hay'ati tomonidan nazorat qilib boriladi. Agar ular musobaqaning o'tkazish Nizomiga yoki kurash qoidalariga rioya qilmasalar hakamlik huquqidan mahrum qilinib, ushbu musobaqadan chetlatiladi va ular xatti-harakatlari hakamlar hay'atida ko'rib chiqilib, hay'at qarori tegishli tashkilotlarga ma'lum qilinadi.

## **3. BOSH HAKAM**

3.1 Bosh hakam musobaqaning rahbari hisoblanadi va musobaqaning belgilangan Nizom va qoidalariga amal qilgan holda musobaqalarning o'tkazilishiga javobgardir.

3.2. Bosh hakamning vazifalari:

- musobaqa anjomlari, inshoot va gilamlar tayyorlanganligini tekshiradi;
- qur'a tashlash jarayonida kuchli kurashchilarni ikki guruhga bo'ladi;
- hakamlarni gilamlarga taqsimlaydi;
- musobaqa o'tkazish jadvalini tuzadi;
- kurashchilarni taroziga tortish uchun hakamlar tarkibini belgilaydi;
- har bir bellashuv uchun hakamlarni tayinlaydi va ularning harakatlarini nazorat qilib boradi;

- musobaqa boshlanishidan oldin hakamlar hay'atining majlisini o'tkazadi, har kuni musobaqadan so'ng hakamlar hay'ati oldida musobaqa



natijalari haqida hisobot berib boradi, lozim bo'lgan taqdirda hakamlar hay'ati majlisini har vaqtda o'tkazishi mumkin.

3.3. Hakamlarning musobaqaga tayyorgarligini va musobaqa jarayonini baholab boradi.

3.4. Musobaqa o'tkazish yuzasidan hisobot bayonini to'ldirib boradi va topshiradi.

#### **4. BOSH HAKAM HUQUQLARI**

4.1. Musobaqa o'tkazish inshooti va anjomlari tayyorlanmagan bo'lsa musobaqa o'tkazishni taqiqlashi mumkin.

4.2. Musobaqa jarayonida favqulotda vaziyat yuz bersa, musobaqani vaqtincha to'xtatishi mumkin.

4.3. Musobaqa o'tkazish tartibi yoki jadvaliga o'zgartirish kiritishi mumkin.

4.4. Hakamlar hay'atiga ma'lum qilgan holda, noto'g'ri hakamlik qilgan hakamni musobaqadan chetlatishi mumkin.

4.5. Musobaqada ishtirok etishga ruxsati bo'lmagan kurashchilarni musobaqadan chetlatishi mumkin.

4.6. Qo'pollik qilgani uchun guruh boshliqlarini, hakamlarni, murabbiylarini va kurashchilarni ogohlantirishi mumkin.

4.7. Bosh hakam ko'rsatmalarini kurashchilar, guruh boshliqlari, murabbiylari, hakamlar va barcha qatnashchilar bajarishlari shart.

#### **5. BOSH HAKAM YORDAMCHISI**

5.1. O'rtadagi hakamlarni, kotibni, vaqtni tekshiruvchi hakamni, tablodagi hakamni nazorat qilib turadi.

5.2. Bellashuv natijasini va keyingi olishuvga tayyorlanib turuvchilarni e'lon qilib boradi.

5.3. Agar musobaqa jarayonida bosh hakam ma'lum bir sababga ko'ra ishtirok qilmayotgan bo'lsa, bosh hakam vazifasini bajaradi.

#### **6. BOSH KOTIB VA KOTIBLAR**

6.1. Bosh kotib hakamlar hay'atining majlisini, musobaqa qarorini, kurashish

tartibi hamda boshqa hujjatlarni yozib boradi.

6.2. Kotiblar o'z gilamidagi qarorlarni yozib boradilar.

6.3. Bellashuv baholarini, ogohlantirishlarni nazorat qog'oziga qayd qilib boradilar.

## **7.O'RTADAGI HAKAM**

7.1. Kurashning qanday borishini, qoidalarga qat'iy rioya qilinishini kuzatib boradi.

7.2. Qaysi kurashchi haqiqatda kurashayapti, qaysisi kurashmayotganligini kuzatib boradi va hamma qoidalarga amal qilib, ikki kurashchini chaqqonrok kurashishga chaqiradi hamda tablodagi bahoni kuzatib boradi.

7.3. Bellashuv vaqtida ikkita yoqtirgan yon tomondagi hakamlarning baholarini kuzatib boradi.

7.4. O'rtadagi hakam belgilangan kurashish vaqti tugashi bilan shartli "vaqt" iborasini aytib, ishorasini qo'l bilan ko'rsatadi. Bu paytda kurashuvchilar kiyimlarni to'g'irlab o'z joylarida turishlari lozim.

7.5. O'rtadagi hakam kurashchi tomonidan har bir qo'llanilgan usulni baholashi va shu zahoti kurashni to'xtatib "to'xta" qaytadan "kurash" deb boshlashi shart.

## **8. YON TOMONDAGI HAKAM**

8.1. Yon tomondagi hakam o'rtadagi hakamga yordam beradi. Kurashchilarning harakatlarini baholab boradi.

8.2. Yon tomondagi hakamlar bir-biriga qarama-qarshi tomondagi kursilarga o'tirishadi. Kurash jarayonida zarurat tug'ilsa yon tomondagi hakam bellashuvni tik turib kuzatishi ham mumkin.

8.3. Agar kurashchilarning biriga gilamdan chiqish zarur bo'lsa, yon tomondagi hakamdan biri unga hamrohlik qilishi shart.

## **9. VAQTNI KUZATUVCHI HAKAM**

9.1. Bellashuv vaqtining har bir daqiqasini nazorat qilib, hisoblab boradi. Agar kurashchi shirofokorga ketib qolsa, kiyimini to'g'rilasa yoki boshqa sabablar bilan kurash to'xtatilsa; sekundomerni to'xtatib, bayroqchani ko'taradi, kurash

boshlanishi bilan bayroqchani tushiradi va bellashuv vaqtini yana nazorat ostiga oladi.

9.2. Vaqtni kuzatuvchi hakam kurashchini gilamga chaqirgandan keyin, uning kechikish vaqtini nazorat qiladi. Agar kechikish belgilangan vaqtdan oshib ketsa, kurashchini bellashuvdan chetlashtiradi.

9.3. Vaqtni belgilovchi hakam baland ovoz bilan o'tgan va qolgan vaqtni e'lon qiladi.

## **10. TABLODAGI HAKAM**

10.1. O'rtadagi hakam ko'rsatilgan ogohlantirish yoki baholarni tabloda ko'rsatib boradi.

10.2. Agar o'rtadagi hakamning ko'rsatgan bahosini ko'rolmasdan qolsa, yon tomondagi hakamlardan aniqlab oladi.

10.3. Tablodagi qo'yilgan baholar kim g'olib chiqqanini e'lon qilguncha turishi kerak.

## **11. MUSOBAQA SHIFOKORI**

11.1. Kurashchilar sog'ligi haqidagi hujjatni, qo'yilgan imzolarni va muhrlarni tekshirib chiqadi.

11.2. Vazni o'lchanayotgan kurashchilarning har birini ko'zdan kechirib boradi.

11.3. Musobaqa o'tadigan maydonning tozaligini nazorat qiladi.

11.4. Musobaqa davomida olingan jarohatlarni davolab boradi.

## **12. E'LON QILUVCHI HAKAM**

12.1. Musobaqaning kun tartibini, qaysi kurashchilar kurashishini, kim tayyorlanishini e'lon qilib, har bir kurashchi haqida ma'lumot berib boradi.

12.2. Kurashga taalluqli bo'lmagan e'lonlar faqat bosh hakam yoki uning yordamchisi ruxsati bilan beriladi.

## **13. MUSOBAQA KOMENDANTI**

Musobaqa o'tadigan sport maydonining tayyorligini, shu maydonda musobaqaning tinch o'tishini ta'minlaydi va bosh hakam topshirig'iga ko'ra ish olib boradi.

## **14.GILAMDAGI HAKAMLARNING**

### **FIKR ALMASHISH TARTIBI**

14.1. O'rtada faoliyat olib borayotgan hakam va yon tomondagi hakamlar o'z fikrini shartli ishora belgisi bilan bildiradi. Agar ularning fikri bir-biriga to'g'ri kelmasa, unda yon tomondagi hakamlar o'rinlaridan turib o'rtadagi hakamlar bilan bir fikrga kelishib, maslahatlashib olishlari mumkin.

### **15.NAZORATCHI HAKAM**

15.1. Musobaqa qatnashchilarining hujjatlarini nazorat qilib boradi.

15.2. Kurashchilar kiyimining kurash qoidasiga to'g'ri kelishini nazorat qiladi va ularni belbog'lar bilan ta'minlaydi.

## **16. KURASH QOIDASIDAN TASHQARI FAVQULOTDA**

### **BO'LIB QOLGAN VAZIYAT**

Agar kurash qoidasida ko'rsatilmagan vaziyat ro'y bersa u holda gilamdagi hakam gilam chetidagi hakamlar bilan maslahatlashishadi. Bunda ham bir qarorga kelinmasa, bu vaziyat bosh hakamlar hay'ati orqali yechilishi lozim.

### **2. KURASHNING UMUMIY QOIDALARI**

2.1. Milliy kurashda faqat tik holatda va qabul qilingan usullarni qo'llash orqali kurashadilar.

2.2. Usul qo'llash orqali raqibning biror joyi gilamga tekkizilsa, ushbu harakat hakamlar tomonidan baholanadi.

2.3. Agar kurashchi usul qo'llasa, o'zi ikki kuragi bilan gilamga yiqilsa, u holda uning raqibiga sof g'alaba beriladi. Boshqa hollarda, ya'ni usul qo'llagan kurashchining o'zi yonbosh yoki chala yiqilsa, bu harakat baholanmaydi.

2.4. Agar o'rtadagi hakam g'olib chiqqan kurashchini ko'rsatmasdan boshqasini ko'rsatsa, unda yon tomondagi hakam darhol undan qilgan xatosini tuzatishni so'rashi kerak. Chunki bellashuvlar natijasini hakamlar hal qilganlaridan keyin shikoyatlar qabul qilinmaydi.

### **3. BELLASHUVNING BOSHLANISHI VA TUGASHI**

3.1. Bellashuv boshida kurashchilar gilamda bir-biriga qarab 4m masofada turadilar. O'rtadagi hakam qo'l bilan ko'rsatishi bilanoq kurashchilar bir-birlariga

o'ng qo'llarini ko'ksilariga qo'yib turgan joylarida egilib salomlashadilar va o'rtadagi hakam "**KURASH**" so'zini aytishi bilan bellashuv boshlanadi.

3.2 Bellashuvni o'rtadagi hakam shartli so'zlar orqali boshqaradi. Agar to'xtatilgandan keyin raqiblar tomonidan usul qo'llanilsa, bu harakat hisobga olinmaydi. Agar usul qo'llanilgandan keyin bellashuv shu holatda to'xtatilsa, unda qo'llanilgan harakat baholanadi.

3.3. Bellashuv tugashi bilan kurashchilar o'z o'rinlarida kiyimlarini to'g'irlab turadi va natija e'lon qilingandan keyin, qo'llarini ko'ksilariga qo'yib, xayrlashadilar va gilamni tark etadilar.

#### **4. QATNASHCHILAR KIYIMI**

4.1. Bellashuvda kurashchilar oyoqyalang, yashil havorang yaktak, qizil belbog' va oq shimda bo'ladilar.

4.2. Kurashchilar kiyimi pishiq ip gazlamadan bo'lib, did bilan va tez yirtilib ketmaydigan qilib tikilgan bo'lishi shart.

4.3. Yaktakdan 20 sm balandda, yengi uzun (uzunligi qo'l tirsagidan 15-10 sm pastda) bo'lishi va yengining ichidagi qo'l oralig'i 5sm bo'lishi kerak.

4.4. Kurash shimlari uzun, oyoqning pastki to'pig'iga barobar qo'yilganda juda holi turadigan bo'lishi lozim. Ishton va oyoq oralig'i 8 sm bo'lishi shart.

4.5. Kurash belbog'i juda qalin qilib tikilgan bo'lishi kerak. U bog'langandan keyin har qaysi uchi 25 - 30 sm osilib turishi lozim.

4.6. Qatnashuvchilarning ko'rinishi kurash kiyimlari toza bo'lib, sochlari kalta va tirnoqlari olingan bo'lishi shart, shuningdek, bellashuvga taqinchoqlar taqib gilamga chiqish man etiladi.

4.7. Agar kurashchining kiyimi yuqorida qayd qilingan talablarga mos kelmasa, o'rtadagi hakam kurashni to'xtatib, tezda kurashchidan kiyimni almashtirishni talab qiladi.

#### **5. MUSOBAQA QATNASHCHILARINING HUQUQLARI**

5.1. Hakamlarga murojaatini o'zining jamoa boshlig'i orqali yetkazadi.

5.2. Shifokor maslahatiga muhtoj bo'lgan taqdirda unga 5 minut vaqt beriladi.

5.3. O'z vaznini bilish uchun musobaqada qo'llaniladigan taroziga musobaqa

boshlanishidan 1 soat oldin, ya'ni rasmiy o'lchash marosimi boshlagunga qadar kelib o'lchashga haqli.

## **6. JAMOA RAHBARLARI, MURABBIYLARI VA BOSHLIQLARI**

6.1. Bosh hakam uning yordamchilari bilan to'g'ridan-to'g'ri maslahatlashish huquqiga faqat jamoa rahbari, murabbiyi yoki boshlig'i egadir.

6.2. Jamoa rahbari kurashchilarning kiyimiga va ularning o'z vaqtida gilamga chiqishiga hamda umumiy tartib intizomiga javobgardir.

6.3. Bosh hakam va hakamlar qatoriga jamoa boshlig'i ham qur'a tashlashni o'tkazishda qatnashadi.

6.4. Kurash jarayonida jamoa rahbarlari uchun joy ajratilib, o'rinlarida bo'lishlari shart.

6.5. Jamoa rahbarlari yoki murabbiylari hakamlik guvohnomasi bo'lgan taqdirda musobaqa hakami vazifasini ham o'tashlari mumkin.

6.6. Yuqoridagilarga amal qilmagan rahbarlar o'z vazifasidan bo'shatilib, bu haqda tegishli tashkilotlarga xabar qilinadi.

6.7. Guruh murabbiyi bellashuv vaqtida belgilangan joyda yoki gilam atrofida 2 metr masofada turishi mumkin.

6.8. Guruh murabbiyi o'z kurashchisi tan jarohati olgan vaqtida belgilangan tartibda shifokor tomonidan tibbiy yordam ko'rsatayotgan vaziyatda hozir bo'lib turishi mumkin, ammo gilam chetidagi va o'rtasidagi hakamlar qaroriga itoat qilmasligi yoki ularni haqorat qilishi ta'qiqlanadi.

6.9. Yuqoridagilarga guruh murabbiyi itoat etmasa, o'rtadagi hakam bellashuvni boshqaruvchi hakamdan murabbiyiga **"DAKKI"** ogohlantirishni berishni talab qilishi mumkin, bu hol yana qaytarilsa, bellashuvni boshqaruvchi hakam **"G'IRROM"** ogohlantirishni e'lon qilib, ularni bellashuvdan chetlatishi mumkin.

## **7. MUSOBAQA TURLARI VA O'TKAZISH QOIDALARI**

7.1. Musobaqa turlari:

a) shaxsiy birinchilik:

b) jamoalar birinchiligi va shaxsiy birinchilik:

d) mustaqil jamoalar birinchiligi:

e) ochiq gilam birinchiligi:

f) mutloq birinchilik:

g) professional kurashchilar birinchiligi:

7.2. Shaxsiy birinchilikda bir toifa vaznda bir kishi g'olibligi aniqlanadi.

7.3. Jamoa orasidagi kurashda jamoalar g'olibligi aniqlanadi.

7.4. Shaxsiy birinchiligi aniqlanadi.

7.5. Ochiq gilamda har bir xohlovchi kurashchi o'zi uchun kurashishi mumkin.

7.6. Mutloq birinchilikda vazn toifasidan qat'iy nazar (bosh hakam ruxsati bilan) xohlovchilar kurashishi mumkin.

## **8. PROFESSIONAL KURASHCHILAR**

Professional kurashchilar tarkibiga musoboqalarga qatnashish imkoniyati mavjud bo'lganlar professional kurashchining g'alaba bahosi va kurashchilarga taqdim etiladigan unvon, musoboqaga kimlar ishtirok etishi mumkinligi va vazn toifalari kiradi.

8.1. Professional kurashchilar musobaqalarga qatnashish imkoniyati ma'lum bo'lgan professional kurashchilarga g'alaba va kurashchiga taqdim etiladigan unvon, musobaqalarga kimlar ishtirok etish mumkinligi vazn toifalari kiradi. Musobaqaga milliy kurash qoidasini biladigan, millati va yashash joyidan qat'iy nazar bir kurashchi qatnashishi shart.

8.2. G'alaba faqat "**HALOL**" bahosini olgan kurashchiga, ya'ni raqibining ikkala kuragini gilamga barobar tekkizganga beriladi. Qolgan boshqa harakatlar baholar hisobida jamlab boriladi. Agar umumiy belgilangan vaqtda g'olib aniqlanmasa, kurash to'xtatiladi va g'alaba ko'p ochko to'plagan kurashchiga beriladi.

8.3. Musobaqa finalida olishgan palvonlar "professional kurashchi" deb O'zbekiston kurash milliy federatsiyasi tomonidan ro'yxatga olinadilar.

## **9. MUSOBAQA QATNASHCHILARI**

Musobaqa qatnashchilarining yoshlari quyidagilardan iborat:

- bolalar 12-13 yosh
- o'smirlar 14-15 yosh
- yoshlar 16-17 yosh
- kattalar 18 va undan yuqori yosh.

Kattalar o'rtasida O'zbekiston birinchiligida qatnashuvchilarning yoshi chegaralanmaydi.

## **10. VAZNLAR**

10.1. Musobaqa qatnashchilari quyidagi vaznlarga bo'linadilar:

- bolalar(12- 13 yosh)-33, 36,40,44,48, 52,60,65, 70 kg va undan yuqori:
- o'smirlar(14- 15 yosh)-38, 42,46, 50, 54, 60,65, 71, 76, 81 kg va undan yuqori:

- yoshlar va katta yoshdagilar -60, 66, 73, 81, 90, 100 kg va undan yuqori:

10.2. Yoshlar va katta yoshdagi polvonlar qaysi vaznda qatnashishlaridan qat'iy nazar (bosh hakam ruxsati bilan) mutloq vaznda kurashishlari mumkin.

10.3. Federatsiya bilan kelishilgan holda xalqaro musobaqalar qatnashchilarning yoshiga qarab quyidagi vazn toifalarida o'tkazilishi mumkin:

18-35 yoshdagilar 60,66, 73, 81, 90, 100 kg va undan yuqori:

36- 45 yoshdagilar 60, 70, 80, 90 kg va undan yuqori:

45 - 60 yoshdagilar 60, 70,80, 90 kg va undan yuqori:

60 yoshdan yuqori — 60, 70, 80, 90 kg va undan yuqori:

## **11. MUSOBAQAGA QATNASHISH SHARTLARI VA TALABLARI**

Musobaqada qatnashish shartlari va talabalari bo'limida musobaqa qatnashchilariga qo'yiladigan talablar vaznlarni aniqlash tartibi, kurashchilarning tan jarohati o'tkazishga olib keluvchi harakatlarga hakamlarning bahosi, taqiqlangan harakat va bellashuvdan mahrum qilish, musobaqalardan chetlashish ogohlantirish va gilamdan tashqari holat kabi masalalar o'rin olgan.

11.1. Musobaqa qatnashchilaridan quyidagilar talab qilinadi:

- shaxsini va yoshini bildiruvchi hujjat, yuqorida zikr etilgan maxsus



liboslar, kurashchining mahorat darajasini aniqlovchi guvohnoma;

- qaysi jamoaga mansubligi haqida muhrlangan guvohnoma va bildirishnoma, shifokor ruxsati haqida ma'lumot.

Yuqorida ko'rsatilgan hamma hujjatlar musobaqadan oldin mandat komissiyasida ko'rib, bosh shifokor va komissiya a'zolari tamonidan tasdiqlanadi. Yuqoridagi shartlar va talablarning bajo keltirilishi uchun jamoa rahbarlari javobgardirlar.

11.2. Bosh hakam ruxsati bilan yosh kurashchilar (16- 17 yoshli), katta yoshdagi polvonlar orasida musobaqalarda ham qatnashishi mumkin.

11.3. Musobaqada bir vaznda bellashgan polvonlar ikkinchi vaznda qatnashishi man etiladi, lekin ular mutloq vaznda (bosh hakam ruxsati bilan) kurashishlari mumkin.

## **12.VAZNLARNI ANIQLASH TARTIBI**

12.1. Musobaqaning birinchi kunida qatnashuvchi vaznlar shu kuni kurash boshlanishidan 2 soat oldin o'lchanadilar. O'lchanish vaqti 1 soatdan ko'p bo'lmasligi kerak. Shu kuni bir necha vazndagi kurashchilar o'lchanishi mumkin. Bellashuvda qatnashuvchi hamma polvonlar bir tarozidan o'tkazilishi shart.

12.2. Vaznini o'lchatmagan kurashchi musobaqaga qo'yilmaydi.

12.3. Polvonlar o'lchanish paytida surati yopishtirilgan hujjat orqali nazorat qilinadi.

12.4. O'lchanishda bosh hakam yordamchisi kotib, shifokor va 2 -3 hakam bo'lishi lozim. Qatnashuvchilar qarorda qayd qilib boriladi.

12.5. O'lchanish jarayoni kiyimlarsiz amalga oshiriladi.

## **13. QATNASHUVCHILAR MAJBURIYATI**

Musobaqa qatnashchilari quyidagilarga amal qilishlari lozim:



2.1-rasm

- a) musobaqa boshlanishidan oldin bir-birlari bilan egilib salomlashish:
- b) kurash qoidasiga, musobaqa qonun-qoidalariga qat'iy rioya qilish:
- d) hakamning topshiriqlariga bo'ysunish:
- e) musobaqa davomida o'zini to'g'ri tuta bilish:
- f) qatnashuvchi hakamlar tomonidan chaqirilganda, tezda chaqirilgan joyga borish:

#### **14. BELLASHUV VAQTI**

14.1. Bellashuv vaqti oldindan kelishib olinadi, lekin 3 minutdan kam, 4 minutdan ko'p bo'lmasligi kerak. Bunda "TO'XTANG" va "KURASH" shartli iboralari oralig'idagi vaqt bellashuvning umumiy vaqtiga kirmaydi.

14.2. Respublika, Osiyo va xalqaro musobaqalarda yoshlar va kattalar o'rtasidagi bellashuv 4 minut. O'smirlar va 35 yoshdan yuqoridagilar uchun 4 minut qilib belgilanadi, bolalar va 60 yoshdan yuqoridagilar uchun bellashuv vaqti 3 minutdan iborat bo'lishi kerak.

14.3. Bellashuv boshlanishidan to tugagunga qadar kurashchilar o'rtadagi hakamning ruxsatisiz gilamdan chiqib ketishi man qilinadi.

14.4. Agar bellashuv vaqtida kurashchi jarohatlansa, unga tibbiy yordam ko'rsatish uchun 5 minutgacha vaqt beriladi va bu jarayon 5 minutdan ortib ketsa, u kurashchi musobaqadan chetlatiladi.

#### **15. BELLASHUV NATIJASI**

15.1. Bellashuvda bir kishi g'olib bo'ladi.

15.2. Bellashuvda kurashchilar harakati quyidagicha baholanadi:

Sof g'alaba " <b>HALOL</b> "	—	10:0
Yarim yutuq " <b>YONBOSH</b> "	—	5:0
Eng kichik yutuq " <b>CHALA</b> "	—	3:0
" <b>G'IRROM</b> "	—	10
" <b>DAKKI</b> "	—	0:5
" <b>TANBEH</b> "	—	0:3
" <b>TANBEH</b> "-" <b>CHALA</b> "	—	0:1
" <b>DAKKI</b> "-" <b>YONBOSH</b> "	—	0:1
" <b>CHALLA</b> " - " <b>DAKKI</b> "	—	0:3

Izoh: Agar bir kurashchi bellashuv vaqti ichida "**TANBEH**" ogohlantirishni va "**CHALA**" bahosini olsa vaqt tugagandan so'ng bir ochko hisobida g'olib deb topiladi. Baholar teng bo'lgan taqdirda ogohlantirish natijasida olingan bahoga qaraganda ular usul qo'llab olingan baho yuqori deb topiladi.

15.3. Sof g'alaba - "**HALOL**"ga beriladigan holatlar:

Usul qo'llab, katta kuch ishlatib tezlik bilan raqibning ikki kuragi ham to'la gilamga tekkizilsa:

Raqibni ikki marta "**YONBOSH**" bahosini olib yiqitilsa:

Sof g'alaba bilan g'olib chiqqanda 10 baho, mag'lub bo'lganda 0 baho beriladi.

15.4. Yarim yutuq "**YONBOSH**" beriladigan holatlar:

kurashchi o'z raqibini katta kuch ishlatib tez usul qo'llab gilamga yiqitganda uning ikki kuragi to'la tegmasdan, faqat bir kuragi to'la tekkizilsa: "**YONBOSH**" 5 ball beriladi bellashuvning yakunida agar kurashchilarning birida "**YONBOSH**" bo'lib, uning raqibida bellashuv davomida olingan bir necha "**CHALA**" bo'lsa, g'alaba "**YONBOSH**" olgan kurashchiga beriladi. "**YONBOSH**" bahosini olganda 5 baho, mag'lub bo'lganda 0 baho beriladi.

15.5. Eng kichik yutuq "**CHALA**" beriladigan holatlar:

kurashchi o'z raqibini kuch ishlatib, usul qo'llab, orqasi yoki qorni bilan yiqitsa "**CHALA**" bahosini olganda 3 baho, mag'lub bo'lganda 0 baho beriladi.

15.6. Baholar hisobida tenglashganda: agar ikkala kurashchida baholar hisobi teng bo'lib qolsa, so'nggi marta usul qo'llab baho olgan kurashchiga g'alaba beriladi.

## **16. BELLASHUVDAGI SUSTKASHLIK**

16.1. Quyidagi harakatlar bellashuvdagi sustkashlik deb baholanadi: bellashuv vaqtida usul qo'llanmasdan, raqibga tutqich bermasdan qochib yurish; butun bellashuv davomida birorta ham usul qo'llanmaslik; raqib harakatlarini jismoniy kuch ishlatib qaytarish bilan chegaralanib yurish: ikki kurashchi ham usul qo'llashga harakat qilmasligi;

16.2. Kurashchilarining tez-tez gilamdan chiqib ketishlari; o'z raqibini texnik harakat, usul qo'llashiga qo'ymaslik uchun uni bir yoki ikki qo'lidan ushlab turish; o'z raqibini gilam chekkasiga turtib chiqarish; o'z raqibini gilam o'rtasiga tortib boraverish; sustkashlik va gilam chetiga qochishga hakamlar hay'atining bildiradigan fikri;

16.3. Agarda kurashchi gilamdan chiqib ketaversa, o'rtadagi hakam bellashuvini to'xtatib unga ogohlantirish e'lon qilinadi; agarda kurashchi gilamdan aniq, oshkor chiqaversa yoki raqibini gilamdan qochayotgan qilib ko'rsatish uchun undan turtib chiqaraversa, o'rtadagi hakam gunohkor kurashchiga ogohlantirish e'lon qiladi.

## **17. KURASHCHILARNING TAN JAROHATI O'TKAZISHGA OLIB KELUVCHI HARAKATLARIGA HAKAMLARNING BAHOSI**

17.1. Tan jarohatini olganlik, uning qay darajada og'irligi va bellashuvni davom ettirish yoki to'xtatishni musobaqa shifokori belgilaydi; bellashuvdan ozod qilishga esa faqat bosh hakam yoki bosh hakam yordamchisi musobaqaning bosh shifokori xulosasi asosida huquqlidir.

17.2. Taqiqlangan usul qo'llash natijasida bir kurashchi tan jarohati olsa va shu tufayli bellashuvni davom ettira olmasa gunohkor kurashchiga "**G'irrom**" mag'lubiyat e'lon qilinadi, musobaqadan chetlatilsa, jarohat olganga sof g'alaba beriladi:

17.3. Agar kurashchi bellashuv davomida tan jarohati olsa va bunda

raqibining aybi bo'lmasa unga mag'lubiyat, bellashuvni davom ettira olmay qolsa raqibiga sof g'alaba beriladi:

17.4. Agarda ikki kurashchi ham bir vaqtda tan jarohati olsalar va bellashuvni davom ettira olmasalar ularning har ikkisiga ham mag'lubiyat e'lon qilinadi:

17.5. Bellashuvlardan chetlatilsa, kurashchilar yarim final va final bellashuvlaridan mahrum etiladilar.

## **18. TAQIQLANGAN HARAKATLAR VA BELLASHUVDAN MAHRUM QILINISH**

18.1. Kurash musobaqalarida quyidagilar taqiqlanadi: raqibni boshi bilan uloqtirish, raqibni uloqtirayotgan vaqtda uning butun tanasi bilan yiqilish; raqibni qo'l-oyoqlar bilan urish, tirnash va tishlash; raqibning bo'ynini qaytarish, qo'l bilan boshini siqish yoki gilamga bosish;

- raqibni yiqitgan vaqtda uning yuziga qo'l, oyoq va boshi bilan tayanish;
- raqibning ustiga tizza yoki tirsak bilan yiqilish;
- raqibning barmoqlaridan ushlab usul qo'llash;
- raqibning ishtonidan ushlab usul qo'llash;
- raqibni gilam chetiga turtib chiqarish;

Eslatma: Yuqoridagi taqiqlangan harakatlarni qo'llaganlik uchun "**DAKKI**" ogohlantirish beriladi, agar ana shu holat takrorlansa, oxirgi ogohlantirish "**G'IRROM**" beriladi va kurashchi musobaqadan chetlatiladi.

## **19. MUSOBAQADAN CHETLATISH**

19.1. Agar kurashchi kurash qoidalariga bo'ysunmasa yoki taqiqlangan usul qo'llasa;

19.2. Hakamlarni, tomoshabinlarni yoki raqibini haqorat qilsa, bunda qoida buzgan kurashchini "**G'IRROM**" deb bellashuvdan chetlashtiriladi;

19.3. Agar kurashchi 3 minut ichida gilamga kelib, tayyor bo'lib turmasa;

19.4. Yarim final yoki final chog'ida "**G'IRROM**" berib chetlashtirilgan kurashchiga medal ham, sovrin ham berilmaydi:

Bunday hollarda raqibga 10 baho, chetlashtirilganga 0 baho beriladi.

## **20. SUST KURASHISH**

20.1. Agar 20-25 sekund ichida kurashchilardan biri yoki ikkalasi ham kurashmasdan tursa, shu payt chetda o'tirgan hakamlar qo'l bilan ko'rsatib, biriga yoki ikkalasiga ham tegishli ogohlantirish beriladi;

20.2. Agar bu hol yana takrorlansa, bunda ham shunday qo'l ko'rsatib, **"TANBEX"**, **"DAKKI"** berib keyin esa kurashchi **"G'IRROM"** deb bellashuvdan chetlashtiriladi.

## **21. OGOHLANTIRISH**

21.1. Eng kichik ogohlantirish - **"TANBEH"**:

- a) yaktak ushlatishga bermasdan qochib yursa;
- b) o'zi ham kurashmasdan raqibini kurashishiga qo'ymas;
- d) ikki yoqasidan, belbog'idan yoki yengidan ko'p ushlab tursa;
- e) ishtonidan ushlab usul qo'llasa;
- f) kurashmasdan gilamdan chiqib ketsa;
- g) raqibi kiyimini tishlab tursa, oyog'i yoki tirsagi bilan raqibining yuziga tepsa yoki ursa.

21.2. Ikkinchi ogohlantirish - **"DAKKI"**:

- a) usul qo'shmasdan, yerga tizza bilan cho'kka tushib, kurashmasa, shu holat takrorlansa;
- b) gilamdan tashqarida kurashsa yoki kurashchini surib chiqarsa va usul qo'llab, raqibning buyniga tushirsa va shikast yetkazsa;
- d) o'rtadagi hakamga quloq solmasdan kurashni davom ettirsa, o'rtada baqirsa, haqoratlasa yoki hakam ko'rsatgan ko'rsatkichga bo'ysunmasa;
- e) raqibni bo'g'ish yoki bo'g'ib azob berish usulini qo'llasa.

21.3. Uchinchi va oxirgi ogohlantirish - **"G'IRROM"**.

- a) yiqilgan raqibning ustiga tizzasi bilan o'zini tashlasa yoki og'ir jarohat yetkazadigan usul qo'llasa;
- b) boshi bilan raqibning yuziga ursa, usul qo'llab o'zi boshi bilan gilamga urilsa yoki bilib turib raqibning boshiga ursa;
- d) 3 minut ichida gilamga kelmasa;

e) kurashmasdan gilamdan chiqqani uchun oldin "**DAKKI**" olgan bo'lsa.

## **22. GILAMDAN TASHKARIDAGI HOLAT**

a) gilam chetidan tashqariga usul qo'llanilsa u baholanmaydi;

b) agar gilam chizig'i ichida usul qo'llanilib, gilamdan tashqariga yiqitilsa, bunda hisobga olinadi.

## **23. MUSOBAQA JIHOZLARI**

23.1. Musobaqaning jihozlari gilam, uning hajmi, bellashuv maydonning hajmi, gilam uning anjomlaridan iboralar, uning ko'rinishi va mazmuni musobaqa o'tkazish tartibi va mazmuni musobaqa o'tkazish tartibi va musobaqa o'tkazish nizomi kabi masalalardan iborat.

23.2. Gilam.

a) musobaqada Yapon tatamisi yoki boshqa kurashlar gilami bo'lishi kerak;

b) respublika miqyosidagi, Hamdo'stlik Davlatlari orasidagi hamda xalqaro musobaqalar 14x14 m yoki 16x16 m andazadagi gilamda o'tkaziladi. Bu andazadagi gilamlarning bellashuv maydoni 10x9 metrdan kam va 10x10 metrdan ko'p bo'lmasligi lozim.

## **24. GILAMDAGI KURASHNI BOSHQARISH ANJOMLARI**

24.1. Har bir gilam oldida bosh hakam yordamchisi, kotib va sekundomerist, hakam uchun stol va kursi bo'ladi. Stolda zang, kurashning vaqtini boshqarish uchun ikkita sekundomer soat bo'ladi;

24.2. Gilam chetidagi hakamlarga qarama-qarshi tomonlarda bellashuvni yaqqol ko'rish uchun kursi va hakamlar uchun kurashchilarning belbog'i rangiga mos keladigan bayroqchalar bo'lishi shart;

24.3. Har bir gilam oldida hakamlar ko'rsatgan baholarni osib qo'yish uchun tablo bo'lishi kerak;

24.4. Gilamning tayyorligini bilish hakam, shifokor va musobaqa o'tkaziladigan inshoot vakillari ko'rib baholaydilar. Gilamning tayyor yoki tayyormasligi dalolatnomada ko'rsatiladi.

## 25. HAKAMLAR ISHLATADIGAN IBORALAR



1. «**TANISHING**» - kurashchilar gilamga chiqib kelganlaridan keyin o'rtadagi hakam chap yoki o'ng qo'lini kurashchi tomoniga qaratib «tanishing» degan iborani baland ovozda aytadi. E'lon qiluvchi hakam esa kurashchilarni tanishtiradi. (Bu ishora olishuvda g'alaba qilgan kurashchiga nisbatan ham ishlatiladi).



2. «**TA'ZIM**» — kurashchilar o'ng qo'llarini chap ko'ksida tutgan holda bir-birlariga bo'yin va gavdani egib salomlashish uchun ishlatiladigan ibora. Bu iborani ishlatganda hakam ikkala qo'lini kaftlari bilan oldinga qaratgan holda yon tomonga ochib, keyin barmoqlari yuqoriga qaragan holda balanddan bukib, qo'llarini ichkariga aylantirish ishorasini qiladi, bu vaqtda ikkala qo'lning barmoqlari bir-biriga uchma-uch holga kelishi kerak.



3. «**O'RTAGA**» - bu so'z ikkala kurashchini bir-birlariga yaqinlashib, halol, mardona olishishlariga undovchi so'z. Hakam qo'llarini ikki tomonga yoygan holatda va shu holatni to'xtatmasdan o'rtaga ishorasini ko'rsatadi, ya'ni qo'l kaftlarini bir-biriga qaratib, yelka kengligiga olib keladi.



4. «**KURASH**» — kurashchilar bir-birovlariga ta'zim qilib salomlashgandan keyin olishuvni boshlash uchun hakam tomonidan ishlatiladigan ibora. Hakam o'ng qo'lini kaftlari bilan yon tomonga qaratgan holda tirsakdan bir oz bukib ishora qiladi.





5. **“TO’XTA”** — olishuv davom etayotgan vaqtda olishuvni to’xtatish uchun ishlatiladigan ibora. Bu vaqtda hakam o’ng qo’lini kafti bilan oldinga qaratgan holda (barmoqlar bir joyga jipslashgan) oldinga cho’zib ishora qiladi.

6. **“HALOL”** — kurashchilardan birovi sof g’alaba qilgan vaqtda ishlatiladigan ibora. Hakam qo’lini kafti bilan oldinga qaratgan holda yuqoriga ko’tarib (barmoqlar jips holda) ishora qiladi.



- a) ikki **“YONBOSH”** bahosi olsa;
- b) raqibga usul ishlatib o’zi ikkala kuragiga yiqilsa;
- d) raqibiga **“G’IRROM”** berilsa;
- e) **“YONBOSH”** olgan holda raqibida **“DAKKI”** bo’lsa;
- f) raqib 3 minut ichida gilamga chiqmasa beriladi.



7. **“YONBOSH”** — hakam qo’lini kaftlari bilan pastga qaratgan holda (barmoqlar bir joyda jips) yonboshga urib, yon tomonga cho’zib ( $90^\circ$ ) ishora qiladi.

- a) kurashchilardan biri usul qo’llab raqibini tezlik bilan bir kuragiga yiqitsa;
- b) yoki raqibiga **“DAKKI”** e’lon qilinsa beriladi.



8. **“CHALA”** — kurashchilardan biri usul qo’llab, usulni oxirigacha to’liq bajara olmasa ishlatiladigan ibora. Hakam qo’lini kafti bilan yoniga qaratgan holda tirsagidan bukib ( $90^\circ$ ) ishora qiladi.

- a) kurashchilardan biri usul qo’llab to’lig’icha bajara olmasa, raqibining beli yoki undan yuqori qisimni gilamga tekkizsa;
- b) raqibiga **“TANBEH”** e’lon qilinganda beriladi;

d) nechta “**CHALA**” bahosi berilishidan qat’i nazar ularning umumiy soni jamlanmaydi.

e) agar ikkala kurashchida ham bir nechtadan “**CHALA**” bo’lsa, g’oliblik ko’p “**CHALA**” olgan kurashchiga beriladi.



**9. “TANBEH”** — birinchi ogohlantirish. Hakam kurashchi tomonga burilib, qo’lini oldinga cho’zgan holda ko’rsatkich barmog’i bilan tanbeh olgan kurashchini ko’rsatib, ishora qilib shu iborani ishlatadi.

“**TANBEH**” — ogohlantirish unchalik katta bo’lmagan xatolarga yo’l qo’ygan kurashchiga beriladi.

- a) kurashchi ataylab qochayotib, raqibga ushlab olishga yo’l qo’ymasa;
- b) ataylab raqibni gilamdan itarib chiqarsa yoki o’zi gilamning xavfli maydoniga chiqib ketsa;
- d) ataylab o’zining kiyimini, ishtonini hakam ruxsatisiz yechib yuborsa;
- e) ataylab raqibning ishtoni yoki oyoqlaridan ushlasa;
- f) ushlab olgandan keyin 8—10 sekund vaqt davomida usul qo’llamasa, beriladi.




**10. “DAKKI”** — ikkinchi ogohlantirishda ishlatiladigan ibora. Hakam qo’lini musht qilib tirsagidan bukib ( $90^\circ$ ) ishora qiladi (*Qo’l* barmoqlar musht holiga kelgan va kaft old tomonga qaragan bo’lishi kerak).

(**DAKKI**) — “**TANBEH**”dan keyin ikkinchi, unchalik katta bo’lmagan xatoga yo’l qo’ygan kurashchiga e’lon qilinadi.

Dakki qachon birdaniga berilishi mumkin?

- a) kurashdan bosh tortib, ataylab tizzaga ko’p marotaba o’tirsa;
- b) hakamning buyruqlariga rioya qilmasa, noma’qul so’zlarni gapirsa yoki baqirsa.



**11. “G’IRROM”** — oxirgi ogohlantirishda ishlatiladigan ibora. Hakam kurashchi tomonga burilib, qo’lini kaftlari bilan pastga qaratgan holda yon tomonga cho’zib ikki-uch marta pastga silkitib ishora qiladi.

“G’IRROM” — katta xatoga yo’l qo’yan (yoki “DAKKI” jazosini olgan va keyingi paytda unchalik katta bo’lmagan yoki o’rta toifadagi xatoga yo’l qo’yan) kurashchiga e’lon qilinadi.

a) olishuv davomida raqibning, hakamlarning sha’niga noma’qul so’zlarni ishlatsa, baqirsa, har xil imo-ishoralar qilsa;

b) agar kurashchi olishuv davomida raqibiga bila turib jarohat yetkazsa, unda raqibga “G’IRROM” e’lon qilinib, shikastlangan kurashchiga “HALOL” beriladi.



**12. “BEKOR”** — olishuv to’xtatilganda keyingi harakatlar uchun yoki bajarilgan usul baholashga noloyiq deb topilgan vaqtda ishlatiladigan ibora.


Hakam qo’lini kafti bilan yon tomonga qaratgan holda (barmoqlari jipslashgan) oldinga cho’zib ikki-uch bor chapga va o’ngga harakatlantirib ishora qiladi.




**13. “VAQT”** - olishuv vaqti tugaganligini ko’rsatish uchun ishlatiladigan ibora. Hakam ikkala qo’lini yuqoriga ko’tarib kaftlarini bir-biriga qadagan holda bilakdan qo’shib ishora qiladi.

Izoh: Ishoralar o’rtadagi hakamning ikki tomonida turgan kurashchining yaktagi rangiga qarab o’ng yoki chap qo’l bilan ko’rsatiladi. O’rtadagi hakam qo’l ishoralarini ko’rsatish bilan bir vaqtda gilam o’rtasida tik holatda iboralarni baland ovoz bilan aniq aytib borishi shart.

## **26. Olishuv natijalarini qayd etish**



BAHO		OGOHLANTIRISH	
HALOL	10:0	G'IRROM	0:10
YONBOSH	5:0	DAKKI	0:5
CHALA	3:0	TANBEH	0:3
DAKKI-YONBOSH	0:10	YONBOSH-DAKKI	10:0
TANBEH-CHALA	0:3	CHALA-TANBEH	3:0
YONBOSH-YONBOSH	0:1	DAKKI-DAKKI	1:0
CHALA-CHALA	0:1	TANBEH-TANBEH.	1:0



## **27. MUSOBAQA O'TKAZISH TARTIBI**

27.1. Musobaqalar olimpiya tizimi bo'yicha o'tkaziladi: hamma polvonlar orasida kuchlilarini hisobga olib, ikki A va B guruhlariga bo'linadi:

Polvonning tartib raqami qur'a tashlash yo'li bilan belgilanadi va musobaqa tugagunga qadar saqlanib qoladi:

juft raqamli polvonlar A guruhiga, toq raqami polvonlar B guruhiga yoziladilar:

A va B guruh g'oliblari finalga chiqadilar va 1-, 2- o'rinlar uchun kurashadilar. Finalga chiqqan kurashchilarga boy bergan kurashchilar uchinchi o'rin uchun kurashni davom ettirmaydilar.

27.2. Kurash bo'yicha bir vazn toifasidagi polvonlarning musobaqalari bir kunda o'tkaziladi.

27.3. Musobaqaning turi, albatta, ushbu musobaqa o'tkazish nizomida ko'rsatilishi kerak.

## **28. MUSOBAQA O'TKAZISH NIZOMI**

Kurash bo'yicha musobaqalarni o'tkazish haqidagi majburiy hujjat musobaqa o'tkazish **NIZOMI** bo'lib, bu musobaqa o'tkazayotgan tashkilot tomonidan tasdiqlanadi.

NIZOMda quyidagilar qayd etilishi lozim: musobaqa turi; maqsadi va vazifalari;

- qatnashuvchi tashkilotlar va qatnashchilar (yoshi, saviyasi, klassifikatsiyasi);
- musobaqa o'tkazish mas'uliyati yuklatilgan tashkilot;
- musobaqa o'tkazish joyi va vaqti;
- musobaqa o'tkazish tartibi: bellashuv vaqti;
- musobaqada ishtirok etish shart-sharoitlari;
- tibbiy nazorat va tozalikni ta'minlash tartibi;
- hakamlar hay'ati tarkibi;
- ishtirok etish uchun bildirishnomalarni berish muddati va tartibi mandat komissiyasiga tavsiya etiladigan hujjatlar ro'yxati;
- kurashchilar va jamolarni qabul qilish shart-sharoitlari;

- noroziliklar bildirish e'tirozlarni ko'rib chiqish tartibi;
- musobaqa o'tkazishning aniq kuni va har bir vazn toifasida bellashuvning vaqti belgilangan dasturi.

Mashg'ulotni xulosalab aytish mumkinki, mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyati asoslarini qurish sharoitida o'zbek milliy kurashi va uning turlari, yosh avlodning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, salomatligini mustahkamlash, jamoalarda mukammal ruhiy muhitni yaratishda jahonshumul ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o'zbek milliy kurashining jahon sport arenalarida nufuzining oshishi, dunyo xalqlarining o'zbek milliy kurashiga qiziqishining oshishi, 1999-yildan boshlab O'zbekiston, Turkiya, Vengriya, Armaniya, Mangoliya, Dominakan, Hindiston mamlakatlarida o'tkazilgan jahon chempionati dasturiga mazkur kurash turining kiritilishi qalbimizni faxr va iftixorga to'ldiradi. Xususan, Milliy kurashning umumiy qoidalari O'zbekistonda yaratilishi, Xalqaro Kurash Assotsiyasining O'zbekiston Respublikasi tashabbusi bilan tashkil etilishi, uning faxriy Prezidentligiga Respublikamiz birinchi Prezidenti Islom Karimov va Prezidenti etib Komil Yusupovning tayinlanishi jahon sportsevar xalqlarining O'zbek milliy kurashiga bo'lgan katta hurmat namunasidir.

Ko'rib o'tganimizdek, O'zbek milliy kurashining umumiy qoidalari asosida turli mavqedagi turnirlar, musobaqalar, jahon chempionati o'tkazilmoqda.

Mashg'ulot jarayonida sizlar bergan savollar va unga hamkurslaringiz, ma'ruzachi tomonidan berilgan javoblar o'zbek milliy kurashiga u bo'yicha o'tkazilgan turli musobaqalarga va bu musobaqalarning O'zbekistonlik olimlar tomonidan tuzilgan milliy kurash qoidalari asosida o'tkazilishi hammamizga katta qiziqish hamda faxr uyg'otadi. Chunki milliy kurash xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, har bir xalqning umumiy madaniyatini, jumladan, jismoniy madaniyatining mazmunini teranroq anglashi hamda mukammalroq bilish uchun hayot tarziga aylanib ulgurgan holatdir.

**“TASDIQLAYMAN”**

**O`zbekiston kurash  
federatsiyasi bosh kotibi**

\_\_\_\_\_ .....

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2020 yil

**“KELISHILGAN”**

**O`zbekiston Respublikasi  
jismoniy tarbiya va sport vazirining  
birinchi o`rinbosari**

\_\_\_\_\_ .....

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2020 yil

**Sportning kurash turi bo`yicha O`zbekiston chempionati,  
O`zbekiston kubogi hamda Respublika turniri musobaqalarini o`tkazish  
to`g`risidagi**

**NIZOM**

**Toshkent-2020**

# **Sportning kurash turi bo'yicha O'zbekiston chempionat, O'zbekiston kubogi hamda Respublika turniri musobaqalarini o'tkazish to'g'risidagi**

## **NIZOM**

Mazkur Nizom kurash sport turi bo'yicha respublika sport musobaqalarining (bundan buyon matnda musobaqa deb yuritiladi) maqsadi asosiy vazifalari, sport musobaqalari jarayonini tashkil etish boshqarish, o'tkazishga rahbarlik qilish, moliyalashtirish, shuningdek musobaqa g'olib va sovrindorlarini taqdirlash tartibini belgilaydi.

### **I. Umumiy qoidalar**

1. Musobaqalarda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlarda o'tkazilgan musobaqa g'oliblari shuningdek, viloyat terma jamoalari ishtirok etishlari mumkin.

2. Musobaqani o'tkazish uchun hakamlar hay'ati tarkibi O'zbekiston Kurash federatsiyasi tomonidan berilgan tavsiyasi asosida O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi (bundan buyon matnda vazirlik deb yuritiladi) tomonidan tasdiqlanadi.

3. Musobaqalarni o'tkazish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, mazkur Nizomga hamda boshqa qonun hujjatlariga amal qilinadi.

### **II. Musobaqaning maqsad va vazifalari**

4. Musobaqaning maqsadi sportchilarni kurash sport turiga jalb qilish natijasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, kurash sport turini aholi o'rtasida ommalashtirish va uni yanada rivojlantirish, musobaqalarni o'tkazish orqali iqtidorli sportchilarni saralab olib, milliy terma jamoa tarkibiga kiritishdan iboratdir.

5. Musobaqalarning vazifasi Respublika hududlari va sport tashkilotlarida turli yosh toifalarida kurash sport turi bo'yicha sportchilarning tayyorgarlik



darajasini aniqlash va ularni saralab olish, O`zbekiston milliy terma jamoalari tarkibini shakllantirish, shuningdek kurash sport turi bo`yicha kuchli sportchilarni aniqlash, trener va hakamlarning malakasini oshirish, o`tkaziladigan musobaqalar natijalarini tahlil qilish orqali kamchiliklarni bartaraf etishdan iborat.

### **III. Musobaqani o`tkazishga rahbarlik**

6. Musobaqalarni o`tkazishga umumiy rahbarlik vazirlik tomonidan hamda bevosita rahbarlik qilish O`zbekiston kurash federatsiyasi (bundan buyon matnda federatsiya deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

7. Musobaqani o`tkazishda hakamlar hay`ati tarkibi federatsiya tomonidan vazirlikka taqdim qilinadi. Hakamlar hay`ati tarkibi O`zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirining buyrug`I bilan tasdiqlanadi.

8. Musobaqalarni adolatli va shaffof holda o`tkazilishi hakamlar hay`ati zimmasiga yuklatiladi.

9. Musobaqada ishtirok etuvchilarning hujjatlarini qabul qilish va rasmiylashtirish federatsiya (uyushma)lar tomonidan amalga oshiriladi.

### **IV. Musobaqani o`tkazish joyi va muddati**

10. Musobaqalar Respublika hududida amaldagi Xalqaro federatsiya qoidalari asosida o`tkaziladi.

11. Vazirlikning 2020 yil uchun sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari kalendar rejasiga asosan sportning kurash turi bo`yicha musobaqalar ro`yxati mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq, sportning kurash turi bo`yicha o`tkaziladigan musobaqalar Nizomning 2-ilovasiga muvofiq amalga oshiriladi.

12. Mandat kommissiyasining ish vaqti, sanasi hamda joyi musobaqa dasturida ko`rsatib o`tiladi.

### **V. Musobaqada ishtirok etish shartlari**

13. Musobaqalarda Qoraqalpog`iston Respublikasi, Toshkent shahar, viloyatlar bosqichi chempionatlarida g`olib va sovrindor hamda iqtidorli sportchilardan tashkil topgan viloyat terma jamoalarini ishtirok etishiga ruxsat etiladi.

14. Musobaqa ishtirokchilarining yosh toifalari O`zbekiston kurash federatsiyasi tomonidan tasdiqlangan norma va talablarga ko`ra amalga oshiriladi.

15. Musobaqa hakamlari, tegishli mutaxassislar, tibbiyot xodimlari mazkur Nizomning 3-ilovasiga muvofiq shakldagi tarkibda belgilanadi.

16. Sport musobaqasida sportchilar va trenerlar Xalqaro federatsiya tomonidan tasdiqlangan musobaqa qoidalariga hamda O`zbekiston kurash federatsiyasining reglamentiga asosan bir xildagi sport kiyimida ishtirok etishlari shart.

17. Musobaqada hakamlar va trenerlarning yig`ilganidan foydalanib seminar, master-klasslar hamda dashat sessiyalari o`tkazilishi mumkin.

## **VI. Musobaqani o`tkazish shartlari**

18. Musobaqani o`tkazish shartlari sport turining xususiyati, xalqaro norma va talablardan kelib chiqib belgilanadi. Musobaqaning tegishli tartib va qoidalari 2019 yil 11 dekabr kunidagi kurash sport turi bo`yicha trenerlar kengashining 20 – sonli yig`ilish bayonida muhokama qilingan va jamoalarning vakillariga yetkazilgan.

19. Musobaqalar O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 29 iyuldagi 205-son “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o`tkazish tadbirini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tog`risida”gi qaroriga asosan tashkil etiladi.

20. O`zbekiston chempionatlari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi PQ–3031-son qarori bilan tasdiqlangan O`zbekiston Respublikasida Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish dasturining 68-pozitsiyasi talablariga muvofiq tashkil etiladi.

21. Musobaqaning o`tkazilishi O`zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirining buyrug`i bilan tasdiqlangan musobaqaning bosh hakami zimmasiga yuklatiladi.

22. Musobaqa nizomining tegishli bandlariga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritilgan taqdirda musobaqalar boshlanishidan 3 kun oldin musobaqa ishtirokchilariga taqdim etiladi.

## **VII. Musobaqada ishtirok etish uchun talabnomalarni taqdim etish shartlari**

23. O`zbekiston kurash federatsiyasining me`yor va talablari asosida talabnoma (buyurtma)larni taqdim etish shakli mazkur Nizomning 4-ilovasiga muvofiq jamoalar tomonidan mandat komissiyasiga asl nusxada taqdim etiladi.

24. Musobaqada ishtirok etish uchun sportchilardan O`zbekiston kurash federatsiyasi qoidalari asosida kurash sport turining xususiyatlaridan kelib chiqib quyidagi hujjatlarni taqdim etish talab etiladi:

a) pasport (asli ko`rsatiladi);

b) sportchilarning sug`urta varaqasi;

b) tibbiyot muassasasining vrachi tomonidan sportchining musobaqada ishtirok etishiga ruxsat berilishi (imzo va muhri bilan tasdiqlangan holda);

r) hududiy jismoniy tarbiya va sport boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan hamda hududiy federatsiyalar bilan kelishilgan talabnoma (buyurtma).

25. Musobaqada ishtirok etish uchun talabnoma (buyurtma), musobaqa boshlanishidan 10 kun oldin tegishli manzil (xxxx telefon raqam, [ukf.kurash@mail.com](mailto:ukf.kurash@mail.com) elektron manzili) ga topshiriladi.

## **VIII. Musobaqani moliyalashtirish manbalari**

26. Musobaqada ishtirok etuvchi sportchilar, trenerlarning ovqatlanishi, yotoqxon va yo`l harajatlari safarga yuboruvchi tashkilotlar tomonidan; musobaqada ishtirok etuvchi hakamlarning harajatlari vazirlik tomonidan, ayrim hollarda federatsiya va homiyalar tomonidan; musobaqada xizmat qiluvchi xodimlarning harajatlari federatsiya tomonidan amalga oshiriladi.

27. Musobaqani moliyalashtirishi yuzasidan ushbu Nizomning moliyalashtirish shartlariga vazirlik tomonidan o`zgartirish va qo`shimchalar kiritilishi mumkin.

## **IX. Musobaqa natijalari yuzasidan berilgan murojaatlarni ko`rib chiqish**

28. Musobaqa natijalari bo`yicha berilgan murojaatlarni ko`rib chiqish uchun federatsiyaning ijroiya qo`mitasi tomonidan ko`rib chiqib qaror qabul qilinadi.

29. Musobaqa natijasi bo`yicha murojaatlar jamoaning treneri tomonidan musobaqadan so`ng musobaqa bosh hakamiga taqdim etiladi.

30. Berilgan murojatlar federatsiyaning ijroiya qo`mitasi tomonidan o`rganib chiqilib, ular yuzasidan tegishli qaror qabul qilinishi bir ish kunida belgilanadi.

31. Qabul qilingan qaror natijasi bo`yicha ijroiya qo`mitasi tomonidan murojaat qilgan trenerga bir ish kuni ichida yozma (yoki og`zaki) tartibda javob berilishi ma`lum qilinadi.

32. Federatsiyaning ijroiya qo`mitasi murojaatni ko`rib chiqish natijalariga ko`ra musobaqa natijasini bekor qilishi yoki unga tegishli o`zgartirish kiritishi mumkin.

33. Federatsiyaning ijroiya qo`mitasi murojaatni ko`rib chiqish natijalari bo`yicha qabul qilgan qarori yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

#### **X. Musobaqa g`olib va sovrindorlarini taqdirlash**

34. Musobaqalarning g`olib jamoalari federatsiya tomonidan ko`chma kubok bilan taqdirlanadi.

35. Musobaqaning g`olib va sovrindorlari vazirlik tomonidan tasdiqlangan I, II, va III-darajali tegishli diplomlar hamda federatsiya tomonidan medallar bilan taqdirlanadi.

#### **XI. Yakuniy natijalar tahlili**

36. Federatsiya o`tkazilgan musobaqalar to`g`risida vazirlik tomonidan tasdiqlangan hisobot shakli bo`yicha vazirlikka musobaqa tugagandan so`ng 3 kun muddat ichida musobaqaning yakuniy natijalari yuzasidan moliyaviy va texnik hisobotlarni taqdim etadi.

**Sport yakkurashlari bo`yicha Respublika**

**oily sport mahorati maktabi direktori**

\_\_\_\_\_

**O`zbekiston kurash federatsiyasi bosh kotibi**

\_\_\_\_\_

**Erkaklar milliy terma jamoasi bosh treneri**

\_\_\_\_\_

**Ayollar milliy terma jamoasi bosh treneri**

\_\_\_\_\_

Sportning kurash turi bo'yicha O'zbekiston  
chempionati, O'zbekiston kubogi hamda  
Respublika turniri musobaqalarini o'tkazish  
to'g'risida nizomiga

1-ILOVA

## Kurash sport turi bo'yicha musobaqalar

### RO'YXATI

T/p	Tadbir nomi	Musobaqani o'tkazish vaqti	O'tish joyi	Viloyat chempionatlar
<b>1</b>	<b>O'smirlar va o'smir qizlar o'rtasida O'zbekiston chempionatlari va kuboklari</b>			
1.1	2007-2008 yilda tug'ilgan o'smirlar va o'smir qizlar o'rtasida O'zbekiston chempionatlari	Aprel	O'zbekiston hududida	Mart-aprel
	Vaznlar: o'smirlar: , 33, 36, 40,44,48, 52, 56, 65, 70, + 70 kg. qizlar: 30, 33, 36, 40,44,48,52,57,+57			
1.2	2005-2006 yilda tug'ilgan o'smirlar va o'smir qizlar o'rtasida O'zbekiston chempionati	May	O'zbekiston hududida	Aprel-may
	Vaznlar: o'smirlar: 38,42,46,50, 55, 60, 65,71, 77, 83, + 83 kg. Qizlar: 33, 36, 40,44,48,52,57,63, +63 kg			
1.3	2003-2004 yilda tug'ilgan o'smirlar va qizlar o'rtasida O'zbekiston chempionati (Sohil kurashi)	Iyun	O'zbekiston hududida	May-iyun
	Vaznlar: o'smirlar: 42, 46,50, 55, 60, 66,73, 81, 90, + 90 kg. Qizlar: 36, 40,44,48,52,57,63,70,+70			
1.4	2003-2004 yilda tug'ilgan o'smirlar va qizlar o'rtasida O'zbekiston chempionati	Sentyabr	O'zbekiston hududida	Avgust-sentyabr
	Vaznlar: o'smirlar: 38,42, 46,50, 55, 60, 65,71,77, 83, +83 kg. Qizlar: 36, 40,44,48,52,57,63,70,+70			
<b>2</b>	<b>Yoshlar o'rtasida O'zbekiston chempionatlari va Kuboklari</b>			
2.1	O'zbekiston chempionati (oily ta'lim muassasalariga imtihonlarsiz kirish huquqini beruvchi)	Aprel	O'zbekiston hududida	Mart-aprel
	Vaznlar: yoshlar: 50,55, 60,66,73,81,90 +90 kg qizlar: 44, 48.52, 57, 63,70, 78,+78 kg			
2.2	2000-2002 yilda tug'ilgan Yoshlar va qizlar o'rtasida O'zbekiston chempionati	Mart	O'zbekiston hududida	Fevral-mart
	Vaznlar: yoshlar 50, 55, 60,66,73,81,90,100,+100 kg qizlar: 44, 48.52.63,70, 78,+78 kg			
2.3	2001-2002 yilda tug'ilgan Yoshlar va qizlar o'rtasida O'zbekiston kubogi	Oktyabr	O'zbekiston hududida	Sentyabr-oktyabr
	Vaznlar: yoshlar 50, 55, 60,66,73,81,90,100,+100 kg			

	qizlar: 44, 48.52.63,70, 78,+78 kg			
<b>3</b>	<b>Kattalar o`rtasida O`zbekiston Chempionatlari va kuboklari</b>			
3.1	Erkaklar va ayollar o`rtasida O`zbekiston chempionati	Fevral	O`zbekiston hududida	Yanvar-fevral
	Vaznlar: erkaklar: 60, 66, 73, 81, 90, 100, +100 kg ayollar: 48, 52, 57, 63, 70, 78, +78 kg.			
3.2	Erkaklar va ayollar o`rtasida sohil kurashi bo`yicha O`zbekiston championati	Iyun	O`zbekiston hududida	May-iyun
	Vaznlar: erkaklar: 60, 66, 73, 81, 90, 100, +100 kg ayollar: 48, 52, 57, 63, 70, 78, +78 kg.			
3.3	Erkaklar va ayollar o`rtasida O`zbekiston kubogi (shaxsiy va jamoalar o`rtasida)	Dekabr	O`zbekiston hududida	Noyabr-dekabr
	Vaznlar: erkaklar: 60, 66, 73, 81, 90, 100, +100 kg shaxsiy ayollar: 48, 52, 57, 63, 70, 78, +78 kg shaxsiy jamoaviy: erkaklar: 66, 73, 81, 90, +90 jamoaviy ayollar: 52, 63, 78, +78 jamoaviy			

Sportning kurash turi bo`yicha O`zbekiston  
 chempionati, O`zbekiston kubogi hamda  
 Respublika turniri musobaqalarini o`tkazish  
 to`g`risida nizomiga

2-ILOVA

## Sportning Kurash turi bo`yicha o`tkaziladigan musobaqalar

### DASTURI

O`tish muddati	Vaqti	Tadbirlar
1-kun	16:00-17:00	Ishtirokchilarning yetib kelishi va ro`yxatdan o`tishi
	17:00-18:00	Mandat komissiyasining yig`ilishi
	18:00-19:00	Hakamlar uchun seminar
	19:00-20:00	Sportchilarni tarozidan o`tkazish
	20:00-20:30	Qur`a tashlash
2-kun	10:00	Musobaqaning boshlanishi
	13:00-14:00	Musobaqaning ochilish marosimi (vaziyatga qarab vaqti o`zgarishi mumkin)
	14:00-17:30	Musobaqa davomi
	17:30-18:00	G`olib va sovrindorlarni taqdirlash marosimi
	18:00-19:00	Sportchilarni tarozidan o`tkazish
	19:00-19:30	Qur`a tashlash
3-kun	10:00	Musobaqaning boshlanishi
	17:30-18:00	G`olib va sovrindorlarni taqdirlash marosimi
	18:00-19:00	Sportchilarni tarozidan o`tkazish
	19:00-19:30	Qur`a tashlash
4-kun	10:00	Musobaqaning boshlanishi
	15:00	G`olib va sovrindorlarni taqdirlash marosimi
	16:00	Musobaqa ishtirokchilarining jo`nab ketishi

Sportning kurash turi bo'yicha O'zbekiston  
chempionati, O'zbekiston kubogi hamda  
Respublika turniri musobaqalarini o'tkazish  
to'g'risida nizomiga

3-ILOVA

### Hakamlar hay'ati soni

<b>T/p</b>	<b>Nomi</b>	<b>Soni</b>
1.	Bosh hakam	1
2.	Bosh hakam yordamchilari	1
3.	Bosh kotib	1
4.	Gilam rahbarlari	3
5.	Gilamdagi hakamlar	20
6.	Tablodagi hakam	3
7.	Ma'lumot beruvchi	2
Ishchi xizmatchilar		
12.	Komendant	1
13.	Komp'yuterchi	1
14.	Shifokor	2
15.	Xamshira	2
16.	Ishchilar	3
<b>Jami</b>		<b>40</b>



Sportning kurash turi bo'yicha O'zbekiston  
chempionati, O'zbekiston kubogi hamda  
Respublika turniri musobaqalarini o'tkazish  
to'g'risida nizomiga

4-ILOVA

### Talabnomalar (buyurtmalar)ning namunasi

“Tasdiqlayman”

Jismoniy tarbiya va sport vazirligining  
hududiy boshqarmalari rahbarlari

\_\_\_\_\_ F.I.SH.  
“\_\_” \_\_\_\_\_ 2020 yil

“Kelishildi”

Sport turlari bo'yicha hududiy  
federatsiya rahbarlari

\_\_\_\_\_ F.I.SH.  
“\_\_” \_\_\_\_\_ 2020 yil

(hudud nomi, sport turi, musobaqa nomi)

### TALABNOMA

T/p	Sportchining F.I.SH.	Tug'ilgan yili	Sport razryadi	Vazni	Sport tashkiloti	Treneri	Shifokor
1.							
2.							
3.							
4.							
5.							
6.							
7.							
8.							

*Izoh: Sport turning xususiyatidan kelib chiqib 15% gacha o'zgartirish kiritish mumkin.*

**Bosh trener**

\_\_\_\_\_ (imzo)

\_\_\_\_\_ (F.I.SH)

**Shifokor**

\_\_\_\_\_ (imzo)

\_\_\_\_\_ (F.I.SH)

### **Mavzuga oid nazorat savollari.**

1. Milliy kurash va uning turlari O'zbekiston hududlarida qachon paydo bo'lgan va rivojlangan?
2. Hozirgi kunda sport kurashi turlarining paydo bo'lishi va rivojlanishini gapirib bering?
3. O'zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya tizimida milliy kurash qanday mavqega ega?
4. Dzyu-do va sambo kurashining asoschilari kim va bu sport kurashi turlari haqida nima bilasiz?
5. Yunon-rom va erkin kurash qaysi davlat kurashi hisoblanadi? Ular qanday kurash turlari hisoblanadi?
6. O'zbek milliy kurashining qoidalari kim tomonidan va qachon, qayerda ishlab chiqilgan?
7. O'zbek milliy kurashi musobaqasi shartlari, talablarini tushuntirib bering?
8. Musobaqa qatnashchilarining huquqlari, kiyimlari, vazn toifalarini aytib bering?
9. Musobaqa hakamlari hay'ati, ularning vazifalari, huquqlarini aytib bering?
10. O'zbek milliy kurashi bo'yicha birinchi jahon chempionati qachon va qayerda bo'lgan? Kimlar uning mutloq g'olibi hisoblanadi?
11. Milliy kurash bo'yicha kattalar o'rtasida jahon chempionati qachon va qaysi mamlakatda o'tkazilgan va uning g'oliblari kimlar?
12. Yoshlar o'rtasida, kurash bo'yicha jahon chempionati qaysi mamlakatda o'tkazilgan va ularning g'oliblari haqida nimalarni bilasiz?

### **Adabiyotlar**

1. Kerimov. F.A. Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati. – T. 2018.
2. Kerimov F.A. Teoriya i metodika sportivnoy borbi. T. 2018.
3. Yusupov K.T. Kurash musobaqalarining umumiy qoidalari T. 1999.

### **III BOB. SUZISH BO`YICHA MUSOBAQALAR O`TKAZISH VA HAKAMLIK QILISH.**

Ma`lumki, suzish jismoniy tarbiyaning bir turidir. Shunday ekan, badanni jismonan chiniqtirishda, organizmni yanada sog'lomlashtirishda uning foydasi beqiyosdir. Chunki bolaning ham, katta kishining ham suvda suzganda bir necha emas, balki barcha mushaklar tizimi harakatga tushadi, binobarin, odam gavdasi bir butun holda mutanosib rivojlanadi. Bejiz emaski, suzish bilan muntazam shug'ullanib kelayotgan bolaning bo`g'imlari harakatchan, mustahkam, bir me`yorda harakatlanadigan, paylari, mushaklari yaxshi taraqqiy etgan bo`ladi. Ayniqsa, odam gavdasining suvda gorizontal holda harakatlanishi, uning tik turib bajargan harakatlaridan ma`lum darajada farq qiladi. Binobarin, bolaning tik turib, yurib, yugurib bajargan mashqlari uning pay, mushak va bo`g'imlariga bir tomondan ta`sir ko`rsatsa, suvda suzib bajargan mashqlari unga ikkinchi tomondan ta`sir ko`rsatadi. Gavdaning raso va adl bo`lib rivojlanishida, ayniqsa, umurtqa pog'onasi qiyshayib qolishining (skoliozning) oldini olishda suzishning ahamiyati juda kattadir. Shu sabab ham suzish umurtqa pog'onasi kasalliklarini davolashda keng tavsiya qilinadi.

Suvda suzish organizmni chiniqtirish manbai hamdir. Buni albatta, dastlab suv muolajalaridan keyin boshlash kerak. Chunki suv o`zining fizik xossalari, ya`ni issiqlikni o`ta o`tkazuvchanligi, katta issiqlik sig'imiga ega ekanligi va teriga mexanik ta`sir ko`rsatishi bilan, suvga o`rganmagan organizmni shamollatib qo`yishi mumkin.

Suv muolajalarini, xususan, ularning turlarini muntazam ravishda har kuni, muayyan shart-sharoitda, bolaning yoshiga, sog'ligiga qarab bajarish kerak. Suv muolajalariga suv vannalari, dush, badanni ho`l sochiq bilan artish, boshdan suv quyish, ho`l choyshabga o`ralish kabilar kiradi. Badanni ho`l sochiq bilan artganda suv unga yengil-yelpi ta`sir ko`rsatadi, tetik, bardam qiladi, qon aylanishini, moddalar almashinuvini oshiradi. Buning uchun harorati 30<sup>0</sup> atrofidagi suvga sochiqni ho`llab, so`ng yaxshilab siqib, dastlab qo`l-oyoq, so`ng badan artiladi,

keyin quruq sochiq bilan bola terisi qizarguncha ishqab artiladi. Bir necha kun shunday qilgandan so`ng, suv haroratini 25-30°S gacha tushirish mumkin. Bu muolajada eng foydali omil - bu suv harorati-yu, terini qizartirib artishdir. Boshdan suv quyish, bu - bola suvga ancha o`rganganidan keyin, suvdan qo`rqmay qolgandan so`ng bajariladi. Suv harorati 38-37° bo`lishi lozim. Buning uchun bolani vannada turg`azib qo`yib, suv idishga solinadi-da, «mana hozir ustingdan ozgina suv quyaman...» deb ogohlantirib turib, so`ng quyilayotganda bolaning eti junjiksa, yoki u qo`rqib ketsa, bunda muolajani davom ettirishga shoshilmaslik kerak. Bordi-yu, bolaga suv yoqsa, unda yana ikki-uch marta quyish mumkin, so`ng bunda ham albatta, to bola isiguncha (terisini qizartirib) quruq sochiq bilan artish, o`rash zarur. Shu tariqa sekin-asta suv harorati pasaytirib boriladi. Ho`l sochiq bilan artinish muolajalari kattaroq yoshdagi bolalargagina lozim va bu aksariyat davolash-profilaktika maqsadlarida bajariladi. Chunki badanga tana haroratidan past harorat tegib turgach, turidagi mayda kapillyar tomirlar torayadit, natijada issiqlik yo`qolishi kamayadi, qon oqimiga bo`lgan qarshilik oshadi, qon bosimi bir qadar ko`tariladi va oqibatda yurakka zo`r keladi, uning urushini tezlashtiradi. Bular va yana nerv tizimining ta`sirlanishi, mushaklar tonusining oshishi, qon oqimining tezlashishi - hammasi bir bo`lib moddalar almashinuvini yaxshilaydi. Butun badan qizib, bola yengil tortadi, xushchaqchaq bo`ladi, tetiklashadi. Albatta, bunga bola badanini uqalash, artinish muolajalarini qo`shib olib borilsa, kutilgan natija ham samarali bo`ladi.

Suzishga o`rgatishni odatda 4-5 yoshdan boshlash mumkin, hozir esa, ayrim maxsus sport uyushmalarida hatto chaqaloqlikdan boshlab ham o`rgatilmoqda. Tibbiyotchilarning fikricha, bu bola organizmiga yana ham foydali ta`sir qilar ekan. Agar bolaning paylari, mushaklari qayishqoq, bo`g`imlari moslashuvchan, gavdalari egiluvchanligini hisobga olsak, kam deganda uni suzishga 7-8 yoshdan, sport mashqlarini esa 9-11 yoshdan boshlagan ma`qul. Shunda bola sog`lom va baquvvat bo`lib o`sadi, turmushda, hayotda, jismoniy ishlarda pand emaydi.

Ko`pchilikka ma`lumki, sport, jismoniy tarbiya, shu jumladan suzish ko`p dori-darmonlardan ko`ra foydaliroqdir. CHunki sovuq suvga o`rgangan, chiniqqan

bola organizmi sovuq shamoldan, ob-havoning damba-dam sovib-isib turishidan, namlikdan qo`rqmaydi, ularga tezda moslashib oladi va bundan sovuq omillar ham uni bezovta qilolmaydi.

Ba`zi ota-onalar - bolam cho`kib ketishi mumkin, deb farzandlarini suzishga qiziqirmaydilar. Lekin suzishni bilmaslik ko`p hollarda fojiaga sabab bo`ladi. Suzishni bolalikdan o`rgangan yaxshi. Baroq uni katta bo`lganda ham o`rganish mumkin. Suzishning foydasi faqat yuqorida aytib o`tilganlardagina emas, balki, masalan, bolalardagi yassioyoqlikning oldini olishda ham ahamiyatga ega. Chunki bola suvda suzganida ayniqsa, oyoqlar tinimsiz harakat qiladi, kuch bilan suvni har xil shaklda, har xil yo`sinda tepadi, demak, boldir mushaklari bilan birga oyoq panja mushaklari, paylariga zo`r keladi, binobarin, ular ham muttasil harakatlanadi, ish bajaradi. Natijada, oyoq panjalari, bo`g`imlari mustahkamlanib boradi, har xil qiyshayishlarga o`rin qolmaydi.

Suzishning nafasga ta`sirini aytmayizmi: odam suvda suzayotganda beixtiyor nafasga zo`r keladi. Agar suzayotgan kishi havoni o`pkasiga tez olib, uzoq-uzoq chiqarsa, uning nafas maromi to`g`ri bajariladi va o`pkaning hayotiy sig`imi borgan sari ortib boraveradi, bu esa o`z navbatida har xil o`pka kasalliklaridan, halloslab qolishlardan saqlaydi. Yana eng keragi - bola organizmi kislorod tanqisligiga ko`nikib boradi, o`rganadi.

Suzayotgan kishining gavdasi odatda, gorizontal holatda bo`ladi, binobarin, uning ichki a`zolari ham, xususan, yurak ham shu holatni oladi. Bu esa uning ishini yengillashtiradi. Shu jihatdan olib qaraganda, odam tik turib, mashqlar bajargandagiga qaraganda suvda suzganda yurakka nisbatan kamroq zo`r keladi. Shu sababli suvdan charchab chiqqan odam quruqlikda, ya`ni tik holatda o`zida yana ham toliqish sezadi. Yuragi hali chiniqmagan, sportchilar yuragiga tenglashmagan kishilar (bolalar) buni esdan chiqarmasliklari kerak. Lekin har qanday holda ham suzishning yurak-tomir tizimiga va odam asabiga ijobiy ta`siri beqiyosdir. Oddiy misol: suzish bilan muntazam shug`ullanib yurgan odamning tomir urishi suvga tushmay yurgan kishinikiga qaraganda 10-15 marta kam uradi. Aksariyat voqealarda "kam" degani salbiy ma`noga ega bo`lsa ham, yurak-tomir

urishida, nafas olish sonida «kam», «ko`p» deyishdan ko`ra ancha ijobiy ahamiyatga, foydaga molikdir.

Kezi kelganda, shuni ham aytib o`tsi kerakki, suvga tushganda tik turmay, harakatlanish lozim. Bola organizmida suvdagi tinch holat emas, harakat holati zarur. U qancha ko`p harakat qilsa, shuncha ko`p foydali bo`ladi. Suzishning boshqa suv muolajalaridan farqi va sog`lomlashtirish omili uning harakatidadir. Shunda suvning organizmga sovuq ta`siri ham deyarli sezilmaydi. Aks holda, masalan, kasallikdan turgan bolalarni suvda chiniqtirishga o`rgatiladigan paytlarda, ya`ni biror sababga ko`ra, bola cho`milayotganda suzmasa, tez harakatlarni bajarmasa, u holda suvning harorati 2-4° ortiq, suvda bo`lish muddati 30-40 daqiqa kam bo`lishi lozim. Binobarin, cho`milish, suzish uchun tayyorgarlik ko`rganda suvning haroratini, suvda bo`lish muddatini oldinga qo`yilgan maqsaddan kelib chiqib tanlash zarur.

Suzishning sport turlaridan biri bo`lib, jahonga tarqalishida dastlab, uning organizmni sog`lomlashtaruvchi ta`siri turtki bo`lgan. Endi, vaqti kelib, suzish sportning eng ommalashgan ko`rinishi sifatida o`zining ma`lum bosqichlariga ega bo`ldi.

Suzish - dars sifatida jismoniy tarbiya oliy o`quv yurtlarining o`quv dasturiga va jadvaliga kiritilgan. O`rta maktab oliy va o`rta maxsus bilim yurtlarining jismoniy tarbiya bo`yicha o`quv dasturlarida majburiy fakul`tativ kurs sifatida o`rin olgan. Maktablarda sharoitga qarab jismoniy tarbiya darslarida suzishga o`rgatish bo`yicha mashg`ulotlar olib borilmoqda. O`z maktabida sharoit bo`lmasa, yaqin atrofdagi basseynlar ijaraga olinmoqda yoki yoz oylarida ochiq suv havzalarida va lagerlarida suzish mashg`ulotlari o`tkazilmoqda. Bu ishlarning hammasi davlat dasturiga muvofiq tasdiqlangan rejalar asosida olib boriladi. Suzishdagi tarbiyaviy ishlar butun mashg`ulot jarayonida olib borilib, bolalarning jamoatchilik ruhida, ongli, intizomli, tashabbuskor, sabr-matонатli, jasur, dadil va irodali bo`lib o`sishiga katta ta`sir ko`rsatishi biz uchun juda muhim ahamiyatga molikdir.

Suzish, odatda, anatomiya, biologiya, fiziologiya, pedagogika, psixologiya, biomexanika, bioximiya, tibbiyot va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu bilan biz quyida kurs dasturini bayon qilish davomida tanishib boramiz.

Suzish darsining vazifasi - inson uchun hayotiy zarur bo'lgan malakani - suzishni o'rgatish va yuqorida aytib o'tganimizdek, odam organizmini chiniqtirish va sog'lig'ini mustahkamlashni o'z ichiga oladi.

Geografiya, botanika va zoologiya kurslaridan ma'lumki, bundan taxminan ikki-uch milliard yil ilgari yer kurrasi yuzasining ko'p qismi suv bilan qoplangan, hozir esa, yer kurrasining 70,8 foizini suv tashkil etadi.

Geologiya fanidan ma'lumki, tabiatda suv juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. U tog' jinslarini parchalab, eritib, erigan tog' jinslarini va boshqa moddalarni oqizib kelib, tuproq qatlamini hosil qilgan. Dastlabki eng sodda organizmlar ham xuddi ana shu suv bag'rida paydo bo'lgan va yillar o'tishi bilan asta-sekin quruqlikda qolib, hayot vujudga kelgan. Botanika va zoologiya ilmi ham buni tasdiqlaydi.

Arxeologik qazilmalardagi suratlar, qadimgi kishilar dafn etilgan joylardan topilgan ashyolar shundan dalolat beradiki, ibtidoiy jamoa davrida erkaklar ovqat topish uchun suv havzalariga borib, suv hayvonlarini ov qilganlar, baliq tutganlar, qabila-qabila bo'lib, suv ostidan kemalarga hujum qilganlar va buning uchun albatta, suzishni bilganlar. Ular tabiiyki, asta-sekin suv osti boyliklaridan foydalanishni, masalan, - suv ostidan chig'anoq va dur kabi ziynat buyumlari, keyinchalik esa qimmatbaho minerallar olib chiqishni o'rganishgan. Ko'rinib turibdiki, inson hayoti qadimdan suv muhiti bilav chambarchas bog'liq bo'lgan. Ayniqsa, yer kurrasining janubiy mamlakatlarida yashovchi qabilalar uchun bolalarni suvda suzishga o'rgatish hayotiy zaruriyat sanalgan. Ilmiy ma'lumotlarga qaraganda, Yunonistonda bizning eramizdan 3000-4000 yillar ilgari ham, odamlar suzishni bilganlar va ular suvda cho'milishni gigiyenik jihatdan yuqori baholashgan.

F.Engel'sning yozishicha, o'rta asr sarkardalari o'z askarlarini kiyimsiz qanday suzsalar, qurol-aslaha bilan ham shunday suzishga-majbur etganlar. Suzish

ular uchun birinchi navbatda jismoniy tayyorgarlik ko`rish hisoblangan. Dunyoning taniqli allomalari: Suqrot, Arximed va yozuvchi mutafakkirlari: Fransua Rable, Tomas Mor, Jan-Jak Russo va boshqalar o`z asarlarida suzishning sog'lomlashtiruvchi ta`sirini targ'ib etishgan. Vaqtlar o`tib, zamonlar o`zgarib, suzish asta-sekin. sport tusini kasb etgan. Davrlar, yillar davomida sportcha suzishning texnikasi o`zgarib, suzish ko`rsatkichlari ham oshib borgan.

Sharq mamlakatlarida, xususan O`rta Osiyoda ham suvda suzishga intilish, o`rganish kuchli bo`lgan. Ayniqsa, Amudaryo bilan Sirdaryo va Orol sohillarida yashovchi xalqlar bir tomondan tirikchilik uchun bo`lsa, ikkinchi tomondan, harbiy mashg`ulot sifatida, uchinchi tomondan esa, zaruriyat taqozosi yuzasidan suzishni o`rganishgan, bilishgan. Mashhur «Qobusnoma» asarining 6-bobidagi hikoyatda suzishni bilishning ahamiyati naqadar katta ekanligi jonli misollarda obrazli qilib juda ta`sirchan bayon qilingan. Shu asarning «Farzand parvarish qilmoq zikrida» degan bobida ham suvda suzishga oid ibratli fikrlar ifodalangan: «Bu o`rgatgan hunarlaringizni zarur vaqtda o`g`limning o`rniga boshqa kishi qilsa ham bo`ladi, ammo zarur vaqtda o`g`limning o`zi qiladigan, uning uchun boshqalar qila olmaydigan hunarni o`rgatmapsizlar», - deydi amir o`g`lining ustozlariga. Ular bir og`izdan: «U qaysi hunar?» deb so`raydilar. Ota: «Suvda suzmoqdirki, buni boshqa kishi o`g`lim uchun qila olmaydi», - deydi. Shundan keyin shahzodani suzishga o`rgatadilar. Oradan yillar o`tadi. Kunlardan bir kun shahzoda o`z yaqinlari bilan dengiz safariga otlanadi. Ular dengizdan o`tayotganlarida xavfli girdobga duch kelishadi; Kemachi kemani boshqara olmay qoladi va yigirma yetti chog`lik kishi birdan suvga g`arq bo`ladi. Faqat suzishni yaxshi bilgan shahzoda va uning quligina omon qoladilar.<sup>2</sup>

Ko`rinib turibdiki, suzish avvalo kishini halokatdan qutqaradi, qolaversa, salomatlikni mustahkamlaydi - buni qadimdan ota-bobolarimiz, tibbiyot ahli yaxshi bilganlar: «Ming afsuski, suzishga doir ma`lumotlar bizgacha yetib kelmagan, yetib kelganlari ham hali tadqiq etilgani yo`q.

---

<sup>2</sup> Қобуснома. “Ўқитувчи”, Тошкент, 1968, 72-бет.



Mamlakatimizda suzish sportining<sup>3</sup> taraqqiy etishida Moskva bilan Leningraddagi suzish maktablarining roli juda katta bo`lgan.

### **Suzish texnikasining nazariy asoslari**

**Suzish texnikasi.** Suzish texnikasi deganda, harakatlarni mutanosib ravishda namoyon qilish tushuniladi. Bu esa ma`lum harakat qoidalariga rioya qilgan holda bo`ladi. Aks holda oddiy suvda cho`miluvchilar suzishidan farqi qolmay qoladi. Buning uchun, avvalo, suzishning shakli, harakat usullari va shu harakatlarning o`zaro qovushishi, mos kelishi talab etiladi. Shunda sportchi o`zining tashqi va ichki kuchlarini yuqori darajada safarbar qila oladi. Suzuvchining muntazam ravishda «bir qolipga tushib suzish» tabiatini egallashi bora-bora uning individual suzish texnikasiga aylana boradi. Endi u o`zining butun harakat va funktsional imkoniyatlarini o`z texnikasi asosida ro`yobga chiqaradigan bo`ladi. Bu, odatda, individual texnika deyiladi. Individual texnika qoida o`laroq, doimiy ravishda rivojlantirib, takomillashtirib borishni talab etadi. Individual texnika qanchalik takomillashsa, u shunchalik yengil ko`chadigan bo`lib boradi va yangidan-yangi turlar ustida mashq qilish imkoniyati tug`iladi.

Suzish texnikasini qanchalik sust yoki tez takomillashtirib borishda yuqorida aytib o`tganimizdek, sportchining yoshi, bo`yi, gavda qismlari rivojlanganligining o`zaro nisbati, vazni, oyoq va shu suzuvchiga xos uning shaxsiy qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Sportchining jismoniy chiniqkanligi, kuchi va qayishqoqligining roli o`z-o`zidan ayonki, juda zarur.

Bularni bilganimiz holda endi suvning o`z tabiati, suvda muallaq turish va harakatlanish qonuniyatlari haqida to`xtab o`tsak. Siz bu kursgacha gidrostatika va gidrodinamika tushunchalarini anglab yetgansiz. Shunday bo`lsa ham, ular xususida qisqacha eslatib o`tishni lozim ko`rdik. Demak, *gidrostatika* suzuvchi tanasining suvdagi muvozanatini ifodalasa *gidrodinamika* suzuvchi tanasining suvdagi harakatini ifodalaydi. Shundan kelib chiqib, suzuvchining muayyan harakatlari majmuasi natijasida uning suvda oldinga siljib borishiga dinamik suzish

---

<sup>3</sup> Спорт – дастлаб “ўйин, овунчок” деган маънони англатган.

deyiladi.<sup>4</sup> Hidrodinamikadan dinamik suzish kelib chiqqanidek, gidrostatikadan *statik suzish* kelib chiqadi. Buni quyidagicha izohlash mumkin. Masalan, odam gavdasi hech bir harakatlanmay ham ma`lum vaqt mobaynida suvda qalqib tura oladi, suvda cho`milganlarning jami buni yaxshi biladi. Xuddi mana shu ma`lum vaqt davomida odam gavdasining suv betida yoxud uning biror qatlamida muallaq turish holati yuqorida tilga olgan *statik suzish* bo`ladi.<sup>5</sup> Quyiroqda bular haqida alohida to`xtalib o`tamiz. Hozir esa, suvning tabiati, ya`ni fizik xossalari xususida suhbatlashamiz.

### **Suv muhiti bilan tanishtiruvchi mashg`ulotlar**

Bunday mashg`ulot odatda, besh bosqichda: basseyn yoki ochiq suv havzasining eng sayoz, suvning oqim tezligi minutiga 10 m dan oshmagan, suv harorati 25-28°S (yozda 18-24°S)dan past bo`lmagan maskanda olib boriladi. Ma`lumki, suzishni bilmagan odam hech qachon suv bilan tanishmay turib, suzishni o`rganib keta olmaydi. Shuning uchun suzishga o`rgatishda yuqoridagi bosqichlarga asoslanish zarur.

Jadvallardan ko`rinib turibdiki, mashqlar asta-sekin murakkablashib borgan. Chunki suv bilan tanishuvda har bir bosqichdagi mashqlar oldiga ma`lum maqsad va vazifalar qo`yilgan. Masalan:

I bosqichda yurish va yugurish mashqlarini o`tishdan maqsad bolalarni basseynning chuqurligi bilan tanishtirish, oyoq ostida tayanch borligiga ishonch hosil qilish va suvdan cho`chimaslikka o`rgatishdir. Qo`llarni har xil holatda tutib yurishda esa suvning qarshiligini his etish, qo`llar bilan eshish harakatini bajarganda suvda yengil va tez yura olishni sezishga o`rgatish kerak bo`ladi. Bir-biriga suv sepishda esa suvning tomchilaridan, sakraganda esa suvda sirpanib ketishdan cho`chimaslikka o`rgatiladi.

---

<sup>4</sup> Динамика грекча сўз бўлиб, кучга алоқадор, куч таъсирида деган маъноларни англатиб, мазкур ўринда ҳаракат ҳолатини билдиради.

<sup>5</sup> Статика грекча сўз, у котиб турувчи деган маънони англатади. Мазкур ўринда тинч ҳолатни ифодалаб келган.

II bosqichda asta-sekin suvdan cho`chimaslikka, suv yuzida gavdaning ma`lum vaqtgacha qalqib tura olishi, so`ng oyoq qismlar nima uchun cho`ka boshlashi tushuntiriladi.

Anatomiyadan ma`lumki, og`ir suyaklar, ya`ni chanoq, son va boldir suyaklari asosan odamning bel qismidagi pastda joylashgan. Gavdaning yuqori qismida esa tog`aylar va yengil a`zolar joylashgan.

«Po`kak» mashqini bajarganda chuqur nafas olib, g`ujanak bo`lib tizzani quchib tursak, xuddi po`kak, koptok yoki shar singari suv yuziga qalqib chiqish mumkin.

«Meduza», «Yulduzcha» mashqlarida ham chuqur nafas olinsa, (ko`krak qafasi kengayadi, ammo tana vazni oshmaydi), ma`lum vaqtdan so`ng oyoq uchlari cho`kib, odam asta-sekin vertikal holatga kelib qoladi. Demak, odam gavdasi quyi qismining solishtirma og`irligi ko`krak qafasi joylashgan yuqori qismining solishtirma og`irligidan ortiq.

III bosqichda suvda bolalarni sirg`anish va gavda muvozanatini saqlashga o`rgatiladi. Chunki sirg`anishni to`g`ri bajargan bolalar sportcha suzish usullari texnikasini tez o`rganadilar. Bu esa keyinchalik start va burilish paytlarida masofadan yutishga yordam bedadi. Masalan, 25 metrli basseynida 50m suzish kerak deylik, bunda bolalar startdan chiqqanda 5-6 metr sirg`ansalar, katta yutuqqa erishgan bo`ladilar.

### **Suvda sirg`anish mashqlari**

Vaznining solishtirma og`irligi o`rtacha bo`lgan kishilarga o`z muvozanatini suvda saqlash oson bo`lsa, gavdasi og`ir kishilarga qiyin bo`ladi. Ko`pchilik odamlar gavdasining gorizental holatini faqat sirg`anish orqali saqlashadi, deysinganda olingan sirg`anish tezligi pasayishi bilan oyoqlar sekin-asta suvga bota boshlaydi. Suv yuzasida yotgan odam siljimasdan turib, muvozanat saqlab turgan paytda gavdaning biror joyini o`zgartirmoqchi bo`lsa, muvozanati buziladi. Chunki bosim markazining holati og`irlik markaziga nisbatan o`zgaradi.

Suzuvchi sirg`anish mashqida deysinib, gavdasi bilan suv sathida cho`zilib yotadi, ko`p kuch sarflamasdan oldinga asta siljiy oladi. Tabiiyki, gavdaning erkin

holati boshni qanday tutishga va o`pkaning havo bilan to`lish darajasiga bog`liq bo`ladi. Bosh ortiqcha ko`tarib yuborilsa, gavda muvozanati buziladi, bunda oyoqlar pastga tushadi va yelka-bo`yin muskullari taranglasha boshlaydi. Natijada, odam yaxshi suza olmaydi. Demak, suvda sirg`anish mashqlarini to`g`ri bajarish zarur.

*1-mashq.* Suvda (belgacha chuqurlikda) ikki oyoqlab qattiq depsining (albatta, chuqur nafas olib), suv yuzasida cho`zilganicha ko`krakda yoting, qo`llar oldinda, bosh qo`llar orasida bo`lsin, oyoqlar uchini ichkariga sal bukib sirg`aning.

*2-mashq.* Chalqancha yotgan holatda sirg`anish. Ko`krakkacha suvda turib, qo`llarni yuqori ko`taring, chuqur nafas oling, nafasni tutib, orqaga suv tagidan depsinib, sirg`anib chalqancha yoting. Bosh tepaga qaragan: oyoqlar birlashgan, uchlari cho`zilgan bo`ladi. Mashqlar basseyn devoridan itarilib, bir necha marta takrorlanadi va kim uzoqroqqa sirg`anish o`ynaladi.

### **Suzish usullari**

Yuqorida aytib o`tilganlardan ma`lum bo`ldiki, har qanday sportdagi suzish texnikasi ma`lum qoidaga asoslangan harakat va holatlar majmuasidan iborat ekan. Bu harakat va holatlar asosan beshta bo`lib, bular: 1) gavda holati; 2) oyoqlar harakati; 3) qo`llar harakati 4) nafas; 5) harakatlarning umumiy uyg`unlashuvidan iborat. Har qanday sportdagi suzish usullarining negizi deyarli shularga asoslanadi. Shulardan kelib chiqib, butun suzish usullarini ikki guruhga bo`lish mumkin. 1. qo`l va oyoqlarni navbatma-navbat harakatlantirib suzish. Bunga: a) ko`krakda krol` usulida suzish va b) chalqancha krol` usulida suzish kiradi; 2. qo`l va oyoqlarni bir vaqtda harakatlantirib suzish. Bunga: a) brass usulida suzish va b) batterflyay usulida suzish (buni del`fincha suzish ham deyiladi) kiradi (del`finlarning suzishini ko`z oldingizga keltiring). Yonboshlab suzish sportda o`z ahamiyatini yo`qotgan. U ba`zi o`yinlarda va maxsus talab qo`yilgan paytlarda qo`llaniladi, xolos. Endi bularga alohida-alohida to`xtab o`tamiz.

### **Ko`krakda krol` usuli**

Haqiqiy sportcha suzish taxminan XIX asr oxirlaridan boshlab yuzaga kelgan. Ungacha suzish uzoq tarixiy bosib o`tgan bo`lsa ham, xalqaro musobaqa

shartlari asosida muayyan usullarda sportcha suzish shunga to'g'ri keladi. U paytlarda tredjen usuli (qisqa masofada) va brass usuli (uzoq masofada) ommalashgan bo'lgan. Tredjen usulida suzuvchi qo'llari bilan navbatma-navbat harakatlar qilgan — xuddi krol' usulidagidek, ammo oyoqlari bilan qaychidek harakatlar qilgan, nafas olish ixtiyoriy bo'lgan. Ammo asrimizning boshlaridan boshlab o'sha zamonlarda keng tarqalgan bu usul o'rnini ko'krakda krol' usulida suzish egallay boshladi. 1904-yilgi Sent-Luis (AQSH)dagi III Olimpiadada Z. Xalman (Vengriya) 50 va 100 yard masofalarga birinchi marta ko'krakda krol' usulida suzib oltin medallarni qo'lga kiritdi. Shundan keyin bu usul yanada ommalasha bordi. Bir-biriga o'xshash har xil ko'rinishlari paydo bo'ldi. Masalan, keyingi olimpiada o'yinida avstraliyalik suzuvchilar ko'krakda krol' usulida suzishning yangi turi bilan qatnashdilar va ko'pchilik sportchilar diqqatini o'zlariga tortdilar. Chunonchi, ular suvda boshlarini baland tutgan holda qo'llarini tirsakdan bukib, qisqa-qisqa eshish harakatlarini bajarar, oyoqlarini tizzadan bukib, panjalari bilan suvga qattiq deysinib olg'a siljir edilar. Chap oyoq bilan depsinganlarida o'ng qo'l, o'ng oyoq bilan depsinganlarida chap qo'l havoga chiqar edi. Bu harakatlarni ular musobaqaning oxiriga qadar buzmagani. Avstraliyalik sportchilar varianti sportchilarga, trenerlarga va tomoshabinlarga juda ma'qul tushdi. Butun Yevropa va Amerika mamlakatlarining sportchilari orasida «Avstraliyaliklar varianti» degan nom mashhur bo'lib ketdi. Ammo ko'krakda krol' usulida suzish hali o'z takomiliga yetmagan edi. Izlanish davom etaverdi. Nihoyat, 1912-yil Stokgol'm (Shvetsiya)da o'tkazilgan I Olimpiadada krol' usulining yangi variantiga asos solindi. Uning asoschilari gavayalik Dik Kaxanomoku bilan amerikalik Jon Veysmyuller bo'ldilar. Shundan keyin «amerikaliklar varianti» degan yangi, ko'p jihatdan hozirgi krol' usulida suzish varianti paydo bo'ldi.

Shunday qilib, krol' usuli suzishning zamonaviy usuliga aylandi. Bu eng tezkor usul bo'lib, odatda, suzuvchining gavdasi gorizontol holatga eng yaqin keltiriladi, qo'llar navbati bilan bosh tepasidan suvdan chiqarib oldinga tashlanadi va eshiladi, yuz peshonaga qadar suvga botib turadi, nafasni yonga qaragan paytda

olinadi va suvga chiqariladi. Bunda suzuvchini olg'a siljitib boruvchi kuchi asosan qo'lida bo'ladi (3.1-rasm).



3.1-rasm

Qo'llar harakatini batafsilroq tasvirlaydigan bo'lsak, bu quyidagicha bo'ladi; o'ng qo'l, o'ng yelka ro'parasidan suvga botiriladi va shu paytda qo'l tirsakdan hiyol bukiladi; oldin barmoqlarni yozib (kerib emas) panjani, keyin bilak va nihoyat yelka suvga botiriladi. Suv tagida qo'l oldinga uzatilgan bo'lishi va pastga qarab eshilishi, yarmisiga kelganda esa qo'l harakatini tezlatish kerak. Qo'l bilan suvni oldinga tortayotganda harakatning yarmisiga kelganda qo'l tirsakdan bukiladi va biqin yonidan to songacha suvni zo'r berib tortishda davom etiladi.

Eshish harakatlarini bajarayotganda barmoqlar birlashtirilib suvni iloji boricha ko'proq olish uchun yuza hovuch hosil qilinadi. Shunday qilinganda suv qo'llar uchun tayanch vositasini o'taydi va odam gavdasi tezroq ilgoriga suriladi.

Shuni unutmangki kerakki, suvdan birinchi bo'lib tirsak oxirida panja chiqadi. Panja tos yonidan yoki sal pastroqdan - son yonidan chiqib kelishi kerak. Keyin tirsakdan qo'lni erkingina bukib, oldinga quloch tashlanadi. Xuddi shu paytda qo'lni erkin tutish kerakki, mushaklar picha dam olishga ulgursin. Qo'l suvga kirgach, xuddi suvni hovuch bilan tutganday, panjani pastga qaratib suvni tortish - eshish lozim.

Eshayotgan qo'l vertikal holatga keltirilganda ikkinchi qo'lni suvga botirib ulgurish uchun tezroq quloch otish kerak. Shunda ikkala qo'l navbati bilan suvni eshib boradi va sportchi oldinga qarab ildam harakat qiladi.

Sportchining yuzi bu usulda hamisha suv ichida bo'ladi.

Nafas faqat boshni yonga burgan vaqtda olinadi va nafasni og'iz burun orqali suvga, oxirini esa yonga - havogacha - chiqariladi. Shuni unutmangki, nafas

olishni bosh qayoqqa burilgan bo`lsa, shu tomondagi qo`l tirsagi vertikal holatga kelgan vaqtga to`g`rilash kerak. Shunda qo`l vertikal holatdan o`tishi bilan suzuvchi boshini burib yana nafas olishga ulguradi.

Krol' usulida suzilganda, odatda, qo`l bilan ikki marta eshishga, oyoq bilan esa olti marta harakatlanishga ulgurish kerak. Mana shuni bir sikl deyiladi. Har bir siklda bir marta nafas olib, bir marta nafas chiqariladi. Nafas chiqarish, nafas olishga qaraganda cho`zilishi, nafas chiqarish bilan nafas olish o`rtasida to`xtalish bo`lmasligi kerak.

**Oyoqlar harakati.** Sportchi suzib ketayotganida uning oyoq harakatlarining roli ham ko`p narsaga bog`liq. Odatda, sportchining oyoqlari muttasid qaychisimon harakatlarni bajarib borishi kerak. Chunki oyoqlar harakati gavdani gorizontal holatda barqaror ushlashga, tezlikni quvvatlab borishga xizmat qiladi. Shu jihatdan ular harakatlariga nom berilgan. Masalan, oyoqlarning pastga harakat qilishi ishchi harakati (yoki eshish harakati), yuqoriga harakati esa tayyorlanish harakati deyiladi. Ularning vazifalari ham har xil. Chunonchi, ishchi harakatlar gavdani olg`a siljishiga bir qadar xizmat qilsa, tayyorlanish harakatlari gavdaning siljishiga hech qanday ta`sir ko`rsatmaydi. Uzoqdan suzuvchining orqasiga qarab turilsa, uning gavdasi go`yo suvda yotibdi-yu, ortida suv qaynamasi bo`layotganday tuyuladi.

Ishchi harakat paytida oyoq-tizza va boldir-panja bo`g`imlaridan yozilib, son bo`g`imidan bukilib boradi. Shu asnoda oyoq pastga harakatlanib boradi va to oyoq tizzadan to`la to`g`ri holatga kelgunicha pastga tushadi, son esa boldir va panjadan oldinroq yuqoriga harakatlana boshlaydi. Oyoq tizza bo`g`imidan batamom yozilib bo`lgach, ishchi harakat tugaydi.

**Tayyorlanish harakati.** Hozir aytib o`tganimizdek, oyoq suv ostida tizza bo`g`imidan batamom to`g`rilanib olgach, (panja ichkariga burilgan) u gavdaga nisbatan pastga egik, ya`ni chanoq-son bo`g`imidan bukilgan holatni oladi. Yuqoriga harakat oyoqni chanoq-son bo`g`imidan yozish bilan boshlanadi. Oyoq to gorizontal holatga kelguniga qadar ham to`g`ri turadi, sal yuqoriga ko`tarildimi, u tizza bo`g`imidan bukila boshlaydi, boldir bilan panja esa yuqoriga harakatini

davom ettiraveradi. Shu paytda oyoq chanoq-son bo`g`imidan bukila turib pastga harakat qiladi. Soy bilan tana burchagi taxminan  $170^\circ$ , tizza bo`g`imidagi burchak  $135^\circ$  ga etganida oyoqning pastdan yuqoriga bo`lgan harakati tugaydi va navbatdagi ishchi harakat boshlanadi, biz buni yuqorida tasvirlab o`tdik.

Endi ikkala oyoqning bir-biriga monand harakatiga kelsak, bu - suzuvchi sportchi uchun juda muhim. Demak, yuqorida aytib o`tganimizdek, tayyorlanish harakati o`z chegarasiga etishi bilan u pastga harakat qilib ishchi harakatini boshlaydi, xuddi shu paytda esa o`zining ishchi harakatini tugatayotgan ikkinchi oyoq yuqoriga harakat qilib, tayyorlanish harakatiga o`tadi. Mana shu dam-badam almashinib bajarilayotgan oyoqlar harakati muttasil bir-biriga mos tushib borishi va har doim gavdaning olg`a harakatlanishiga xizmat qilishi lozim.

Ko`krakda krol` usulida suzishda bu usulning tarixiga asos solgan mamlakatimizning ko`pgina suzuvchi-sportchilari qimmatli hissa qo`shishgan.

### **Chalqancha krol` usuli**

Chalqancha krol` usuli ham ancha qadimiy sportcha suzish usullaridandir. Masalan, u olimpiada o`yinlari dasturida dastlab 1904-yili Sent-Luis (AQSH)da bo`lib o`tgan musobaqada kiritildi. Bu III Olimpiadada faqat erkaklar qatnashgan edi. 1924-yili Parij (Frantsiya)da bo`lib o`tgan Olimpiadadan boshlab, bunday musobaqalarda ayollar ham qatnashadigan bo`ldi. 1964-yili Tokio (Yaponiya)da bo`lib o`tgan XVIII Olimpiadada erkaklarning 100 m masofaga suzish dasturi 200 m qilib o`zgartirildi. 1968-yilgi Mexiko (Meksika)da bo`lgan XIX Olimpiadada mazkur usulda suzish bo`yicha ikki xil masofa belgilandi. Ya`ni ayollar ham, erkaklar ham 100 va 200 metrga musobaqalashadigan bo`ldilar. Bu dasturga keyinchalik 50 metr masofa ham kiritildi. Shunday qilib, hozir chalqancha krol` usuli bo`yicha 50, 100 va 200 metr masofalarga suzish dasturlashtirilgan. Ammo bu usulda suzishning texnikasi borgan sari takomillashtirib borildi. Masalan, 1973-yili jahon chempioni bo`lgan, ikki marta olimpiada chempionligini qo`lga kiritgan AQSHlik M. Bellount va qator musobaqa sovrindorlari: S. Etvud (AQSH), A. D`yarmat (Vengriya), e. Brigita (Gollandiya) va boshqalar chalqancha krol` usulida suzish musobaqalarida suzish texnikasiga o`zlariga xos elementlarni



qo`shib, ajoyib san`atlarini namoyish etdilar. Masalan, ular qo`l bilan uzluksiz, chuqur eshishga, qo`lni tirsakdan 90-100° gacha bukishga, elka og`ishiga, tanani gorizontol holatda yaqinroq keltirishda ancha yutuqlarga erishdilar; boshlari suvda bir tekislikda turgani holda, oyoqlari kichik amplitudada ketma-ket muntazam harakat qildilar.

Shunday qilib, suzishning bu usuli bo`yicha olib borilgan qator musobaqalarda sportchilar uning takomillashgan zamonaviy texnikasiga erishdilar.

Chalqancha krol` usulida suzish ko`krakda krol` usulida suzishga o`xshashdir. Buning o`ziga xos ko`zga tashlanib turadigan tomoni odam suvda chalqancha yotib harakat qiladi. Oyoqlar bilan qo`llar to`xtovsiz navbatlashib harakat qiladi, nafas olish ham, chiqarish ham suvdan tashqarida bo`ladi, gavda gorizontol holatga yaqin turadi (8° atrofida), ensa suv ichida, yuz suv sathida, engak bo`yinga xiyol tortilgan bo`ladi (3.2-rasm).



3.2-rasm

**Qo`llar harakati.** Qo`llar harakati bu usulda odatda, ikki xil bo`lishi mumkin, buni sportchining o`zi tanlaydi, ammo qo`lni to`g`ri tanlab eshish, tortish kuchi kamroq bo`lganligidan samarasi ham kamroq bo`ladi, biroq oson bo`lgani uchun ham endigina o`rganayotgan suzuvchilar shu usulni qo`llaydilar. Biz quyida qo`lni bukib eshish harakatiga qisqacha to`xtalmoqchimiz.

Aytaylik, o`ng qo`lni havoga to`g`ri chiqarib tashlamoqchimiz, bunda tirsakni yelka bo`g`imi ro`parasidan xiyol tashqariga chiqarib, gavda o`qiga parallel` qilinadi. Shu paytda tana shu qo`l tomonga sal buriladi, shuning uchun qo`lni oldinga - pastga - chetga harakatlantiriladi va so`ng bir sekund o`tar-o`tmas

qo`l tirsakdan bukilib, panja harakatga perpendikulyar ravishda suvni «hovuchlagancha» itaradi. Keyin qo`l tirsakdan yana ham bukilib ( $160^{\circ}$  atrofida) pastga tushadi, panja esa tirsakdan yuqorida qoladi. Qo`l orqaga o`tganida, ya`ni eshish o`rtasida yelka bilan bilak oralig`i  $120$  burchak hosil qiladi. Panja suv sathiga yaqin yerda, tirsak undan pastda harakatini davom ettiradi. Shu tariqa qo`l harakatlari davom etib, panja songa yaqinlashganida eshishning asosiy qismi tugaydi. Eshish qancha tez va kuchli bajarilsa, uning samarasi shuncha yaxshi bo`ladi. Shu bilan birga u tanani  $30^{\circ}$  atrofida burishga imkon beradi.

Demak, qo`l panjasi songa yetgach, qo`l biroz bo`shashadi, panja, bilak, yelka birin-ketin suvdan chiqa boshlaydi va yo vertikal ravishda yoki  $15-20^{\circ}$  atrofida tashqariga (chetga) burib ko`tariladi. Qo`lni suvga tashlash vaqtida u tashqariga yana ham buriladi.

Shunday qilib, o`ng qo`l oldinda tayanch vazifasini bajarayotganida chap qo`l sonning yonginasidan suvdan chiqadi va yuqoriga ko`tarib oldinga tashlangan damda o`ng qo`l asosiy eshish harakatini bajaradi. Ung qo`l sonning yonginasidan suvdan chiqayotganida, chap qo`l tayanch vazifasini tugallayotgan bo`ladi. So`ng o`ng qo`l suvdan chiqib yuqoriga ko`tariladi va suvga tashlangan damda chap qo`l asosiy vazifani bajaradi. Bunda chap qo`l sonning yonginasida suvdan chiqadi, o`ng qo`l oldinda suv ichida tayanch vazifasini bajarayotgan bo`ladi. Shu bilan bir sikl tugaydi.

Bu o`rinda shuncha harakat qilish kerakki, qo`l suvdan ko`tarilganda iloji boricha uni suvga tez tushishining chorasini ko`rish kerak. Bu bir maromda tez harakat qilishning mezonidir.

Nafas harakatlari chalqancha krol' usulida suzishda suv yuzida bajariladi. Shuning uchun nafas olish nafas chiqarishni muntazam ravishda bir maromda bajarish kerak. Masalan, qo`l suvdan chiqarib yuqoriga ko`tarilgan paytda nafas olinsa, suvga tushganda nafas chiqariladi. Shunga qattiq rioya qilinsa, qo`llar harakati nafas harakati bilan monand kelib, biri - ikkinchisini qo`llab turadi.

Oyoqlar harakati xuddi ko`krakda krol' usulida suz gandagidek bajariladi, ya`ni ikkala oyoq navbatma-navbat qaychi singari harakat qildiriladi - biri pastga

tushganida ikkinchisi yuqoriga chiqadi va shu bilan ular tananing gorizontal holatda olg'a sari harakatlanishiga yordam beradi.

Ko'krakda krol' usulida suzganda oyoqning yuqoriga ko'tarilishini - tayyorlanish, pastga - suvga tushishini ishchi (yoki eshish) harakati deyilgan bo'lsa, chalqancha krol' usulida suzishda aksincha - oyoqning yuqoriga ko'tarilishi ishchi (yoki eshish) harakati, pastga - suvga tushishi tayyorlanish harakati deyiladi.

Tayyorlanish harakatida oyoq suvga tushar ekan, chanoq-son bo'g'imidan yoziladi va gorizontal holatga kelib pastga tomon harakatini davom ettiradi va sal o'tar-o'tmas u taxminan  $170^\circ$  atrofida chanoq-son bo'g'imidan (orqaga) bukila borishi kerak. Keyin shu oyoq tizzadan bukila boshlandi, boldir bilan panja esa hamon pastga harakat qiladi, son chanoq-son bo'g'imida yozilib, yuqoriga harakat qila boshlaydi. Son bilan tana o'rtasidagi bukim  $135^\circ$  burchak atrofida bo'ltanda tayyorlanish harakati tugab, ishchi harakati boshlanadi.

Ishchi (yoki eshish) harakatida oyoq tizzadan va boldir-panja bo'g'imidan yozila borib, chanoq-son bo'g'imidan bukila boshlaydi. Shu damda panja, boldir va son yuqoriga ko'tarila boradi. Tizza suv yuzasiga chiqqanida boldir bilan panja ham yuqoriga ko'tarilishda davom etadi. Son esa pastga tomon harakatini boshlaydi. Shunda oyoq tizzadan tez bukilib, panja bilan suvni yuqoriga - orqaga tepiladi. Natijada, ish bajariladi — suzuvchi bir qadar bo'lsa ham, olg'a siljiydi. Shu bilan ishchi harakat tugab, tayyorlanish harakatiga o'tadi va h. k.

Shunday qilib, o'ng oyoq yuqoriga harakat olganida chap oyoq pastga harakat boshlaydi va bular harakati qanchalik uyg'un bo'lsa, shunchalik sportchi olg'a siljishiga yordam beradi. Bu usulda ham suzuvchi oldinga tez siljib borgan sari oyoqlar harakatining amplitudasi kichrayib boradi, ammo oyoqlar ancha chuqur tushib borishi mumkin va h. k. Umuman olganda, bir siklda ikki marta qo'l harakati, olti marta oyoq harakati, bir marta nafas olish va nafas chiqarish to'g'ri kelishi kerak.

Chalqancha krol' usulida suzishda mamlakatimizning sportchi suzuvchilari ayniqsa, keyingi yillarda salmoqli yutuqlarga erishdilar, K.Alyoshina (Leningrad), V.Solov'ev (Moskva), V.Lopatin (Moskva),

G.Kuvaldin (Leningrad), V.Mazapov (Moskva), YU.Gromak (L'vov), L.Barbiera (Kiev), T.Lekveishvili (Tbilisi), Nadejda Stavko (Dnepropetrovsk), I.Omel'chenko (Batumi), S.Mashkovtsev (Leningrad), E. Belkovskiy, B. Lksepov (Gor'kiy), I.Potyakin, L.Dobroskokin va hozirgi kundagi suzuvchilarimiz V.Dolgov, O.Gavrilenko, V.Kuznetsov, V.Shemetov, I.Polyanskiy, S.Zabolotnov, qizlardan L.Gorchakova, E.Kruglova, I. Orlyuk, I. Shibaeva va boshqalar shular jumlasidandir.

### **Del'fincha suzish**

Del'fincha suzish yoki butterflyay usulida suzish brass usulida suzishning bir turi sifatida maydonga keldi. Uning sportcha suzish turi o`rnida rivojlanib, takomillashib borishida ko`pgina sportchilar salmoqli hissa qo`shdilar. Masalan, 1936-yili B. Boychenko 100 metrga, 1941-yili 200 metrga suzish bo`yicha olib borilgan musobaqalarda o`sha davrning jahon rekordchisi bo`ldi. Ammo bu paytlarda suzishning bu usuli hali mustaqil sport turi deb tan olinmagan edi. Faqat 1953-yili FINA maxsus qaror qabul qilib, suzishning bu del'fincha usulini suzish sportining mustaqil turi ekanligini rasmiy xabar qildi. Shundan keyin olimpiada o`yinlarida bu usulda bellashuvga ayollar uchun 100 metr, erkaklar uchun 200 metrli dastur kiritildi. 1968-yildagi Mexiko (Meksika)da bo`lgan XIX Olimpiadada yana ikkita programma: ayollar uchun 200 metr, erkaklar uchun 100 metrli masofada musobaqalashish qo`shildi. Shu yo`sinda suzishning bu usuli rivojlanib bordi, uni bajarish texnikasi esa takomillashaveradi. Natijada 1972-yilgi Myunxen (GFR)da, 1976-yilgi Monreal' (Kanada)da o`tkazilgan XX va XXI Olimpiada o`yinlarida ikki zarbli texnika usuli amaliy jihatdan eng afzal usul deb tan olindi. Bunda qo`llar yordamida qattiq zarb bilan eshish, eshish vaqtida tirsaklarni yuqori tutish, o`rtacha amplitudada gavda bilan to`lqinsimon harakat qilib borish, ikki zarbli del'fincha suzish usulining eng zarur elementlari sifatida ma`qullandi.

Del'fincha suzish usuli ikkala qo`l va ikkala oyoq bilan bir vaqtda, simmetrik ravishda bajarilgan tananing to`lqinsimon harakatlari majmuasini o`z ichiga oladi. Uning ayrim harakat elementlari borki, bular ko`krakda krol' usulida suzishdagiga o`xshash bajariladi, tezligi jihatidan undan keyingi, ya`ni ikkinchi

o`rinda turadi. Biz quyida ikki zarbli del'fincha suzish usulining texnikasi xususida to`xtalamiz. Bunda har bir tsikl bir marta qo`llar bilan harakatlanib, ikki marta oyoqlar bilan zarb berish va bir marta nafas olib, bir marta nafas chiqarish bilan tugaydi. Suzuvchining gavdasi suv yuzida qo`l - oyoqlari uzatilgan, boshi yuzni suvga botirgan holatda bo`ladi (3.3-rasm).



3.3-rasm

**Qo`llar harakati.** Aytaylik, qo`llar bilan suv ustida qilinayotgan harakat tugadi, endi to`g`ri uzatilgan qo`llarni yelka kengligida oldin panja, keyin bilak va yelka suvga botiriladi. Suvga botgan to`g`ri holatdagi qo`llar oldinga va pastga harakat boshlaydi. Buni suzish texnikasida qo`lni suvga botirish va suzish bosqichi deyiladi. Bu bosqichdan keyin eshishning tayanch qismi boshlanadi. Bunda qo`llar tirsak va bilak-panja bo`g`imlaridan bukila boshlaydi va pastga harakatini davom ettiradi, panjalar suzuvchi harakatlanayotgan tomonga perpendikulyar holda yaqinlashadi. Suv sathi bilan qo`llar oralig`idagi burchak  $30^\circ$  ga yetganida bu bosqich tugaydi. endi eshishning asosiy qismi boshlanada: qo`llar hozir aytganimizdek, pastga va orqaga harakatlana borib, tirsak bukimidan bukilishda davom etadi va taxminan  $125^\circ$  ga yetganda tortish kuchi eng cho`qqisiga chiqadi, panjalar esa vertikal holatga kelib harakatini davom ettiradi. Qo`llarni suvdan chiqarish oson bo`lishi uchun eshishning asosiy qismini tugatish oldida panjalarni orqaga va biroz tepadan chetroqqa olish lozim.

Qo`llar suvdan olishda navbat bilan yelkalarga, so`ng bilaklar va panjalarga keladi. Bunda qo`llar tirsak bo`g`imidan xiyol bukiladi. Keyin qo`llarning suv ustidagi harakati boshlanadi. Bunda ikkala qo`l deyarli cho`zilgan holatda,

zo`riqmay, ammo tezlik bilan harakatlanishi lozim. Panjalar kaft yuzasi bilan suv tomonga qaratiladi va faqat suvga kirish oldida bilak bilan birga pastga yo`naltiriladi. Shu bilan del`fincha suzishning bir sikli tugaydi.

**Nafas olish va chiqarish.** Ma`lumki, qo`llar bilan eshishning asosiy qismi bajarilayotgan vaqtda elka kamari eng yuqori cho`qqiga ko`tarilgan payt bo`ladi, bosh suvdan chiqadi va nafas olinadi. Bu vaqtda qo`llarni suv sathidan ko`tarib ishlashning birinchi yarmi tugaydi. Keyin bosh suyagi yuz tomon bilan tusha boshlaydi, qo`llar suv sathidan ko`tarib tushishi tugaydi. Sal o`tmay nafas chiqariladi.

**Oyoqlar harakati.** Del`fincha suzishning o`ziga xos tomoni oyoqlarning bir vaqtda yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga to`xtovsiz harakat qilishi va tananing faol ishtirok etishidir.

Tayyorlanish harakati oyoqlarni paydan yuqoriga harakatlantirish bilan boshlanadi. Buning uchun: oyoqlar eng pastki nuqtaga tushirilgan, tizzadan xiyol bukilgan, panja ichkariga qaragan bo`lishi kerak. Chanoq-son bo`g`imi tanaga nisbatan taxminan  $155^\circ$  burchak ostida bukilgan (son-qorin burchagi). Tana ustki qismigacha suvga botib turadi. Harakat oyoqlarni cho`zib yuborib, chanoq-son bo`g`imidan yozgan holda belni xiyol bukishdan boshlanadi. Oyoqlar to gorizontal holatga kelgunicha to`g`ri uzatgan vaziyatda yuqoriga harakatlanadi, so`ng tizza bo`g`imida taxminan  $130^\circ$  burchak ostida bukiladi. Bu paytda panjani ichkariga qaratiladi, tizzalar esa bir-biridan 15-20sm atrofida ajralib turadi. Shundan keyin ishchi harakat boshlanadi - yuqoridan pastga, ya`ni oyoqlarni tizza va boldir-panja bo`g`imlaridan yoza boshlanadi va shu paytning` o`zida chanoq-son bo`g`imidan hamda beldan yuqoriga bukishga o`tiladi. So`ng boldir va panjalar zudlik bilan pastga harakat qiladi, bel va chanoq suv yuziga yaqinlasha boshlaydi. Qachonki, oyoqlar tizaa bo`g`imidan butunlay yozib yuborilganda ishchi harakat tugagan hisoblanadi.

Har qanday sportcha suzishda harakatlarning bir-biriga uyg'unlashuvi, monand kelishi shart bo`lganidek, del`fincha suzish usulida ham oyoq-qo`llar harakati va ularga monand tana harakati masofaning oxirigacha bir-biriga mos

kelishi, bir-birini quvvatlab borishi shart. Buning uchun qo'llar oldinga cho'zilib suza boshlaganda bosh suvga botib turishi, oyoqlar yuqoridan pastga birinchi zarb bilan depsinishi va bu qo'llar suzishni tamomlayotganda tugallanishi kerak. So'ng qo'llar eshishning tayanch qismi bilan asosiy qismining uchdan birini bajarayotganida eng yuqori holatni olishi lozim. Qo'llar eshish asosiy qismining qolgan uchdan ikki qismini bajarayotganida oyoqlar bilan ikkinchi zarb beriladi. Qo'llar chanoq ro'parasidan o'tayotgan paytda esa oyoqlar bilan zarb berish tugallanadi. Qo'llar suvdan ko'tarilib, suv ustidan o'tayotgan va oyoqlar suvga kirayotgan paytda ikkinchi marta eng yuqori holatga o'tiladi. Shu bilan bir sikl tugagan bo'ladi (1 min da 54-64 sikl bajarish mumkin). Mana, nima uchun del'fincha suzishning bu usulini ikki zarbli del'fincha suzish deyiladi. Bunda qo'llar bilan zo'r berib eshish ularni tirsak bo'g'imidan chaqqonlik bilan bukish, yozish va burishlar bilan amalga oshiriladi. Bularning hammasi qo'llar, yelka kamari va tana mushaklari yordamida bajariladi. Suvni zarb bilan panjalar yordamida tepish, qo'llar yordamida suvni orqaga itarish bilan gavidani oldinga itqitish, nihoyatda bir-biriga monand tushishi kerak.

### **Brass usuli**

Brass usulida suzish chindan ham eng qadimiydir. U shuning uchun ham qadimiyki, odam suvga u yoxud bu sabablarga ko'ra tushar ekan, albatta brass usulida suzishning qandaydir elementlarini bajaradi, endigina suvga tushgan odam ham, suzishni o'rganishni maqsad qilib olgan bola ham shartli ravishda brassdagi harakat elementlarini bajaradi. Buning sababi mazkur suzish usulining oddiyligida, uning hayotga yaqinligidadir. Hatto yerda o'tiradigan bola ayrim vaqtlarda oyoqlarini ikki yoniga bukib brass holatini oladi. Bejiz emaski, sport mutaxassislari brass usulini tusha suzish usuli deyishadi.

Brass usulida suzish sportda XVI-XVII asrlarda Yevropada keng tarqalgan edi. Hatto nemis o'qituvchisi Nikolay Vinema suzish sportiga oid asari («Vodolaz») da brass usulini bayon qilar ekan, uni qurbaqaning suzishiga o'xshatadi. Inglizlar bu usulni «ko'krakda suzish» deb ta'riflaganlar. Frantsuzlar esa brasscha suzish deb nomlaganlar. Keyinchalik suzishning bu usuli faqat sport

musobaqalarida emas, balki harbiy mashq sifatida ham keng yoyiladi va bora-bora qo`shinlarda uni o`rgatish; maxsus tayyorgarlikdan o`tish kabi jangovar mashqlar qatoridan o`rin oladi.

Brass usuli qanchalik keng tarqalgan bo`lishiga qaramay, u olimpiada o`yinlaridagi musobaqalarga ko`p vaqtgacha kiritilmay keldi. Faqat 1908-yili Londonda bo`lib o`tgan IV Olimpiadada mustaqil sport turi sifatida o`yinga kiritildi.

Ma`lumki, brass usulida suzishning tezligi past bo`lgan. Hozir ham nisbatan shunday. O`sha paytlarda nemis suzuvchisi Rademaxer tezlikni oshirish uchun burilish va finish oldida qo`llarni havoda ko`tarib «uchish» harakatlarini qo`shdi. 1928-yili Amsterdam (Gollandiya) da bo`lib o`tgan musobaqalarga filippinlik T. Il`defonso suv ostida songacha suvni eshish harakatlarini kiritdi. 1956-yildagi Mel`burn (Avstraliya)da bo`lgan XVI Olimpiada o`yinida sovet suzuvchi sportchisi X. Yunichev 200 metrlik masofaga suzishda «Sho`ng`ib brass» usulini qo`llab tezlikni yana ham oshirishga muvassar bo`ldi. Ammo keyinchalik suvga sho`ng`ib brasscha suzish man qilindi.

Yillar o`tib brass usulida suzishning texnikasi takomillashib, boraverdi. Bir qator elementlar yangilandi, qo`shildi. Masalan, urushdan keyin gollandiyalik trener M.Braun o`z shogirdi A.Xaan bilan birga izlanishda bo`lib, o`ziga xos yangilik kiritdi. Ular boshni suvdan ko`tarmagan holda qo`llar bilan eshib, oyoqlar suvni depsilayotgan vaqtda panjalar yordamida suvni o`ziga tortish va shu paytda boshni ko`tarib nafas olishni qo`lladilar.

Xullas, brass usulida suzish ancha takomillashtirildi. Bu usulning hayotda amaliy ahamiyati ham kattadir. Masalan, cho`kayotganlarni qutqarishda, narsalarni olib o`tishda, zaruriyat taqozo qilganida kiyim-bosh bilan suvga tushib suzishda bu usul juda qo`l keladi. Chunki asosiy itarish kuchi oyoq bilan bajariladi, qo`llar esa biror boshqa ishni bajarishi, ya`ni, masalan, cho`kayotgan odamni ushlab suzish mumkin.





### 3.4-rasm

**Qo'llar harakati.** Dastlab qo'llar cho`ziladi va panjalar yoni bilan birlashtiriladi, kaftlar pastga qaragan bo`ladi (4-rasm). So`ng qo'llar pastga va ikki yon tomonga kerilib harakat qiladi. Shu vaqtning o`zida kaftlar tashqariga qaratiladi va suzuvchi harakatiga perpendikulyar qilib suvni torta boshlaydi. Qo'llar bilan suv sathi oralig'idagi burchak taxminan  $15-20^\circ$  ga etganida ishchi harakat eng samarali holatga kelgan bo`ladi. Ya`ni qo'llar tirsak bug'imidan xiyol bukilib orqaga - pastga va yon tomonga harakat qilarkan, zarb bilan suvni panjalar yordamida orqaga itaradi. Bunda ularning oxirgi harakat nuqtasi qo'llar vertikal holatga yetgan payti bo`ladi. Shu bilan ishchi harakat kam tugaydi. Endi tayyorlanish harakati boshlanadi. Bunda kaftlar tana tomonga, ya`ni ichkariga burilar ekan, shu bilan bir vaqtda qo'llar tirsak bo`g'imidan taxminan  $95-100^\circ$  ga bukiladi. Keyin ular bukilishda davom etib tirsak pastga tushadi, panjalar esa yuqoriga ko`tarilib, ular bilan bir chiziqqa yetadi va oldinga cho`zilib ko`krak ostiga keladi. Shundan keyin kaftlar oldinga-orqaga, yuqoriga harakatlanib, qo'llar tirsakdan yozib yuboriladi va dastlabki holatga - ishchi harakatiga tayyorgarlik ko`radi. Shu bilan tayyorlanish harakati ham tugaydi, ya`ni ko'llar bir harakat tsiklini bajargan bo`ladi.

**Nafas olish.** Suzuvchi sportchi nafas olish uchun dastlab yelka kamarishi yuqoriga ko`tarishi kerak. Bu holat qo'llar bilan eshishni tugatish paytiga to`g`ri keladi. Xuddi shunda u og'iz ochib nafas oladi. Keyin yuzni suvga botirib bir ozdan keyin og'iz-burundan nafas chiqaradi.

Nafas olish va chiqarish musobaqa oxiriga qadar bir maromda, shu zaylda davom etishi lozim.

**Oyoqlar harakati.** Dastlabki holatda oyoqlar uzatib yuborilgan, bir-biriga birlashtirilgan, oyoqlar uchi ham cho`zilgan bo`ladi. Harakat boshlanishi bilan ikkala oyoq tizzadan va chanoq-son bo`g'imlaridan bukiladi. Shu paytning o`zida oyoqlar tizzadan ikki yon tomonga yelka kengligida keriladi va sal pastga tushiriladi, oyoqlar panjasi esa (kafti) suv sathiga yetar-yetmas vaziyatda tanaga

tomon harakatlanadi va tashqariga buriladi. Shu harakat oxirgi nuqtasiga yetganida tayyorlanish harakati tugaydi. Bunda son bilan tana oraliq'idagi burchak taxminan  $125^\circ$  atrofida, son bilan boldir burchagi  $45-50^\circ$  atrofida bo`ladi. Bir so`z bilan aytganda, tizzalar suv sathiga perpendikulyar holatga kelgan bo`ladi. Uni juda tez bajarish kerak. Aks holda uning suzuvchi harakatiga qarshiligi yana ham ortib ketadi.

**Ishchi harakat** oyoqlarni birin-ketin - chanoq-son bo`g'imidan, tizzadan orqaga - yonga va sal pastga tomon zarb bilan yozishdan boshlanadi. Bunda eshish harakatini va bor kuchni panjalar bilan boldirlarga berish kerak. Oyoqlar uzatilib, panjalar uchi cho`zib yuborilganida ishchi harakat tugab, tayyorlanish harakatiga o`tiladi va h. k.

Brass usulida ham xuddi boshqa suzish turlaridek harakatlarning uyg'unlashuvi juda muhim omil hisoblanadi. Masalan, dastlabki bosqichda, ya`ni qo`llar bilan oyoqlar uzatilgan, bir-biriga birlashtirilgan paytda ishchi harakatini qo`llar bajaradi, oyoqlar uzatilganicha va bo`shashganroq holatda turadi. Qo`llar ko`krakka keltirilgan paytda oyoqlar yig`iladi, qo`llar oldinga cho`zilganda oyoqlar zarb bilan suvni tepadi va gavda olg'a siljib ketadi. Shundan keyin sikl qayta takrorlanadi.

Hozirgi vaqtda brass usulida 100 va 200 metr masofaga suzish bo`yicha musobaqalar o`tkaziladi. Kompleks suzishlarda 200-400 metrga suziladi. Mazkur suzish usulini rivojlantirish, takomillashtirish va yuqori ko`rsatkichlarga erishishda quyidagi sportchi suzuvchilarining nomlari dunyoga tanilgan: S.Boychenko (Moskva), L.Meshkov (Leningrad), V.Minashkin (Leningrad), M. Sokolova (Moskva) L.Kolesnikov (Moskva), G.Prozumen'shikova (Sevastopol'), G.Prokopenko (L'vov), Svetlana Babanina (Toshkent), I.Pozdnyakova (Moskva), V.Kosinskiy (Vorkuta), N.Pankin (Moskva), X.Yunichyev (RF), M.Xryukin (Voronej), Lyubov' Rusanova (Krasnodar), M.Gavrish-Firsova (Kiev), I.Zaseda (Kiev), A.Tutkaev (Tbilisi), L.Porubayko (Krasnodar), I.Fetisova (Leningrad), Marina Yurchenko (Odessa), evi Uusmess (Tallin), V.Volkov (Moskva), E.Kliment'ev (Minsk), D.Kuz'min (Moskva), E.Volkova (Leningrad),

S.Kuz'mina (Kuybishev), Yu.Kis (Olmaota) R.Julpa (Litva), A.Kachyushite, E.Vasil'kova, S.Varganova, S.Alimbaeva (Moskva), A.Buzelite (Vil'nyus), L.Belokon' (Toshkent), E.Vavilova, (Toshkent).

### **Yonboshlab suzish**

Yonboshlab suzish nomidan ham tushunib turibmizki, chalqancha yotib emas, ko'krak bilan ham yotib emas, balki yonga yotib suzishdir. Bu suzish usulining amaliy ahamiyati shundaki, bir qo'l istalgan vaqtda bo'sh bo'lishi, biror narsa - buyumni ushlay olishi mumkin. Shuning uchun ham yonboshlab suzish usulini harbiy xizmatchilarga o'rgatish ular faoliyatida juda qo'l keladi. Masalan, suv tegishi mumkin bo'lmagan asbob-uskunalar, qurol-aslahalar, o'q-dorilarni daryoning bir sohilidan ikkinchisiga olib o'tishda xuddi shu suzish usuli qo'llaniladi. Hatto, bolalar ham cho'milayotganlarida kiyimlarini bir qo'llarida tutib, yonboshlab suzgan holda suvning bu betidan u betiga olib o'tadilar. Biz mazkur usulda suzishni ta'riflaganimizda bir qo'llab suzishni emas, balki ikki qo'ylab suzishni va bunda oyoqlar harakatini, nafas olishni o'rgatishni lozim topdik.

**Qo'llar harakati.** Yonboshlab suzishda qo'llar harakati hech qachon bir-biriga mos kelmaydi - biri bir xil harakat qilganida ikkinchisi ikkinchi xil harakatni bajaradi. Shu sababli ham bunda bir qo'l tayyorlanish harakatini boshlaganda, ikkinchi qo'l ishchi harakatni boshlaydi va h. k.

Yuqoridagi qo'lning tayyorlanish harakatini tasvirlaydigan bo'lsak, bunda uning dastlabki holati suvda, ya'ni tanadan songacha uzatilgan holatda bo'ladi. Tayyorlanish harakati esa quyidagicha kechadi: suvdan oldin yelka, bilak va keyin panja tirsakdan bukilgan holda chiqadi. So'ng qo'l tirsakdan yozilgan holda oldin panja, keyin bilak yelkadan oshib o'tarkan, to'g'rilanadi va oldinga iloji boricha uzatiladi. Shunday uzatiladiki, butun panja uchi, bilak, yelka kamari tana bilan oyoqlarning gorizontal holatiga to'ppa-to'g'ri bo'lib qoladi. Shundan keyin shu qo'l suvga botib borarkan, tirsakdan sal bukiladi. Qo'l holati bilan suv sathi oralig'ida taxminan  $45^\circ$  burchak hosil bo'lganida tayyorlanish harakati tugaydi.

Yuqoridagi qo`lning ishchi harakati boshlanish oldida hozir aytib o`tganimizdek, qo`l tanaga nisbatan perpendikulyar holatda turgan bo`ladi. Endi u tana bo`ylab oldindan orqaga harakat qilib ish bajarishi, ya`ni eshish harakatiga o`tishi lozim. Eshishning birinchi yarmidayoq tirsak burchagi sal yozilib taxminan  $90^\circ$  atrofida bo`ladi. Songa yaqinlashib qolganida esa u tamoman yozilib to`g`rilanib oladi. Binobarin, qo`l chanoq yonidan o`tayotganida bu bosqich ham tugaydi, demak, eshish harakati - ish bajarish oxiriga yetadi. Endi u tayyorlanish harakatiga ko`chadi va h. k.

Pastki qo`lning ishchi harakatida uning dastlabki holati suv ostida to`g`ri uzatilgan vaziyatda, kaft eshishga tayyorlanayotganday pastga qaragan bo`ladi. U harakatni, odatda, pastga-orqaga eshish bilan boshlaydi. Qo`l pastga harakat boshlaganida tirsakdan sal bukiladi. Ishchi harakatning o`rtalariga yetganida tirsak burchagi taxminan  $100^\circ$  atrofida bo`ladi. Qo`l yoy hosil qilib bo`lganida uning ishchi harakati tugagan bo`ladi.

Pastki qo`lning tayyorlanish harakatini mutaxassislar odatda ikki qismga bo`ladilar: qo`lning tanaga tomon harakati va oldinga tomon harakati. Qo`l tanaga tomon harakati boshlanganida u tirsak bo`g`imidan bukiladi, yelka tanaga olib kelinadi. Qo`l tirsakdan taxminan  $40^\circ$  atrofida bukilib, kaft tanaga qaragan paytda pastki qo`lning tayyorlanish harakatining birinchi qismi tugaydi. Keyin qo`l yozilarkan, oldinga uzatiladi va kaft pastga qaratiladi. Shu bilan uning ikkinchi qismi ham tugaydi.

**Nafas olish.** Suzishning bu usulida nafas olish va chiqarish ham o`ziga xos tarzda kechadi. Masalan, suzuvchi yuqoridagi qo`l bilan eshish harakatini tugallash oldida boshini suvdan chiqib turgan yelkasiga qaratadi, qo`li suvdan chiqib harakatining birinchi yarmiga kelganida nafas oladi. Keyin suzuvchi yuzini suvga botirib nafas chiqaradi va h. k. Keyingi nafas olish va chiqarishlar shu tariqa, davom etib boraveradi.

**Oyoqlar harakati.** Bunda ham suzuvchi tayyorlanish va ishchi harakatlarni bajaradi.

Yuqoridagi oyoqning tayyorlanish harakatida uning dastlabki holati tana uzunligini davom ettirgancha to`g`ri turadi. Harakatini boshlaganida tizza va chanoq-son bo`g`imlaridan bukib oldinga tomon harakat oladi. Tana bilan son, son bilan boldir oralig`idagi burchaklar 110-120° ga yetganida, panjalar yuqori boldir tomonga qattiq tortilganida tayyorlanish harakati tugaydi.

Yuqoridagi oyoqning ishchi harakati tayyorlanish harakati tugagan vaqtdan boshlanadi. Ya`ni oyoq butun bo`g`imlaridan qattiq va tez harakat bilan yoziladi. Panja esa oyoq yozilish oxirida oldinga bukilib (oldingi holatidan yozilib), suvni zarb bilan itaradi va dastlabki holatini oladi. Shu paytda sirg`anish yuz beradi.

Pastki oyoqning tayyorlanish harakatida uning dastlabki holati yuqori oyoqnikiga o`xshab turadi, ya`ni ular bir-biriga birikib parallel turadi. Harakat boshlanganida uchala bo`g`imidan bukilib orqaga harakat oladi. Shuning uchun chanoq-son bo`g`imidagi bukilish burchagi juda kam bo`ladi. Harakat davom etib borib, sonning orqaga bukilib borishi taxminan 165-175°ga, son bilan boldir orasidagi burchak 85-90° ga etganida tayyorlanish harakati tugaydi. Oyoq shu paytda eng oxirgi erkin nuqtasiga etib kelgan, panja esa xiyol ichki tomonga burilgan holda yozilgan bo`ladi.

Pastki oyoqning ishchi harakati hozir aytib o`tgan tayyorlanish harakati tugagan vaqtdan boshlanadi. Ya`ni oyoq chanoq-son va tizza bo`g`imidan qattiq kuch bilan tez yoziladi, panja usti bilan suvni orqaga zarb bilan itaradi. Shunday harakatida pastki oyoq yoy hosil qilib harakatlangan bo`ladi. Tana olg`a sirg`anadi.

**Harakatlarning umumiy uyg`unlashuvi.** Yonboshlab suzishda tananing dastlabki holati yonlama cho`zilgan vaziyatda bo`ladi. Bunda oyoqlar bo`y baravar uzatilgan, bir-biriga biriktirilgan, pastki qo`l oldinga cho`zilgan, yuqoridagi qo`l orqaga - yuqoridagi oyoqning son qismi yonida bo`ladi. Pastki qo`l ishchi harakat boshlaganida yuqoridagi qo`l tayyorlanish harakatini bajaradi. Bunday harakatlar o`rtasida tana biroz ko`krakka buriladi, oyoqlar esa vaziyatini o`zgartirmay, erkin turadi. Yuqoridagi qo`l suvga tushganida, pastki qo`l yuqorida aytib o`tganimizdek, tayyorlanish harakatining birinchi qismini bajaradi, oyoqlar esa bu paytda tayyorlanish harakatiga o`tadi. Shundan keyin yuqoridagi qo`l oyoqlarning

ishchi harakatiga, pastki qo`lning oldinga cho`zilishiga mos ravishda o`zining ishchi harakatini bajaradi. Shu paytda tana dastlabki holatga qaytadi, gavda esa oldinga sirg'anadi. Shu bilan jami harakatlarning bir sikli tugaydi.

**Cho`kayotgan odamni qutqarish.** Cho`kayotgan odamni qutqarish har bir insonning burchidir. Bu burchni ado etish uchun albatta, suzishni yaxshi bilish kerak.

Qutqarishning bir necha usul va amallari bor. Masalan, suvga cho`kib borayotgan odamni suv oqimi qutqaruvchi tomonga oqizib kelayotgan bo`lsa, qutqaruvchi cho`kayotgan kishi oldiga burchak hosil qilib, suzib chiqishi lozim;

Hushidan ketgan odamni suvdan olib chiqish quyidagicha bajariladi:

a) cho`kkan odamning sochidan ushlanadi va oyoqlarni brass usulida harakatlantirib, yonboshlab, bo`sh qo`l yordamida suzib olib chiqiladi;

b) cho`kkan odamning iyagidan ikki; qo`l bilan bosh tarafidan kelib ushlanadi va chalqancha yotgan holda brass usulida oyoqlar bilan harakat qilib suzib olib chiqiladi;

v) cho`kkan odamning orqa tomonidan bir qo`lni ikki qo`ltig`idan o`tkazib ushlab, ikkinchi bo`sh qo`l bilan yonboshlab suzib, oyoqlarni ham shu usulga ko`ra harakatlantirib olib chiqiladi;

g) qo`lni cho`kkan odamning bir qo`ltig`idan o`tkazib, iyagidan ushlab yonboshlab suzish harakatlari bilan olib chiqiladi va h. k.

Qutqarish usuli qanday bo`lmasin, cho`kkan odamga sharoitga qarab nafas olishiga imkon berish kerak, bu hech qachon esdan chiqmasligi shart bo`lgan, birinchi navbatda qilinadigan vazifadir.

Shu o`rnida bir voqeani o`quvchilar e`tiboriga havola qilmoqchimiz.

O`zingiz bilasiz, hayotda nimalar bo`lmaydi, qanday odamlar uchramaydi, deysiz. Kunlarning birida shahrimizda barpo etilayotgan yangi turarjoy dahasi hududida yer qazish ishlari tufayli, ko`lga teng kelib qoladigan sun`iy suv havzasi paydo bo`ldi. Yoz kelish bilan bu bolalarning maza qilib cho`miladigan maskaniga aylandi. Suv tiniq, jozibali, orombaxshligi bolalarnigina emas, kattalarni ham o`ziga chorlar edi. Kun issiq, oftob badanni qizdirardi, bolalar baqiriq-chaqiriq

qilib cho`mila boshlashdi. Suv bo`yiga bir payt besh ulfat to`rva-xaltalarini ko`tarib, bir maza oshadigan bo`ldik, deb kelib qoladilar. Odatda, suvni sevadigan bolalar yanada maroqli cho`milish yo`llarini izlab topishadi, katta-katta yog`och doiralari (disk) ustira 5-6 tadan bola chiqib olib, «ko`l» bo`ylab suzib yurishar edi. Buni ko`rgan haligi besh ulfat darhol doiralardan birini bolalardan iltimos qilib olishadi.

Beshovlon bir bo`lib doiraga chiqib o`tiradilar. Yigitlardan faqat biri suzishni bilmas edi. Ular juda xursand, o`zlarini bamisli daryoda - qayiqda ketayotgandek his qilishardi, Suvda cho`milib yurgan bolalardan birining sho`xligi tutib, sekin-asta suzib keladi-yu, ular o`tirgan «qayiqni» ag`darib yuboradi. Ular baravariga suvga tushib ketadilar. Shunda yigitlardan biri suzishni bilmaydigan do`stini eslab qoladi va zudlik bilan u tomonga suzib borib, qo`rquvdan talvasaga tushayotgan og`aynisini suvdan olib chiqadi. Yaxshiyamki bu yigitning suzishni bilmasligidan bir kishi bo`lsa ham-xabardor ekan, aks holda ko`ngilsiz hodisa ro`y berishi mumkin edi. Qutqaruvchi yigit tajribali suzuvchi bo`lgani tufayli suvda oqilona harakat qilib, dam do`stiga, dam o`ziga nafas olishga imkon yaratadi.

Ma`lumki, cho`kayotgan odam ongli harakat qilmaydi. Qo`llarni osmonga emas, pastga olishni u xayoliga ham keltirmaydi. Dod solib qo`llarini suv urgancha tepaga ko`taraveradi, natijada suv o`z qa`riga tortib ketadi. Aslini olganda, odamzodni cho`ktiradigan narsa - mana shu qo`rquv, dahshat vasvasasidir. Odam qo`rqib ketmasa, u o`zini suvda tutib tura oladi. Suzishga o`rganayotganda hammamiz ham shu hissiyot paydo bo`lganidagina suzib yotganmiz. Chunki xuddi shu paytda bizda ongli harakat qilishga erkin ixtiyor tug`ilgan.

Cho`kayotgan odam jon holatda unga yordamga kelgan kishini duch kelgan yeridan mahkam tutib olishi mumkin. Bunday vaziyatda qutqaruvchi esa hushini yo`qotib qo`ymasligi kerak. Masalan, cho`kayotgan kishi uning ikki biligidan tutib qolganida, qutqaruvchi qo`llarini pastdan yonga siltab, chiqarib olishi, bordi-yu, cho`kayotgan odam uning orqa tomonidan, bo`ynidan ikkala qo`li bilan ushlab olsa, darhol uning bosh barmoqlaridan tutib ajratib, qo`lini qo`yvormagan holda, o`zining oldiga uning orqasini qilib o`tkazib olishi lozim. Agar cho`kayotgan odam

old tomondan bo`yinga yopishib olsa, tizzani unga tirab, yengidan itarib ajratish lozim. Shunday hollar ham bo`ladiki, cho`kayotgan kishi sizga mahkam yopishib oladi. Bunday holatda bir zum suv tagiga tushish, ya`ni cho`kayotganday harakat qilish kerak. Shunda sizni o`zi qo`yib yuboradi va suvdan chiqishga o`zi talpinadi, harakat qiladi va yordam berayotganda boshqa qarshilik ko`rsatmaydi.

Xullas, cho`kayotgan odamni qutqarish, unga yordam berish yoki suv tubidan cho`kkan odamni olib chiqish o`ziga xos usul va amallarga ega. Suzishni biladigan, ayniqsa, sportchi suzuvchilar har qanday vaziyatda ham yordamga shay bo`lishlari lozim.

Suvdan qutqarib chiqilgan odamning ahvoli odatda, har xil bo`ladi. Ba`zilari yengil - sal og`iz-burniga suv kirgan, yo`talib, o`qchib, qusib, keyin tuzalib ketadi, Boshqa birlari og`irroq - o`pkaga suv kirgan, nafas olishi qiyinlashib qolgan, afti-angori ko`karib ketgan bo`ladi. Bundaylarni albatta, tezlik bilan shifokor qabuliga eltish kerak. Uchinchi xildagilar esa ancha og`ir - hushini yo`qotgan, nafasi to`xtab qolgan, ammo yuragi sekin-sekin urib turgan bo`ladi. Bundaylarga shu zahoti - bir daqiqa ham o`tkazmay, zudlik bilan sun`iy nafas oldirish zarur.

**Sun`iy nafas oldirish.** Cho`kkan odamni suvdan olib chiqqach, darhol uning yurak urishi, nafas olishi, ko`z qorachig`ining yorug`likka sezgirligi va umuman shikastlangan joylarini ko`zdan kechirib chiqish kerak. O`pkasiga ketgan suvni tushirish uchun yordamchi o`z tizzasiga uni qorni bilan; yotqizib, boshini engashtirgan holda silkitishi lozim. Agar og`ziga loy, qum kabi iflos narsalar kirgan bo`lsa, ulardan tozalash va sun`iy nafas oldirishga o`tish zarur. Buning uchun darhol yuqori nafas yo`llari o`tkazuvchanligi tekshirib ko`riladi:

1) shikastlangan kishi chalqancha yotqiziladi,

2) boshi orqaga - engashtiriladi,

3) havo puflash yo`li bilan (og`izdan-og`izga yoki og`izdan-burunga) sun`iy nafas oldiriladi. Bunda jarohatlangan kishining ko`krak qafasi kengaymasa, u holda pastki jag`i oldinga tortib chiqariladi hamda og`zi va halqumi tozalanadi.

Cho`kkan odam qattiq joy (pol, kushetka)ga chalqancha yotqiziladi. Kiyim-boshining tanani siqib turadigan barcha qismlarini bo`shatish lozim. Yordam



ko`rsatuvchi bir qo`lini, shikastlangan kishining bo`yni ostiga, ikkinchisini esa peshonasiga qo`ygan holda uning boshini orqaga engashtiradi. Bu holda til ildizi ko`tarilib til va halqumning orqa devori orasidagi havo yo`llari ochiladi. Shikastlangan kishining og`zini ochib turish kerak. Shundan keyin nafas oldirishga urinib ko`riladi — og`izdan-og`izga yoki og`izdan burunga havo puflanadi. Bosh orqaga egilgan holda ham o`pkaga havo kirmasa ko`krak qafasi kengaymaydi va kattalashmaydi. Nafas yo`llarini birmuncha to`liq ochib qo`yish uchun shikastlangan kishining pastki jag`ini oldinga tortish zarur. Shu maqsadda qo`lning bosh barmog`ini- og`iz bo`shlig`iga kiritib, engak ko`tariladi yoki ikki qo`l bilan jag` burchaklari ushlanadi, bosh barmoqlar bilan egakni bosib, pastki jag` oldinga tortiladi. Og`iz bo`shlig`i yoki xalqumda biror narsa bo`lsa, uni salfetka, ro`molcha bilan barmoqni tiqib olib tashlash kerak. Bunda shikastlangan kishining boshi yon tomonga qaratib qo`yiladi va, sun`iy nafas oldirishga kirishiladi.

Puflash yo`li bilan sun`iy nafas oldirishda shikastlangan kishining o`pkasiga qo`l usullariga nisbatan. havo ko`proq kiradi. Puflangan havo tarkibi atmosfera havosidan farqlansa ham (kislrod kontsentratsiyasi 21 dan 18% gacha pasayadi, karbonat angidrid kontsentratsiyasi 0,3 dan 5% gacha oshadi), bunday paytda havo kontsentratsiyasi yetarli bo`ladi.

1. Og`izdan-og`izga nafas oldirayotgan kishi shikastlangan kishining yon tomonida tiz cho`kib turgan holda quyidagilarni bajarishi:

1) chuqur nafas olishi;

2) o`z og`zini bemor og`ziga (bevosita bemorning og`ziga yoki doka, salfetka, ro`molcha orqali) mahkam bosishi;

3) boshni orqaga egib turgan qo`lning bosh va ko`rsatkich barmoqlari bilan shikastlangan kishining burnini qisishi;

4) shikastlangan kishining ko`krak qafasi harakatini kuzatib, uning o`pkasiga havoni tez va keskin puflashi;

5) shikastlangan kishidan o`zini chetga olib sust nafas chiqarishini kuzatishi lozim (shikastlangan kishining boshi orqaga egilib turishi shart). Ko`krak qafasining hajmi kichraygandan so`ng sikl qaytariladi. Puflangan havoning hajmi

nafas olish tezligiga nisbatan muhimroqdir. Puflangan havoning hajmi 1000-1500 ml dan kam bo`lmasligi kerak. Har bir minutda besh sekund interval bilan 12 marta havo puflash lozim.

II. Og'iz bilan burunga sun`iy nafas oldirish ham og'izdan-og'izga sun`iy nafas oldirishga o`xshaydi, bunda shikastlangan kishining og'zini berkitib turib, burni orqali havo puflanadi. Bunday holda yordam ko`rsatuvchi bir qo`li bilan (qo`l boshning tepa suyak sohasiga qo`yiladi) shikastlangan kishining boshini orqaga egadi. Engak ustiga qo`yilgan boshqa qo`li bilan esa pastki jag'ni yuqori jag'ga bosib, engakni oldiga tortib, bosh barmoq bilan shikastlangan kishining og'zini berkitadi. Shundan keyin qutqaruvchi:

1) chuqur nafas oladi;

2) shikastdangan kishi burnini qismay, lablari bilan zich holda ushlab turadi (bevosita yoki ro`molcha orqali);

3) shikastlangan kishining ko`krak qafasi harakatini kuzatib, burun yo`llari orqali uning o`pkasiga havoni keskin va tez puflaydi,

4) shikastlangan kishining burnini bo`shatib, og'zini ochadi (chunki havo og'izdan kam chiqadi).

Bolalarga sun`iy nafas oldirish «og'izdan-og'izga» va «og'izdan-burunga» usulida amalga oshiriladi. Bolalar og'iz va burnini birgalikda lablar bilan ushlab, ko`krak qafasi kengayishini kuzatib, uning o`pkasiga havo ehtiyotlik bilan puflanadi. Nafas olish soni bir daqiqada 15-18 martadan kam bo`lmasligi kerak. O`pka - sun`iy ventilyatsiyasining usullarida uning ta`sirchanligiga, ko`krak qafasining harakati bo`yicha baho berish zarur.

**Yurakni tashqi yoki ko`krak ustidan massaj qilish.** Yurak to`xtashining asosiy belgilari quyidagilar: hushdan ketish, puls bo`lmasligi (shu jumladan, uyqu va son arteriyalarida ham), yurak tonlarining yeshitilmasligi, nafasning to`xtashi, teri va shilliq pardalarning - oqarganligi yoki ko`qarganligi, ko`z qorachiqklarining nihoyatda kengayishi, muskullarning tortishishidir (bu belgi hushdan ketish vaqtida paydo bo`lishi va yurak to`xtashining dastlabki sezilarli belgisi bo`lishi ham mumkin).

Hozirgi vaqtda yurak massajining ikki turi: ko`krak bo`shlig'i organlarida operatsiyalar vaqtidagina qo`llaniladigan ochiq yoki bevosita massaj va ochilmagan ko`krak qafasi orqali o`tkaziladigan yopiq, tashqi massajdan (yurakni ko`krak ustidan massaj qilish) foydalaniladi.

Yurakni massaj qilish doimo sun`iy nafas oldirish bilan parallel holda o`tkazilishi, kerak, chunki bunday qilinganda qon kislorod bilan yaxshi ta`minlanadi.

Tashqi massajning mohiyati yurakni to`sh va umurtqa pog'onasi orasida bir maromda siqishdan iborat. Bunda qon qorinchadan aortaga haydaladi va, xususan, bosh miyaga tushadi, o`ng qorinchadan esa o`pkaga tushib, bu yerda; kislorodga to`yinadi. Ko`krak devori elastik bo`lganligi uchun qo`l to`shdan tez olinganda devori oldingi holatiga qaytadi va yurak yana qon bilan to`ladi.

Yurakni tashqi massaj qilishda quyidagi shartlarga rioya qilish kerak: bemor qattiq joyga (pol, yerga) chalqancha yotqiziladi; yordam beruvchi bemorning yon tomonida turib, qo`li bilan to`shish pastki qismini (xanjarsimon o`siqni) topadi va ustma-ust to`g`ri burchak shaklida qo`yilgan qo`l kaftlarini to`shning pastki qismida, ya`ni xanjarsimon o`siqdan 2 barmoq enicha yuqorida joylashtiradi (bosilganda qovurg'alar shikastlanmasligi uchun qo`l barmoqlari ko`krak qafasiga tegmay yozilgan holda bo`lishi kerak); qo`l kaftlari bilan to`sh - umurtqa pog'onasi yo`nalishi bo`ylab kuch bilan 4-5 marta bosadi. (Bu holatni kattalarda 0,5 sek. davomida saqlab turib, qo`llarni to`shdan ko`tarmasdan bo`shashtirish kerak.) Kattalarda massaj o`tkazishda qo`l kuchidan foydalanib qolmay, balki butun gavda kuchi bilan ham bosish zarur. Tashqi massaj qilishda to`sh umurtqa pog'onasi tomoniga minutiga 50-70 marta bosiladi, bolalarda yurak massaji faqat bir qo`lda, emizikli go`daklarda esa ikki barmoq uchida minutiga 80 va 100 - 120 marta bosiladi, Bir yoshgacha bo`lgan bolalarda barmoqlar to`shning pastki qismiga qo`yiladi.

Bunday massaj katta jismoniy kuch talab qiladi va odamni juda charchatadi. Agar reanimatsiyani bir kishi o`tkazsa, to`shni 1 sek. interval bilan har 15 marta bosgandan so`ng massajni to`xtatib, og`izdan-og`izga yoki og`izdan-burunga

usulida 2 marta nafas oldirish kerak. Reanimatsiyada ikki kishi qatnashsa, bittasi sun`iy nafas oldiradi, ikkinchisi esa yurakni massaj qiladi, biroq havo puflayotgan vaqtda yurak massaj qilinmaydi, bunda to`shni har 4 marta bosishdan so`ng o`pkaga bir marta puflash kerak. Shunda yurak minutiga 48 marta bosiladi va o`pkaga 12 marotaba havo puflanadi.

Zarurat taqozo etgan paytda darhol yurakni massaj qilish va sun`iy nafas oldirish kerak. Tez tibbiy yordam mashinasini chaqirishga ketib bemorni yolg`iz qoldirib bo`lmaydi, aks holda vaqt qo`ldan ketishi mumkin. Yurak massaji samaradorligiga quyidagi belgilar bo`yicha baho beriladi: uyqu, son yoki bilak arteriyalarida puls paydo bo`lishi, arterial bosimning 60-80 mm simob. ustuni atrofida, ko`z qorachiqclarini torayishi va ularda yorug`likka reaksiya paydo bo`lishi, teridan ko`kimtir tus va «murdanikidek» rangsizlik yo`qolishi, keyinchalik mustaqil nafas olishning tiklanishi.

Yurakni qo`pollik bilan tashqi massaj qilish og`ir asoratlarga — o`pka bilan yurak zararlanib, qovurg`alarning sinishiga sabab bo`lishi mumkin.

To`shning xanjarsimon o`sig`i bosilganda me`da va jigar yorilib ketishi mumkin. Ayniqsa yosh bolalar va keksalarni juda ehtiyotkorlik bilan massaj qilish zarur.

### **Mavzuga oid nazorat savollari.**

1. Suzish sporti O`zbekiston hududlarida qachon paydo bo`lgan va rivojlangan?
2. Hozirgi kunda suzishning qanday turlarini bilasiz gapirib bering?
3. O`zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya tizimida suzish qanday mavqega ega?

### **Adabiyotlar**

1. N.J. Bulgakova. Sportivnoye plavaniye. Uchebnik – M. 1996.
2. V.M.Korbut, R.G.Israilova, V.I. Voljin. Suzish. – Toshkent, 2018.
3. B.B.Ibragimov, M.B.Ibragimov. Jismoniy madaniyat va sport (Jismoniy tarbiya). – Buxoro, 2019.

## **2-MODUL. SPORT O`YINLARI BO`YICHA MUSOBAQALAR O`TKAZISH VA HAKAMLIK QILISH.**

### **IV BOB. FUTBOL O`YINI BO`YICHA MUSOBAQALAR O`TKAZISH VA HAKAMLIK QILISH**

#### **4.1. Futbol musobaqalarni tashkil etish, o`tkazish va uning ahamiyati.**

Futbol musobaqalari o`quv-mashg`ulot ishlarining asosiy qismini tashkil etadi. Ular mashg`ulotlarda qiziqishni oshiradi, mamlakatda futbolning ommaviy rivojlanishiga yordam beradi. Futbolchi o`yinlarda muntazam qatnashmay turib yuqori natijalarga erisha olmaydi. Musobaqalar musobaqa qatnashchilarining va umuman jamoaning jismoniy, texnik, taktik va axloqiy-irodaviy tayyorgarligi darajasini aniqlaydi, o`quv-mashg`ulot jarayonining ahvoli va yo`nalishini aniqlash imkonini beradi. Musobaqa natijalari o`quv-mashg`ulot ishlarini yakunlash vositasi bo`lib xizmat qiladi.

Musobaqalar qat`iylikni, g`alabaga erishish yo`lidagi iroda kuchini, korxonalar jamoasi, shahar, respublika, mamlakat oldidagi ma`suliyat hissini tarbiyalaydi. O`yinlarning emosional keskinligi futbolchilarning psixologik xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Ochiq havoda o`tkaziladigan musobaqalar qatnashchilarni sog`lomlashtirish jihatidan katta ahamiyatga ega bo`lib, jismoniy kamolotning hammabop va qimmatli vositalaridan biridir. Musobaqalar ko`p sonli tomoshabinlarni jalb qilish bilan futbolni targ`ib qilish va ommalashtirishning qudratli vositasi bo`lib xizmat qiladi. Ular musobaqa qatnashchilari va tomoshabinlarga uyushtiruvchi ta`sir ko`rsatib, tomoshabinlarni jismoniy tarbiya va sport bilan faol shug`ullanishga jalb etadi.

Futbol hakamining tarbiyachi – pedagog va o`yin rahbari sifatidagi ahamiyati juda katta. Aniq hakamlik qilish, maydonda ro`y beradigan qo`polliklarga va ayrim futbolchilarning intizomsizligiga qarshi qat`iy kurashish, musobaqalashayotgan jamoa o`yinchilariga o`z vaqtida tanbeh va ko`rsatmalar berish musobaqani taktik va texnik jihatdan yuqori darajada o`tkazishga yordam beradi.

## 4.2. Musobaqa turlari

Oldiga qo'yilgan vazifalarga qarab musobaqalarni asosiy va yordamchi musobaqalarga bo'lish mumkin.

Yagona sport tasnifi talablariga muvofiq tashkil etiladigan va natijalariga ko'ra sport tasnifi belgilanadigan hamda g'olib yoki chempion degan nom beriladigan musobaqalar asosiy musobaqalarga kiradi.

Musobaqalarning asosiy turi – taqvim musobaqalar bo'lib, ular sport tadbirlarining yagona taqvim rejasida nazarda tuziladi va tasdiqlangan nizomga muvofiq ravishda o'tkaziladi.

Quyidagilar musobaqalarning asosiy turlariga kiradi:

- birinchilik yoki chempionatlar;
- kubok musobaqalari;
- saralash musobaqalari.

*Birinchilik yoki chempionatlar* – eng mas'uliyatli musobaqalar bo'lib, ularning natijalari bo'yicha g'olib jamoaga chempionlik nomi beriladi. Musobaqalarni tashkil etishning bu turi jamoalar kuchini oqilona baholashga, olib borilayotgan o'quv-tenirovka ishining sifatini taqqoslashga imkon beradi.

Kubok musobaqalari juda ko'p jamoalarni jalb etish va g'olibni nisbatan qisqa muddatlarda aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Kubok musobaqalari eng yaxshilarni izchillik bilan olish prinsipi bo'yicha o'tkaziladi.

Saralash musobaqalari musobaqalarning keyingi bosqichida qatnashish uchun eng kuchli jamoalarni aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Musobaqalarning yordamchi turlariga qo'yidagilar kiradi:

- nazorat uchrashuvlari;
- o'rtoqlik uchrashuvlari;
- namunali uchrashuvlar;
- qisqartirilgan musobaqalar.

*Nazorat uchrashuvlari* jamoalarni bo'lajak musobaqalarga tayyorlash va ularning tayyorgarligini tekshirish maqsadida o'tkaziladi.

*O'rtoqlik uchrashuvlari* o'quv-mashg'ulot maqsadlarida yoki an'anaviy musobaqalar rejasida o'tkaziladi.

*Namunali uchrashuvlar* futbolni ommalashtirishga va sport mahoratini ko'rsatishga xizmat qiladi.

*Qisqartirilgan musobaqalar* bir necha soat mobaynida o'tkaziladi. Ular, odatda, bayram kunlariga va sport mavsumining ochilish yoki yopilish kunlariga rejalashtiriladi.

Bunday musobaqalarni o'tkazishda o'yin vaqti qisqartiriladi. Qisqartirilgan musobaqalarning dasturi faqat o'yin o'tkazishni emas, balki o'yinchilarning texnik yoki jismoniy tayyorgarligiga doir musobaqalarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

### **4.3. Musobaqalarni rejalashtirish**

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya harakatining tashkiliy tuzilish xususiyatlarini hisobga olgan holda respublikalar, viloyatlar, shaharlar va jismoniy tarbiya jamoalarida o'tkaziladigan futbol musobaqalarining muayyan tizimi qaror topgan. Bu tizim turli ko'lamdagi musobaqalarning mintaqaviy va muassasa prinsipini hisobga olgan holda muttasil, izchil bo'lishini va almashinib turishini talab etadi.

Bu musobaqalarning bir yo'la ikki joyda bo'lishi, jamoalarning haddan tashqari band bo'lib qolishi, uzoq vaqt yo'lda bo'lishning oldini olishga hamda jamoalarda to'la qimmatli o'quv-mashg'ulot ishlari uchun sharoit yaratishga imkon beradi. Musobaqaning umumiy yig'ma taqvim rejasini faqat tadbirlar ro'yxati emas, balki sport tashkilotlarining futbolini yanada rivojlantirish yuzasidan birgalikda olib boradigan ishlarning chuqur o'ylangan rejasidir.

U territorial va idoralar bo'yicha uyushtiriladigan musobaqalarni o'tkazish bilan aloqador barcha masalalarni o'z ichiga oladi. Respublika, viloyat o'lka va shahar musobaqalarining yig'ma taqvim rejasini yuqori tashkilotlar tomonidan rejalashtiriladigan musobaqalarni hisobga olgan holda, 4 yillik qilib tuzish maqsadga muvofiqdir. Zarur o'zgartirishlar kiritilgandan keyin futbol bo'yicha umumiy yig'ma reja tegishli jismoniy tarbiya va sport vazirligining ommaviy sport tadbirlari rejasiga kiritiladi hamda barcha sport tashkilotchilari uchun majburiy

hisoblanadi.

#### **4.4. O'yin tizimlari**

Amalda o'yinning uchta asosiy tizimi qaror topgan: davrali tizim, bir yoki ikki marta yutqazgandan keyin o'yindan chiqib ketiladigan tizim, avvalgi ikki tizimning kombinastiyasidan iborat bo'lgan aralash tizim.

#### **4.5. Davrali tizim**

Musobaqaning davrali tizimida har bir jamoa, agar musobaqa bir davrali o'tkazilsa, bir-biri bilan bir marta, agar musobaqa ikki davrali o'tkazilsa, ikki marta uchrashishi kerak. Uning bunday tizim yoki adolatli musobaqalashuvchilar kuchlari nisbatini ancha oqilona belgilashga va kuchli jamoani aniqlashga imkon beradi, bunda musobaqaning umumiy yakunidagi tasodifiylik elementi ma'lum darajada bartaraf qilinadi. Bu tizim bo'yicha musobaqalarni ikki davrali qilib o'tkazish eng to'g'ri hisoblanadi.

Davrali tizimda musobaqa ishtirokchilarining barcha o'rinlari to'plangan ochkolar soniga qarab aniqlanadi. O'tkazilgan barcha o'yinlar natijasida eng ko'p ochko olgan jamoa g'olib hisoblanadi. Bir yoki bir necha jamoalarda ochkolar teng bo'lib qolganda, g'olibni aniqlash uchun musobaqa tartibida qandaydir qo'shimcha ko'rsatkichlar yoki tadbirlar (masalan, shu jamoalar o'rtasida qo'shimcha o'yin yoki shu jamoalar o'rtasidagi avval o'ynalgan o'yin natijalari, yoki kiritilgan to'plar nisbati) nazarda tutilgan bo'lishi kerak.

Davrali tizim bo'yicha o'ynash tartibida qur'a tashlash bilan musobaqada qatnashuvchi jamoalarning nomerlari aniqlanadi. Jamoalarning aniqlangan raqamlari asosida o'yinlar jadvali (kalendari) tuziladi. Musobaqalar bir davrali qilib o'tkazilganda, o'yin bir-biri bilan bellashuvchi ikki jamoadan dastlabkisining maydonida o'tkaziladi. Agar musobaqada ikki davra nazarda tutilgan bo'lsa, ikkinchi o'yin keyingi jamoa maydonida o'tkazilishi kerak.

Davrali tizim bo'yicha o'tkaziladigan o'yinlar kalendarini uch usul bilan tuzish mumkin.



**Birinchi usul.** Musobaqada ishtirok etuvchi jamoalar soniga qarab, jamoalarning umumiy soniga yaqin bo'lgan tok son olinadi va unga muvofiq ravishda vertikal chiziqlar o'tkaziladi. Masalan, 6 ta jamoa bo'lganda, unga (ya'ni 6 soniga) yaqin bo'lgan toq son 5 bo'ladi. Demak, besh vertikal chiziq o'tkazish zarur. Jamoalar soni 10 ta bo'lganda, unga yaqin toq son – 9, demak, to'qqizta vertikal chiziq chizilgan bo'lishi kerak va hokazo.

Vertikal chiziqlarning ostidan va ustidan, pastdan boshlab chapdan o'ngga qaratib jamoalar nomeri ketma–ket tartibda birinchidan musobaqada qatnashuvchi jamoalarning umumiy soniga eng yaqin bo'lgan toq songacha, orada bir chiziq qoldirib yozib chiqiladi (4.1-4.2-jadval).

Bu raqamlar keyingi raqamlarni grafik tarzida yozish uchun dastlabki reja bo'lib hisoblanadi. Birinchi kun o'yinlar taqvimini tuzish uchun birinchi raqamdan boshlab vertikal chiziq atrofida soat strelkasiga qarshi yo'nalishda oshib boruvchi tartibda barcha ishtirok etuvchi raqamlar yozib chiqiladi. Qolgan o'yin kunlarining taqvimini tuzish uchun vertikal chiziqlar o'rtasidagi barcha raqamlar, avval ularning ostiga va ustiga qo'yilgan raqamlarni hisobga olgan holda, ilonizi qilib qo'yib chiqiladi. Shuni ham aytish kerakki, raqamlar birin-ketin vertikal chiziqlarning o'ng tomonidan ortib boruvchi tartibda takrorlanib yoziladi.

Shundan keyin ikkinchi va qolgan taqvim kunlarida bellashuvchi jamoalarni aniqlash uchun har bir vertikal chiziqning chap tomoniga avvalgi taqvim kunidagi barcha raqamlar o'zgarishsiz o'tkazilishi kerak.

4.1-jadval

**10 jamoa uchun o'yinlar taqvimini tuzish  
(10 ga eng yaqin bo'lgan kichik toq son – 9)**

		6				7				8				9			
6	5	5	7	7	6	6	8	8	7	7	9	9	8	8	1	1	9
7	4	4	8	8	5	5	9	9	6	6	1	1	7	7	2	2	8
8	3	3	9	9	4	4	1	1	5	5	2	2	6	6	3	3	7
9	2	2	1	1	3	3	2	2	4	4	3	3	5	5	4	4	6

1	2	3	4	5
---	---	---	---	---

4.2-jadval

### Turlar bo'yicha o'yinlar

1- tur	2- tur	3- tur	4- tur	5- tur	6- tur	7- tur	8- tur	9- tur
1- 10	10- 6	2-10	10-7	3-10	10-8	4-10	10-9	5-10
2-9	1-2	3-1	2-3	4-2	3-4	5-3	4-5	6-4
3-8	9-3	4-9	1-4	5-1	2-5	6-2	3-6	7-3
4-7	8-4	5-8	9-5	6-9	1-6	7-1	2-7	8-2
5-6	7-5	6-7	8-6	7-8	9-7	8-9	1-8	9-1

Hamma grafalar to'ldirilib chiqilganidan keyin, o'yinlarning taqvim tuziladi. Buning uchun vertikal chiziqning ikki tomonida turuvchi raqamlar juft-juft qilib birlashtiriladi. Musobaqada ishtirok etuvchi jamoalar soni toq bo'lsa, har bir vertikal chiziqning ostida yoki ustida turuvchi raqamlar mazkur taqvim kuni (shu turda) o'ynamaydigan jamoa ekanini ko'rsatadi.

Jamoalar soni juft bo'lganda (masalan, jamoalar soni o'nta bo'lganda) ko'rsatilgan (vertikal chiziqning ostida yoki ustida) raqamlar (jamoalar) oxirgi raqamlar (o'ninchi) bilan o'ynaydilar.

Turlar bo'yicha o'yinlar jadvali bo'sh raqamli jamoalar (vertikal chiziq ostida yoki ustidagi raqamlar) bilan so'nggi raqamli jamoa o'yinini hisobga olgan holda tuziladi (yuqoridagi misolda 1-raqam bilan, 10-raqam bilan va hokazo).

Odatda, tur jadvalida birinchi bo'lib ko'rsatilgan jamoa maydon egasi hisoblanadi. Shuning uchun qur'aning oxirgi raqami (masalan, musobaqada qatnashuvchi jamoalar o'nta bo'lganda 10-raqam) har bir turdan keyin o'rin almashib turadi. Qolgan bellashuvchi jamoalar vertikal chiziqning o'ng tomonida turuvchi raqamdan boshlab tuziladi.

Shunday qilib, bu usulda jamoalarning har bir turda navbat bilan maydon almashishiga qat'iy rioya qilinadi.

**Ikkinchi usul** («qatorasiga»). O'yinlar taqvimini o'yinda ishtirok etuvchi hamma jamoalarni bir qatorga juft-juft qilib yozish usuli bilan tuzishda maydonlar

almashishining avvalgidek shartlari, ya'ni uchrashuv «egasi» huquqi saqlanadi. Mazkur usulda jamoalarning juft soni olinadi (masalan, agar musobaqada 7 jamoa qatnasha, o'yinlar taqvimini 8 jamoaga tuziladi; agar 9 ta jamoa bo'lsa, 10 jamoaga tuziladi va hokazo).

8 ta jamoa bo'lganda birinchi taqvim kuni quyidagi tartibda tuziladi: bir qatorida birinchi raqam oxirgi 8-raqam bilan, ikkinchi raqam oxirgi raqamdan oldingi 7- raqam bilan birlashtiriladi, ya'ni bir-biri bilan o'ynovchi jamoa aniqlanadi va hokazo. Shunda quyidagi jamoalar bellashadigan bo'lib chiqadi: 1-8, 2-7, 3-6, 4-5.

4.3-jadval

**Jamoa uchun o'yinlar taqvimini «qatorasiga» tuzish**

1-kun	1-8	2-7	3-6	4-5
2-kun	5-1	6-4	7-3	8-2
3-kun	1-2	3-8	4-7	5-6
4-kun	6-1	7-5	8-4	2-3
5-kun	1-3	4-2	5-8	6-7
6-kun	7-1	8-6	2-5	3-4
7-kun	1-4	5-3	6-2	7-8
Nazorat qatori	8-1	2-7	3-6	4-5

Keyingi taqvim kunlaridagi o'yinlar jadvalini tuzish dastlabki juftlikdagi 1-raqamni avvalgi taqvim kunidagi o'ng tomondagi chekka raqam bilan birlashtirishdan boshlanadi. Bunda maydonlar almashinishi uchun 1- raqam navbatma-navbat juftlikning goh o'ng, goh chap tomoniga qo'yiladi. Qolgan juftliklar (bir-biri bilan o'ynaydigan jamoalar) qolgan raqamlarni juft-juft qilib bir qatorga yozish bilan tuziladi, bunda birlashtirish o'ng tomondan boshlanadi.

Shunday qilib, ikkinchi taqvim kuni quyidagi jamoalar bir-biri bilan bellashadi: 5-1, 6-4, 7-3, 8-2.

Ikkinchi va undan keyingi taqvim kunlarini tuzish uchun birinchi juftlikning 1-raqamdagi o'rin boshqa raqamdagi (mazkur holda 8-raqamni) qoldiriladi, keyingi juftliklarni birlashtirish prinsipi avvalgidek bo'ladi.

Nazorat qatorida hosil bo'ladigan juftliklarning (birinchidan tashqari) birinchi kalendar kunidagi juftliklar bilan to'g'ri kelishi barcha kunlar bo'yicha tuzilgan o'yinlar taqvimining to'g'riligini tasdiqlaydi. O'yinlar taqvimi ikki davrali bo'lganda, barcha juftliklardagi raqamlar almashtiriladi. O'yinlar taqvimini tuzish va uni nazorat qilishning oddiyliigi – bu usulning afzalligidir.

**Uchinchi usul.** Bu usul avvalgi ikki usuldan ham oddiy: u musobaqa o'tkazish jarayonida maydonning almashinishi hech qanday ahamiyatga ega bo'lmagan taqdirda (musobaqalar bir joyda o'tkazilganda) qo'llaniladi.

Uchinchi usulga binoan o'yinlar taqvimi bevosita turlar bo'yicha tuziladi. Musobaqada qatnashuvchi jamoalar soniga mos bo'lgan raqamlar (jamoalar soni juft bo'lganda) birinchi raqamdan boshlab ikki ustuncha qilib yoziladi (butunda 1-raqam chap ustunchaning tepasidan boshlanadi). Shundan keyin ikkinchi raqamdan boshlab (bu raqam, ya'ni 2-raqam ikkinchi ustunchaga, birinchi raqamning qarshisiga yoziladi), ketma-ket tartibda soat strelkasi bo'ylab qolgan raqamlar qo'yib chiqiladi Keyingi tur o'yinlarini tuzish uchun raqamlar soat strelkasiga qarshi yozib chiqiladi, birinchi raqam o'z o'rnida qoladi.

4.4-jadval

### 8 jamoa uchun turlar bo'yicha o'yinlarning taqsimlanishi

1-tur	2-tur	3-tur	4-tur	5-tur	6-tur	7-tur
1-2	1-3	1-4	1-5	1-6	1-7	1-0
0-3	2-4	3-5	4-6	5-7	6-0	7-2
7-4	0-5	2-6	3-7	4-0	5-2	6-3
6-5	7-6	0-7	2-0	3-2	4-3	5-4

Agar musobaqada qatnashuvchi jamoalar soni toq bo'lsa, keyingi juft son o'rniga «nol» raqami qo'yiladi, qolganlari esa o'zgarishsiz qoladi. Taqvim bo'yicha «nol» raqami bilan o'ynashi kerak bo'lganlar mazkur turda o'ynamaydi.

**7 jamoa bo'lganda o'yinlarni turlar bo'yicha taqsimlash**

1-tur	2-tur	3-tur	4-tur	5-tur	6-tur	7-tur
1-2	1-3	1-4	1-5	1-6	1-7	1-0
0-3	2-4	3-5	4-6	5-7	6-0	7-2
7-4	0-5	2-6	3-7	4-0	5-2	6-3
6-5	7-6	0-7	2-0	3-2	4-3	5-4

Davrli tizim bo'yicha bir davrali musobaqalar o'tkazishda kerak bo'lgan vaqtni aniqlash uchun o'yinlarning umumiy sonini bo'lish kerak.

Bu quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$H = \frac{K(K-1)}{2}$$

bunda I – o'yinlar soni,

K – musobaqada ishtirok etuvchi jamoalar soni.

Masalan: K = 16

$$H = \frac{16(16-1)}{2} = 120$$

Turlar o'rtasidagi o'yinlar jadvalini tuzishda jamoalarning o'quv-mashg'ulot ishlarini o'tkazishga imkon beradigan darajada tanaffus bo'lishini nazarda tutish kerak.

**4.6. O'yinlar (musobaqa)da o'rinlarni aniqlash**

O'tkazilgan musobaqa natijasida g'olib va musobaqada ishtirok etgan jamoalar egallagan keyingi o'rinlar aniqlanadi. Shu musobaqada jamoaning o'tkazgan har bir o'yini uning natijasiga qarab, ochkolar berish yo'li bilan baholanadi. Kollektivdan bitta jamoa qatnashadigan davralar tizimi bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalarda quyidagicha hisobga olish shkalasi keng tarqalgan bo'lib, unga binoan g'alaba uchun – 2, durang uchun – 1, mag'lubiyat uchun -0 ochko beriladi. Jamoalarning o'yinga kelmaganligini mag'lubiyat bilan tenglashtirmaslik uchun boshqacha hisoblash shkalasi qabul qilinadi, masalan:

g'alaba –3 ochko, durang – 2 ochko, mag'lubiyat – 1 ochko, o'yinga kelmaslik – 0 ochko.

Klublar bo'yicha hisobga olishda, jismoniy tarbiya jamoalari musobaqalarda bir necha jamoalar bilan qatnashganda (viloyat, shahar va tuman birinchiliklari o'ynalayotgan vaqtda shunday bo'lishi mumkin) hisobga olish shkalasi har bir jamoaga alohida-alohida ochkolar yozishni talab qiladi.

Natijalar klublar bo'yicha hisobga olinadigan musobaqada oltita jamoa bilan qatnashuvchi jismoniy tarbiya jamoalariga beriladigan baholash ochkolari shkalasi misol tariqasida keltirilgan.

Musobaqa o'tkazishning muayyan sharoitlari va oldinga qo'yilgan vazifalarga qarab ochkolar differenziyasi turli jamoalar uchun boshqacha bo'lishi mumkin. Biroq, odatda, mag'lubiyat g'alaba uchun beriladigan ochkolarning 1/3 ni, durang uchun beriladigan ochkolarning 2/3 ni, kelmaganlik uchun 0 qismini berishini nazarda tutish kerak.

4.6-jadval

**Alohida – alohida baholashning taxminiy shkalasi**

Natija	Jamoalar bo'yicha baholash ochkolari					
	1	2	3	4	5	6
G'alaba	18	15	12	9	6	3
Durang	12	10	8	6	4	2
Mag'lubiyat	6	5	4	3	2	1
O'yinga kelmaganlik	0	0	0	0	0	0

Musobaqada o'rinlar jamoalarning hamma o'yinlarda to'plagan ochkolari yig'indisiga qarab uzil-kesil aniqlanadi. Eng ko'p ochko to'plagan jamoa g'olib hisoblanadi. Agar dastlabki bir necha jamoalarning to'plagan ochkolari soni bir xil bo'lsa, g'olibni uzil-kesil aniqlash uchun ular o'rtasida qo'shimcha o'yinlar o'tkazilishi mumkin yoki o'rinlar kiritilgan va o'tkazib yuborilgan to'plar nisbati bo'yicha, yoki ular o'rtasida musobaqa jarayonida o'tkazilgan o'yin natijalari bo'yicha aniqlanadi.

Jismoniy tarbiya jamoalari musobaqada ishtirok etish natijasida to'plagan ochkolari yig'indisiga qarab klublar bo'yicha g'oliblar aniqlanadi.

Quyida nisbatan qisqa muddatlarda ko'p jamoa ishtirokida o'tkaziladigan musobaqalarda qo'llaniladigan davrali o'yin tizimining xillarida biri keltiriladi. Bu tizimda hamma jamoalar bir necha guruhga bo'linadi. Har bir kichik guruhdagi o'yinlar davrali tizim bo'yicha ochkolar berish yo'li bilan o'tkaziladi. Shundan so'ng kichik guruh g'oliblaridan yoki kichik guruhlarda 1-2-o'rinlarni olgan jamoalardan yangi guruhlar tuziladi va bu guruhlar ham davrali tizim bo'yicha o'yinlar o'tkazadi. G'olibni aniqlash uchun bo'ladigan final o'yin guruh g'oliblari o'rtasida o'tkaziladi. Qolgan hamma o'rinlar kichik guruhlarda tegishli o'rinni egallagan jamoalar o'rtasida o'yinlar o'tkazish bilan aniqlanadi.

Masalan: Germaniyada bo'lib o'tgan 16 jamoa o'rtasidagi 1974-yilgi jahon birinchiligi musobaqalari shunday tizim bo'yicha o'tkazilgan. Dastlabki bosqichda hamma jamoalar to'rta guruhga bo'lingan edi:

*I guruh: 1, 2, 3, 4-nomerlar      III guruh: 9, 10, 11, 12-nomerlar*

*II guruh: 5, 6, 7, 8-nomerlar      IV guruh: 13, 14, 15, 16-nomerlar*

Jamoalar raqamlari qur'a tashlash bilan aniqlanadi. Ayrim hollarda, jahon birinchiligida bo'lgani kabi, har bir guruhga avvalgi jahon birinchiligida katta natijalar ko'rsatgan jamoalardan ajratiladi.

Kichik guruhlarda jamoalar davrali tizim bo'yicha o'ynaydilar. Kichik guruhlarda o'tkazilgan o'yin natijalariga qarab, har birida 4 tadan jamoa bo'lgan ikkita guruh tuziladi (mazkur musobaqada 1-bosqichdan keyin 8 ta jamoa o'yindan chiqib ketar va ularning o'rni aniqlanmas edi, garchi buni xuddi shunga o'xshash tizim bo'yicha aniqlash mumkin bo'lsa ham):

*«A» guruh*

*«B» guruh*

*I guruh 1- o'rin*

*I guruhdagi 2- o'rin*

*II guruh 2 - o'rin*

*II guruhdagi 1- o'rin*

*III guruh 1 –o'rin*

*III guruhdagi 2- o'rin*

*IV guruh 2- o'rin*

*IV guruhdagi 1- o'rin*

«A» va «B» guruhlarda jamoalar davrali tizim bo'yicha bir davra o'yin

o'tkazadilar. Finalda birinchi o'rin va chempionlik unvonini olish uchun «A» va «B» guruhlarining g'olib jamoalari o'ynaydilar, 3-4 o'rinlar uchun esa guruhlarda ikkinchi o'rinni egallagan jamoalar kuch sinashadilar. Shunday jadval bo'yicha 16 jamoa bo'lganda, dastlabki to'rt o'rinni aniqlash uchun 38 ta o'yin o'tkazilgan bo'lishi kerak.

Guruhlarda tegishli o'rinlarni egallagan jamoalar o'rtasida o'tkaziladigan shunday o'yinlar yordamida barcha sakkiz o'rinni aniqlash mumkin.

#### **4.7. Musobaqa nizomi**

Sovrinli o'rinlar, shuningdek, musobaqada qatnashuvchi jamoalar yoki jismoniy tarbiya jamoalari (natijalar klublar bo'yicha hisobga olinganda) egallaydigan barcha keyingi o'rinlar aniqlanadigan biron-bir rasmiy musobaqa o'tkazishdan avval musobaqa haqidagi nizom tuzilgan bo'lishi kerak. Bu nizom Futbol Assotsiyatsiyasi yoki musobaqani o'tkazuvchi boshqa biror tashkilot tomonidan tasdiqlanadi.

Musobaqa nizomi katta yuridik kuchga ega bo'lgan hujjatdir. Unda asosiy tashkiliy va texnik shart-sharoitlar aniq bayon qilingan bo'ladi. Nizom o'quv-mashg'ulot ishlarining mazmunini belgilab beradi, chunki jamoalarning tashkiliy-uslubiy tayyorgarligi bo'lajak musobaqalarning xususiyatlarini hisobga olgan holda o'tkaziladi. Musobaqada qatnashuvchi jamoalarning tayyorgarlik ko'rish uchun yetarli vaqtga ega bo'lishlari nazarda tutilib, nizom oldindan tasdiqlanishi va tarqatilishi kerak.

Musobaqani o'tkazish davrida tasdiqlangan nizomdan chetga chiqishga yo'l qo'yilmaydi, aks holda mazkur musobaqani o'tkazayotgan tashkilotning obro'yiga putur yetadi va keraksiz nizolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi, xolos.

Musobaqa nizomida quyidagi masalalar aks ettirilgan bo'lishi kerak:

1. O'tkazilayotgan musobaqaning maqsadi va vazifalari.
2. Musobaqani kim o'tkazishi (assotsiyatsiya, tashkiliy komitet va hokazolar).
3. Musobaqa o'tkazish muddatlari va shartlari.



4. Musobaqaga qo'yiladigan jamoalar soni va nomi, talabnomaga kiritiladigan qatnashchilarning maksimal miqdori.

5. Musobaqa o'tkaziladigan o'yin tizimi (davralari – bir yoki ikki davrali, mag'lubiyatdan keyin o'yindan chiqib ketiladigan, aralash tizim).

6. Hisobga olish tizimi va jamoalarning hamda jismoniy tarbiya jamoalarining (natijalar klublar bo'yicha hisoblanganda) egallagan o'rinlarini aniqlash tartibi.

7. Musobaqalarning alohida shartlari (qanday hollarda o'yinda qo'shimcha vaqt belgilanishi va uning davomiyligi, o'yin durang bilan tugallanganda yoki o'tkazilgan musobaqa natijasida ochkolar soni teng bo'lganda, g'olibni aniqlash usullari, o'yin qoidalarida ko'rsatilgandan tashqari nechta o'yinchi almashtirish mumkinligi va hokazolar).

8. Jamoalarni va musobaqa qatnashchilarini rasmiylashtirish tartibi, shakli, o'yinchilarga talabnomalar berish va qayta talabnoma berish muddati.

9. Musobaqalarni olib boradigan hakamlar jamoasining nomi.

10. O'tkazilgan o'yinga norozilik bildirish va uni ko'rib chiqish, shuningdek, o'yinchilarni maydondan chiqarib yuborish yoki ularni ogohlantirish bilan bog'liq bo'lgan intizom masalalarini qarab chiqish tartibi.

11. O'yinchilar intizomni buzganligi uchun jamoalarning javobgarligi hamda stadion va klublar ma'muriyatining o'yin o'tkazish vaqtida tartib saqlanishi uchun javobgar bo'lishi.

12. Musobaqa o'tkaziladigan joylar va ularga qo'yiladigan talablar.

13. G'oliblarni mukofotlash hamda oxirgi o'rinlarni egallagan jamoaning yoki jamoalarning keyingi xuddi shunday musobaqada qatnashish shartlari.

#### **4.8. Futbol qoidalariga eslatmalar**

O'smirlar jamoasi (16 yoshgacha bo'lgan o'yinchilar), ayollar jamoasi va faxriylar jamoalari (35 yoshdan kata bo'lgan o'yinchilar) ishtirokidagi o'yinlarda futbol qoidalariga quyida keltirilgan o'zgartirishlar kiritilishi mumkin:

- futbol maydoni hajmiga;
- to'p og'irligi va materialiga;

- darvoza balandligi va kengligiga;
- o'yin vaqtiga;
- o'yinchi almashtirish soniga.

Qolgan o'zgartirishlar faqatgina Xalqaro Kengash roziligi bilan amalga oshiriladi.

Erkaklar va ayollar

Futbol qoidalari matnida keltirilgan tushuntirishlar va aniqlashtirishlar hakamlar borasidagi shuningdek o'yinchilar va jamoa rahbarlar borasida masalalar erkaklarga tegishli bo'lganidek shu o'rinda ayollarga ham tegishlidir.

#### **4.9. Futbol o'yin qoidalari**

Bizgacha yetib kelgan dastlabki qoidalar 1863-yil 26-oktyabr Londonda Angliya futbol uyushmasining tashkil etilishi paytida bu o'yinning 13 moddadan iborat bo'lgan ilk rasmiy qoidalari tasdiqlangan keyinchalik bu qoidalar boshqa barcha milliy uyushmalar uchun futbol o'yinining asosi bo'lib qoldi. 1863-yili, 8-dekabrda bu qoidalar e'lon qilingan. Ular quyidagilardir:

1. Maydonning bo'yi 200 yard (183m)dan, eni 100 yard (91,5m)dan oshmaydi. Maydonning burchaklariga bayroqchalar o'rnatiladi. Ustiga to'sin yotqizilmagan darvoza 8 yard (7,32m) oraliqda o'rnatilgan bo'lib, ikkita ustundan iborat.

2. Kim qay tomondan o'ynashi qur'a tashlab hal qilinadi. Qur'ada yutqazgan jamoada maydon markaziga qo'yilgan to'pni tepib, o'yinni boshlab beradi. Ikkinchi jamoa o'yinchilari to'p tepilgunga qadar unga 10 yard (9,1m)dan yaqin kela olmaydilar.

3. Darvozaga to'p urilgandan keyin, jamoalar tomonlarini almashtiradilar.

4. To'p qo'lda uloqtirmay, qo'lda zarba berilmay yoki qo'lda ko'tarib kirilmay, ikkita ustun oralig'idan o'tsa, darvoza zabt etilgan hisoblanadi.

5. Agar to'p yon chiziqdan tashqariga chiqib ketsa, unda hammadan avval tega olgan o'yinchi to'pni chiziqni kesib o'tgan joydan, chiziqqa nisbatan to'g'ri burchak hosil qiladigan yo'nalishda to'pni qo'lda maydonga tashlab beradi. To'pni yerga tekkan zahoti o'yinga kirgan hisoblanadi.

6. O`yinchi zarba berayotgan paytda uning jamoasining zarba beruvchidan ko`ra raqib darvozasiga yaqinroq turgan hamma o`yinchilari o`yindan tashqari holatda hisoblanadi va ular to`pga tega olmaydilar yoki raqiblarga xalaqit bera olmaydilar.

7. To`p darvoza chizig`idan tashqariga chiqib ketib, chiziqning narigi betida himoyalananayotgan jamoa o`yinchisi birinchi bo`lib unga tegsa, shu jamoada darvoza chizig`ining o`yinchi to`pga tekkan joy ro`parasidagi nuqtasidan to`p tepish huquqini oladi: bordi-yu hujum qilayotgan jamoa o`yinchisi to`pni birinchi tekkan joy ro`parasidagi nuqtasidan erkin to`p tepish huquqini oladi. Erkin to`p tepish paytida himoyadagi jamoa to to`p tepilgunga qadar darvoza chizig`idan tashqarisida turadi.

8. Agar o`yinchi boshqa o`yinchi zarbasidan uchib kelayotgan to`pni bevosita qo`li bilan ilib olsa, shu holat ro`y bergan joyni belgilab olib, o`sha joydan erkin zarba berishi mumkin.

9. O`yinchilar to`pni qo`llariga olib yugura olmaydilar.

10. O`yinchilarni chalish va urish man etiladi, shuningdek o`yinchini qo`l bilan ushlab to`xtatib qolish yoki turtish man etiladi.

11. To`pni qo`l bilan uzatish man etiladi.

12. Maydon ichida to`pga qo`l tekkizish man etiladi.


13. Temir va guttaperchadan qilingan joylari turtib chiqqan poyafzallarda o`ynash man etiladi.

Ko`rinib turibdiki, 1863-yildagi qoidalar hozirgi qoidalardan anchagina farq qiladi. Bu hozirgi kungacha futbol qonun-qoidalarini yillar o`tishi bilan o`zgarganligini ko`rsatadi.

### **1-QOIDA: Uchrashuv o`tkaziladigan maydon**

O`yin o`tkaziladigan maydon to`rtburchak holatda bo`lishi zarur. Maydonning yon tomoni (ya`ni bo`yi) darvoza ortidan (ya`ni enidan) katta bo`lishi kerak. **Bo`yiga:** minimum 90 m, maksimum 120 m **Eniga:** minimum 45 m, maksimum 90 m.

Xalqaro o`yinlar uchun: **Bo`yiga:** minimum 100 m, maksimum 110 m  
**Eniga:** minimum 64 m, maksimum 75 m.



4.1-rasm

**Maydondagi chiziqlar.** O`yin o`tkaziladigan maydon chiziqlar bilan belgilanadi va ushbu chiziqlar ham maydon tarkibiga kiradi. Ikkita uzun maydonni ajratuvchi chiziqlar – yon chiziqlar, ikkita kichkina chiziqlar esa – darvoza chizig`i deb ataladi. Maydon markazidagi chiziq o`yin o`tkaziladigan maydonni teng ikkiga ajratib turadi. Ushbu markazdagi chiziqning o`rtasida markaziy belgi mavjud. Ushbu markaziy belgidan radiusi 9,15 m bo`lgan aylana chiziladi.

**Darvoza maydoni.** Maydonning har ikki tomonida darvoza maydoni mavjud bo`lib, u quyidagicha joylashgan: Darvoza chizig`idan 5,5 metr masofada darvozani har bir ustunining ichki tomonidan parallel chiziq tortiladi. Bu chiziqning uzunligi ham 5,5 metr bo`ladi. Bu uzunlikdagi chiziqning oxiri

perpendekulyar tarzda darvoza chizig`i bilan tutashadi. Shu shakldagi to`rtburchak darvoza maydoni deb ataladi.

**Jarima maydoni.** Maydonning har ikki tomonida jarima maydoni mavjud bo`lib, u quyidagicha joylashgan:

Darvoza chizig`idan 16,5 metr masofada darvozani har bir ustunining ichki tomonidan parallel chiziq tortiladi. Bu kesmaning uzunligi ham 16,5 metr bo`ladi. Bu uzunlikdagi chiziqning oxiri perpendekulyar tarzda darvoza chizig`i bilan tutashadi. Shu shakldagi to`rtburchak jarima maydoni deb ataladi.

Har ikkala maydonlar o`rtasida darvoza chizig`idan 11 metr masofada hamda darvoza ustunlaridan teng masofada 11 metrlik belgi qo`yiladi. Har bir jarima maydoni chizig`i tashqarisidan radiusi 9,15 metr bo`lgan yarim aylana chiziladi va uning markazi 11 metrlik nuqta vazifasini o`taydi.

**Maydon burchagidagi bayroqlar.** O`yin o`tkaziladigan maydonning har bir burchagiga uzunligi 1,5 metrdan oshmagan ustunlar o`rnatiladi. Bu ustunning tepa uchi o`tkir bo`lmasligi va ustunga qalin matoli bayroq ilingan bo`lishi shart. Ushbu bayroqlar yana maydon markazini ajratib turuvchi chiziqning oxirlariga, maydondan tashqariga va yon chiziqdan 1 metr uzoqlikkacha o`rnatilishi ham mumkin.

**Burchak sektori.** Har bir maydon burchagidagi bayroq asosida oysimon chiziq o`tkaziladi, ushbu chiziq burchakdagi bayroqdan 1 metr radiusdagi o`lchamda chiziladi.

### Darvoza



## 4.2-rasm

Har ikki darvoza chizig`ining o`rtasiga darvoza o`rnatiladi. Darvoza ikki vertikal ustundan iborat bo`lib, maydon burchagidagi bayroqlardan teng masofada joylashgan. Ushbu ikki ustunni bitta gorizontal joylashgan to`sin birlashtirib turadi.

Darvoza ustunlarining orasi 7,32 metr, darvoza to`sinini yerdan 2,44 metr masofada joylashgan bo`lishi kerak. Ikkala ustun va to`sin ham bir xil kenglikda (12 sm gacha) bo`lishi zarur. Darvoza ichida chiziq ham ustunlar va to`sinning kengligida chizilgan bo`lishi zarur. Darvozaga va darvoza ichiga darvozabonlarga xalaqit qilmaydigan qilib darvoza to`rlarini o`rnatish kerak.

Darvoza ustunlari va to`sin oq rangda bo`lishi zarur.

### **Xavfsizlik.**

Darvozalar yerga mahkam o`rnatilgan bo`lishi kerak, ko`chma darvozalar esa yuqoridagi talablarga javob bersagina foydalanish mumkin.

## **2-QOIDA: To`p**

### **To`p uchun xom-ashyo va texnik ma`lumotlar:**

#### **To`p:**



## 4.3-rasm

- Dumaloq shaklda bo`lishi;
- Teri yoki shunga o`xshash xom-ashyodan tayyorlangan bo`lishi;

- Hajmi 70 sm kubdan ko`p yoki 68 sm kubdan kam bo`lmasligi;
- Uchrashuv boshlanish arafasida 410gr-450 gr gacha bo`lishi;
- To`p ichidagi bosim me`yori 0,6-1,1 atm(600-1100 g/sm) ga teng bo`lishi kerak.

### **Yaroqsiz holatga kelgan to`pni almashtirish**

Agar to`p o`yin paytida o`z holatini yo`qotsa, unda:

- Uchrashuvni to`xtatish zarur,
- To`p almashtirilgandan so`ng o`yin to`xtagan nuqtadan «baxsli to`p» orqali davom ettirish zarur.

**Agar to`p o`z holatini: maydon tashqarisiga chiqib ketganda, jarima to`pi belgilanganda, burchak to`pi tepilayotganda, 11 metrli jarima to`pi tepilayotganda, yon chiziqdan o`yinga kiritilayotgan paytda yo`qotsa, unda:**

- To`p almashtirilgandan so`ng o`yin to`p kiritilishi bilan davom ettirilishi ko`zda tutiladi.

**O`yin paytida hakamning ruxsatisiz to`pni almashtirish mumkin emas.**

### **3-QOIDA: O`yinchilar soni**

#### **O`yinchilar:**

O`yinda ikki jamoa har birida 11 tadan oshiq bo`lmagan o`yinchi qatnashadi. 11 o`yinchidan bittasi darvozabon bo`lishi kerak. Agar jamoalarda 7 tadan kam o`yinchi bo`lsa, unda uchrashuvni boshlash mumkin emas.



#### 4.4-rasm

**Rasmiy uchrashuvlar:** FIFA, qit`a konfederatsiyalari yoki milliy assotsiatsiyalar tomonidan o`tkaziladigan uchrashuvlarda uchtagacha o`yinchi almashtirishga ruxsat etiladi. Agar musobaqa reglamentida ko`proq o`yinchi almashtirish mumkin bo`lsa, unda yettitagacha o`yinchi almashtirish mumkin.

**Boshqa uchrashuvlar:**

Boshqa uchrashuvlarda quyidagi shartlarga asosan 5 tagacha o`yinchi almashtirish mumkin:

Ikki uchrashadigan jamoa maksimal darajada o`yinchi almashtirishga kelishganda, bosh hakam ushbu kelishuv haqida uchrashuv boshlanguniga qadar ogoh etilsagina. Agar uchrashuv hakami kelishuv haqida o`yin boshlanguniga qadar ogohlantirilmasa yoki ikki jamoa maksimal darajada o`yinchi almashtirishga kelisha olmasa, uchrashuvda 3 tagacha o`yinchi almashtirish mumkin.

**Barcha uchrashuvlar uchun:** Barcha uchrashuvlarda o`yin boshlanguniga qadar zaxira o`yinчилari ism – shariflari uchrashuv bayonnomasidagi ro`yxatga kiritilgan bo`lishi lozim. Uchrashuv bayonnomasidaga ro`yxatga kiritilmagan futbolchi o`yinda qatnasha olmaydi.

#### **O`yinchi almashtirish holati**

**O`yinchi almashtirish uchun quyidagilarni bajarish zarur:**

Bosh hakamni o`yinchi almashtirilishi to`g`risida ogohlantirish zarur,

- Zaxiradagi o`yinchi maydonga bosh hakam ruxsati va almashayotgan o`yinchi maydonni tark etgandagina tushishi mumkin,
- Zahiradagi o`yinchi maydonga tushgandan so`ng almashtirish haqiqiy deb hisoblanadi,
- Shu vaqtdan boshlab zahira o`yinчisi asosiy tarkib o`yinчisi hisoblanadi, almashtirilgan o`yinchi esa asosiy tarkib o`yinчisi hisoblanmaydi,
- Almashtirilgan o`yinchi ushbu o`yinda boshqa qatnasha olmaydi,



- Hakam zahiradagi barcha o'yinchilarga (maydonga tushgan tushmaganligining ahamiyati yo'q) bir vaqtning o'zida ogohlantirish ko'rsatishi huquqiga ega.

### **Darvozabonni almashtirish**

**Maydondagi har qaysi o'yinchi darvozabon bilan vazifalarini almashishi mumkin, qachonki:**

- Uchrashuv bosh hakami oldindan ogohlantirilgan bo'lsa,
- Darvozabonni almashtirish faqat o'yin to'xtatilganda yuz berishi mumkin.

### **Qoida buzarlilar, jarimalar**

**Zaxiradagi o'yinchi hakamning ruxsatisiz maydonga tushsa, unda:**

- O'yinni to'xtatish zarur,
- Bosh hakam qoidabuzarni sariq kartochka bilan ogohlantirib, o'yinchidan maydonni tark etishni talab qiladi.
- O'yin to'xtatilgan joydan «baxsli to'p» orqali davom ettirilishi zarur.

**Agar maydondagi o'yinchi bosh hakamni ogohlantirmasdan darvozabon bilan almasha, unda:**

- Uchrashuvni to'xtatish zarur emas,
- To'p maydonni tark etgandan so'ng qoidani buzgan o'yinchini sariq kartochka bilan ogohlantirish kerak.

### **Boshqa barcha 3 – qoida buzilgan hollarda:**

- Qoidani buzgan o'yinchi sariq kartochka bilan ogohlantirilishi zarur.

### **O'yinni davom ettirish**

Agar o'yinni bosh hakam faqat asosiy tarkib o'yinchisini ogohlantirish uchun to'xtangan bo'lsa, unda:

- O'yin raqib jamoa tomonidan erkin to'p tepish orqali uchrashuv to'xtatilgan joydan davom ettiriladi.

### **Asosiy tarkibdagi va zaxiradagi o'yinchilarni maydondan chetlatish**

O'yin boshlanishiga qadar chetlatilgan o'yinchi o'rniga uchrashuv bayonnomasida qayd etilgan zahira o'yinchisi maydonga tushishi mumkin.

Uchrashuv bayonnomasiga kiritilgan zahira o`yinchisi uchrashuv boshida yoki oxirida maydondan chetlatilsa, uning o`rniga bayonnomaga boshqa zahira o`yinchisini kiritish mumkin emas.

## XALQARO KENGASH QARORI

### **Qaror 1.**

Agar hakamning nizomiga asosan «7 tadan kam o`yinchi bo`lsa, unda uchrashuvni boshlash mumkin emas» degan qoidaga amal qilinsa va 3 – qoidaning qolgan barcha shartlariga amal qilingan holda o`yindagi jamoalar futbolchilarining minimal sonini milliy assotsiatsiyalar aniqlash huquqiga ega.

### **Qaror 2.**

O`yin davomida murabbiy yoki rasmiy shaxslar texnik maydon chegarasidan chiqmagan holda maydondagi futbolchilarga taktik ko`rsatmalar berishi mumkin.

**Izoh:** 1870-yili birinchi marta 11 o`yinchi maydonga chiqdi. 1933-yili birinchi marta 1-11 gacha o`yinchilar raqamda chiqishdi.

### **4-QOIDA: O`yinchilar kiyimi (ekipirovka)**

#### **Havfsizlik.**

O`yinchi kiyimida o`ziga yoki bировga xavf soladigan predmetlarni olishi yoki taqishi qat`iyan man etiladi (bularga har xil yuvelir buyumlar ham kiradi).

#### **O`yinchining asosiy kiyimi:**

- Futbolka yoki ko`ylak



4.5-rasm

- Short (agar shortning ichida ichki kiyim bo`lsa, bu ham shortning rangida bo`lishi zarur)



4.6-rasm

- Getralar



4.7-rasm

- Himoya vositalari (qitki)



4.8-rasm

- Oyoq kiyim



4.9-rasm

### **Himoya vositalari (shitki)**

- Himoya vositasi getra bilan to`liq berkitilgan bo`lishi,
- Rezina, plastmassa yoki shunga o`xshash xom-ashyodan tayyorlangan bo`lishi,
- Yuqori darajadagi himoyani ta`minlashi kerak.

### **Darvozabon kiyimi**

Darvozabon kiyimi rangi maydondagi o`yinchilardan, bosh hakam va bosh hakam yordamchilari kiyimi rangidan ajralib turishi kerak.



4.10-rasm

### **Qoida buzarlilar, jarimalar**

Har qanday 4 – qoida buzilganda:

- O`yinni to`xtatish shart emas,
- Bosh hakam qoidani buzgan o`yinchiga kiyimi haqida e`tiroz bildirishi,

- Agar qoidabuzar o`z kiyimini to`g`irlab olmagan bo`lsa, to`p maydonni tark etganda u o`z kiyimini to`g`irlash uchun maydonni tark etishi zarur,
- Kiyimini to`g`irlab olish uchun maydonni tark etgan o`yinchi faqat bosh hakam ruxsat bergandan so`nggina maydonga tushishi mumkin,
- Maydonga qaytishdan oldin hakam o`yinchining kiyimini ko`zdan kechirishi lozim,
- To`p maydondan chiqib ketgan vaqtda kiyimini to`g`irlab olish uchun maydonni tark etgan o`yinchiga maydonga tushishga ruxsat beriladi.

Agar 4 – qoidalar asosida maydondan chetlatilgan futbolchi bosh hakamning ruxsatisiz maydonga qaytsa, unda qoidabuzar sariq kartochka bilan ogohlantirilishi kerak.

### **O`yinni davom ettirish**

Agar o`yinni bosh hakam qoidabuzarni ogohlantirish uchun to`xtatgan bo`lsa, unda:

- O`yin raqib jamoa tomonidan erkin to`p tepish orqali uchrashuv to`xtatilgan joydan davom ettiriladi.

### **5-QOIDA: Bosh hakam**

Har bir o`yinni futbol qonun qoidalari asosida boshqarish uchun hakamlar tayinlanadi.



4.11-rasm

### **Huquq va majburiyatlari**

#### **Hakam:**

- Uchrashuvda qonun-qoidalarni nazorat qilish;

- Uchrashuvni yon hakamlar va 4 – hakam bilan birgalikda nazorat qilish;
- 2 – qoida talablariga asosan to`pni nazorat qilish;
- 4 – qoida talablariga asosan o`yinchilarning kiyimlarini nazorat qilish;
- Uchrashuvni qayd etib borish;
- Har qanday qoida buzilishlarda uchrashuvni to`xtatish, uzib qo`yish yoki butunlay to`xtatish o`yindagi bosh hakam qarashiga bog`liq;
- Bosh hakam uchrashuvni har qanday tashqi muhitning aralashuvida to`xtatishi yoki butunlay tugatishi mumkin;
- Bosh hakam fikriga ko`ra maydondagi o`yinchi qattiq jarohat olganda yoki o`yinchilarni maydondan evakuatsiya qilish zarur bo`lganda uchrashuvni vaqtinchalik yoki butunlay to`xtatishi mumkin;
- Bosh hakam fikriga ko`ra o`yinchi yengil jarohat olganda to`p maydondan chiqib ketmaguncha uchrashuv davom ettiriladi;
- Har qanday o`yinchining jarohatidan qon chiqsa, ushbu o`yinchini maydon tashqarisiga chiqishini ta`minlash hamda ushbu o`yinchi maydonga qaytayotganda qon oqishi to`xtaganiga ishonch hosil qilgandan so`nggina unga ruxsat berishi;
- O`yin qoidasini buzgan jamoa darvozasi tomon hujum bo`layotgan bo`lsa o`yinni to`xtatish zarur emas, hujum tugagandan so`ng yoki to`p maydondan tashqariga chiqqanda qoidabuzarni ogohlantirish zarur;
- Qoidabuzar yoki ogohlantirilgan o`yinchi yana bir bor qoidani buzsa, o`yinchi shu zahoti qattiq ogohlantirilish bilan jazolanishi kerak;
- Agar uchrashuvda qoida buzilsa, hakam to`p maydonni tark etgandan so`ng qoidabuzarni albatta ogohlantirishi zarur;
- Jamoalardagi o`zini tuta olmayotgan rasmiy vakillarga nisbatan maydondan, zahira o`rindig`idan chetlatishi yoki ularga jazo qo`llashi mumkin;
- Bosh hakam yo`l qo`yilgan qoidabuzarlikni ko`rmay qolgan vaziyatlarda uning yordamchisi yetkazgan ma`lumotlar asosida jazo qo`llashi mumkin;
- Maydonga futbolchilardan boshqalarni tushirmaslikni nazorat qilish;
- O`yin to`xtatilganda davom ettirish;

- O`yin bayonnomasi (bayonnomaga uchrashuv atrofida, uchrashuv boshlanishiga qadar, uchrashuv davomida, uchrashuvdan so`ng bo`lib o`tgan barcha voqealarni yozma ravishda)ni to`ldirish va uchrashuv tashkilotchilariga taqdim etish zarur.

### **Hakam qarori**

Har qanday o`yin holatida faqat bosh hakam yakuniy qaror chiqara oladi.

Agar hakam yordamchilari bilan maslahatlashib noto`g`ri qaror qabul qilganini tan olsa, unda faqat o`yin to`xtatilgan vaziyatda o`z qarorini o`zgartirishi mumkin.

## **XALQARO KENGASH QARORI**

### **Qaror 1.**

Hakam (shu bilan birga, vaziyatga qarab hakam yordamchilari yoki to`rtinchi hakam) quyidagi holatlarda javobgarlikdan soqit qilinadi:

- Jamoa futbolchilari, rasmiy vakillar yoki muxlislar tomonidan olingan har qanday jarohatlardan;
- Har kimning mulkiga zarar yetishidan;
- Hakam tomonidan o`yin doirasida qabul qilingan har qanday qaror natijasida xususiy shaxslar, klub, kompaniya, assotsiatsiya yoki boshqa tashkilotlarda yuzaga kelgan boshqa yo`qotishlardagi javobgarliklardan.

Hakam quyidagi holatlarda javobgar:

- Maydon va unga qo`shimcha asbob – uskunalar borasidagi hakam qarori, ob – havo sharoiti o`yin o`tkazishga to`squinlik qilish – qilmasligi;
- Ob – havo sharoitidan kelib chiqib o`yinni bekor qilishda;
- Maydonga qo`shimcha asbob – uskunalarning yaroqsizligi borasidagi hakam qarori, jumladan, darvoza ustunlari va to`sinlari, burchak bayroqlari shuningdek, to`plar talabga javob bermasa;
- Muxlislarning maydonga tushib ketganda yoki muxlislar bilan bog`liq vaziyatlardagi o`yinni to`xtatish yoki to`xtatmaslik borasidagi hakam qarori;
- Futbolchi jarohat olgan vaqtda tibbiy yordam ko`rsatish uchun o`yinni to`xtatish yoki to`xtatmaslik borasidagi hakam qarori;

- Futbolchi jarohat olgan vaqtda tibbiy yordam ko`rsatish uchun uni maydondan tashqariga olib chiqish yoki chiqmasligi borasidagi hakam qarori;
- Futbolchining o`zida yoki libosida ba`zi predmetlarni osishga ruxsat berish yoki ruxsat bermaslik borasidagi hakam qarori;
- Ba`zi shaxslarni, jumladan, jamoa rahbarlarini, maydon ishchilarini, qo`riqlash xizmati xodimlarini, fotomuxbirlarni yoki boshqa Ommaviy axborot vositalari vakillarini maydonning yaqiniga yo`latish yoki yo`latmaslik borasidagi hakam qarori;
- Qolgan barcha qarorlarda, ya`ni futbol qoidalariga yoki o`zining vazifasi doirasi asosida, FIFA nizomlariga, qit`a konfederatsiya, milliy assotsiatsiyalar va professional liga reglamentlariga asosan qabul qilingan qarorlarda hakam javobgardir.

### **Qaror 2.**

Agar musobaqa yoki turnirning har bir o`yiniga to`rtinchi hakam tayinlansa, unda uning huquq va majburiyatlari Xalqaro kengash tomonidan tasdiqlangan instruksiyaga mos kelishi lozim.

### **Qaror 3.**

O`yin bilan bog`liq bo`lgan faktlar, ya`ni to`p darvozaga kiritilganmi yoki yo`qmi va o`yin natijasi.

## **6-QOIDA: Bosh hakam yordamchilari**

### **Majburiyatlar**

Har bir uchrashuvga bosh hakamga ikkita yordamchi tayinlanadi va ular bosh hakamga quyidagi (bosh hakam bilan kelishgan holda) hollarda o`z bayroqchasini ko`targan xolda signal beradi:

- To`p maydonni to`liq tark etganda;
- To`pni qaysi jamoa o`yinga kiritishi, burchakdan to`p tepishi, yon chiziqdan to`pni o`yinga kiritishi;
- Jamoa o`yinchisi o`yindan tashqari holatda bo`lganda;
- O`yinchi almashtirish zarur bo`lganda;



- Bosh hakam ko`rmagan vaqtda o`yin qoidasi buzilgan vaziyatlarda yordam beradi.

### **Yordamchilarning bosh hakamga yordamlari**

Uchrashuvni o`yin qoidalari asosida o`tishi uchun yordamchilar bosh hakamga yordam berishi zarur.

Agar hakam uning ishiga aralishishi yoki o`zini no`maqul tutsa, yordamchi hakamlikdan bosh tortishi mumkin va maxsus raportni uchrashuv tashkilotchilariga taqdim etishi shart.



4.12-rasm




4.13-rasm

**Izoh:** 1891-yili birinchi marta hakam ikkita yordamchisi bilan maydonga chiqdi.

### **7-QOIDA: Uchrashuvning davom etishi**

Agar baxslashayotgan jamoalar o`yinning davomiylik vaqtini kelishib olmagan bo`lsalar, har bir o`yin 45 daqiqadan ikki bo`lim davom etishi zarur. O`yin bo`limlari vaqtini (masalan, 40 daqiqadan, qorong`u tushib qolgan vaziyatlarda) o`zgartirishga kelishib olish, o`yin boshlanguncha amalga oshirilishi kerak. Bunday kelishuvlar faqat musobaqa



reglamentida belgilangan holatlardagina yuz berishi mumkin.

### **Bo`limlar orasidagi tanaffus**

O`yinchilar bo`limlar orasida tanaffusga chiqish huquqiga ega.

Bo`limlar orasidagi tanaffus 15 minutdan ko`p bo`lmasligi zarur.

Bo`limlar orasidagi tanaffus musobaqa reglamentida belgilangan bo`lishi zarur.

Bo`limlar orasidagi tanaffus vaqtini faqatgina hakam bilan kelishgan holda o`zgartirish mumkin.

### **Yo`qotilgan vaqtlar uchun qo`shimcha vaqt**



4.14-rasm

Har bir bo`limga quyidagi hollarda yo`qotilgan vaqtlarga qo`shimcha vaqt qo`shish mumkin:

- O`yinchilar almashtirilganda;
- O`yinchi jiddiy jarohat olgandagi vaqt uchun;
- Jarohat olgan o`yinchini maydon tashqarisiga tibbiy yordam ko`rsatish uchun olib chiqqan vaqt uchun;
- O`yin vaqtini ataylab cho`zganda;
- Va boshqa sabablar uchun.

Yo`qotilgan vaqtga qo`shimcha vaqtни faqat bosh hakam qo`shishi mumkin.

### **11 metrli jarima to`pi**

Bo`limning so`nggi daqiqalarida yoki qo`shimcha vaqtning oxirida belgilangan 11 metrli jarima to`pini bajarish uchun vaqt berilishi shart.

### **Qo`shimcha bo`limlar**

Musobaqa reglamentiga ko`ra kerakli vaziyatlarda qo`shimcha yana 2 ta bo`lim o`tkazilishi mumkin. Ushbu bo`limlarda 8-Qoidaga rioya qilgan holda o`tkazish ko`zda tutilgan.

### **To`xtatilgan uchrashuv**

To`xtatilgan uchrashuv qaytatdan to`liq o`tkaziladi, agar musobaqa reglamentida boshqacha qaror qabul qilinmagan bo`lsa.

Izoh: 1871-yildan uchrashuvlar 1.5 soat mobaynida o`tkazila boshlangan.

1883-yildan boshlab uchrashuv ikkita bo`linga bo`linib, o`sha 1.5 soat ikkiga bo`lingan (45 daqiqadan).

## **8-QOIDA: Uchrashuv boshlanishi va o`yinni davom ettirish**

### **Uchrashuv boshlanishi arafasida**



4.15-rasm

Har bir uchrashuv boshlanish arafasida ikki jamoa sardorlari orasida tanga orqali qura tashlanadi va qurada g`olib chiqqan sardor jamoa uchun (birinchi bo`limda) darvoza tanlash huquqini qo`lga kiritadi.

- Raqib jamoa esa o`yinni boshlab beradi.
- Qurada g`olib chiqqan jamoa esa ikkinchi bo`limni boshlab beradi.
- Ikkinchi bo`limda jamoalar o`z darvozalarini almashtirishadilar.

### **Boshlang`ich zarba**

• Boshlang`ich zarba uchrashuv boshlanganlik yoki uni davom ettirishni anglatib, u quyidagi hollarda yuz beradi:

- Uchrashuv boshlanishida,
- Har bir urilgan goldan so`ng,
- Ikkinchi bo`lim boshlanishida,

Agar qo`shimcha bo`limlar belgilangan bo`lsa, ushbu qo`shimcha bo`limlarning boshlanishida.

Boshlang`ich zarba orqali bevosita to`pni darvozaga kiritish mumkin.

### **Boshlang`ich zarbani amalga oshirish tartibi:**

- Ikkala jamoa ham o`zlarining yarim maydonida turishlari shart,
- Boshlang`ich zarbani amalga oshirmayotgan jamoa o`yinchilari boshlang`ich zarba amalga oshmaguncha to`pdan 9,15 m radius masofada uzoqlikda turishlari shart,
- To`p maydon markazida harakatsiz holda turishi kerak,
- Boshlang`ich zarba hakamning xushtagidan so`ng o`yinga kiritiladi,
- Oyoq bilan to`pga zarba berilgandan so`ng to`p joyidan surilsa, to`p o`yinga kiritilgan deb hisoblanadi,
- Boshlang`ich zarbani bergan o`yinchi to`pga boshqa jamoadoshi kelib tegmaguncha yana zarba berishi mumkin emas.
- To`p darvozaga kiritilgandan so`ng, to`p o`tkazib yuborgan jamoa boshlang`ich zarbani amalga oshiradi.

### **Qoida buzarlklar, jarimalar**

Agarda boshlang`ich zarbani bergan o`yinchi to`pga boshqa jamoadoshi kelib tekkunga qadar yana zarba bersa, unda:

- O`yin raqib jamoa tomonidan erkin to`p tepish orqali qoida (ikkinchi zarba berilgan) buzilgan joydan davom ettiriladi.

Bundan boshqa barcha vaziyatlarda, boshlang`ich zarba qayta tepiladi:

Boshlang`ich zarba qaytariladi.

**“Bahsli to`p”**

“O`yin qoidalari”da ko`rsatilmagan hollar qoida buzilsa va uchrashuv vaqtinchalik to`xtatilsa, uchrashuvni “bahsli to`p” orqali davom ettirish kerak.

### **“Bahsli to`p” quyidagicha amalga oshiriladi:**

Bosh hakam to`p tashab bergan uchrashuv to`xtatilgan joydan «bahsli to`p»ni amalga oshiradi.

To`p yerga tegishi bilan o`yin qayta boshlandi deb hisoblanadi.

### **Qoida buzarlilar, jarimalar**

To`p quyidagi hollarda qayta tashlanadi:

- Agar biror jamoa o`yinchisi to`p yerga tushmasdan to`pga teginsa,
- To`p yerga tushgandan so`ng, hech kimga tegmay maydon tashqarisiga chiqib ketsa.

### **Eng muhim jihatlar quyidagicha:**

Erkin yoki jarima to`pi himoyalananayotgan jamoa foydasiga o`zining jarima maydoni ichida yuz bersa, o`yinni jarima maydonining xohlagan nuqtasidan davom ettirish mumkin.

Agar erkin to`p hujum qilayotgan jamoaning foydasiga raqib darvozasi maydoni ichida ro`y bersa, o`yinni qoida buzilgan joyga eng yaqin darvoza maydoni chizig`idan o`yinga kiritish zarur.

Agar «bahsli to`p» himoyalananayotgan jamoaning darvoza maydoni ichida tasodifiy sabab tufayli buzilsa, o`yinni qoida buzilgan joyga eng yaqin darvoza maydoni chizig`idan to`p qaytatdan tashlanadi.

## **9-QOIDA: To`p o`yinda va o`yindan tashqari holatlarda**

### **To`pning o`yindan tashqari holatda bo`lishi**


To`p quyidagi holatlarda o`yin holatida bo`ladi:

- To`p maydon chizig`ini yerda yoki havoda to`liq kesib o`tsa;
- Bosh hakam xushtagini chalib o`yinni to`xtatganda.

### **To`pning o`yinda bo`lishi**

Yuqoridagi holatlardan tashqari barcha vaziyatlarda to`p o`yindan tashqari holatda bo`ladi:

- Darvoza ustuni, to`sinini yoki maydon burchagidagi bayroqqa tegib maydonga qaytsa;
- Bosh hakamga yoki uning yordamchilariga tegib maydonda qolsa.



4.16-rasm

## 10-QOIDA: To`p darvoza to`ridaligini aniqlash usullari

### To`p darvoza to`rida


To`p darvoza chizig`ini, to`sin osti va ustunlar orasini to`liq kesib o`tsa va to`p kiritgan jamoa o`yinchilari to`p kiritilgunga qadar hech qanday qoidani buzmagani hollarda to`p darvoza to`rida deb hisoblanadi.

### G`olib jamoa

Uchrashuv davomida ko`proq to`p kiritgan jamoa g`olib jamoa deb topiladi. Agar ikkala jamoa ham o`yin davomida bir xil to`p kiritsa yoki umuman to`p kirita olmasa o`yin durang deb hisoblanadi.

### Musobaqa reglamenti

Keyingi bosqichga bitta jamoa yo`l olishi kerak bo`lsa-yu, lekin uchrashuv durang bilan yakunlansa, unda xalqaro kengash tomonidan tasdiqlangan musobaqa reglamentiga ko`ra qo`shimcha bo`limlar yoki boshqa choralar ko`rilishi kerak.



4.17-rasm

**Izoh:** 2014-yil Braziliyada erkaklar o`rtasida o`tkazilgan jahon chempionatida «Brazuka» to`piga maxsus chip o`rnatilib, to`pni darvoza to`ridaligini aniqlashda hakamni soatiga bevosita signal beriladi.

### 11-QOIDA: «O`yindan tashqari» holat

#### «O`yindan tashqari» holatni aniqlash

O`yinchining «o`yindan tashqari» holatda qolishi o`yin qoidalarini buzilishidir.

**O`yinchi «o`yindan tashqari» holatda deb topiladi, agar:**

- O`yinchi raqib darvoza chizig`iga raqibning so`nggi o`yinchisidan yaqinroq holatda tursa, unda ushbu o`yinchi o`yindan tashqari holatda deb hisoblanadi.

**O`yinchi «o`yindan tashqari» holatga tushmaydi, agar:**

- O`z jamoasining yarim maydonida bo`lsa,
- Raqib jamoasining so`nggi o`yinchisi bilan bir xil darajada bo`lsa,
- Raqib jamoasining so`nggi va so`nggisidan bitta oldin turgan o`yinchisi bilan bir xil darajada bo`lsa.



4.18-rasm

#### Qoidabuzarlik

«O`yindan tashqari» holatda qolgan futbolchini hakamning fikriga ko`ra jamodoshlaridan bironta sherigi to`pga teginish vaqtida o`yinga faol tarzda xalaqit qilsa, jazolash mumkin, ya`ni:

- to`p bilan harakat qilishda bevosita ishtirok etsa,
- raqib harakatlariga xalaqit qilsa,
- o`zining egallab turgan pozitsiyasidan yaxshiroq vaziyatga chiqishga urinsa.

### **Qoidabuzarlik yo`q**

«O`yindan tashqari» holatda qolgan o`yinchini jazolash kuzatilmaydi, agar u bevosita to`pni quyidagi holatlarda qabul qilib olsa:

- Darvozadan erkin to`p tepilgandan so`ng,
- Yon chiziqdan tashab berilganda,
- Burchak to`pi tepilganda.

### **Qoidabuzarlik, jarimalar**

Har bir «o`yindan tashqari» holat bilan bog`liq qoidabuzarlikda hakam qoida buzilgan nuqtadan raqib jamoa foydasiga erkin zarba belgilashi kerak.

*Izoh:* 1866-yilda “o`yindan tashqari holat” qoidasi yengillashtirildi. Endi raqiblar sirt chizig`i bilan o`zi o`rtasida qarshi tomon o`yinchilaridan uch kishi bo`lsa, bu o`yinchi “o`yindan tashqari holat”da bo`lmaydi.

## **12-QOIDA: Qoida buzilish holatlari va qoidaga zid**

### **xatti-harakatlar**

O`yinchilar tomonidan qo`llangan qoidaga zid va tartibsiz harakatlar quyidagicha jazolanadi:

#### **Jarima to`pi**

**Uchrashuv hakamining fikriga ko`ra, o`yinchi raqibiga nisbatan qo`pol va xavfli tarzda o`ynab, quyidagi 6 holatlardan birini qo`llagan vaziyatlarda raqib jamoa foydasiga jarima to`pi belgilanadi:**

- raqib o`yinchiga oyog`i bilan zarba berish yoki bunga harakat qilsa;
- raqib o`yinchini chalib yiqitsa yoki bunga harakat qilsa;
- raqib o`yinchi ustiga sakrab chiqib olsa;
- raqib o`yinchiga nisbatan xavfli hujum uyushtirsa;
- raqib o`yinchiga qo`li bilan zarba bersa yoki bunga harakat qilsa;
- raqib o`yinchini qo`pol tarzda turtib muvozanatdan chiqarib yuborsa.



**Shuningdek, o`yinchi quyidagi 4 qoidabuzarlik holatidan biriga yo`l qo`ygan holatlarda raqib jamoa foydasiga jarima to`pi belgilanadi:**

- to`p uchun kurasha turib, oldin raqib o`yinchisi oyog`iga tegib, keyin to`pga o`ynasa;
- raqib o`yinchini qo`llari yoki tanasi bilan ushlab qolsa;
- raqib o`yinchiga qarata tupursa yoki bunga harakat qilsa;
- to`pni atayin qo`li bilan o`ynasa(darvozabonlar o`z jarima maydonchasi ichida qo`llari bilan o`ynashlari mumkin).

**Jarima to`pi maydonning o`yin qoidasi buzilgan joyidan amalga oshiriladi.**



4.19-rasm

### **11 metrli jarima to`pi**

Agar o`yinchi, to`p qayerda ekanligidan qat`iy nazar (faqat o`yin holatida bo`lishi kerak) o`z jarima maydonchasi ichida yuqorida ko`rsatib o`tilgan qoida buzilishlarning istalgan biriga yo`l qo`ysa, raqib jamoa foydasiga 11-metrluk jarima to`pi belgilanadi.

### **Erkin zarba**

**Agar darvozabon o`z jarima maydonchasi ichida turgan holda quyidagi 4 qoida buzilishi hollarining biriga yo`l qo`ysa, raqib jamoa foydasiga erkin zarba belgilanadi:**

- to`pni qo`lidan chiqarib, hali to`pga hech kim teginmasdan turib yana to`pni qo`liga olsa;
- o`z jamoadoshi tomonidan atayin yetkazib berilgan to`pni qo`llari bilan tegsa yoki egallab olsa;
- o`z jamoadoshi tomonidan bevosita yon chiziqdan yetkazib berilgan to`pni qo`llari bilan tegsa yoki egallab olsa;
- o`yinni cho`zishga qaratilgan taktik xatti-harakatlarni amalga oshirsa.

**Shuningdek, uchrashuv hakamining fikriga ko`ra, o`yinchi quyidagi qoida buzilishi holatlarining sodir bo`lishida aybdor deb topilsa, raqib jamoa foydasiga erkin zarba belgilanadi:**

- raqib o`yinchisiga nisbatan xavfli o`ynasa;
- raqib o`yinchisining harakatlanishiga xalaqit qilsa;
- raqib jamoa darvozabonining to`pni qo`li bilan o`yinga kiritishiga xalaqit qilsa;
- 12-qoidada ko`rsatib o`tilmagan boshqa qoida buzilish holatlari qayd etilganda, uchrashuv hakami o`yinchini ogohlantirish (sariq kartochka) yoki o`yindan chetlashtirish (qizil kartochka) maqsadida o`yinni to`xtatsa.

**Erkin zarba maydonning qoida buzilgan joyidan o`yinga kiritiladi.**

**Intizomiy jazolar**

**Ogohlantirish ko`rsatish bilan jazolanuvchi qoida buzilish holatlari**

**Agar o`yinchi quyidagi 7 qoida buzilish holatlarining birini sodir etsa, hakam tomonidan sariq kartochka ko`rsatish orqali ogohlantiriladi:**

1. sport qoidalariga xilof ravishda harakat qilsa;
2. so`zlari yoki harakatlari orqali hakamning qaroriga norozilik bildirsa;
3. o`yin qoidalarini doimiy ravishda buzsa;
4. sun`iy ravishda o`yinni davom etishiga halaqit qilsa;
5. burchak, jarima to`pi yoki erkin zarba amalga oshirilayotgan paytda masofaviy joylashishni buzsa;
6. hakamning ruxsatisiz maydonga chiqsa yoki maydonga qaytsa;
7. hakamni ruxsatisiz ongli ravishda maydonni tark etsa.

## **Maydondan chetlatish bilan jazolanuvchi qoida buzilish holatlari**

**Agar o`yinchi quyidagi 7 qoida buzilish holatlarining birini sodir etsa, hakam tomonidan qizil kartochka ko`rsatish orqali ogohlantiriladi:**

1. o`ta qo`pol va xavfli harakatni amalga oshirsa;
2. o`zini juda betartib holda tutsa;
3. raqib o`yinchisi yoxud boshqa kimsaga nisbatan tupursa;
4. to`pni atayin qo`li bilan ushlab qolish orqali raqib jamoa o`yinchilarining to`pni darvozaga kiritishiga xalaqit qilsa (darvozabon o`z jarima maydonchasi ichida to`pni qo`li bilan o`ynashi bundan mustasno);
5. erkin zarba, jarima to`pi yoki 11 metrlik jarima to`pi belgilash bilan jazolanuvchi qoida buzilishi holatini sodir etgan holda zarba berish holatiga chiqayotgan raqib o`yinchisini to`xtatib qolsa;
6. xaqoratli, odobsiz so`z va iboralarni ishlatsa;
7. bir o`yinda ikki marta sariq kartochka bilan ogohlantirilsa.

### **XALQARO KENGASH QARORI**

#### **Qaror 1.**

Agar darvozabon o`z jarima maydonchasi ichida qo`lidagi o`yin holatidan chiqmagan to`p bilan raqib jamoa o`yinchisiga zarba bersa yoki bunga harakat qilsa, uchrashuv hakami 11 metrlik jarima to`pi belgilashi kerak.

#### **Qaror 2.**

Ogohlantirish yoki maydondan chetlatish bilan jazolanuvchi qoidabuzarlikka yo`l qo`ygan o`yinchi, qoidani qayerda (maydonda yoki maydon tashqarisida) va kimga nisbatan (raqib o`yinchiga, jamoadoshiga, bosh hakamga, yordamchi hakamlarga yoki boshqa shaxsga) nisbatan buzganligidan qat`iy nazar, o`yin Qoidalariga binoan jazolanishi kerak.

#### **Qaror 3.**

Darvozabon to`pni egallab oldi deb hisoblash uchun, u to`pga qo`lining istalgan qismi bilan to`pga tegib turgan vaziyatda bo`lishi kerak. Bundan tashqari, darvozabon o`zi tomon harakatlanayotgan to`pni oyoqlari bilan qisib olgan holatda ham to`pni darvozabon egallab oldi deb hisoblanadi. Lekin, hakamning fikriga

ko`ra, to`p tasodifan darvozabonning qo`llaridan chiqib ketsa, masalan darvoza tomon yo`naltirilgan zarbani qaytarishda darvozabon to`pni qo`llarida ushlab qola bilmasa, darvozabon to`pni egallab oldi deb hisoblanmaydi.

Darvozabon to`pni 5-6 sekunddan uzoq vaqt davomida qo`llarida yoki tanasiga qisgan holda ushlab tursa, o`yin vaqtini cho`zganlikda ayblanadi.

#### **Qaror 4.**

12 – Qoidaning ko`rsatmalariga binoan o`yinchi to`pni boshi, ko`kragi, tizzasi va x.k. orqali o`z darvozaboniga yetkazib berishi mumkin. Biroq, hakamning fikriga ko`ra, agar o`yinchi o`yin paytida ongli ravishda 12 – Qoidada belgilab qo`yilgan cheklovlarni oshib o`tishga harakat qilsa, u sport qoidalariga xilof ravishda harakat qilganlikda ayblanadi. Bunday hollarda o`yinchi sariq kartochka ko`rsatish orqali ogohlantirilib, raqib jamoa foydasiga o`yin Qoidasi buzilgan joydan erkin zarba belgilanadi.

Jarima yoki erkin zarbani amalga oshirish vaqtida 12-qoidaga asosan cheklashlarni aylanib o`tish maqsadida akrobatik harakatlar amalga oshirilsa, o`yinchi hakam tomonidan sariq kartochka bilan ogohlantirishi va zarba qaytatdan ijro etilishi lozim.

Yuqorida ko`rsatilgan holatda keyinchalik darvozabonning to`pga tegish yoki tegmasligi ahamiyat kasb etmaydi. Chunki bunday hollarda o`yin Qoidasini darvozabon emas, balki o`yinchi buzgan deb topiladi, ya`ni u 12 – Qoidaga rioya qilmaganlikda ayblanadi.

#### **Qaror 5.**

To`pni orqadan raqib o`yinchiga jarohat yetkazish xavfi bilan egallab olish uchun harakat qilish qo`pol qoida buzilishi sifatida jazolanishi kerak.

Yuqorida ko`rsatib o`tilgan 5 – Qarorda, bunday qoida buzilishga yo`l qo`ygan o`yinchi 12 – Qoidaning 1-bandi, ya`ni «Maydondan chetlatish» bandiga asosan maydondan chetlatilishi (qizil kartochka) kerakligini anglatadi.

### 13-QOIDA: Jarima to`pi va erkin zarba

Maydonning turli nuqtalaridan beriladigan zarbalar turlari Maydonning u yoki bu nuqtasidan ijro etiladigan zarba erkin yoki jarima zarbasi bo`lishi mumkin.

**Erkin yoxud jarima zarbasi ijro etilayotganda to`p harakatsiz holda bo`lishi shart. Zarba ijro etuvchi futbolchi to`p boshqa bir futbolchining oyog`iga tekkandan so`nggina to`pni tepishi mumkin.**

#### Jarima zarbasi

- Agar jarima zarbasi ijro etilganidan so`ng to`p futbolchilardan hech biriga tegmasdan raqib darvozasi to`riga borib tushsa, «darvoza ishg`ol etilgan», deb hisoblanadi.
- Agar jarima zarbasidan so`ng to`p futbolchilardan hech kimga tegmay, o`z darvozasiga borib tushsa, raqib jamoa foydasiga burchak to`pi belgilanadi. (Ya`ni, AVTOGOL hisoblanmaydi!)

#### ERKIN ZARBA

#### Majburiy ishora

Erkin zarba berilishi oldidan hakam qo`lini boshi uzra ko`tarib, zarba berilgach, to`p o`yinchilardan biriga tekkuncha, yoki maydonni tark etguncha qo`lini tushirmaydi.



4.20-rasm

#### To`p darvozaga borib tushdi

**Erkin zarba yo`llangandan keyin faqatgina to`p o`yinchilardan biriga tegib, darvozaga borib tushgan holdagina gol inobatga olinadi.**

- Agar erkin zarbadan so`ng, to`p hech kimga tegmasdan raqib darvozasi to`riga borib tushsa, gol hisoblanmaydi va to`p darvoza maydonchasidan o`yinga kiritiladi.

- Agar erkin zarba ijro etilgandan so`ng to`p hech bir o`yinchiga tegmasdan, o`z darvozasi to`riga borib tushsa, raqib komanda foydasiga burchak to`pi belgilanadi.

### **Maydonning turli nuqtalaridan zarba ijro etish**

#### **Jarima maydoni ichidan jarima yoki erkin zarba ijro etish**

#### **Erkin yoki jarima zarbasi ijro etilayotganda himoyalananayotgan jamoa o`yinchilari:**

- to`pdan kamida 9,15 m masofada turishadi;
- to`p o`yinga kiritilgunga qadar, raqib jamoa o`yinchilari jarima maydoni tashqarisida turishi kerak;
- To`pga oyoq bilan zarba berilgach, hech bir o`yinchiga tegmasdan jarima maydonini tark etgan lahzadan boshlab, to`p o`yinga kiritilgan deb hisoblanadi;
- darvoza maydonchasi ichida qayd etilgan qoida buzilishi uchun belgilangan erkin yoki jarima zarbasi bu maydonchanning istalgan nuqtasidan amalga oshiriladi.

#### **Hujum qilayotgan jamoa tomonidan erkin zarba ijro etilganda:**

- raqib jamoa o`yinchilarining barchasi to`p o`yinga kiritilgunga qadar, to`pdan kamida 9,15 m masofda turishi kerak, bunda ular o`z jamoasi darvozasi ustunlari orasida — darvoza chiziqlari ustida turishiga ham ruxsat etiladi;
- to`pga oyoq tegib joyidan siljishi bilan, to`p o`yinga kiritilgan deb hisoblanadi;
- Darvoza maydonchasi ichida qayd etilgan qoida buzilishi uchun belgilangan erkin zarba, darvoza maydonchasini belgilab beruvchi, darvoza chizig`iga parallel chiziq ustidan, qoida buzilgan joyga maksimal yaqin nuqtadan ijro etiladi.

#### **Jarima maydoni tashqarisidan erkin yoki jarima zarbasi ijro etish**

- raqib jamoaning barcha o`yinchilari to`p o`yinga kiritilgunga qadar, undan kamida 9,15 m masofda turishadi;

- to`pga oyoq tegib joyidan siljtilishi bilan, o`yinga kiritilgan hisoblanadi;
- erkin yoki jarima zarbasi qoida buzilgan nuqtadan ijro etiladi.

### **Qoida buzilishi, jazolar**

**Agar erkin yoki jarima zarbasi ijro etilishidan avval raqib jamoa o`yinchilaridan biri to`pgacha belgilangan masofadan yaqinroq joylashgan bo`lsa:**

- zarba qayta ijro etiladi.

**Agar himoyalananayotgan jamoa o`yinchisi o`z jarima maydonchasi ichidan erkin yoki jarima zarbasi ijro etganda to`p o`yinga kirmasa:**

- zarba qayta ijro etiladi.

**Maydondagi o`yinchi tomonidan erkin yoki jarima zarbasi ijro etilishi**

**To`p o`yinga kiritilgach, erkin yoki jarima zarbasini ijro etgan o`yinchi to`p boshqa o`yinchiga etib bormasdan yana to`pga tegsa (faqat qo`li bilan emas):**

- raqib jamoa foydasiga qoida buzilgan joydan erkin zarba berishi belgilanadi (to`pga ikki marta tegish).\*

**Agar to`p o`yinga kiritilgandan so`ng erkin yoki jarima zarbasini ijro etgan o`yinchi to`p o`yinchilardan biriga borib tegmasdan avval to`pni qo`li bilan qasddan ushlasa:**

- Qoida buzilgan joydan raqib jamoa foydasiga jarima zarbasi belgilanadi; \*
- Agar qoida buzilishi zarbani ijro etgan o`yinchi jarima maydoni ichida yuz bergan bo`lsa, 11 metrlik jarima to`pi belgilanadi.

**Darvozabon tomonidan ijro etilgan erkin yoki jarima zarbasi**

**Agar to`p o`yinga kiritilgandan so`ng erkin yoki jarima zarbasini amalga oshirib bergan darvozabon to`p o`yinchilardan biriga borib tegmasdan o`zi ikkinchi bor to`pga tegsa (qo`li bilan emas):**

- raqib jamoa foydasiga qoida buzilgan joydan erkin zarba belgilanadi (to`pga ikki marta tegish).\*

**Agar to`p o`yin o`yinga kiritilgandan so`ng erkin yoki jarima zarbasini ijro etgan darvozabon to`p o`yinchilardan biriga borib tushmasdan avval to`pni qo`li bilan qasddan ushlasa:**

- agar qoida buzilishi jarima maydoni tashqarisida yuz bersa, qoida buzilgan joydan raqib jamoa foydasiga jarima to`pi belgilanadi; \*
- agar qoida buzilishi darvozabon jarima maydoni ichida yuz bergan bo`lsa, qoida buzilgan joydan raqib jamoa foydasiga erkin zarba belgilanadi.

#### **14-QOIDA: 11 metrlik jarima to`pi**

O`z jarima maydonchasi ichida 10 xil qoida buzilish holatlaridan biriga yo`l qo`ygan o`yinchi jamoasi, qoida buzgan jamoa darvozasi tomon 11 metrli jarima to`pi bilan jazolanadi. Bunda to`p o`yin holatida bo`lishi kerak.

To`p bevosita 11 metrlik jarima to`pidan kiritilsa, gol hisoblanadi.

Taym yoki qo`shimcha vaqt so`nggida 11 metrlik jarima to`pi belgilansa, uchrashuvga ushbu jarima to`pi amalga oshirilishi uchun qo`shimcha vaqt qo`shilishi kerak.

#### **To`pning o`rnatilishi va o`yinchilarning joylashishi**

##### **To`p:**

- 11 metrlik nuqtaga o`rnatiladi.

##### **11 metrlik jarima to`pini amalga**

##### **oshiruvchi o`yinchi:**



4.21-rasm

- sezilarli darajada aniqlangan bo`lishi va ajralib turishi kerak.

##### **Himoyalananayotgan jamoa darvozaboni:**

- zarba berilgunga qadar darvoza to`sinlari orasidagi chiziq ustida zarba beradigan raqibiga yuzma-yuz holatda turishi kerak.

**Jarima to`pini amalga oshiruvchi va himoyalananayotgan jamoa darvozabonidan tashqari qolgan barcha o`yinchilar:**

- maydonda;



- himoyalananayotgan jamoa jarima maydonchasi tashqarisida;
- 11 metrlik jarima nuqtasi orqasida;
- 11 metrlik jarima nuqtasidan 9,15 metrdan kam bo`lmagan masofada joylashishlari kerak.

### **Hakam**

- barcha o`yinchilar 14-Qoidada ko`rsatilgan tartibda joylashmagunga qadar 11 metrlik jarima to`pini amalga oshirish uchun xushtak chalinmasligi kerak.
- 11 metrlik jarima to`pi amalga oshirilishi yakunlanganligi to`g`risida qaror qabul qilishi kerak.

### **Jarima to`pini amalga oshirish tartibi va yo`l-yo`riqlari:**

- o`yinchi, jarima to`pini amalga oshirishda to`pni faqat oldinga yo`naltirishi kerak;
- u zarba bergandan so`ng, to`pga boshqa o`yinchi tegmasdan turib, ikkinchi marta tegishga haqqi yo`q;
- oyoq bilan zarba berilgandan so`ng to`p nuqtadan oldinga qarab siljisa, to`p o`yinga kirgan deb hisoblanadi.

**11metrlik jarima to`pi amalga oshirilgandan so`ng, uchrashuvning asosiy vaqti yoki jarima to`pini amalga oshirish uchun qo`shib berilgan vaqt davomida to`p darvoza to`sinlari orasidagi va darvoza ustuni ostidagi chiziqni to`liq kesib o`tsa, gol hisobga olinadi:**

- to`p bir yoki bir necha marta darvoza to`sinlari, ustuni yoki darvozabonga tegib darvoza chizig`ini to`liq kesib o`tadi.

### **Qoida buzarlilar, jazolar**

**Agar uchrashuv hakami 11 metrlik jarima to`pi belgilasa va to`p o`yinga kiritilgunga qadar quyidagi vaziyatlardan biri sodir etilganda qabul qilinishi kerak bo`lgan qarorlar:**

**11 metrlik jarima to`pini amalga oshiruvchi o`yinchi o`yin qoidasini buza:**

- hakam jarima to`pi amalga oshirilishi natijasini kutib turadi;
- agar to`p darvozaga kiritilsa, zarba qaytadan amalga oshiriladi;

- agar to`p darvozaga kiritilmasa, zarba qayta amalga oshirilmaydi.

**Himoyalananayotgan jamoa darvozaboni o`yin qoidasini buzsa:**

- hakam jarima to`pi amalga oshirilishi natijasini kutib turadi;
- agar to`p darvozaga kiritilsa, gol hisobga olinadi;
- agar to`p darvozaga kiritilmasa, zarba qaytadan amalga oshiriladi.

**Zarba beruvchi o`yinchining jamoadoshi jarima maydonchasi ichiga kirib olsa yoki darvoza chizig`iga 11 metrdan yaqinroq yoki 11 metrlik nuqtaga 9,15 metrdan yaqinroq masofaga joylashib olsa:**

- hakam jarima to`pi tepilishiga ruxsat beradi;
- agar to`p darvozaga kiritilsa, zarba qaytadan amalga oshiriladi;
- agar to`p darvozaga kiritilmasa, zarba qayta amalga oshirilmaydi.
- agar to`p darvozabon, darvoza ustuni yoki to`sinlariga tegib maydonga qaytsa va ushbu o`yinchi to`pga tegsa, hakam o`yinni to`xtatadi va himoyalananayotgan jamoa foydasiga erkin zarba belgilaydi.

**Himoyalananayotgan jamoa darvozaboni jamoadoshi jarima maydonchasi ichiga kirib olsa yoki darvoza chizig`iga 11 metrdan yaqinroq yoki 11 metrlik nuqtaga 9,15 metrdan yaqinroq masofaga joylashib olsa:**

- hakam jarima to`pi tepilishiga ruxsat beradi;
- agar to`p darvozaga kiritilsa, gol hisobga olinadi;
- agar to`p darvozaga kiritilmasa, zarba qaytadan amalga oshiriladi.

**Ikkala jamoa o`yinchilari ham bir vaqtda o`yin Qoidasini buzsa:**

- zarba qaytadan amalga oshiriladi.

Agar, 11 metrlik jarima to`pi amalga oshirilgandan so`ng:

**Jarima to`pini amalga oshirgan o`yinchi to`pga boshqa o`yinchi teginmasdan turib, ikkinchi marta tegsa (faqat qo`li bilan emas):**

- o`yin qoidasi buzilgan joydan himoyalananayotgan jamoa foydasiga erkin zarba belgilanishi kerak (to`pga ikkinchi bor teginani sabali). \*

**Jarima to`pini amalga oshirgan o`yinchi to`pga boshqa o`yinchi teginmasdan turib, atayin to`pni qo`li bilan o`ynasa:**

- o`yin qoidasi buzilgan joydan himoyalananayotgan jamoa foydasiga jarima to`pi belgilanishi kerak.

**11 metrlik jarima to`pi amalga oshirilib, darvoza tomon yo`naltirilgan to`p begona shaxsga tegsa:**

- zarba qaytadan amalga oshiriladi.

**11 metrlik jarima to`pi amalga oshirilgandan so`ng, to`p darvoza tomon, darvoza ustuni yoki to`sinlariga tegib maydonga qaytib begona shaxsga tegsa:**

- hakam o`yinni to`xtatishi kerak;
- to`p maydonning begona shaxsga tekkan joyidan «baxsli to`p» orqali o`yin davom ettiriladi.

**Izoh: 1891-yili birinchi marta 11 metrlik penalti belgilandi. Asoschisi Irlandiyalik mutaxassis Jon Mak Penalti.**

#### **15-QOIDA: To`pni yon chiziqdan o`yinga kiritish**

To`pni yon chiziqdan o`yinga kiritish o`yinni davom ettirish usullaridan biri hisoblanadi.

Yon chiziqdan o`yinga kiritilgan to`p bevosita hech kimga tegmay darvoza chizig`ini kesib o`tsa, gol hisobga olinmaydi.

#### **To`pni yon chiziqdan o`yinga kiritish:**

- to`p yon chiziqni yerda yoki havoda to`liq kesib o`tgandan so`ng amalga oshiriladi;
- to`p aynan yon chiziqni kesib o`tgan joyidan o`yinga kiritish amalga oshiriladi;
- yon chiziqni kesib o`tishdan oldin oxirgi marta to`pga tegingan jamoa o`yinchisining raqiblaridan biri tomonidan amalga oshiriladi.



4.22-rasm

### **To`pni yon chiziqdan o`yinga kiritish tartibi va yo`l-yo`riqlari**

O`yinchi to`pni yon chiziqdan maydonga tashab berayotgan paytda quyidagi talablarni bajarishi kerak:

- maydonga yuzi bilan turishi kerak;
- ikkala oyog`i tovonlarini shunday holatda joylashtirishi kerakki, ularning hech bo`lmasa bir qismi yon chiziqning ustida, yoki maydonning tashqarisida turishi lozim;
- to`pni ikkala qo`li bilan o`yinga kiritishi kerak;
- to`pni boshidan oshirib sezilarli harakat bilan o`yinga kiritish kerak.

To`pni yon chiziqdan o`yinga kiritgan o`yinchi to`pga boshqa o`yinchi tegmasdan turib ikkinchi marta to`pga tegishga haqqi yo`q.

To`p maydon ichiga kirishi bilan o`yin holatida deb hisoblanadi, ya`ni o`yin davom ettiriladi.

### **Qoida buzarliliklar, jazolar**

Agar o`yinchi to`pni yon chiziqdan o`yinga kiritgandan so`ng, to`pga boshqa o`yinchi tegmasdan turib ikkinchi marta to`pga tegsa (faqat qo`li bilan emas):

- o`yin qoidasi buzilgan joydan raqib jamoa foydasiga erkin zarba belgilanishi kerak. \*

**Agar o`yinchi to`pni yon chiziqdan o`yinga kiritgandan so`ng, to`pga boshqa o`yinchi tegmasdan turib ikkinchi marta to`pni atayin qo`li bilan o`ynasa:**

- o`yin qoidasi buzilgan joydan raqib jamoa foydasiga jarima to`pi belgilanishi kerak;
- agar o`yinchi o`z jarima maydonchasida to`pni qo`li bilan o`ynagan bo`lsa, 11 metrlik jarima to`pi belgilanishi kerak.

### **Darvozabon tomonidan to`pni yon chiziqdan tashlab berishda**

**Agar darvozabon to`pni yon chiziqdan o`yinga kiritgandan so`ng, to`pga boshqa o`yinchi tegmasdan turib ikkinchi marta to`pga tegsa (faqat qo`li bilan emas):**

- o`yin qoidasi buzilgan joydan raqib jamoa foydasiga erkin zarba belgilanishi kerak.

**Agar darvozabon to`pni yon chiziqdan o`yinga kiritgandan so`ng, to`pga boshqa o`yinchi tegmasdan turib ikkinchi marta to`pni atayin qo`li bilan o`ynasa:**

- agar bu qoidabuzarlik o`z jarima maydonchasining tashqarisida yoki raqib jamoa jarima maydonchasida sodir etilgan bo`lsa, o`sha nuqtadan raqib jamoa foydasiga jarima to`pi belgilanadi; \*
- agar bu qoidabuzarlik o`z jarima maydonchasida sodir etilgan bo`lsa o`sha nuqtadan raqib jamoa foydasiga erkin zarba belgilanadi. \*

**Agar yon chiziqdan to`pni o`yinga kiritayotgan o`yinchiga raqib o`yinchisi nohaqlik bilan, qoidaga xilof ravishda to`pni o`yinga kiritishda xalaqit qilsa:**

- bu qoidabuzarlik sport qoidalariga xilof ravishda harakat qilish deb topilib, qoida buzgan o`yinchi sariq kartochka ko`rsatish bilan ogohlantirilishi kerak.

### **15 – Qoida shartlarining qolgan istalgan buzilish holatlarida:**

- yon chiziqdan to`pni o`yinga kiritish huquqi raqib jamoaga beriladi.

### **16-QOIDA: To`pni darvoza yonidan erkin zarba bilan o`yinga kiritish**

To`pni darvoza yonidan erkin zarba bilan o`yinga kiritish o`yinni davom ettirish usullaridan biri hisoblanadi.

Bevosita to`pni darvoza yonidan erkin zarba bilan o`yinga kiritish orqali darvozaga kiritilgan to`p hisobga olinadi, faqat to`p raqib jamoa darvozasiga kiritilsa (o`z darvozasiga urilgan to`p hisobga olinmaydi).

**Quyidagi holatlarda o`yin to`pni darvoza yonidan erkin zarba tepish**



## **bilan davom ettiriladi:**

### 4.23-rasm

- to`p oxirgi marta hujum uyushtirayotgan jamoa o`yinchisiga tekkan holda, yerda yoki havoda chiziqni to`liq kesib o`tgan bo`lsa, bunda 10 – qoida shartlariga muvofiq to`p darvozaga kiritilmagan bo`lishi kerak.

#### **Amalga oshirish tartibi**

- zarba darvoza maydonchasining xohlagan nuqtasiga o`rnatilib, himoyalananayotgan jamoaning istalgan o`yinchisi tomonidan amalga oshiriladi;
- raqib jamoaning barcha o`yinchilari jarima maydonchasining tashqarisida joylashishlari va to`p o`yinga kiritilmagunga qadar jarima maydonchasiga kirmasliklari kerak;
- zarbani amalga oshirgan o`yinchi to`pga boshqa o`yinchi teginmasdan turib ikkinchi marta to`pga tegishga haqqi yo`q;
- zarbadan so`ng to`p hech qaysi o`yinchiga tegmagan holda jarima maydonchasini tark etgan zahoti to`p o`yinga kiritilgan deb hisoblanadi.

#### **Qoida buzarliliklar, jazolar**

**Zarbadan so`ng to`p hech kimga tegmagan holda jarima maydonchasini tark etmasa:**

- zarba qaytadan amalga oshiriladi.

**Maydondagi o`yinchi tomonidan darvoza yonidan erkin zarba bilan to`pni o`yinga kiritishda**

**Agar o`yinchi darvoza yonidan to`pni erkin zarba bilan o`yinga kiritgandan so`ng, to`pga boshqa o`yinchi tegmasdan turib ikkinchi marta to`pga tegsa(faqat qo`li bilan emas):**

- Qoida buzilgan, ya`ni o`yinchi ikkinchi marta to`pga teginan nuqtadan raqib jamoa foydasiga erkin zarba belgilanadi.

**Agar o`yinchi darvoza yonidan to`pni erkin zarba bilan o`yinga kiritgandan so`ng, to`pga boshqa o`yinchi tegmasdan turib ikkinchi marta to`pni atayin qo`li bilan o`ynasa:**

- Qoida buzilgan, ya`ni o`yinchi ikkinchi marta to`pga tegingan nuqtadan raqib jamoa foydasiga jarima to`pi belgilanadi; \*
- agar o`yin Qoidasi o`z jarima maydonchasi ichida sodir etilgan bo`lsa, raqib jamoa foydasiga 11 metrlik jarima to`pi belgilanadi.

**Darvozabon tomonidan darvoza yonidan erkin zarba bilan to`pni o`yinga kiritishda**

**Agar darvozabon darvoza yonidan to`pni erkin zarba bilan o`yinga kiritgandan so`ng, to`pga boshqa o`yinchi tegmasdan turib ikkinchi marta to`pga tegsa (faqat qo`li bilan emas):**

- Qoida buzilgan, ya`ni darvozabon ikkinchi marta to`pga tegingan nuqtadan raqib jamoa foydasiga erkin zarba belgilanadi.

**Agar darvozabon darvoza yonidan to`pni erkin zarba bilan o`yinga kiritgandan so`ng, to`pga boshqa o`yinchi tegmasdan turib ikkinchi marta to`pni atayin qo`li bilan o`ynasa:**

- agar o`yin qoidasi o`z jarima maydonchasi tashqarisida sodir etilgan bo`lsa, o`sha nuqtadan raqib jamoa foydasiga jarima to`pi belgilanadi;
- agar o`yin qoidasi o`z jarima maydonchasi ichida sodir etilgan bo`lsa, o`sha nuqtadan raqib jamoa foydasiga erkin zarba belgilanadi.

#### **16 – Qoida shartlarining qolgan istalgan buzilish holatlarida:**

- to`pni darvoza yonidan erkin zarba bilan o`yinga kiritish qaytadan amalga oshiriladi.

#### **17-QOIDA: Burchak to`pi**

To`pni burchakdan o`yinga kiritish o`yinni davom ettirish usullaridan biri hisoblanadi.

Burchak to`pidan kiritilgan gol albatta hisobga olinadi, agar bu raqib darvozasiga kiritilsa.

**Burchak to`plari quyidagi hollarda belgilanadi:**

- To`p darvoza chizig`idan yerda yoki havoda to`liq kesib o`tgan bo`lsa va bu to`pga so`nggi bo`lib himoyalayotgan futbolchi tekkan bo`lsa. Bundan oldin 10-qoidaga ko`ra to`p darvozaga kirmagan bo`lsa.

#### **Burchak to`pini amalga oshirish tartibi:**

- To`p burchak sektori ichiga bayroqli ustunning atrofida joylashtiriladi. Hamda darvoza chizig`iga yaqinroq nuqtaga qo`yiladi;
- Zarba berayotgan paytda bayroqli ustunga tegish ta`qiqlanadi;
- To`p o`yinga kiritilguncha, raqib jamoa futbolchisi to`pdan 9,15 metrdan yaqin bo`lmagan masofada turishi lozim;
- Burchak to`pi hujum qilayotgan jamoa a`zosi tomonidan oyoq bilan o`yinga kiritiladi;
- To`p oyoq bilan joyidan siljishi bilan o`yinga kiritilgan deb hisoblanadi;
- Burchak to`pini kiritayotgan o`yinchi birinchi bor to`pga tegishgandan so`ng kema-ket ikkinchi bor tegina olmaydi, ya`ni to`pga ikkinchi marta uning jamoadoshi kelib teginadi.



4.24-rasm

#### **Qoidabuzarlik, jazolar**

**Burchak to`pi maydonda harakat qilayotgan o`yinchi tomonidan kiritiladi**

**Agar burchak to`pini o`yinga kirituvchi futbolchi to`pga ikkinchi bor teginib (lekin qo`l bilan emas, unda boshqacha jazo qo`llanadi) ketsa, unda:**

- Qoida (to`pga ketma-ket ikkinchi bor teginish) buzilgan nuqtadan hakam tomonidan qarama-qarshi jamoa foydasiga erkin zarba belgilanadi;\*



**Agar burchak to`pini o`yinga kirituvchi futbolchi to`pga ikkinchi bor atayin qo`li bilan o`ynasa, unda:**

- Hakam tomonidan qoida buzilgan nuqtadan qarama-qarshi jamoa foydasiga jarima to`pi belgilanadi;
- Agar himoyachi o`z jarima maydoni ichida qo`l bilan o`ynasa, hakam tomonidan 11 metrlik jarima to`pi belgilanadi.

**Burchak to`pining darvozabon tomonidan kiritilishi**

**Agar burchak to`pini o`yinga kirituvchi darvozabon to`pga ikkinchi bor teginib (lekin qo`l bilan emas, unda boshqacha jazo qo`llanadi) ketsa, unda:**

- Hakam tomonidan qoida (to`pga ketma-ket ikkinchi bor teginish) buzilgan nuqtadan qarama-qarshi jamoa foydasiga erkin zarba belgilanadi;

**Agar burchak to`pini o`yinga kirituvchi darvozabon to`pga ikkinchi bor qo`li bilan atayin teginib ketsa, unda:**

- Darvozabonning o`z jarima moydoni tashqarisida bo`lsa, hakam tomonidan qoida buzilgan nuqtadan qarama-qarshi jamoa foydasiga jarima to`pi belgilanadi;
- Darvozabonning o`z jarima moydoni ichida bo`lsa, hakam tomonidan qoida buzilgan nuqtadan qarama-qarshi jamoa foydasiga erkin zarba belgilanadi.

**Burchak to`plarini kiritish vaqtida qolgan barcha 17 – qoida buzilish holatlarida:**

- Burchak to`pi qaytatdan kiritiladi.

Izoh: 1873-yili to`p himoyadagi o`yinchiga tegib, sirt chiziqdan maydon tashqarisiga chiqib ketganda burchakdan to`p tepish qoidasi kiritiladi.<sup>6</sup>

## **2017/2018 o`yin qoidalariga o`zgartirishlarning qisqacha bayoni**

Bu yerda asosiy o`zgartirishlar keltirib o`tilgan.<sup>7</sup>

Barcha Qoidalar

<sup>6</sup> Sh.X.Isroilov, Z.R.Nurimov, Sh.U.Abidov, S.R.Davletmuratov, A.A.Karimov. Sport va harakatli o`yinlar (Futbol). Darslik. – T., 2017. B. 245-287.

<sup>7</sup> FIFA. Правила игры 2017-2018.

“Qoidani buzish” tushunchasi “Qoidani buzgan” tushunchasiga aniqlik kiritilgan.

### **1-QOIDA: Uchrashuv o`tkaziladigan maydon**

- Agarda inson sog`ligiga zarar yetkazilmasa, tabiiy chim maydonining yon chiziqlarini chizishda sun`iy qoplama (gazon)dan foydalanish mumkin.

### **3-QOIDA: O`yinchilar soni**

- Milliy FA eng ko`pi bilan 5 tagacha o`yinchilarni almashtirishdan foydalanishi mumkin (oliy toifali o`yinlar bundan mustasno).

- Milliy FA o`smirlar, futbol faxriylari va imkoniyati cheklanganlar uchun qaytib almashtirishdan foydalanishi mumkin.

- O`yinchilar almashtirish jarayoni yanada aniqroq bo`lishi.

- Tanaffus paytida hakamning ruxsatisiz o`yinchini almashtirish qoida buzarlikka kirmaydi, maydonga kirishini ogohlantirish talabi asosida.

- Tanaffus paytida hakamning ruxsatisiz darvozabon o`rnini o`yinchi bilan almashtirsa, ogohlantirish bilan jazolanmaydi.

- O`yinchi hakamning ruxsatisiz maydonga tushib, (agar u talab qilinsa) o`yinga qo`shilsa, jarima zarbasi bilan jazolanadi.

- Jamoa gol kiritganda, uning jamoasidan maydonga ortiqcha o`yinchi bo`lsa, jarima zarbasi bilan jazolanadi.

### **4-QOIDA: O`yinchilar kiyimi (ekipirovka)**

- Bosh kiyimlar cheklab qo`yilgan ro`yxatga darvozabonning kepikasi kirmaydi.

- O`yinchilarga kommunikatsion va elektron qurilmalardan foydalanish va olib yurishga ruxsat etilmaydi. Faqatgina (EPTS) elektron tizimidagi natijalarni ko`rish qurilmalardan tashqari. Texnik xodimlar sog`ligi bilan bog`liq kommunikatsion qurilmalardan foydalanishi mumkin.

### **5-QOIDA: Bosh hakam**

- Muhim tasdiq: rasmiy uchrashuvlardagi qaror doim hurmat bilan qabul qilinishi kerak.

- Milliy FA o`smirlar, futbol faxriylari, imkoniyati cheklanganlar va ommaviy futbolda vaqtinchalik chetlatishlarga ruxsat berishi mumkin.

- Jamoa meditsina shtabi xodimi maydondan chetlatilsa, jamoada undan boshqa meditsina xodimi qolmagan bo`lsa, u qolib o`yinchiga yordam berishi mumkin.

### **7-QOIDA: Uchrashuvning davom etishi**

- Bo`limlar orasidagi tanaffusda va qo`shimcha bo`limlardagi tanaffusda ichimliklar iste`mol qilish uchun qisqacha tanaffus beriladi.

### **8-QOIDA: Uchrashuv boshlanishi va o`yinni davom ettirish**

- Boshlang`ich zarbani amalga oshirayotgan o`yinchi raqib maydonida turib zarbani amalga oshirishi mumkin.

### **10-QOIDA: O`yin natijasini aniqlash (yangi nomi)**

- Qo`shimcha vaqt 2 teng bo`limdan ko`pi 15 minut har bir bo`lim davom etishi kerak.

- **11 metrlik nuqtadan zarbalar.**

- O`yinni davom ettira olmaydigan darvozabon ifodasiga o`zgartirishlar kiritilgan.

- Jamoa barcha zaxira o`yinchilardan foydalangan bo`lsa, chiqib ketgan o`yinchi darvozabonni almashtirib biladi.

- Zarba beruvchi ikkinchi marotaba to`pga o`ynashi mumkin emas.

- O`yin qoidasini buzgan darvozabon, (natijada zarba qayta uriladi) ogohlantirilishi kerak.

- Agarda zarba beruvchi qoidani buzsa, zarba yo`qotilgan deb hisoblanadi (xato urilgan hisoblanadi).

- Agarda darvozabon va zarba beruvchi bir vaqtda birgalikda o`yin qoidasini buzsa:

- Agar gol urilmagan bo`lsa, ikkalasiga ham ogohlantirish va qaytib zarba berish.

- Agar gol urilgan bo`lsa, unda zarba beruvchi ogohlantiriladi va zarba xato tepilgan deb hisoblanadi.

### **11-QOIDA: “O`yindan tashqari” holat**

- O`yinning rasmiy shaxsidan to`p o`z yo`nalishini o`zgartirsa, o`yinchi “o`yindan tashqari” holatda deb jazolanishi mumkin.

- “O`yindan tashqari” holatida qolgan o`yinchi raqibiga to`squinlik qilsa, jazolanishi shart.

- “O`yindan tashqari” holatida qolgan o`yinchiga nisbatan “o`yindan tashqari” holatida qolgandan oldinroq qoida buzilsa, o`yin qoidasi o`yinchiga nisbatan buzilgan hisoblanib, jazolanishi kerak.

- “O`yindan tashqari” holatida qolgan o`yinchiga nisbatan qoida buzilsa, “o`yindan tashqari” holat deb jazolanadi.

### **12-QOIDA: Qoida buzilish holatlari va qoidaga zid xatti-harakatlar**

- Og`zaki qoida buzilishlar erkin zarba bilan jazolanadi.

- Agar qoida buzgan o`yinchi, o`yinni davom etish belgisidan keyin chetlatilishi lozimligigacha yana qoida buzsa qo`shimcha jazolanadi.

- Agar jarima maydoni ichida sal hujumni to`xtatgan o`yinchi qoidani buzsa (avval to`pga o`ynab) unda ogohlantirish berilmaydi.

- Ogohlantirish bilan jazolanadigan qo`shimcha qoidabuzarliklar ro`yxati: agar o`yinchi avval yaqqol o`ynab keyin qoida buzganda, yaqqol gol urish imkoniyati bermaganda.

- Kiritilgan golni bayramona nishonlanayotgan holati, jamoat tartib, xafsizlik qoidalari buzilganda.

- Agar o`yinchi diogonal yo`nalish bo`ylab (darvozaga nisbatan) oxirgi o`yinchini (darvoza bonni) aldab o`tib yaqqol gol urish imkoniyati berilmaganda.

- Hakam ruxsatisiz maydonga chiqib gol yoki yaqqol gol kiritish imkoniyatini cheklash (yo`qotish) – maydondan chetlatiladi.

- To`p o`yin paytida, maydondan tashqarisida ro`y bergan qoida buzarliklar, o`yinchilar, zahira o`yinchilari, ularning ishtirokidagi va jamoalar

rasmiy shaxs, vakillari ishtirok etishda o`sha joyga maydon chizig`i yonida jarima yoki erkin zarba bilan jazolanadi.

- Agar o`yinga, yoki o`yinchiga o`yin paytida to`p yoki boshqa predmetni oyog`i bilan zarba berib halaqit qilsa – jarima zarbasi belgilanadi.

- Xuddi shu holat maydonning tashqarisi (cheti)ga turganlarga (jamoaga a`zolariga ham) qarshi namoyon qilganda.

### **13-QOIDA: Jarima to`pi va erkin zarba**

- Himoyalananayotgan jamoaning jarima yoki erkin zarbani (jarima maydoni ichidan) urayotgan paytda, jamoadoshiga to`p tegmasdan hujumchi bu to`pga tegishi yoki harakatlanishi mumkin emas.

### **14-QOIDA: 11 metrlik jarima to`pi**

- Zarba beruvchi aniq darajada ajralib turishi va ko`rinishi shart.
- Agar darvozabon bilan zarba beruvchi birgalikda o`yin qoidasini buzsa:

- Agar gol kiritilmagan bo`lsa, ikkalasiga ham ogohlantirish, va qayta zarba berilishi.

- Agar gol urilgan bo`lsa, unda zarba beruvchi ogohlantiriladi va zarba xato tepilgan deb hisoblanadi (10-qoida).

- To`p darvozaga harakatlanayotda gol kiritilgan hisoblanadi, qachonki boshqa o`yinchi to`pga harakatlanib qo`shilsa.

### **16-QOIDA: To`pni darvoza yonidan erkin zarba bilan o`yinga kiritish**

- Jarima maydoni ichidagi hujumchi, boshqa o`yinchiga to`p tegmaguncha tegishi yoki to`pga kurashishi mumkin emas.

## **Ilova**

### **O`yin g`olibini aniqlash yoki o`yinlar natijasi mehmonda va uyda**

O`yin durang natija bilan yakunlangan paytda, turnir reglamentida ishtirokni davom ettirish uchun keyingi bosqichga jamoalardan biri chiqishi talab qilinsa, 11 metrlik nuqtadan beriladigan zarbalar g`olibni aniqlash uchun yagona yo`l hisoblanadi.



4.25-rasm

### Amalga oshirish jarayoni

- Bosh hakam zarbalar yo`llanadigan davrozani aniqlaydi.
- Bosh hakam qur`a tashlaydi va qaysi jamoa sardori qur`ada yutib chiqsa o`sha jamoa birinchi bo`lib zarbani ijro etish huquqini qo`lga kiritadi.
- Bosh hakam ijro etilgan zarbalarni yozma ravishda qayd etib boradi.
- Quyida keltirilgan shartlarga asosan jamoalar 5 marotabadan zarba ijro etadi.
- Har bir jamoa o`yinchisi navbat bilan zarbani ijro etadi.
- Agar penaltilar seriyasiga tugaguncha jamoalardan biri 5 ta zarbadan kiritgan gollari soni, ikkinchi jamoa ham xuddi shuncha zarba ijro etib kiritgan gollari soniga amaliy jihatdan yeti olmasa, unda 11 metrlik nuqtadan beriladigan zarbalar to`xtatiladi.
- Agar ikkala jamoa ham 5 ta zarbadan urgan gollari soni teng bo`lsa yoki umuman urilmagan bo`lsa, unda jamoalardan biri 1 tadan zarba ijro etishda raqibidan bitta gol ko`p urguncha o`sha tartibda davom etaveradi.
- Darvozabon, penaltilar seriyasi davomida darvozagga tura olmaydigan darajada jarohat olsa, unda musobaqa reglamentiga ko`ra maksimal darajada o`yinchilarni almashtirmagan bo`lsa, zahiradagi futbolchi bilan almashtirishlihi mumkin.
- Ikkinchi bo`limning asosiy vaqti yoki qo`shimcha vaqti (agar qo`shimcha taym musobaqa reglamentida mavjud bo`lsa) tugagan mahalida maydonda harakat qilgan o`yinchilar 11 metrlik nuqtadan zarba ijro etish huquqiga ega.

- Futbolchilar bir marotabadan zarba berishadi, agar barcha o`yinchilar bir martadan zarba ijro etib bo`lishsagina, ularga yana tepish huquqi beriladi.
- 11 metrlik nuqtadan beriladigan zarbalar vaqtida, har bir o`yinchi hakam ruxsati asosida o`zi darvozabon bilan zarba berishda almashishi mumkin.
- 11 metrlik nuqtadan beriladigan zarbadan oldin faqatgina zarba beruvchi futbolchi bilan hakamga jarima maydoni ichida turish huquqi beriladi.
- Ikkala jamoa darvozaboni va zarba ijro etuvchi futbolchidan tashqari barcha o`yinchilar markaziy aylana ichida turishlari shart.
- Zarba ijro etayotgan futbolchi jamoasi darvozaboni zarba ijro etilayotgan vaqtda jarima maydonidan tashqarida, ya`ni darvoza chizig`i bilan jarima maydoni chizig`i kesishgan nuqtada turishi lozim.
- 11 metrlik nuqtadan beriladigan zarbalar jarayonida O`yin qoidalariga va HK qaroriga amal qilishlari talab etiladi.

### **TEXNIK MAYDONCHA**

Rasmda ko`rib turganingizdek, maydonda bo`ladigan uchrashuvlarda zaxira futbolchilari uchun maxsus o`rindiqlik va jamoa rahbariyati uchun mo`ljallangan 3-qoida va 2-qarordagi kabi texnik maydoncha bo`ladi.


Texnik maydonchalar turli maydonlarda bir – biridan farq qilishi mumkin. Masalan, kattaligi va o`rnatilgan joyi bilan farq qiladi.



4.26-rasm

Lekin bu maydonchalarni aniqlash uchun quyidagi bir xil pirntsiplarga asoslanadi:

- Texnik maydoncha zaxira o`rindig`idan barcha tomonlarga 1 metr masofada chiziq tortilib chegaralanadi. Maydonning yon chizig`idan ham 1 metr masofada ajralib turadi.
- Texnik maydonchani chegarasini aniqlash uchun aniq belgilardan foydalanish tavsiya etiladi.
- Musobaqa reglamentiga ko`ra texnik maydoncha ichidagi shaxslar soni aniqlanadi.
- Texnik maydonchada turishga musobaqa reglamentiga ko`ra aniqlanagan shaxslarga ruxsat beriladi. Ularning familiyalari musobaqa bayonnomasiga o`yin boshlanguncha kiritilishi shart.
- Hamma vaqt faqat bitta shaxsga o`yinchilarga ko`rsatma berishga ruxsat beriladi va ko`rsatmalarni berib bo`lingandan keyin u darhol o`rindiqdagi o`zining joyiga qaytishi shart.
- Murabbiy va rasmiy shaxslar texnik maydonchadan tashqariga chiqish huquqi berilmagan. Faqat shifokorlar bundan mustasno. Ular maydondagi bosh hakam ko`rsatmasiga asosan jarohat olgan futbolchiga tibbiy yordam ko`rsatish maqsadidagina texnik maydonchadan tashqariga chiqishi mumkin.
- Texnik maydonchadagi murabbiy va rasmiy shaxslar o`zlarining javobgarlik doirasiga kiradigan darajada to`g`ri tutishlari lozim.



4.27-rasm

#### **TO`RTINCHI HAKAM**

Musobaqa reglamentiga ko`ra har bir o`yinga to`rtinchi hakam tayinlanishi mumkin. Agar maydonda harakat qilayotgan 3 hakamdan birontasi o`zining vazifasini bajara olmaydigan darajadagi vaziyatga tushib qolsa, unda 4-hakam uning o`rniga almashtiriladi.



- Agar hakam o'z vazifasini bajara olmaydigan darajadagi vaziyatga tushib qolsa unda hakamlarni almashtirish tartibi musobaqa reglamenti asosida amalga oshiriladi.
- Bosh hakam ko'rsatmasiga binoan to'rtinchi hakam o'yingacha, o'yin paytida va o'yindan keyin bosh hakamga barcha tashkiliy ishlarda yordam berishi mumkin.
- To'rtinchi hakam o'yin paytida futbolchilarning almashtirish jarayoniga bevosita yordam berishga majbur.
- Agar o'yin jarayonida o'yindagi to'pni almashtirish zaruriyati tug'lsa, unda to'rtinchi hakam bu ishga ma'suldir. O'yin vaqtini cho'zmaslik uchun to'rtinchi hakamda zahira to'pi bo'lishi lozim.
- To'rtinchi hakam futbolchi zahiradan maydonga tushishidan oldin o'yinchini tekshirib ko'rish huquqiga ega. Agar futbolchining kiyinishida xatolikni sezsa buni darhol bosh hakam yordamchisiga ma'lum qiladi. U esa o'z o'rnida bosh hakamga bu haqda ma'lumot beradi.
- To'rtinchi hakam barcha masalalarda bosh hakamga yordam beradi.
- O'yin tugashi bilan to'rtinchi hakam o'yin haqidagi bayonnomani musobaqa o'tkazuvchi tashkilotga olib borib beradi. Agar o'yin vaqtida bosh hakam va uning yordamchilari rasmiy shaxslarning o'zlarini noto'g'ri tutishi va baxtsiz hodisalarni nazaridan chetda qoldirgan bo'lsa, unda to'rtinchi hakam hakamlar jamoasi bilan kelishilgan holda bu haqda bayonnomada aks ettirish lozim.

### **O'yin qoidalari va reglament**

To'rtinchi hakam tomonidan o'yindagi to'xtalishlar hisobiga yo'qotilgan vaqtni e'lon qilish

7 – Qoida: O'yining davomiyligi. Vaqt qo'shib berish.

O'yinning har bir bo'limida quyidagi holatlar uchun vaqt yo'qotilishi tufayli qo'shimcha vaqt qo'shib beriladi:

- o'yinchi (lar) almashtirish,
- o'yinchi jarohati darajasining jiddiyligini baholash,

- kuzatib qo'yish (o'yinchiga yordam ko'rsatilishi uchun maydondan tashqariga chiqarish),
- o'yinni cho'zish,
- boshqa biror sabab.

Vaqtни qo'shish bosh hakam ko'rsatmasiga binoan amalga oshiriladi.

Musobaqalar reglamentida belgilanishicha, o'yin vaqtida stadionlardagi soatlar ishlashi mumkin, yagona shart shundan iboratki har bir bo'lim, ya'ni 45 va 90 daqiqa tugagach, soatlar to'xtatiladi. Ushbu shart final o'yinlarining qo'shimcha bo'limlari uchun ham taalluqli. (Ya'ni, soatlar 15 va 30 daqiqa o'tgach, to'xtatiladi).

### **O'yindagi to'xtalishlar hisobiga yo'qotilgan vaqtни e'lon qilish**

Agar o'yin tugamagan bo'lsa, bosh hakam o'yindagi to'xtalishlar uchun qo'shimcha vaqt ajratsa, unga juda katta bosim o'tkaziladi. O'yinchilar, murabbiylar, jamoalar rahbarlari va axborot vositalari qancha vaqt qo'shilganidan bexabar bo'lishadi va bosh hakam tomonidan qo'shib berilgan vaqtda gol urilsa, bu holat bosh hakamga e'tirozlarni kuchaytirib yuboradi.

Hakamlar Qo'mitasi qiziqayotgan tomonlar o'yindagi to'xtalishlar uchun qancha vaqt qo'shib berilayotgani to'g'risida ogohlantirilsa, bosh hakamga bosim keskin kamayadi degan to'xtamga keldi.

Bosh hakam va to'rtinchi hakam o'yindagi to'xtalishlar hisobiga vaqt yo'qotilishiga ko'proq e'tibor berishlariga to'g'ri keladi. Hakamlar Qo'mitasi oddiy holatlarda o'yinchi almashtirishga 30 soniya, jarohatlangan o'yinchini maydon tashqarisiga kuzatish uchun 1 daqiqa qo'shib berishni tavsiya etadi. Alohida hollarda bosh hakam yuqorida qayd etilgan holatdan farqli o'laroq, vaqt yo'qotilishini aniqroq hisoblashi zarur bo'ladi. (Masalan, maydonda darvozabonga yordam ko'rsatilganda).

Italiyada keyingi yillarda to'plangan ijobiy tajribaga asoslanib, Hakamlar Qo'mitasi UEFA musobaqalarining barcha o'yinlarida e'lon qilishning quyidagi qoidalariga asosan, to'rtinchi hakam tomonidan qo'shib berilayotgan vaqtни e'lon qilishni tavsiya etadi:

- Har bir bo`limda asosiy o`yin vaqti tugagandan so`ng (45- va 90-daqiqalar o`tib bo`lgach) bosh hakam to`rtinchi hakamga imo-ishora yoki ovoz chiqarib, qancha vaqt qo`shishga qaror qilganini bildiradi. O`yinga yarim daqiqa yoki soniyalar emas, to`liq daqiqalar qo`shib beriladi. Ushbu qoida qo`shimcha bo`limlarda ham amal qiladi (15- va 30-daqiqalar tugagandan so`ng).
- To`rtchi hakam o`yinchilar, murabbiylar, tomoshabinalar va axborot vositalariga eng kamida qo`shib berilayotgan daqiqalarni o`yinchi almashtirishda foydalaniladigan raqamlangan (oddiy yoki elektron) tablichkalar yordamida ko`rsatadi.
- Bir marta va tomoshabinlar uchun ushbu axborot stadionning retranslyatsion tizimi yordamida e`lon qilinishi mumkin, shuningdek, qisqa vaqt mobaynida stadiondagi gigant monitorda ham ko`rsatilishiga ruxsat beriladi.
- O`yinning asosiy vaqti tugagach, ya`ni 45- va 90-daqiqalar o`tib bo`lgach, stadiondagi soat to`xtatiladi, agar qo`shimcha bo`limlar o`tkazilsa, 15- va 30-daqiqalardan so`ng soat yana to`xtatilishi kerak.

O`yinga qo`shib berilgan daqiqalarda biror holat yuz bersa va bu holat o`z-o`zidan yana vaqt qo`shishni talab qilsa, na bosh hakam, na to`rtinchi hakam yana qancha vaqt qo`shilishini ko`rsatmaydi. O`yin qoidalariga muvofiq, qo`shib berilgan vaqtda o`yin to`xtalishlari uchun, shubhasiz, yana bir qancha vaqt qo`shib beriladi.

### **BOSH HAKAM ISHORALARI**



Indirect free kick

Erkin zarba



Direct free kick

Jarima zarbasi



Advantage

O`yinni davom ettirish

### **BOSH HAKAM YORDAMCHILARINING ISHORALARI**



O'ZBEKISTON FUTBOL ASSOTSIATSIYASI  
O'ZBEKISTON PROFESSIONAL FUTBOL LIGASI



UZBEKISTAN  
PROFESSIONAL FOOTBALL  
LEAGUE

BOSHLANG'ICH TARKIB



Substitution

O'yinchi almashtirish



Throw-in

O'yindan tashqari holat



Throw-in

Yon chiziqdan to'pni o'yinga  
kiritish



Offside on the near  
side of the field

O'yindan tashqari  
holat, yaqin nuqtadan



Offside in the centre  
of the field

O'yindan tashqari holat,  
maydonning o'rtarog'idan



Offside on the  
far side of the field

O'yindan tashqari holat,  
maydonning uzoq nuqtasidan

NA`MUNA

O'yin №	Sana, vaqt	Stadion, shahar		Musobaqa		
	1 mart 15:15	Bunyodkor, Toshkent		Coca Cola Superliga		
<b>BUNYODKOR</b>		Bosh hakam		Navoiy	<b>PAXTAKOR</b>	
		Yordamchi hakam 1		Andijon		
Oq	Oq	Yordamchi hakam 2		Nukus	Sari q	Sari q
		Zaxira hakami		Namangan		



**O‘ZBEKISTON FUTBOL ASSOTSIATSIYASI  
O‘ZBEKISTON PROFESSIONAL FUTBOL LIGASI**



**UZBEKISTAN  
PROFESSIONAL FOOTBALL  
LEAGUE**

**O‘YIN QAYDNOMASI**

Toshkent		Nazoratchi O‘zPFL komissari		Toshkent Toshkent		Toshkent	
<b>BOSHLANG‘ICH TARKIB</b>							
<b>№</b>	<b>Amp</b>	<b>I.F.</b>		<b>№</b>	<b>Amp</b>	<b>I.F.</b>	
1				1			
2				2			
3				3			
4				4			
5				5			
6				6			
7				7			
8				8			
9				9			
10				10			
11				11			
<b>ZAXIRA O‘YINCHILARI</b>							
12				12			
13				13			
14				14			
15				15			
16				16			
17				17			
18				18			
19				19			
20				20			
<b>RASMIY SHAXSLAR</b>							
		Bosh murabbiy		Bosh murabbiy			
		Murabbiy		Murabbiy			
		Murabbiy		Murabbiy			
		Dar.murabbiy		Dar.murabbiy			
		Shifokor		Shifokor			
		Massajchi		Massajchi			
		Ma‘mur		Ma‘mur			
<b>MURABBIY IMZOSI</b>							
Komissar imzosi _____							

- DR-darvozabon, HM-himoyachi, YH-yarim himoyachi, HJ-hujumchi

O‘yin №	Sana, vaqt	Yoritish vaqti	Stadion, shahar			Maydon holati	Muxlislar soni		
	1 mart, 2020 15:15	69’	“Dinamo” markaziy stadioni, Samarqand			4’	5 900’		
<b>BUNYODKOR</b>		0	1-bo‘lim natijasi			1	<b>PAXTAKOR</b>		
		0	Yakuniy natija			1			
Oq	Oq	Oq	Qo‘shilgan daqiqalar		1-bo‘lim	2	Sariq	Sariq	Sariq
				2-bo‘lim	5				
<b>BOSHLANG‘ICH TARKIB</b>									
<b>№</b>	<b>I.F.</b>		<b>G</b>	<b>S</b>	<b>Q</b>	<b>A</b>	<b>№</b>	<b>I.F.</b>	
1							1		
2							2		
3							3		
4							4		
5							5		

6					6					
7					7					
8					8					
9					9					
10					10					
11					11					
<b>ZAXIRA O'YINCHILARI</b>										
12					12					
13					13					
14					14					
15					15					
16					16					
17					17					
18					18					
19					19					
20					20					
<b>RASMIY SHAXSLAR</b>										
I.F.	Lavozimi	S	Q	I.F.	Lavozimi	S	Q			
	Bosh murabbiy				Bosh murabbiy					
	Murabbiy				Murabbiy					
	Murabbiy				Murabbiy					
	Dar.murabbiy				Dar.murabbiy					
	Shifokor				Shifokor					
	Massajchi				Massajchi					
	Ma'mur				Ma'mur					
<b>JAROHAT OLISH HOLATLARI</b>					<b>E'TIROZ VA SHIKOYATLAR</b>					
<b>RASMIY SHAXSLAR</b>										
Bosh hakam				Nazoratchi						
Yordamchi hakam 1				Komissar						
Yordamchi hakam 2				Bosh hakam imzosi						
Zaxira hakami				Nazoratchi imzosi						
										Komissar imzosi _____

- G – Gol, S – sariq kartochka, Q – qizil kartochka, A – o'yinchi almashtirish, AG – avto gol, P (+/-) – Penalti, 0 – o'yin yakunlangandan keyin ko'rsatilgan sariq/qizil kartochka



**O'ZBEKISTON FUTBOL ASSOTSIATSIYASI**  
**O'ZBEKISTON PROFESSIONAL FUTBOL LIGASI**



**UZBEKISTAN**  
PROFESSIONAL FOOTBALL  
LEAGUE

**O'ZPFL KOMISSARI BILDIRGISI**

<b>KOMISSAR:</b>		
	F.I.SH / Shahar	
<b>O'YIN:</b>	<b>Lokomotiv (Toshkent)</b>	<b>Buxoro (Buxoro)</b>
	Klublar nomi va shahri	

<input type="checkbox"/> +	Coca Cola Superliga
<input type="checkbox"/>	U-21
<input type="checkbox"/>	U-18
<input type="checkbox"/>	O'zbekiston kubogi
<input type="checkbox"/>	Liga kubogi

<input type="checkbox"/>	Pro liga
<input type="checkbox"/>	Ayollar Oliy ligasi
<input type="checkbox"/>	Ayollar Birinchi ligasi
<input type="checkbox"/>	Ayollar kubogi

<input type="checkbox"/>	Birinchi liga
<input type="checkbox"/>	Futzal Oliy liga
<input type="checkbox"/>	Futzal Birinchi liga
<input type="checkbox"/>	Futzal kubogi

<b>SANA</b>	15.03.2020 <small>kun, oy ,yil</small>	<b>STADION</b>	Lokomotiv <small>nomi</small>	<b>SHAHAR</b>	Toshkent <small>Nomi</small>
<b>O'YIN HISOBI</b>		<b>G'OLIB</b>		<b>SHAHAR</b>	
			<small>nomi</small>		<small>Nomi</small>
<b>TOMOSHABINLAR</b>	1200 <small>Soni</small>				
<b>HAKAM</b>					
	F.I.SH				
<b>1 YORDAMCHI HAKAM</b>					
	F.I.SH				
<b>2 YORDAMCHI HAKAM</b>					
	F.I.SH				
<b>ZAXIRA HAKAMI</b>					
	F.I.SH				
<b>NAZAROTCHI HAKAM</b>					

<b>O'YINNING TASHKILY MASALALARI</b>		<b>HA</b>	<b>Y O' Q</b>
<b>A</b>	O'yin oldi yig'lish bo'yicha e'tirozlar		<b>v</b>
<b>B</b>	Xavfsizlikni ta'minlash, yong'in xavfsizligi tibbiyot va kirish nuqtalari xizmatlari bo'yicha e'tirozlar		<b>v</b>
<b>D</b>	Xavfsizlikni ta'minlash, o'yin ishtirokchilari va tomoshabinlar xavfsizligini ta'minlash ishlari bo'yicha e'tirozlar		<b>v</b>
<b>E</b>	Reglament va futbol qoidalariga asosan uchrashuvlarni o'tkazish uchun stadion va futbol maydoniga tegishli e'tirozlar		<b>v</b>
<b>F</b>	Zarur normativ hujjatlarning borligi va taqdim etilganligi bo'yicha e'tirozlar		<b>v</b>
<b>G</b>	Mehmon jamoa va jamoa rasmiylarini kutib olish, joylashtirish va kuzatish bo'yicha e'tirozlar		<b>v</b>
<b>G'</b>	Stadionda, o'yin boshlangunga qadar, o'yin paytida va o'yindan keyin yuz bergan holatlar.		<b>v</b>
<b>H</b>	Murabbiylar, rasmiy shaxslar va hakamlarning xatti-harakatlari bo'yicha e'tirozlar		<b>v</b>
<b>I</b>	Futbol klubning xomiy va muassislari oldidagi shartnoma shartlarini bajarish bo'yicha e'tirozlar		<b>v</b>
<b>J</b>	O'yinni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha alohida e'tirozlar		<b>v</b>

**E'tirozlarga izohlar**

A	
B	
D	
E	
F	
G	
G'	
H	
I	
J	

**ENG YAXSHI O'YINCHI**

<b>KLUB</b>	<b>FUTBOLCHI</b>
Lokomotiv	

**HAKAMLAR GURUHIGA QO'YILGAN BAHO (TAGIGA CHIZILSIN)**

A'LO	<u>YAXSHI</u>	QONIQARLI	QONIQARSIZ
------	---------------	-----------	------------

**NAZORATCHIGA QO'YILGAN BAHO (TAGIGA CHIZILSIN)**

A'LO	<u>YAXSHI</u>	QONIQARLI	QONIQARSIZ
------	---------------	-----------	------------


O`zPFL komissari \_\_\_\_\_

«09» mart, 2020 yil

O`zPFL bosh direktori \_\_\_\_\_



### **Mavzuga oid nazorat savollari:**

1. Maydon o`lchamlarini ayting?
2. Darvoza o`lchamini ayting?
3. Jarima maydonining o`lchamini ayting?
4. To`pning standart vaznini ayting?
5. Zahiradagi o`yinchi kimning ruxsati bilan maydonga kirishi mumkin?
6. Darvozabon kiyimi (epikirovkasi) nimalardan iborat?
7. Bosh hakam huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?
8. Yordamchi hakam huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?
9. Qo`shimcha bo`limlar necha daqiqadan iborat?
10. 11 metrlik jarima zarbasi qaysi holatlarda beriladi?
11. Burchak to`plari qaysi hollarda belgilanadi?

### **Adabiyotlar**

1. Акрамов Р.А. Футбол. Дарслик. – Т., 2006.
2. Isroilov Sh.X, Nurimov Z.R, Abidov Sh.U, Davletmuratov S.R, Karimov A.A. Sport va harakatli oyinlar (Futbol). Darslik. – Т., 2017.
3. [footballrules.ru.football-laws-17-18](http://footballrules.ru.football-laws-17-18) tarmog`idan olingan ma`lumotlar.
4. [sportzone.ru.sport.rules](http://sportzone.ru.sport.rules) tarmog`idan olingan ma`lumotlar.

## **V BOB. BASKETBOL O'YINI BO'YICHA MUSOBAQALAR O'TKAZISH VA HAKAMLIK QILISH**

### **5.1. O'yin qoidasi va musobaqa tashkil qilish asoslari**

Basketbol o'yinida har biri besh o'yinchidan iborat ikkita jamoa qatnashadi. Har ikkala jamoaning maqsadi raqib savatiga to'p tashlash va boshqa jamoaning to'pni egallab olishiga hamda uni savatga tashlashga qarshilik ko'rsatishdan iborat.

To'pni uzatish, savatga tashlash, dumalatish yoki maydonda istagan tomonga olib yurish quyida bayon etilgan qonunlarga rioya qilingan sharoitdagina mumkin.



O'yin maydoni to'g'ri to'rtburchak shaklida, yuzasi qattiq, yassi hamda to'siqlardan holi joy bo'lishi kerak.

Olimpiada turnirlari va Jahon birinchiligi o'yinlari uchun maydon o'lchovlari uzunligi 28 m x 15 m bo'lishi va ular chegaralangan chiziqning ichki tomonidan o'lchanishi kerak.


Qolgan barcha musobaqalar uchun FIBAgaga tegishli strukturalar, masalan, zonal hamda kontinental musobaqalarda zonal komissiya yoki ichki musobaqalar uchun Milliy Federatsiya mavjud o'yin maydonlarining quyidagicha o'lchovini tasdiqlash huquqiga ega: o'zgartirishlar bir-biriga proporsional bo'lish sharti bilan, 4 m uzunligiga va 2 m eniga qisqartirish mumkin.

Barcha yangi qurilayotgan maydonlar FIBAning muhim rasmiy musobaqalari uchun xos bo'lgan talablarga mos, ya'ni 28 m x 15 m bo'lishi lozim.

Shift balandligi 7 m dan past bo'lmasligi va yetarli darajada yoritilgan bo'lishi zarur. Yorug'lik manbalari o'yinchilarga xalaqit bermaydigan joylarda o'rnatilishi shart.



5.1-rasm



5.2-rasm

O'yin maydoni yaxshi ko'rinadigan chiziqlar bilan belgilangan bo'lishi va bu chiziqlar istagan nuqtada tomoshabinlar, reklama to'siqlari va boshqa g'ovlardan kamida 2 m uzoqlikda joylashishi kerak. Maydonning uzun tomonlarini belgilovchi chiziqlar – yon chiziqlar, qisqa tomonlarini belgilovchi chiziqlar esa – en chiziqlar deb atalishi lozim. Chiziqlar shunday chizilishi kerakki, ular yaqqol ko'rinadigan va eni 0,5 sm bo'lishi kerak. Markaziy doira radiusi 1,80 m ga teng bo'lishi va maydon markazida belgilanishi kerak. Radius doiraning tashqi chekkasigacha o'lchanishi shart. Markaziy chiziq yon chiziqlariga parallel holda yon chiziqlari o'rtasidan o'tkazilishi va har ikkala yon chiziqlaridan 15 sm tashqariga chiqib turishi kerak. Maydonning raqib shchiti orqasidagi en chizig'i va markaziy chiziqning yaqin chekkasi o'rtasida joylashgan qismi jamoaning old zonasi hisoblanadi. Maydonning qolgan qismi, shu jumladan, markaziy chiziq ham jamoaning orqa zonasi hisoblanadi. Polning maydonda ajratilgan va ikkita yoy hosil qiladigan chiziqlar bilan chegaralangan qismi o'yindan 3 ochkoli to'plarni

tashlash zonalari bo'lib hisoblanadi. Har bir yoy savatning mutloq markaziga to'g'ri perpendikulyar bo'lgan poldagi nuqtani markaz qilib belgilab turib, tashqi qirrasigacha 6,75 radiusli yarim doira shaklida chiziladi va parallel holda yon chiziqlariga davom ettirilib, yon chiziqlarida tugaydi.

Maydonda ajratiladigan yon chiziqlari, jarima to'pini tashlash chiziqlari va yon chiziqlaridan o'tkaziladigan chiziqlar bilan chegaralangan pol qismi chegaralangan zonalar hisoblanadi. Ularning tashqi chegaralari yon chiziqlarining o'rtasidan 3 m uzoqlikda bo'ladi, jarima to'pini tashlash chizig'ining tashqi chekkasida tugaydi.

Jarima to'pini tashlash joyi – bu o'yin maydonida 1,80 radiusli yarim doira bilan ajratiladigan chegaralangan zonalaridir. Ularning markazlari jarima to'pini tashlash chizig'i o'rtasida joylashgan. Bunday yarim doiralar chegaralangan zonalarining ichida nuqtali chiziqlar bilan o'tkaziladi.

Jarima to'pni tashlash zonasi bo'ylab belgilangan joylarni o'yinchilar jarima to'pi tashlanayotganda egallaydilar. Bunday joylar quyidagicha belgilanadi: jarima to'pini tashlash zonasi tomonidan chiziqlar bo'ylab o'lchab turib, yon chizig'ining ichki chekkasidan 1,75 m uzoqlikda birinchi belgilanadi. Birinchi joy 0,85 m uzoqlikda o'tkaziladigan chiziq bilan chegaralanadi. Bu chiziq orqasida eni 0,40 m bo'lgan betaraf xona joylashadi. Ikkinchi joy betaraf zona ketida joylashadi va eni 0,85 m bo'ladi. Ikkinchi joyni belgilab turgan chiziqdan keyin eni 0,85 m bo'lgan uchinchi joy belgilanadi. Bu joylarni belgilash uchun ishlatiladigan hamma chiziqlarning uzunligi 10 m va eni 0,5 m bo'ladi. Bu chiziqlar jarima maydonchasining yon chiziqlariga nisbatan perpendikulyar bo'lib, tashqi tomondan chizilgan bo'lishi kerak.

Jarima to'pini tashlash chizig'i har ikkala yon chizig'iga parallel holda o'tkaziladi. Uning uzoq chekkasi yon chizig'ining ichki chekkasidan 5,80 m uzoqlikda turishi va u 3,60 m uzunlikda bo'lishi kerak. Uning o'rtasi esa ikkala yon chiziqlarning o'rtasini tutashtiruvchi chiziqda bo'lishi lozim.

Jamoa o'rindig'i zonasi maydon tashqarisida, kotib stoli va jamoalar o'rindiqlari uchun joy ajratilgan tomonda joylanadi. Zona, yon chizig'idan

tashqariga chiqib turadigan, uzunligi 2 m bo'lgan chiziq va markaziy chiziqdan hamda perpendikulyar yon chizig'idan 5 m narida chiziladigan boshqa chiziq bilan belgilanadi.

2 m uzunlikdagi chiziqlarning rangi va yon chiziqlari rangiga qarama-qarshi bo'lishi kerak.

Ikkala shchitning har biri qalinligi 0,3 sm bo'lgan qattiq yog'ochdan yoki shunga mos oynadek tiniq ashyodan (yog'ochning qattiqligiga o'xshash qattiqlikdagi bir bo'lakdan) tayyorlanishi lozim.

Olimpiada o'yinlari va jahon Birinchiligi musobaqalari uchun shchit o'lchovlari gorizontal bo'yicha 1,80 m va vertikal bo'yicha 1,05 m bo'lishi, pastki qirradi maydon yuzasidan 2,90 m balandlikda turishi kerak. Qolgan barcha musobaqalar uchun FIBAgaga tegishli strukturalar, masalan, zonal va kontinental musobaqalar o'tkazilganda zonal komissiya yoki barcha ichki musobaqalar uchun milliy federasiya shchitlarining quyidagicha o'lchovlarini tasdiqlashga haqqilari bor: shchitlar gorizontal bo'yicha 1,80 m va vertikal bo'yicha 1,20 m bo'lishi, pastki qirradi maydon yuzasidan 2,75 m balandlikda turishi mumkin yoki gorizontal bo'yicha 1,80 m va vertikal bo'yicha 1,05 m bo'lishi, pastki qirradi maydon yuzasidan 2,90 m balandlikda turishi mumkin. Bundan qat'iy nazar, barcha yangi qurilayotgan shchitlar xuddi Olimpiadalar va jahon Birinchiligi uchun mo'ljallangandek, gorizontal bo'yicha 1,80 m va vertikal bo'yicha 1,05 m qilib tayyorlanishi kerak.

Agar shchit yuzi silliq va oynadan tiniq bo'lmagan ashyodan tayyorlangan bo'lsa, oq rangda bo'lishi shart. Uning sirti quyidagicha belgilanadi: halqa orqasiga eni 0,5 sm ga teng bo'lgan chiziqlar bilan to'g'ri to'rtburchak chiziladi. To'g'ri to'rtburchakning tashqi o'lchovlari gorizontaliga 59 sm, vertikaliga 45 sm bo'lishi kerak. Uning asos chizig'ining yuqori qismi halqa bilan teng turishi kerak. Shchitlarning chetlari 0,5 sm kenglikdagi chiziqlar bilan belgilanadi. Bu chiziqlar shchit rangidan yaqqol ajralib turishi lozim. Agar shchit tiniq bo'lsa, u oq chiziqlar bilan, boshqa hollarda esa, qora bilan hoshiyalanadi. Shchitlarning hoshiyalari va ularda chizilgan to'g'ri to'rtburchakning ranglari bir xil bo'lishi shart.


Shchitlarni mustahkam qilib, maydonning ikkala chekkasiga yon chiziqlariga parallel holda, to'g'ri burchak ostida polga o'rnatiladi. Ularning markazlari har biri yon chiziqlari o'rtasining ichki chekkasidan 1,20 m narida maydondan chiqarilgan nuqtalarga perpendikulyar ravishda joylashadi.

Shchitlarni ushlab turadigan qurilmalar yon chiziqlarining tashqi chekkasidan kamida 2 m uzoqlikda joylashishi shart va ular o'yinchilarning ko'ziga yaqqol tashlanadigan darajada ochiq rangga bo'yalgan bo'lishi lozim.


Ikkala shchit yumshoq material bilan quyidagicha qoplangan bo'lishi kerak: shchitlarning pastki qirrasini va yon tomonlari uchun yumshoq o'ram tagidan kamida 35 sm uzoqlikda tag sirtini va yonlarning ustini qoplaydi. Oldingi va orqa sirtlar tagidan kamida 0,2 sm uzoqlikda qoplanadi va to'ldirilgan material kamida 0,2 sm qalinlikda bo'lishi lozim. Shchitning pastki qismi to'ldirilgan material 0,5 sm qalinlikda bo'lishi kerak.

Qurilmalar yumshoq material bilan quyidagicha qoplanadi: shchitning har qanday qurilmasi shchit orqasidan va poldan kamida 2,75 m balandlikda, shchitning sirt yuzasidan 60 sm uzoqlikda, tag yuzasi bo'ylab yumshoq material bilan qoplangan bo'lishi kerak.

Hamma ko'chma shchitlarning tagi maydon tomonidan sirti bo'ylab 2,15 m balandlikda yumshoq material bilan o'ralgan bo'lishi lozim.



5.3-rasm. Halqa shchit qurilmasi.




5.4-rasm. Shchit. Uning o'lchovlari.

Savatlar halqa va to'rlardan iborat. Halqa qattiq metalldan tayyorlanadi, uning ichki diametri 45 sm ga teng bo'lib, to'q sariq (apelsin) rangga bo'yaladi. Halqalarning metalli kami bilan 0,17 sm va ko'pi bilan 0,2 sm diametrga ega bo'lib, pastki qirrasida to'plarni ilish uchun qo'shimcha bir xil kichik ilmoqlar yoki




shunga o'xshash ilgaklari bo'lishi kerak. Halqalar maydonga nisbatan gorizontal holatda, 3,05 m balandlikda shchitlarga mustahkam o'rnatiladi va shchitning har ikkala vertikal chekkalaridan bir xil uzoqlikda joylashadi. Halqalar ichki chekkasining yaqin nuqtasi shchitning yuza qismidan 15 sm uzoqlikda turishi kerak.

Halqalarga ilinadigan to'rlar oq kanopdan tayyorlanadi, ularning tuzilishi shunday bo'lishi lozimki, to'p savat orasidan o'tayotgan vaqtda bir lahza ushlanib qolishi mumkin bo'lsin. To'rlarning uzunligi 40 sm bo'lishi shart.



5.5-rasm. Halqa.

To'p sharsimon shaklda va tasdiqlangan qizg'ish rangda bo'lishi kerak: u sirti bilan birga charmdan, rezina yoki sun'iy xomashyodan tayyorlanadi; uning aylanasi uzunligi 749 sm dan kam va 780 sm dan ko'p bo'lmasligi lozim; u kamida 567 g dan kam va 650 g dan ko'p bo'lmagan og'irlikka ega bo'lishi kerak; unga havo shunday to'ldirilishi kerakki, to'p taxminan 1,80 m balandlikdan (to'pning pastki qirrasidan o'lchanganda) o'yin maydoniga yoki qattiq yog'och polga tushgan vaqtda to'pning yuqori qirrasidan o'lchanganda 1,20 m dan kam va 1,40 m dan ortiq bo'lmagan balandlikka ko'tarilishi lozim. To'pning choklari yoki chuqurliklarining kengligi 0,635 sm dan ortiq bo'lmasligi kerak.



## 5.6-rasm. Basketbol to'pi.

Maydon egasi bo'lgan jamoa yuqorida aytib o'tilgan shartlarga javob beradigan, kamida bitta avval ishlatilgan to'p bilan ta'minlanishi lozim. Katta hakam to'pning yaroqliligini aniqlab beruvchi yagona shaxs bo'lib hisoblanadi va u mehmon jamoa taqdim qilgan to'pni o'yin uchun tanlab olishi mumkin.

Quyidagi texnik jihozlar maydon egalari tomonidan tayyorlangan bo'lishi va hakamlar hamda ularning yordamchilari ixtiyoriga havola qilinishi kerak:

a) O'yin vaqtini belgilovchi soat va tanaffuslarni hisoblaydigan soat; soniya hisoblovchi, hech bo'lmaganda bitta o'yin vaqtini belgilovchi soat yoki bitta soniya o'lchagich bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. O'yin bo'limlarini va ular orasidagi tanaffuslarni hisoblashda ishlatiladigan soat hamda tanaffus vaqtini belgilashda ishlatiladigan soniya o'lchagich shunday joylashgan bo'lishi kerakki, ularni ham soniya hisoblovchi, ham kotib aniq va ravshan ko'rib turishlari lozim;

b) 24 soniya qoidasiga rioya qilinishini nazorat qilish uchun barcha o'yinchilar va tomoshabinlarga ko'rinadigan tegishli moslama bo'lishi kerak. Uni 24 soniya vaqtini belgilovchi operator boshqaradi.

v) Xalqaro Basketbol Federatsiyasi tomonidan tasdiqlangan qaydnoma rasmiy hisoblanib, undagi qoidalarga asosan o'yin boshlanishidan oldin va o'yin davomida kotib tomonidan to'ldirib boriladi;

g) Juda bo'lmaganda ushbu qoidalarda ko'zda tutilgan uchta signal uchun moslamalar bo'lishi lozim.

O'yinchilar, tomoshabinlar va kotibga ko'rinadigan qo'shimcha hisob tablochi bo'lishi kerak;

d) 1-raqamdan 5-raqamgacha bo'lgan ko'rsatkichlar kotib ixtiyorida bo'lishi zarur. Har safar u yoki bu o'yinchi fol qilganida, kotib o'yinchi nechanchi fol olganligiga qarab shu raqamli ko'rsatkichni har ikkala murabbiy ko'ra oladigan darajada yuqoriga ko'taradi. Ko'rsatkichlar oq rangda bo'lishi, raqamlari o'lchov bo'yicha 2 sm va eniga 1 sm, hamda 1-dan 4-raqamgacha qora rangda, 5-qizil rangda bo'lishi kerak;

e) Kotib jamoa follarini belgilovchi ikkita ko'rsatkichlar bilan ta'minlangan bo'lishi shart. Ko'rsatkichlar qizil rangda va shunday tayyorlangan bo'lishi kerakki, kotib stoli ustida turganida o'yinchilar, murabbiylar va hakamlar yaqqol ko'rib turishsin;

to'p jamoa o'yinchisi beshinchi fol qilinganidan so'ng o'yinga kirgan vaqtda, ko'rsatkich kotib stoli ustiga, ya'ni o'yinchisi beshinchi fol qilgan jamoa o'rindig'i yaqinidagi chekkaga qo'yilishi kerak;

j) Jamoa follarini belgilash uchun ishlatiladigan munosib moslama.

## **5.2. Jamoalar, o'yinchilar, zahiradagi o'yinchilar, sardor, murabbiylar**

Har bir jamoa murabbiy va ko'pi bilan 10 ta o'yinchidan iborat bo'ladi. O'yinchilardan biri sardor bo'lib hisoblanadi. Har bir jamoa tarkibida murabbiy yordamchisi bo'lishi mumkin. Agar jamoa biron bir turnirda uchtdan ortiq o'yinda ishtirok etadigan bo'lsa, har bir jamoaning o'yinchilari soni 12 tagacha ortishi mumkin. O'yin paytida har ikkala jamoadan beshtadan o'yinchi maydonda bo'lishi kerak. Ular qoidalarga muvofiq almashishlari mumkin.

Agar jamoa a'zosi maydonda bo'lsa, u o'yinchi bo'lib hisoblanadi va o'yinda qatnashish huquqiga ega. Boshqa hollarda u zaxiradagi o'yinchi bo'lib hisoblanadi.

Agar hakam zahiradagi o'yinchiga maydonga tushish uchun ruxsat bersa, unda u o'yinchiga aylanadi.

Har bir o'yinchining ko'krak va orqa tomonida raqami bo'lishi kerak. Bu raqamlar tushunarli va bir xil rangda, maykaning rangidan yaqqol ajralib turishi zarur. Raqamlar aniq ko'rinib turishi lozim: orqadagi raqamlarning balandligi kamida 2 sm, ko'krakdagi raqamlarning balandligi kamida 1 sm bo'lishi shart. Raqamlar uchun ishlatiladigan ashyoning eni 0,2 sm dan kam bo'lmasligi kerak. Jamoalar 4-chidan 15-chigacha bo'lgan raqamlarni ishlatishlari lozim. Bir jamoa o'yinchilari takrorlanadigan raqamli maykani kiyib chiqishlari mumkin emas.

O'yinchining sport kiyimi quyidagilardan iborat:

- bir jamoaning hamma o'yinchilari old va orqa tomonlari bir xil va umumiy rangda bo'lgan maykalarni kiyishlari shart. Yo'l-yo'l maykalarni kiyish man etiladi;

- bir jamoaning hamma o'yinchilari bir xil va umumiy rangda bo'lgan shortik kiyishlari kerak;
- maykalar tagidan kalta yengli maykalar kiyish mumkin. Lekin kalta yengli maykalar kiyilsa, ularning rangi mayka rangiga mos bo'lishi shart;
- kalta shim tagidan pastga chiqib turadigan ichki kiyim kiyilsa, uning rangi kalta shim rangiga mos kelishi kerak.

Sardor zaruriyati tug'ilganda maydonda o'z jamoasining vakili bo'lib hisoblanadi. Bu qoidalarni izohlash bilan bog'liq bo'lgan savollar bo'yicha yoki kerakli ma'lumot olish uchun hakamga murojaat qilish mumkin. Bu narsa xushmuomalalik bilan qilinishi lozim. Sardor biron-bir uzrli sabab bilan maydondan chiqib ketishdan oldin, katta hakamga o'yinchilardan qaysi biri uning o'rniga sardor sifatida qolayotganligini ma'lum qiladi.

Tartib bo'yicha o'yin boshlanishiga hech bo'lmaganda 20 daqiqa qolganida har bir murabbiy kotibga o'yinda qatnashadigan o'yinchilarning familiyalari va raqamlarini, shuningdek jamoa sardori, murabbiyi va murabbiy yordamchisining familiyalarini ma'lum qilishi kerak.

O'yin boshlanishiga 10 daqiqa qolganida murabbiylar o'z o'yinchilarining familiyalari va raqamlarni tasdiqlaydilar va qaydnomaga qo'l qo'yadilar hamda shu vaqtning o'zida o'yinni boshlaydigan 5 ta o'yinchini belgilab qo'yadilar. «A» jamoasi murabbiyi shu ma'lumotni birinchi bildirayotgan bo'lib hisoblanadi.

Agar o'yinchi o'yin jarayonida o'z raqamini o'zgartiradigan bo'lsa, unda bu haqida kotib va katta hakamga ma'lum qilishi zarur.

Bir daqiqalik tanaffuslar haqidagi iltimoslarni murabbiy yoki murabbiy yordamchisi qilishlari mumkin. Agar murabbiy yoki murabbiy yordamchisi o'yinchini almashtirish kerakligi to'g'risida bir qarorga kelsalar, unda zahiradagi o'yinchi shu iltimosni yetkazish uchun kotibga murojaat qilishi kerak va o'yinga darhol tushish uchun tayyor turishi zarur.

Agar jamoada murabbiy yordamchisi mavjud bo'lsa, uning familiyasi o'yin boshlanishidan oldin qaydnomaga yozilgan bo'lishi shart.

Agar murabbiy turli sabablarga ko'ra o'z vazifasini davom ettira olmasa, bunda murabbiy yordamchisi murabbiy vazifasini bajaradi.

Jamoa sardori murabbiydek harakat qilishi mumkin. Agar u biron bir uzrli sabab bilan maydondan chiqib ketishi kerak bo'lsa, unda u murabbiy sifatida harakatini davom ettirishi mumkin. Lekin, agar u qoidani buzganligi tufayli o'yinda qatnashish huquqidan mahrum etilgan bo'lsa yoki og'ir jarohatlanganligi sababli murabbiylik vazifasini bajara olmasa, uning o'rniga sardor sifatida o'yinga tushgan o'yinchi uni murabbiy sifatida ham almashtirish kerak.

### **5.3. Murabbiy va murabbiy yordamchisining stol atrofidagi hakamlar bilan muloqoti**

Murabbiy yoki murabbiy yordamchisi o'yin paytida stol atrofida o'tirgan hakamlar bilan muloqot qila oladigan jamoaning yagona vakili bo'lib hisoblanadi. U istagan paytida, masalan, hisob, vaqt tabloga yoki follar soniga tegishli bo'lgan ma'lumotni olmoqchi bo'lganida hamda bir daqiqali tanaffus olish uchun murojaat qilganida bu ishni qilishi mumkin. Uning hakamlar stoli atrofida o'tirgan hakamlar bilan o'zaro muloqot har vaqt o'yinning bir me'yorda kechishiga xalaqit bermaydigan bo'lishi va osoyishtalik hamda vazminlik bilan o'tishi kerak. Agar murabbiy o'yinchini almashtirmoqchi bo'lsa, u zaxiradagi o'yinchiga almashish to'g'risida kotibga murojaat qilishni taklif etadi. Bu iltimosni aytish uchun murabbiy hakamlar stoli oldiga borishi shart emas.

### **5.4. O'yin holatlari**

O'yin vaqti – «toza» vaqt 40 daqiqa davom etadi. U to'rtta 10 daqiqalik choraklardan iborat. Birinchi va uchinchi choraklardan so'ng 2 daqiqalik tanaffus bo'ladi. Ikkinchi chorakdan keyin 10-15 daqiqalik tanaffus bo'ladi. O'yin natijasi durang bo'lsa, 5 daqiqalik taymlar beriladi.

O'yin soati:

a) bahsli to'pni yuqoriga otib berish vaqtida to'p o'zining eng yuqori nuqtasiga etganidan so'ng, to'p o'yinchilarning biri tomonidan urib yuborilgan paytida, yoki;

b) agar jarima to'pi noaniq tashlangan bo'lsa va maydondagi biron o'yinchi to'pni egallab olgan paytida to'p o'yinda qolishi kerak bo'lsa, yoki;

v) maydondagi biron o'yinchi to'pga tekkan paytda o'yin to'pni maydon tashqarisidan o'yinga kiritish bilan davom ettirilsa, yoqiladi.

O'yin soati:

a) o'yinning har ikkala yarmi yoki qo'shimcha davr oxirida yoki;

b) hakam hushtak chalgan vaqtda yoki;

v) 24 soniya operatorining signali chalingan paytda yoki;

g) agar tanaffus talab qilgan murabbiy jamoasining savatiga to'p tushsa, ammo shu to'p savatga tashlayotgan o'yinchining qo'lidan murabbiy iltimosiga nisbatan keyin chiqib ketgan bo'lsa, to'xtatiladi.

Agar o'yinning ikkinchi yarmi tugagan vaqtda hisob durang bo'lsa, hisobdagi tenglikni buzish maqsadida 5 daqiqalik qo'shimcha davr yoki muvozanat buzilgunga qadar bir necha 5 daqiqalik davrlar belgilanadi. Jamoalar birinchi qo'shimcha davr boshlanishidan oldin qur'a tashlash yo'li bilan savatlarni tanlab oladilar va har bir keyingi qo'shimcha davr boshlanishidan oldin savatlarni almashtiradilar. Har bir qo'shimcha davr orasida 1 daqiqalik tanaffuslar ko'zda tutiladi. Har bir qo'shimcha davr boshida o'yin markaziy doirada bahsli to'p otib berilishi bilan boshlanadi.

O'yin markaziy doirada bahsli to'p tashlab berilishi bilan boshlanadi. Katta hakam ikki raqib o'rtasida to'pni yuqoriga otib beradi. Bu narsa o'yinning ikkinchi yarmi boshlanishida, agar kerak bo'lsa, har bir qo'shimcha davr oldidan ham bajariladi.

Mehmon jamoa savatni va jamoa o'rindig'ini tanlab olish huquqiga ega bo'lishi kerak. Agar o'yin betaraf maydonda o'tkazilayotgan bo'lsa, bu huquqni jamoalar o'zaro qur'a tashlash yo'li bilan aniqlaydilar. O'yinning ikkinchi yarmida jamoalar savatlarini almashadilar. Agar jamoalardan birida o'yinga tayyor beshta o'yinchi maydonda bo'lmasa, o'yin boshlanishi mumkin emas. Agar o'yin boshlanishi vaqtidan 15 daqiqa o'tganidan so'ng qoidani buzayotgan jamoa yo'q bo'lsa yoki maydonga 5 ta o'yinchisini chiqara olmasa, unda bu jamoa o'ynash

huquqidan mahrum qilinganligi sababli mag'lubiyatga uchraydi va g'alaba boshqa jamoaga beriladi.

I-II chorakdan keyin jamoalar hujum qilish tomonlarini almashtiradilar. Qo'shimcha choraklarda hujum qilish tomonlari bilan almashinmaydi. To'rtinchi chorakda qaysi savat tomon hujum bo'lgan bo'lsa, shu tomonga hujum qiladilar.

a) hakam bahsli to'pni otib berish uchun doira ichiga kirgan paytda yoki;

b) hakam jarima to'pi otilishini boshqarish uchun jarima to'pini tashlash maydoniga kirgan paytda, yoki;

v) maydon tashqarisidagi vaziyatda, to'p to'pni o'yinga kiritish joyida turgan o'yinchining ixtiyorida bo'lgan paytda, to'p o'yinga kiritildi deb hisoblanadi.

Agar jonli to'p yuqoridan savatga tushib, uning ichida qolsa yoki undan o'tib pastga tushsa, to'p savatga tushdi deb hisoblanadi. To'p o'yin jarayonida maydondan savatga tushsa, 2 ochko, uch ochko keltiradigan chiziq orqasidan savatga tushsa 3 ochko hisoblanadi.

Jarima to'pi tashlanganda savatga tushgan to'p 1 ochko hisoblanadi. Qaysi jamoa hujum uyushtirib savatga to'p tushirsa, maydondan tashlangan bunday to'p shu jamoa hisobiga yoziladi. Agar to'p pastdan yuqoriga chiqayotib bexosdan savat ichiga kirib qolsa, bu to'p jonsiz hisoblanadi va o'yin to'pni o'yinga galma-gal kiritish qoidasi bilan davom ettiriladi. Lekin agar o'yinchi ataylab to'pni pastdan savatga kiritisa, bu qoidaning buzilishi bo'lib hisoblanadi va raqib o'yin jamoasi tomonidan to'pni qoida buzilgan joyga yaqin bo'lgan maydonning yon chizig'i tashqarisidan o'yinga kiritish bilan davom ettiriladi. Bu bahs to'pi vaziyati sodir bo'lganda bahs to'pi otish o'rniga to'pni maydon tashqarisidan o'yinga kiritib, to'pni jonli qilish usulidir.

O'yin boshlanganida biron jamoa to'pni nazorat qilgan zahoti, to'pni galma-gal o'yinga kiritilishini anglatuvchi strelka to'pni egallab olgan jamoa tomoniga qaratiladi.

Yana bahsli to'p vaziyati sodir bo'lsa, strelkaning uchi qaratilmagan jamoa o'yinchisi shu joy yaqinidagi yon chiziq tashqarisidan to'pni o'yinga kiritadi. To'p

o'yinchining qo'lidan chiqqan zahoti strelka to'p uzatgan o'yinchining jamoasi tarafga qaratiladi.

Zahiradagi o'yinchi maydonga tushishidan oldin almashish haqida kotibga murojaat qilishi va darhol o'yinga kirish uchun tayyor turishi lozim. Kotib to'p jonsiz holatga o'tishi va o'yin soati to'xtatilishi bilan, ammo to'p qaytadan o'yinga kiritilishidan oldin, o'z signalini berishi shart. O'yin qoidasi buzilganidan so'ng qoidani buzmagani jamoa to'pni maydon tashqarisidan to'pni o'yinga kiritishi kerak bo'lsa, faqat shu jamoagina o'z o'yinchisini almashtirishi mumkin. Agar shunday vaziyat yuzaga kelsa, raqib jamoasi ham keyinchalik o'z o'yinchisini almashtirishi mumkin. Zaxiradagi o'yinchi hakam maydonga tushishga ruxsat berguniga qadar maydon chegarasi tashqarisida turishi lozim va ruxsat olinganidan so'ng darhol o'yinga tushishi mumkin. O'yinchilarni almashtirish imkoni boricha tez amalga oshirilishi kerak. Agar hakamning fikricha, biron bir jamoa o'yin vaqtini asossiz cho'zayotgan bo'lsa, qoida buzayotgan jamoa hisobiga tanaffus yozilishi zarur. Bahsli to'p uchun kurashda qatnashadigan o'yinchi boshqa o'yinchi bilan almashtirilishi mumkin emas. Almashtirilgan o'yinchi bir almashtirish davri ichida yana qaytadan maydonga chiqishga haqqi yo'q.

Quyidagi hollarda:

a) agar talab qilib olinadigan tanaffus berilgan yoki fol belgilangan bo'lmasa, maydondan tashlangan to'p savatga tushganidan so'ng;

b) birinchi yoki yagona jarima to'pini tashlash uchun to'p o'yinga kiritilgan paytdan boshlab, to'p o'yin vaqti hisobining ma'lum bir davridan so'ng to'p yana jonsiz holatga o'tmagunicha, fol yoki qoida buzilishi soatda hisob qilishni boshlashdan oldin qayd qilinmagunicha o'yinchilarni almashtirishga ruxsat berilmaydi. Bunday qoidabuzarlik uchun jarima to'pini yoki to'plarni tashlash, galma-gallik qoidasi berish yoki maydonning yon chizig'i tashqarisidan to'pni o'yinga kiritish jazo bo'lib hisoblanadi.

O'yinning birinchi yarmida 2 ta, ikkinchi yarmida 3 ta, shu bilan birga har bir qo'shimcha davrda har bir jamoa bir daqiqali tanaffus olishi mumkin.



Foydalanilmagan 4 daqiqali tanaffus 1 chi chorakda olinmasa, 2 chi chorakka o'tishi mumkin, yoki o'yinchi chorakda olinmagan daqiqalik tanaffus to'rtinchi chorakka o'tishi mumkin, lekin o'yinning birinchi yarmidagi olinmagan tanaffuslar ikkinchi yarmiga o'tmaydi, berilmaydi. O'yin vaqtining har ikkala yarmida har bir jamoaga ikkita talab qilib olinadigan tanaffuslar va qo'shimcha davrning har birida bir marta shunday tanaffus berilishi mumkin. Talab qilib olinmagan tanaffuslar o'yinning keyingi yarmi yoki qo'shimcha davrga ko'chirilishi mumkin emas. Murabbiy va murabbiy yordamchisi talab qilib olinadigan tanaffusni so'rashiga haqqilari bor. Buni ular shaxsan kotibga borib, qoidalarda ko'rsatilgan ishoralar orqali «tanaffus» olishlarini qo'llari bilan ko'rsatishlari lozim. Kotib talab qilingan tanaffus haqidagi iltimosni to'p jonsiz holatga o'tgan paytda, hamda albatta, to'p o'yinga kiritilishidan oldin hakamlarga ma'lum qiladi.

Shuningdek, murabbiy yoki murabbiy yordamchisining talab qilib olinadigan tanaffus haqidagi iltimosidan so'ng, raqib jamoasi maydondan savatga to'p tashlasa, bu iltimos savatga to'p tashlanishidan oldin, ya'ni to'p otayotgan o'yinchining qo'lidan chiqib ketishidan oldin qilingan bo'lsagina, ularga tanaffus berilishi mumkin. Bu holda soniya hisoblovchi o'yin soatini darhol to'xtatishi lozim. Shundan so'ng, kotib o'z signalini chaladi va talab qilib olinadigan tanaffus haqida iltimos bildirilganligini hakamlarga ma'lum qiladi. To'p birinchi yoki yagona jarima to'pi tashlanganidan keyin, o'yinga kirgan paytdagi daqiqadan to'p o'yin vaqti tugab, to'p yana jonsiz holatga o'tmaguncha, quyidagi hollardan tashqari:

a) jarima to'plarini tashlash oralig'ida fol qilingan paytda jarima to'plarini tashlash oxiriga yetkaziladi, tanaffus esa fol uchun yangi jazo berilganda, to'p o'yinga kirishidan oldin olinadi;


b) o'yin soati yurgazilishidan oldin qoida buzilishi qayd qilinsa, bunda bahsli to'p tashlab berish yoki maydonning en chizig'i tashqarisidan to'pni o'yinga kiritish jazo bo'lib hisoblanadi, talab qilib olinadigan tanaffusni olishga ruxsat berilmaydi.

Bir daqiqa davom etadigan tanaffus ushbu shartlarga binoan jamoa hisobiga

yoziyadi. Agar tanaffusga javobgar jamoa talab qilib olingan tanaffus vaqti tamom bo'lmisidan o'yinni boshlashga tayyor bo'lsa, katta hakam darhol o'yinni boshlaydi. Tanaffus vaqtida o'yinchilarga o'yin maydonini tashlab chiqish va jamoa o'rindig'ida o'tirishga ruxsat etiladi.

To'p jonsiz holatga o'tishi va o'yin soati to'xtalishi bilan, ammo to'p o'yinga kiritishdan oldin kotib signal berganidan keyin maydondagi hakam ruxsat berganidagina amalga oshishi mumkin. O'yinchilarni almashtirish ikkala jamoani xohlagan paytida amalga oshiriladi.

Jarima to'pini otish belgilanganda, o'yinchilar jarima to'pi otiladigan savat



tagidagi 3 soniyali maydoncha atrofida quyidagi tartibda joylashishlari shart. Uch soniyali zonani, ya'ni trapesiyani shchitga yaqin tomonidagi ikkala birinchi joyni himoyachilar egallaydilar, betaraf zonada hech kim turmaydi. Betaraf zonadan keyingi ikkinchi joyni

hujumchilar egallaydilar, undan keyingi uchinchi joylardan birini bitta himoyachi egallashi kerak.

Hammasi bo'lib 3 soniyali zona atrofida oltita o'yinchi joylashishi kerak. Qolgan o'yinchilar orqa tomonda joylashadilar.

O'yin natijasi o'yin davomida to'plangan eng ko'p ochkolar soniga qarab aniqlanadi.

**3 soniya qoidasi.** To'pni nazorat qilayotgan jamoa o'yinchisi to'p bilan yoki to'psiz bo'lishidan qat'iy nazar raqib jamoaning trapetsiya shaklidagi chegaralangan zonasida qatorasiga 3 soniyadan ortiq turishi mumkin emas.

Uch soniyali zonani chegaralab turgan chiziqlar shu zonaning qismi bo'lib hisoblanadi. Shu chiziqlarning birini bosib turgan o'yinchi zona ichida turgandek hisoblanadi.

**5 soniya qoidasi.** To'pni egallab turgan hamda raqib tomonidan yaqindan ta'qib qilinayotgan o'yinchi, to'pni sheriklariga 5 soniya ichida uzatmasa, savatga otmasa, yumalatmasa yoki olib yurmasa, qoida buzilgan hisoblanadi. Maydon tashqarisidan to'pni o'yinga kiritishga hamda jarima to'pini otishga ham 5 soniya

vaqt beriladi.

Agar qoida buzilsa, to'p qoida buzilgan joyga yaqin bo'lgan yon chiziq tashqarisidan o'yinga kiritiladi.

**8 soniya qoidasi.** Agar o'yinchi o'zining orqa zonasida jonli to'p ustidan nazorat o'rnatsa, uning jamoasi 8 soniya ichida to'pni o'zining old zonasiga albatta o'tkazishi kerak (agar raqib o'yinchisi to'pni maydon tashqarisiga urib chiqarsa, u holda 8 soniya boshidan sanaladi, 24 soniyali vaqt esa davom etaveradi.).

Agar to'p old zonada turgan sherigiga yoki old zonaga tegsa, to'p jamoaning old zonasiga o'tgan hisoblanadi. Qoida buzilganda to'p qoida buzilgan joy yaqinidagi yon (en) chiziq tashqarisidan o'yinga kiritish uchun raqib jamoasiga beriladi.

**24 soniya qoidasi.** Agar o'yinchi maydonda jonli to'p ustidan nazorat o'rnatsa, uning jamoasi 24 soniya ichida raqibi savati tomon to'p otishi kerak. Ushbu qoidaga rioya qilmaslik qoidaning buzilishi hisoblanadi.

### **5.5. Qoidalarga rioya qilmaslik va jazo**

Qoida buzilishi - bu qoidalarga rioya qilmaslikdir. Bunda qoidani buzgan jamoa tomonidan to'pning yo'qotilishi jazo bo'lib hisoblanadi.

Fol - bu qoidalarga rioya qilmaslik. U qoidani buzgan o'yinchi nomiga yoziladigan va qoidaning moddalari shartlariga muvofiq munosib darajada jazolanadigan raqib bilan shaxsiy muloqotni yoki sportchilarga zid bo'lgan xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi.

**Shaxsiy fol** - bu to'p o'yinda jonli yoki jonsiz bo'lishi yoki bo'lmasligidan qat'iy nazar, raqib bilan to'qnashuvni sodir qilgan o'yinchiga berilgan foldir.

O'yinchi qo'llari, elkalari, sonlari va tizzalarini qo'yib, o'z tanasini odatdagidan tashqari holatda bukib, raqibning harakatlanishiga xalaqit berishi, to'qnashishi, oyog'idan chalishi, itarishi, oyog'idan ushlab qolishi, yo'lini to'sishi hamda qanday bo'lsa ham qo'pol taktika qo'llashi mumkin emas.

**Ikki tomonlama fol** – ikkita raqib o'yinchi bir vaqtning o'zida bir-biriga qarshi fol sodir qilgan vaziyatda belgilanadi.

**Texnik fol** o'yinchilarga, zahiradagilarga, murabbiyga va uning yordamchisiga berilishi mumkin. Agar o'yinchi hakamlar ko'rsatmalarini mensimasa yoki sportchilarga xos bo'lmagan "taktika" qo'llasa texnik fol beriladi.

**Ataylab qilingan fol** – hakamning fikricha, o'yinchi tomonidan to'p bilan yoki to'psiz harakatlanayotgan raqibiga nisbatan qasddan qilingan shaxsiy foldir. Bu qilingan hatto-harakatning jiddiyligi bilan belgilanmaydi, balki oldindan o'ylangan yoki mo'ljallangandek ko'rinadigan to'qnashuv bo'lib hisoblanadi. Ataylab qilingan follarni takrorlagan o'yinchi o'yinda qatnashish huquqidan mahrum qilinishi mumkin.

**O'yinda qatnashish huquqidan mahrum (diskvalifikatsiya) qilinadigan fol.** Shaxsiy va texnik follarda qayd qilinganlarga sportchilarga xos bo'lmagan darajada rioya qilmaslik – o'yinda qatnashish huquqidan mahrum qiladigan fol (diskvalifikatsiya foli) hisoblanadi. Ikkita jarima to'pi tashlanadi hamda to'p "zona chizig'i"dan jarima to'pi otgan jamoa o'yinchisi tomonidan o'yinga kiritiladi.

**Jarima to'plarini otish bilan jazolanadigan fol.** Hakam fol bo'lganligini qayd qilganda, agar bu fol uchun jarima chizig'idan savatga to'p (to'plar) otish bilan aybdor jamoni jazolash lozim bo'lsa, u barmoqlari bilan aybdor jamoaning jarima chizig'ini ko'rsatadi.








Jamoaning to'rtta foli. Har bir jamoa o'yinchisining yoki o'yinchilarining olgan follarini soni 4 ta bo'lsa, bundan keyingi oladigan follari uchun jarima chizig'idan 2 ta jarima to'pi otish imkoniyati raqib jamoasiga beriladi. Har bir chorakda jamoani 4 ta foli alohida-alohida hisoblanadi.




## 5.6. Hakamlar







Hakamlar deyilganda katta hakam va hakam tushuniladi. Ularga soniya hisoblovchi, kotib va 24 soniya operatori yordam beradilar. Shuningdek, texnik komissar ham qatnashishi mumkin.



### Hakamlarning imo-ishoralari

1. Ikki ochko (bir ochko - bir	2. 3 ochkoli to'p tashlashga urinish	3. Muvaffaqiyatli bajarilgan 3 ochkoli
-----------------------------------	---	---

<p>barmoq)</p>  <p>Panja harakati orqali ko'tarish va tushirish</p>	 <p>3 barmoq ko'rsatiladi (katta, ko'rsatkich, o'rta)</p>	<p>to'p</p>  <p>3 barmoq ko'rsatiladi (katta, ko'rsatkich, o'rta)</p>
<p>4. Tashlangan to'p hisoblanmaydi, o'yin harakati hisoblanmaydi</p>  <p>Gavda oldida qo'llarni yozish</p>	<p>5. Soatni to'xtatish yoki o'yin soatini ishga solmaslik</p>  <p>Kaft ko'tariladi, barmoqlar birga</p>	<p>6. O'yin vaqti ishga tushirilsin</p>  <p>Ochiq kaftli qo'l bilan yuqoriga va pastga harakatlantirish</p>
<p>7. O'yinchini almashtirish</p>  <p>Ko'krak oldida qo'llarni chalishtirish</p>	<p>8. O'yinda talab qilib olingan tanaffus</p>  <p>Kaft va barmoq "t" hosil qiladi</p>	<p>9. To'p bilan harakatlanayotganda qoida buzilishi</p>   <p>Ikkala qo'l mushtini o'zaro aylantirish</p>
<p>10. To'pni noto'g'ri olib yurish</p>	<p>11. 3 soniya qoidasining buzilishi</p>	<p>12. To'pni ushlab qolish</p>

 <p>Qo'llarni tepaga- pastga harakatlantirish</p>	 <p>Qo'lni oysimon harakatlantirish</p>	 <p>Kaftni oldinga yarim doira shaklida aylantirish</p>
--	--	--

<p>13. 5 soniya yoki 10 soniya qoidasining buzilishi</p>  <p>10 soniya uchun 2 qo'l ishlatiladi</p>	<p>14. To'pning orqa zonaga qaytarilishi</p>  <p>Barmoqni burib ko'rsatish</p>	<p>15. Oyoq bilan ataylab o'ynash</p>  <p>Barmoq bilan oyoq ko'rsatiladi</p>
<p>16. 30 soniya qoidasining buzilishi</p>  <p>Barmoqlar yelkaga tegadi</p>	<p>17. 30 soniyani yangidan hisoblash</p>  <p>Barmoqni aylantirish</p>	<p>18. Bahsli to'p</p>  <p>Katta barmoqlar ko'tariladi</p>

<p>19. Fol paytida soatlarni to'xtatish</p>  <p>Qo'l musht qilib siqilgan, kaft bel darajasida qoida buzgan o'yinchi tomonga yo'naltirilgan</p>	<p>20. Jarima to'plarisiz belgilangan shaxsiy fol</p>  <p>Barmoq yon chiziq tomonni ko'rsatadi</p>	<p>21. Qoida buzuvchini belgilash uchun</p>  <p>O'yinchi raqamini ko'rsatish</p>
<p>22. Ushlab qolish</p>  <p>Bilakni siqib ushlash</p>	<p>23. To'psiz itarib yuborish yoki to'qnashish</p>  <p>Itarib yuborishni imo-ishora bilan ko'rsatish</p>	<p>24. Qo'llar bilan noto'g'ri o'ynash</p>  <p>Panja bilan bilakni urish</p>
<p>25. Qurshab olish (hujumda va himoyada)</p> 	<p>26. Tirsaklarni haddan tashqari yozib yuborish</p>  <p>Tirsaklarni yonga va</p>	<p>27. To'pli o'yinchining raqib bilan to'qnashishi (zo'ravonlik qilib o'tish)</p> 

Ikkala qo'l bilan	orqaga harakatlantirish	Ochiq kaftga musht bilan urish
-------------------	----------------------------	-----------------------------------

### **5.7. Musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazish. Musobaqalarning ahamiyati**

Sport musobaqalari sportchilarning malakalarini oshirishda katta ahamiyatga ega. Ular jismoniy, texnik, taktik, ruhiy, funksional tayyorgarliklarni aniqlashga va takomillashtirishga yordam beradi hamda qilinayotgan mehnatni natijasini ko'rsatadi.

To'g'ri va yaxshi tashkil qilingan musobaqalar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega, chunki musobaqalar faqat jismoniy sifatlargagina (kuchlilik, chidamlilik, tezkorlik va egiluvchanlik) emas, balki ruhiy-psixologik sifatlarga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Musobaqa davrida sportchilarning tashkilotchilik, o'zini tuta bilishlik, jamoa maqsadini o'z maqsadidan yuqori qo'ya olishlik kabi yana bir qancha sifatlari ham takomillashadi.

Musobaqalarda qatnashuvchilar avvalombor, tajriba almashadilar, murabbiylar esa yangi trenirovka usullarini sinovdan o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, sport musobaqalari sport turlarini targ'ib qilishning eng yaxshi va hammabop shakllaridan hisoblanadi.

### **5.8. Musobaqalarning turlari**

Musobaqalar qo'yilgan vazifalargagina qarab: birinchiliklar yoki chempionatlar, kubok musobaqalari, qisqartirilgan, baravarlantirilgan, klassifikasiya va saralash musobaqalari, match va o'rtoqlik uchrashuvlar kabi turlarga bo'linadi.

**Birinchiliklar yoki chempionatlar** eng katta musobaqalardan bo'lib, ularda kollektiv, tuman, shahar, respublika chempioni degan faxriy unvon beriladi. Ular yilda bir marta o'tkaziladi. Birinchilik g'oliblari oltin, kumush va bronza medallari bilan mukofotlanadilar.



**Kubok musobaqalari** “yutkazgan chiqib ketish” prinsipida o'tkaziladi. Bu musobaqalar ko'p vaqt talab qilmaydi va ko'p qatnashuvchilarni jalb qilish imkonini beradi.

**Qisqartirilgan musobaqalar** (blis turnirlar)da ko'p jamoalar qatnashganlari holda bir kunda o'tkaziladi. Buning uchun o'yin vaqti 30 daqiqagacha qisqartiriladi. Bunday musobaqalar mavsumning ochilishiga yoki bayramlarga bag'ishlab o'tkaziladi.

**Baravarlashtirilgan musobaqalar** tayyorgarligi har xil bo'lgan jamoalar orasida o'tkaziladi. Jamoalarning qiziqishini saqlab qolish uchun kuchsizroq jamoaga oldindan yoki uchrashuv tamom bo'lgandan so'ng qo'shimcha ochkolar beriladi.

**Klassifikatsiya musobaqalari** jamoalarning (o'yinchilarning) tayyorgarligini aniqlash, sport klassifikasiyasining razryad talablarini bajarish maqsadida o'tkaziladi.

**Saralash musobaqalari** tayyorgarligi eng yaxshi jamoalarni (o'yinchilarni) aniqlab, keyingi yirik musobaqalarda qatnashtirish uchun o'tkaziladi.

**Match uchrashuvlari** musobaqalar kalendarida ko'zda tutilgan va an'anaviy hisoblanadi. Uchrashuvlarda ikki va undan ortiq jamoalar qatnashishi mumkin. Musobaqalarning bunday turlari alohida shaharlar, viloyatlar hamda chet davlatlar orasida do'stlik munosabatlarining rivojlanishiga yordam beradi.

**O'rtoqlik uchrashuvlari** bo'lajak musobaqalarga va sport trenirovkasining ba'zi bir bo'limlari bo'yicha tayyorgarlikni aniqlash maqsadida ayrim jamoalar o'rtasida o'tkaziladi.

## **5.9. Musobaqa o'tkazish tizimlari**

Musobaqa paytida hamma jamoalarga g'alaba uchun kurashishga bir xil sharoit yaratib berish va g'oliblarni haqiqiy natijalar asosida aniqlash kerak.

Musobaqalarni o'tkazish tizimlari har xil bo'lishi mumkin. Lekin u yoki bu tizimlarni tanlashda quyidagi sharoitlarni hisobga olish lozim:

- a) musobaqa oldida turgan vazifalarni ;

- b) musobaqa o'tkazish sharoitlarini;
- v) qatnashuvchi jamoalarning sonini;
- g) o'tkazilayotgan musobaqaning turlarini;
- d) qatnashuvchilarning sport tayyorgarligi va ishlab chiqarishda bandligini;
- e) musobaqa o'tkazish joylarining bandligi, soni va hududiy joylashuvini.

Umuman olganda sport o'yinlari musobaqalarini O'tkazish amaliyotida asosan ikkita (chiqib ketish va aylanma) tizim qo'llaniladi.

Bu ikki tizimning qo'shilishi natijasida uchinchi – aralash tizim paydo bo'ladi.

**Chiqib ketish tizimi bo'yicha musobaqalar o'tkazish.** Bu tizim bo'yicha musobaqalar o'tkazilganda uchrashuvda yutqazgan jamoa keyingi uchrashuvlarda qatnashmaydi. Natijada musobaqa oxirida biror marta ham yutqazmagan jamoa qoladi. Ana shu jamoa g'olib hisoblanadi. Oxirgi (final) uchrashuvda g'olib jamoaga yutqazgan jamoa ikkinchi hisoblanadi. Bu sistemaning afzalligi shundaki, agar 64 jamoa bilan aylanma tizim bo'yicha musobaqao'tkazish uchun 63 kalendar kuni talab qilinadigan bo'lsa, chiqib ketish tizimi bo'yicha esa faqat 6 kalendar kunining o'zi kifoya. Lekin u bir qator kamchiliklarga ham ega. Bu tizim barcha jamoalarning haqiqiy o'yinlarini aniqlash imkonini bermaydi va shu usul qo'llanilganda aksariyat jamoalar juda kam uchrashuvlarda qatnashadi.

Birorta kuchli jamoa birinchi kunning o'zida mag'lubiyatga uchrab, musobaqalardan chiqib ketishi mumkin. Chiqib ketish tizimi bo'yicha o'tkazilgan musobaqalarda hamma uchrashuvlar biror jamoaning g'alabasi bilan tugallanishi lozim.

**Aylanma tizim.** Musobaqalar aylanma tizimida o'tkazilganda hamma jamoalar bir-birlari bilan bir, ikki yoki undan ham ko'proq uchrashib chiqishlari mumkin. Pirovardida butun musobaqa davomida eng ko'p ochko to'plagan jamoa g'olib chiqadi.

Aylanma tizim eng takomillashgan tizim hisoblanadi. Chunki u faqat birinchi o'rinni egallagan jamoanigina aniqlab qolmay, balki musobaqada qatnashayotgan hamma jamoalarning tayyorgarligiga qarab munosib o'rinlarni aniqlab beradi. Bu

tizim qatnashuvchilardan katta tayyorgarlikni va basketbolchilarning butun musobaqa davrida yuqori sport formasida bo'lishlarini talab qiladi. Aylanma tizimining salbiy tomoni – musobaqa o'tqazish uchun ko'p vaqt talab qilishidir. Vaqtdan yutish uchun jamoalarni bir nechta guruhlariga bo'lish mumkin.

**Aralash tizimi.** Musobaqalarni aralash tizimida o'tkazilganda uchrashuvlarning bir qismi aylanma, ikkinchi qismi esa chiqib ketish tizimida o'tkaziladi. Bu usul musobaqalarda qatnashayotgan jamoalar soni ko'p hamda ular bir birlaridan hududiy jihatdan uzoqda joylashganda qo'llaniladi. Bunda hamma jamoalar zonalarga va guruhlariga bo'linadi. Musobaqalar zonalarda va guruhlarda chiqib ketish bo'yicha o'tkazilsa, final musobaqalari esa aylanma tizimi bo'yicha o'tkazilishi mumkin va aksincha.

### **5.10. Musobaqa nizomi**

Musobaqalarni yuqori saviyada o'tkazish ularni tayyorlash darajasi qanday bo'lganligiga bevosita bog'liqdir. Tayyorgarlik ishlariga hujjatlarni tayyorlash (ishlab chiqish), musobaqa o'tkaziladigan joylarni tayyorlash, qatnashuvchi jamoalar bilan ish olib borish va shu kabilar kiradi. Har bir musobaqaga tayyorgarlik unga nizom tuzish bilan boshlanadi. Nizom musobaqa o'tkazishda asosiy hujjat bo'lib hisoblanadi. U yoki bu tashkilot Nizomni oldindan aniq bilishi, unga o'quv-trenirovka ishlarini to'g'ri rejalashtirishiga yordam beradi. Shuning uchun Nizomni o'z vaqtida qatnashuvchi tashkilotlarga oldindan yuborishlari o'ta zarur.

Nizom musobaqani o'tkazuvchi sport tashkiloti tomonidan tuziladi, hamda quyidagilarni ifodalaydi:

1. Musobaqaning maqsadi va vazifalari. Ular quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:
  - a) o'quv-trenirovka ishlarining yakunini tekshirish;
  - b) basketbolchilarning tayyorgarligini tekshirish va kuchlilarni aniqlash;
  - v) sportchilarning sistemali ravishda trenirovka qilishga va sport mahoratlarini oshirishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish;

g) basketbol o'yinini omma o'rtasida keng yoyish va boshqalar.

2. Musobaqalarni o'tkazish joyi va vaqti. Musobaqa o'tkaziladigan shahar (baza) ko'rsatiladi va kunlari belgilanadi.

3. Musobaqani boshqarish. Musobaqani tashkil qiluvchilar qaysi tashkilotligi, rahbarlari, hakamlar hay'ati va ularni tasdiqlovchi tashkilot ko'rsatiladi;

4. Musobaqalarda qatnashuvchi tashkilotlar va sportchilar. Musobaqada qatnashuvchi jamoalar soni va nomi ko'rsatiladi; talabnoma (zayavka)ga kiritiladigan qatnashuvchilarning ko'pi bilan qancha bo'lishligi, ya'ni soni, yoshi va ularni malakasi belgilanadi.

5. Musobaqalarni o'tkazish shartlari. Qur'a tashlash vaqti, joyi va uning asosiy prinsiplari (tamoyillari) ma'lum qilinadi. Musobaqa qaysi o'yin sistemasi (aylanma, chiqib ketish, aralash) bo'yicha o'tkazilishi ko'rsatiladi.

6. Norozilik (protest)larni taqdim etish shartlari va ularni ko'rib chiqish tartibi.

7. Jamoalarni va qatnashuvchilarni mukofotlash. G'olib jamoa va sovrindorlarni mukofotlash, estaliklar taqdim qilish ko'rsatiladi.

8. Jamoalarni qabul qilib olish. Agar musobaqalar sportchilarning doimiy turar joylarida o'tkazilmasa, u holda mablag' ajratuvchi tashkilot, kelish va ketish muddatlari, joylashtirish hamda ovqatlantirish qanday tashkil etilishi ko'rsatiladi.

9. Talabnoma (zayavka)ni va qayta talabnomani taqdim etish turlari va vaqti, jamoalar va qatnashuvchilarni rasmiylashtirish (pasport, reyting daftarchasi, klassifikasiya bileti, talabalik guvohnomasini taqdim qilish) tartibi.

**“TASDIQLAYMAN”**  
**O`zbekiston basketbol fedaratsiyasi**  
**bosh kotibi**

.....  
“ ” \_\_\_\_\_ 2019 yil

**“KELISHILGAN”**  
**O`zbekiston Respublikasi**  
**Jismoniy tarbiya va sport vazirining**  
**birinchi o`rinbosari**

.....  
“ ” \_\_\_\_\_ 2019 yil

**Sportning basketbol turi bo`yicha ayollar o`rtasida oily liga (2-tur)**  
**O`zbekiston chempionati**

**NIZOMI**

## **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Musobaqa Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlarda basketbol sport turi bo'yicha jamoalar o'rtasida o'tkaziladi.

2. Musobaqa xalqaro basketbol federatsiyasi tomonidan o'rnatilgan qoidalariga va O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan musobaqa qoidalariga ko'ra o'tkaziladi va hakamlar hay'ati tomonidan baholanadi. Musobaqani o'tkazish uchun hakamlar hay'ati tarkibi O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi va tashkilotchilar tomonidan tasdiqlanadi.

## **2-bob. Musobaqaning maqsad va vazifalar**

3. Musobaqaning maqsadi quyidagilardan iborat:

Xalqaro sport musobaqalarida munosib ishtirok etuvchi kuchli va iqtidorli sportchilarni aniqlash;

Respublikamizda basketbolni ommaviylikini yanada oshirish;

Olimpiada, jahon va Osiyo chempionatlari hamda xalqaro musobaqalarda vatanimiz, xalqimiz g'ururi va sha'nini munosib himoya qiladigan sportchilarni tayyorlash.

4. Musobaqaning vazifalari quyidagilardan iborat:

basketbol sport turi bo'yicha milliy terma jamoalari uchun seleksiya va saralash ishlarini o'tkazish;

basketbol sport turi bo'yicha professional sportchi, trener va hakam kasblari malaka talablariga javob beradigan oliy toifali sport mutaxassislarini tayyorlash;

basketbol sport turi bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoa sport zahirasi tarkibini yuqori malakali sportchilar bilan ta'minlash.

## **3-bob. Musobaqani o'tkazishga rahbarlik**

5. O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi umumiy rahbarlik qiladi.

6. Musobaqani tashkillashtirish, tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bevosita Sport o'yinlari bo'yicha ROSMM, O'zbekiston basketbol federatsiyasi hamda federatsiya tomonidan tayinlangan hakamlar hay'ati tarkibining zimmasiga yuklatiladi.

#### **4-bob. Musobaqani o`tkazish joyi va muddati**

7. O`zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligining 2019 yilgi sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari kalendar rejasiga muvofiq ayollar o`rtasida O`zbekiston milliy chempionati 2019 yilning 26.11–01.12 kunlari Jizzah shahri Ixtisoslashtirilgan olimpiya zahiralari maktab internati sport zalida o`tkaziladi.

#### **5-bob. Musobaqada ishtirok etish shartlari**

8. Musobaqada ishtirok etuvchi Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar jamoa sportchilari tarkibi xalqaro basketbol federasiyasi tomonidan o`rnatilgan va O`zbekiston Respublikasida amalda bo`lgan musobaqa qoidalariga asosan musobaqa tashkilotchilari tomonidan belgilanadi.

9. Barcha ishtirokchilar musobaqada ishtirok etishlari – ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi.

#### **6-bob. Musobaqa dasturi**

10. Musobaqaning o`tkazilishini O`zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirining buyrug`i bilan tasdiqlangan musobaqaning bosh hakami zimmasiga yuklatiladi.

11. Musobaqa hakamlarining vazifalari xalqaro basketbol federasiyasi qoidalari asosida belgilanadi.

12. Musobaqa dasturi mazkur Nizom 1-ilovasiga, hakamlar hay`atining soni 2-ilovasiga, muvofiq belgilanadi.

13. Musobaqa nizomining tegishli bandlariga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish jamoalar ro`yxatdan o`tkazilgandan so`ng musobaqa ishtirokchilariga ma`lum qilinadi.

#### **7-bob. Musobaqaning hakamlar tarkibi**

14. Musobaqalarni o`tkazish basketbol federasiyasi tomonidan taqdim etilgan hakamlar hay`ati royxati asosida O`zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligining buyrug`i bilan tasdiqlangan musobaqaning hakamlar hay`ati zimmasiga yuklatiladi.

#### **8-bob. Musobaqa shartlari va g`oliblarni aniqlash**

15. Musobaqalar shartlari xalqaro basketbol federasiyasi tomonidan o`rnatilgan qoidalarga va O`zbekistonda Respublikasida amalda bo`lgan musobaqa qoidalariga asosan musobaqalarni bevosita tashkil etish va o`tkazishga javobgar bo`lgan tashkilotchilar tomonidan belgilanadi.

16. Musobaqa g`olib va sovrindorlari xalqaro basketbol federasiyasi tomonidan o`rnatilgan qoidalarga va O`zbekiston Respublikasida amal qilgan sport turlari bo`yicha musobaqa qoidalariga asosan Jismoniy tarbiya va sport vazirining buyrug`i bilan tasdiqlangan musobaqaning Bosh hakami va hay`ati tomonidan aniqlanadi

### **9-bob. Musobaqani moliyalashtirish**

17. Musobaqada ishtirok etuvchi hakamlarning ovqatlantirish harajatlari Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, hakamlarning yo`l kira hamda yotoqxona harajatlari, musobaqada ishtirok etuvchi barcha trener va sportchilarning yo`l kira, yotoqxona, ovqatlantirish harajatlari viloyat Jismoniy tarbiya va sport boshqarmalari, homiylar va safarga yuboruvchi tashkilotlar mablag`lari hisobidan amalga oshiriladi.

### **10-bob. Talabnomalarni taqdim etish va ro`yxatdan o`tish**

18. Musobaqaga kelish kuni talabnomalarning asl nusxasi musobaqada ishtirok etuvchi jamoa vakili tomonidan mandat komissiyasiga taqdim etiladi.

19. Musobaqa ishtirokchilari hakamlar hay`atiga quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari talab etiladi:

shaxsini tasdiqlovchi hujjat (pasport);

tibbiy ko`rikdan o`tganligini tasdiqlovchi hujjat (vrach imzosi va muhri bilan);

musobaqa ishtirokchilarining ro`yxati (musobaqaga yuboruvchi tashkilot rahbari tomonidan imzolagan va muhrlangan).

### **11-bob. Musobaqa natijalari yuzasidan berilgan murojaatlarni ko`rib chiqish**

20. Musobaqa natijalari bo`yicha berilgan murojaatlarni ko`rib chiqish uchun federasiyaning buyrug`u bilan tasdiqlangan apellyasiya komissiyasi tashkil



etiladi. Apellyasiya komissiyasi musobaqa hakamlari va mandat komissiyasi tarkibida bo`lmagan soha mutaxassislaridan shakllantirilishi talab etiladi.

21. Apellyasiya komissiyasining tarkibi 3 kishidan kam bo`lmagan toq sondan iborat tarkibda tasdiqlanadi. Apellyasiya komissiyasi tarkibining maksimal miqdori chegaralanmaydi.

22. Musobaqa natijasi bo`yicha murojaatlar sportchining treneri tomonidan beriladi.

23. Murojaatlar ular kelib tushgan paytdan boshlab xalqaro basketbol federasiyasining talablaridan kelib chiqib qancha vaqt ichida apellyasiya komissiyasi tomonidan ko`rib chiqilishi va u yuzasidan tegishli qaror qabul qilinishi belgilanadi.

24. Murojaatni ko`rib chiqish vaqtida murojaat qilgan trener apellyasiya komissiyasi ishida o`zining iltimosiga asosan ishtirok etishi mumkin.

25. Qabul qilingan qaror natijasi bo`yicha apellyasiya komissiyasiga murojaat qilgan trenerga olti ish kuni ichida apellyasiya komissiyasi tomonidan yozma tartibda javob berilishi ma`lum qilinadi.

26. Apellyasiya komissiyasi murojaatni ko`rib chiqish natijalariga ko`ra musobaqa natijasini bekor qilishi yoki unga tegishli o`zgartirish kiritishi mumkin.

27. Apellyasiya komissiyasining murojaatni ko`rib chiqish natijalari bo`yicha qabul qilgan qarori yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

### **11-bob. Musobaqaning qo`shimcha talab va shartlari**

28. Musobaqaning tantanali ochilish va yopilish tadbirlarida jamoalar sport formasida bo`lishlari talab etiladi.

29. Musobaqa tashkilotchilari tomonidan belgilangan talablar va musobaqa jarayonida axloqiy qoidalar ishtirokchilar tomonidan buzilgan taqdirda, mazkur holat bo`yicha hujjatlar Sport o`yinlari bo`yicha ROSMM, O`zbekiston basketbol federasiyasi hamda federasiya muhokamasiga taqdim etiladi.

30. Musobaqalar hisoboti nusxasi musobaqalar tugagandan so`ng 3 kun mobaynida Jismoniy tarbiya va sport vazirligiga topshiriladi.

**Sport o`yinlari bo`yicha ROSMM direktori**  
**Basketbol bo`yicha O`zbekiston ayollar terma**  
**jamoasi bosh treneri**

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

Basketbol sport turi bo`yicha  
2019 yil 26.11-01.12 da  
o`tkaziladigan respublika musobaqasi  
Nizomiga ILOVA

### **Musobaqa dasturi**

<b>26 noyabr</b>	
9:00	Hakamlar, trenerlar va vakillar uchun yig`ilish
10:00	Mandat komissiyasi faoliyati
<b>27 noyabr</b>	
10:00	1-o`yin
11:30	2-o`yin
13:00	3-o`yin
<b>28 noyabr</b>	
10:00	1-o`yin
11:30	2-o`yin
13:00	3-o`yin
<b>29 noyabr</b>	
10:00	1-o`yin
11:30	2-o`yin
13:00	3-o`yin
<b>30 noyabr</b>	
10:00	1-o`yin
11:30	2-o`yin
13:00	3-o`yin
<b>1 dekabr</b>	
10:00	1-o`yin
11:30	2-o`yin
13:00	3-o`yin
14:30	Musobaqa yakuni natijalari sarhisobi
14:45	Hududlardan keladigan jamoalarni kuzatish

**Basketbol bo`yicha ayollar o`rtasida O`zbekiston chempionati oily liga  
(2-tur) musobaqasida xizmat quluvchi hakamlar**

**RO`YXATI**

\_\_\_\_\_ shahar. 26.11 – 01.12.2019 yil.

<b>№</b>	<b>F.I.SH</b>	<b>Lavozimi</b>	<b>Shahar</b>	<b>Ish joyi</b>
1		Bosh hakam		
2		Bosh hakam o`rinbosari		
3		Kotib		
4		Hakam		
5		Hakam		
6		Hakam		
7		Hakam		

**“TASDIQLAYMAN”**

..... viloyati Jismoniy tarbiya va sport  
boshqarmasi boshlig`i

“ \_\_\_\_\_ ” .....  
\_\_\_\_\_ 20\_\_ yil

**2020 yil 4 - 9 mart kunlari ..... shahrida basketbol bo`yicha ayollar o`rtasida  
O`zbekiston chempionatida ishtirok etish uchun ..... viloyati jamoasidan**

**TALABNOMA**

<b>№</b>	<b>F.I.Sh.</b>	<b>Tug`ilgan kun, oy, yili</b>	<b>Millati</b>	<b>Sport razryadi</b>	<b>Sport jamiyati, tashkiloti</b>	<b>Murabbiyning F.I.Sh</b>	<b>Ish, o`qish joyi</b>	<b>Shifokor xulosasi</b>
1		25.07.2001 y	O`zbek	SU	IOZBUSM		BDU 1-bosqich	
2								
3								
4								
5								
6								
7								
8								
9								
10								
11								
12								
13								
14								
15								
16								
17								
18								

**Trener \_\_\_\_\_ ..... nafar sportchiga ruxsat berildi, shifokor \_\_\_\_\_ .....**

## NATIJAR JADVALI

Ayollar o`rtasida oliy liga basketbol bo`yicha O`zbekiston chempionatining 3 tur musobaqalari

4 – 9.03. 2020 yil.

sh. ....

№	Jamoalar	1	2	3	4	5	6	2 tur ochkolari	3 tur ochkolari	Jami ochkolar	O`rin
1											
2											
3											
4											
5											
6											

Bosh hakam \_\_\_\_\_

Kotib \_\_\_\_\_

Oliy liga ayollar o`rtasidagi basketbol bo`yicha  
O`zbekiston chempionatining 3 tur o`yinlari

JADVALI

4 – 9.03. 2020 yil.

sh.....

1. AGMK (Olmaliq)
2. Andijon
3. FSK «So`g`diyona» (Navoi)
4. «Molodejka» (Nukus)
5. Nukus
6. Namangan

**5.03.2020 yil.**

13 <sup>00</sup>	Nukus	- Andijon
14 <sup>30</sup>	FSK «So`g`diyona»	- «Molodejka»
16 <sup>00</sup>	AGMK	- Namangan

**6.03.2020 yil.**

13 <sup>00</sup>	Andijon	- Namangan
14 <sup>30</sup>	AGMK	- FSK «So`g`diyona»
16 <sup>00</sup>	Nukus	- «Molodejka»

**7.03.2020 yil.**

13 <sup>00</sup>	«Molodejka»	- Namangan
14 <sup>30</sup>	AGMK	- Andijon
16 <sup>00</sup>	Nukus	- FSK «So`g`diyona»

**8.03.2020 yil.**

10 <sup>00</sup>	Nukus	- Namangan
11 <sup>30</sup>	AGMK	- «Molodejka»
13 <sup>00</sup>	Andijon	- FSK «So`g`diyona»

**9.03.2020 yil.**

9 <sup>00</sup>	«Molodejka»	- Andijon
10 <sup>30</sup>	FSK «So`g`diyona»	- Namangan
12 <sup>00</sup>	AGMK	- Nukus

**Musobaqaning bosh hakami:** \_\_\_\_\_

### **Mavzuga oid nazorat savollari**

1. Maydon, to‘r, antena va to‘pning o‘lchamlari.
2. O‘yin usullarini ijro etishdagi xatolar.
3. Hisobni olib borilishi, partiyalarda va partiyalar oralig‘ida beriladigan tanaffuslar.
4. Hakamlarning vazifalari va ular tomonidan xatolarni imo-ishora bilan ko‘rsatilishi.
5. Musobaqa Nizomi va uni tashkil qilish tartibi.
6. Musobaqani tashkil qilish tizimlari aylanma, chiqib ketish va aralash tizimlar mohiyati.
7. Musobaqa qoidalarining o‘zgartirilishi sabablari.
8. Musobaqa o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rishda qanday ilmiy-o‘lchov tadbirlari o‘tkaziladi?
9. Musobaqa o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rishda qanday tashkiliy tadbirlar o‘tkaziladi?
10. Musobaqa Nizomining maqsadi, mohiyati va mazmuni nimalardan iborat?
11. Musobaqani ochilish va yopilish marosimlari qanday, qaysi tartibda va nimaga asosan o‘tkaziladi?
12. Musobaqa yakuni haqidagi hisobotning turlari va ularning mazmuni nimadan iborat?

### **Adabiyotlar**

1. T.S. Usmonxodjaev, B.B. Kipchakov, N.B. Xatamov. Basketbol – T. 2018.
2. O.V.Goncharova. Basketbol. – T. 2018
3. Miradilov V.M. Karimov V.Z. Umbetova B.Z. Basketbol. – T. 2019.
4. F.V.Ganiyeva, D.T. Xusanova. Basketbol.– T. 2018.
5. A.K.Ibragimov. Sport turlari bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish va hakamlik qilish. Ma`ruza matn. – B. 2018.

## **VI BOB. VOLEYBOL O'YINI BO'YICHA MUSOBAQALAR O'TKAZISH VA HAKAMLIK QILISH**

### **6.1. Musobaqa qoidalarining vujudga kelishi va shakllanishi**

Voleybol o'yinining dastlabki rasmiy o'yin qoidalari 1896-yilda ishlab chiqilgan. Mazkur qoidalarni ayrim bandlari quyidagilardan iborat bo'lgan:

- maydonchani o'lchami 7,6 x 16,1 m;

- to'urning balandligi 195 sm;

- to'pning og'irligi 252-336 gr;

- o'yinchilar tarkibi chegaralanmagan;

- to'p o'yinga maydonchani o'ng tashqi qismida joylashgan 1x1 metrli to'rtburchak shaklidagi joydan bir oyoqda turib kiritilgan va hokazo.

Voleybolning borgan sari ommaviylasha borishi va ishtirokchilarning o'yin mahorati shakllana borishi bilan bir qatorda musobaqa qoidalari ham o'zgarib, takomillashib borgan.

1900-yil – hisob 21 ochkogacha, to'urning balandligi 213 sm;

1912-yil – maydoncha 10,6 x 18,2 m, to'r – 228 sm;

1917-yil – hisob 15 ochkogacha, to'urning balandligi 243 sm;

1918-yil – o'yinchilar soni bir jamoada – 6 ta;

1922-yil – to'pni faqat 3 marta o'ynash, maydoncha 9,1 x 18,2 m;

1925-yil – to'p 66-69 sm, og'irligi 275-285 g, maydoncha 9 x 18 m;

1934-yil – to'r ayollar uchun 224 sm.

Qoidalar rasmiy holda to'liq 1946-yilda joriy etilgan, lekin 1951-yilga kelib Marselda FIVB Kongressi tomonidan tasdiqlandi.

1947-yil – erkaklar o'rtasida o'yin 5 partiyadan iborat.

1950-yil – ayollar o'yini 5 partiyadan iborat.

1952-yil – tanaffus 1 partiyada 2 marta.

1957-yil – tanaffus 1 daqiqadan 30 soniyagacha qisqaradi.

1961-yil – o'yinchi almashtirish qoidasi tasdiqlandi.



1965-yil – to‘siq qo‘yuvchi qayta o‘ynashi (to‘pga tegishi) mumkin, u qo‘llarini raqib tomoniga o‘tkazishi mumkin.

1970-yil – chegaralovchi antenna (180 sm) joriy etildi.

1976-yil – kiritilgan to‘pga to‘siq qo‘yish.

1984-yil – to‘pni qabul qilishda tanani beldan baland joyi bilan «tegish» mumkin, to‘p o‘yinga kiritilayotganda uni to‘sishtan bekor qilindi.

1988-yil – eng yuqori hisob 17 gacha, hal etuvchi partiya taybreyk tarzida, ochkolar soni 2 ta farq bo‘lguncha davom etadi.

1992-yil – to‘p tanani tizzadan yuqori barcha joyiga tegishi mumkin.

1998-yil – to‘p tanani barcha joyiga tegishi mumkin; hisob 25 gacha, 5 partiyada 15 gacha; har partiyada hisob 8 va 16 bo‘lganda 2 ta bir daqiqadan texnik tanaffus beriladi; jamoalar 2 martadan 30 sek. tanaffus olishlari mumkin; to‘p kiritish 9 metr oralig‘ida ijro etilishi mumkin; «Liberero» o‘yinchisi joriy etildi.

2008-yil – to‘pni rangi o‘zgartirildi (sariq-ko‘k); to‘r oldida joylashgan o‘yinchilar to‘rni pastki qismiga tegishli mumkin.

Zamonaviy voleybol musobaqaning qoidalari haqida qisqacha ma’lumotlar:

- maydoncha 9 x 18 m, chiziqlar kengligi 5 sm;

- o‘yin maydonini chegaralovchi antennalarning balandligi 180 sm;

O‘yinchilarning yoshi va jinsiga qarab to‘rning balandligi quyidagicha bo‘ladi:

qizlar	13 – 14	2 m 10 sm
	15 – 16	2 m 20 sm
ayollar	17 – 18 va bundan katta yoshdagilar uchun	2 m 24 sm
o‘g‘il bolalar	13 – 14	2 m 20 sm
	15 – 16	2 m 35 sm
erkaklar		2 m 43 sm

- to‘pni aylana uzunligi  $66 \pm 1$  sm, diametri  $21 \pm 0,3$  sm, og‘irligi  $270 \pm 10$ g;

- har partiyada 6 o'yinchi almashinuviga ruxsat beriladi. Asosiy o'yinchi 1 marta almashtirilishi va qaytib o'yinga tushishi mumkin;

- o'yin 3 yoki 5 partiyadan iborat bo'ladi;

- har partiyada hisob 25 gacha, agar 25:25 bo'lib qolsa eng yuqori hisob 2 ochko farq qilguncha davom etadi. Hal qiluvchi partiya taybreyk tarzida o'tadi 15 ochkogacha, hisob toki 2 ochko farq qilguncha davom etadi.

Jazo «ayb»ga yarasha bo'lishi shart. Bordi-yu hakam xatoga yo'l qo'ysa, u o'z vaqtida bu xatoni bo'yniga olishi kerak va adolatni tiklashi zarur.

Hakam nafaqat o'yin davomida o'z odobi bilan namuna bo'lishi, balki u boshqa joylarda ham o'zini tuta bilishi kerak.

Hakamlar:

birinchi hakam (minbardagi hakam);

- ikkinchi hakam;

- hakam-kotib;

- axborot beruvchi hakam;

- 4 ta chiziq hakamlari;

- 6 ta to'p uzatib turuvchilar.

Hakamlarning har birini o'z vazifasi, huquqlari, hakamlik qilish joylari va vositalari mavjud. Ularni atroflicha talqini ma'ruzada og'zaki va o'quv filmlari yordamida bayon qilinadi, tushuntiriladi.

Musobaqa o'yinidan 20-30 min oldin maydonchani, anjom (to'p, to'r, maydon chiziqlari), hakamlarni kiyim-bosh, tayyorgarligi, xullas, o'yinni o'tkazishga nima, kim, qancha kerak bo'lsa, hammasining muhayyoligi birinchi hakam tomonidan tekshirilishi kerak va zaruriyat bo'lsa ta'minotni oshirish talab qilinishi shart.

## **6.2. O'yinning mohiyati va mazmuni**

Voleybol maxsus maydonchanning o'rtasidan to'r bilan ajratilgan qismlarida 2 jamoaning to'p vositasida musobaqalashuvidan iborat sport o'yinidir.

O'yinning maqsadi – to'pni to'r ustidan raqib maydonchasiga tushirish va raqibning aynan shunday harakatiga yo'l qo'ymaslikdan iborat. Bunda jamoa to'p bilan 3 marta o'ynash huquqiga ega (to'siq qo'yishdan tashqari).

O'yin to'pni o'yinga kiritish usuli bilan boshlanadi: to'p kirituvchi o'yinchi zarb bilan to'pni to'r ustidan raqib jamoa maydonchasi tomonga yo'naltiradi. To'p maydon chiziqlari chegarasidan chiqib, yerga tushguncha yoki jamoa o'yinchisi xatoga yo'l qo'yguncha o'yin davom etadi.

Voleybolda har bir o'yin vaziyatining natijasi, to'p qaysi tomondan kiritilganligidan qat'i nazar, ochko bilan tugallanadi.

### **Inshootlar va uskunalar**

#### **O'yin maydoni.**

O'yin maydoni 18x9 m lik to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'ladi. O'yin maydonining yuzasi tekis, gorizontal va bir xil bo'lishi hamda o'yinchilar uchun hech qanday jarohat olish xavfini tug'dirmasligi lozim.

#### **Maydondagi chiziqlar.**

Barcha chiziqlarning kengligi 5 sm. O'yin maydonchasini ikkita yon va ikkita orqa chiziqlar chegaralaydi. O'rta chiziq o'yin maydonini har biri 9x9 m o'lchamga teng bo'lgan ikki maydonchaga ajratib turadi. Har bir maydonchanning hujum chizig'i o'rta chiziqdan 3 m oraliqda bo'lib, 5 sm oraliqda 5 ta 15 sm li kesik chiziqlar bilan yon chiziqlar tashqarisiga davom ettirilgan bo'ladi.

#### **Zonalar.**

Oldingi hujum zonasida 2,3,4-zonalar joylashadi. Orqa himoya zonasida 1,6,5-zonalar joylashadi. To'p kiritish zonasi 9 m o'lchamga teng bo'lgan orqa chiziqning davomidir.

#### **To'p, to'r va ustunlar. To'rning tuzilishi**

To'rning kengligi 1 m va uzunligi 9,5 m bo'lib, teshiklari 10x10 sm kvadrat shaklida, qora rangli ipdan to'qilgan bo'lishi kerak. To'rning yuqori qismida 5 sm kenglikdagi lenta bo'lib, uning ichidan tros (ustunlarga mustahkamlash uchun) o'tkaziladi. To'rning pastki qismidan shnur o'tkaziladi. To'rning ikki tomonidan ikki yon chiziqlarga perpendikular ravishda chegaralovchi lentalar joylashtiriladi.

Lentalarning kengligi 5 sm va uzunligi 1m bo'ladi. To'rning ikki tomoniga joylashtirilgan chegaralovchi lentalar bilan bir yo'nalishda ikki antenna vertikal ravishda joylashtiriladi. Antenna diametri 10 mm, uzunligi 1,8 m li naychadan iborat bo'lib, qattiq egiluvchan materialdan tayyorlangan bo'ladi. To'r o'rta chiziq ustidan vertikal joylashtirilishi kerak.

### **Ustunlar**

To'r tortiladigan ustunlar yon chiziqlardan 0,5-1,0 m oraliqda o'rnatiladi. Ustunlarning balandligi 2,55 m. Ustunlar yumaloq va tekis shaklda bo'lib, o'yinchilarga xavf tug'dirmasligi kerak. Ustunlar tortuvchi va taranglashtiruvchi moslamalarsiz o'rnatilishi darkor.

### **To'p**

To'pning ichidagi kamerasi rezinadan, tashqi qismi tabiiy yoki sintetik charmdan ishlanib, o'zi qat'iy dumaloq shaklga ega bo'lishi lozim. Uning aylana diametri 65-67 sm, og'irligi 260-280 g, ichki bosimi 294,3 dan 318,82 mba yoki gPa gacha bo'lishi lozim.

## **6.3. Hakamlar va hakamlik qilish**

Har bir uchrashuvni hakamlar tarkibi boshqarib boradi va bu tarkibga: birinchi hakam; ikkinchi hakam; kotib; to'rtta (yoki ikkita) chiziq hakamlari kiradi.

### **Birinchi hakam vakolatlari**

Birinchi hakam o'yin jarayoni boshlanganidan to yakunlanguniga qadar uni boshqarib boradi. U shu o'yinda ishtirok etayotgan barcha hakam va o'yinchilarga rahbarlik qiladi. Uning qarori hal qiluvchi kuchga ega. Birinchi hakam qolgan hakamlar qarorini noto'g'ri deb topsa, uni bekor qilish huquqiga ega. Agar biror hakam vazifasini uddalay olmasa, birinchi hakam uning vazifasini o'z zimmasiga olishi mumkin. Birinchi hakam chiqargan qarorni muhokama qilishga yo'l qo'yilmaydi. Lekin jamoa sardori iltimosiga ko'ra u o'z qaroriga izoh berishi mumkin. Birinchi hakam o'yindan oldin maydon, to'p va boshqa uskunalar holatini nazoratdan o'tkazadi. Jamoa sardorlari bilan qur'a tashlashni uyushtiradi. O'yin davomida faqat birinchi hakam quyidagilar bo'yicha qaror chiqarish

huquqiga ega: jamoalarni ogohlantirish; jazolash; to'p kirituvchining xatosi; to'p kirituvchi jamoa a'zolarining joylashishidagi xatosi bo'yicha; to'p bilan o'ynash xatolari bo'yicha; to'r va uning ustida ro'y beradigan xatolar bo'yicha; orqa chiziq o'yinchilari va «Liber»ni hujum zarbasi; «Liber»ni oldingi zonadan yuqoridan uzatilgan to'piga hujum zarbasi qo'llanilganda.

### **Ikkinchi hakam vakolatlari**

Ikkinchi hakam birinchi hakam ro'parasidagi voleybol ustuni ortida birinchi hakamga qaragan holda tik turib joylashadi. U zaxiradagi o'yinchilarni kuzatib turadi; tanaffus olish va o'yinchi almashtirishga ruxsat beradi; o'yin oldidan, har bir partiya oldidan o'yinchilarning maydondagi joylashuvini nazorat qilib turadi. O'yin vaqtida hushtak chaladi va ishora bilan quyidagilar bo'yicha qaror qabul qiladi: o'yinchi maydon va to'r ostidan raqib tomoniga o'tib ketganda; o'yinga kiritilayotgan to'pni qabul qiluvchi jamoa joylashuvda xatoga yo'l qo'yganda; o'zi joylashgan tomon yaqinida o'yinchi to'rga va chegaralovchi antennaga tegib ketganda; orqa chiziq o'yinchisi yoki «Liber» to'siq qo'yganda; o'yinchi to'rning pastki qismiga tegib ketganda.

### **Kotib**

Kotib o'z faoliyatini yuritish uchun birinchi hakam qarshisidagi ustun ortida (ikkinchi hakam orqasida) joylashadi. Kotib quyidagi vazifalarni bajaradi: o'yin bayonnomasiga o'yin va jamoa haqidagi ma'lumotlarni yozadi; yig'ilgan ochkolar, tanaffuslar, o'yinchilarni almashtirish; jazo choralari, to'pni o'yinga kiritish navbatlarini yozib boradi va nazorat qiladi; yuqorida ko'rsatib o'tilgan vaziyatlar buzilganda, ikkinchi hakamga xabar qiladi.

### **Chiziq hakamlari**

Chiziq hakamlari (4 ta bo'lganda) maydonning har bir burchagidan 1–3 m uzoqlikda joylashadilar va o'z chiziqlarini nazorat qiladilar. Agar o'yinda 2 ta chiziq hakami ishtirok etsa, ular maydon burchaklaridan 1–2 m uzoqlikda bir-biriga diagonal holatda joylashadilar. Ular yon va orqa chiziqlarni o'z tomonlaridan nazorat qiladilar. Chiziq hakamlari qo'llaridagi bayroqchalarni harakatlantirib, quyidagilarni ifodalaydilar: to'p maydonga yoki chiziq ustiga

tushsa, bayroqni pastga (maydonni ko'rsatib) tushiradilar; to'p maydon tashqarisiga tushsa yoki chegaralovchi antenna tashqarisidan o'tsa, bayroqni yuqoriga ko'taradilar.

Voleybol qoidalarining barchasini ushbu kitobda yoritish mumkin emas, lekin biz eng asosiy holatlar ustidagina to'xtab o'tdik. Yuqoridagi materialni o'zlashtirishda «Voleybolning rasmiy qoidalari» qo'llanmasidan foydalanish zarur bo'ladi.

Voleybol bo'yicha musobaqalar o'quv–mashg'ulot ishlarining asosiy qismidir. Ular mashg'ulotlardagi jismoniy, texnik, taktik va psixologik tayyorgarlik samarasini ko'rsatib beruvchi yakuniy ko'rsatkich bo'lib ham hisoblanadi. Musobaqalar tasdiqlangan taqvimiy reja asosida o'tkaziladi.

Sport musobaqalari sportchini tarbiyalashda katta o'rin tutadi. Voleybol bo'yicha musobaqalar oldiga qo'ygan vazifalariga ko'ra quyidagi turkumlarga bo'linadi: chempionatlar, kuboklar, saralash va yordamchi musobaqalar (tayyorlov, nazorat va boshqalar).

Chempionat va kubok musobaqalari – eng asosiy musobaqalar bo'lib, bu musobaqalarda eng kuchli jamoalar aniqlanadi. Bu musobaqalar ko'lami turlicha bo'ladi: jahon, qit'a, mamlakat, viloyat; shahar miqyosidagi va boshqalar.

Saralash musobaqalari o'z maqsadi va vazifasiga ko'ra asosiy musobaqalarning keyingi bosqichiga chiqish yoki malakali o'yinchilarni ma'lum bir jamoa tarkibiga qabul qilishni nazarda tutadi.

Yordamchi musobaqalar tarkibiga quyidagilarni kirgizish mumkin:

- ko'rgazmali musobaqalar voleybolni ommaviylashtirish va targ'ib qilish maqsadida tashkil etiladi. Ular ommaviy sport bayramlarida, o'quv yurtlarida, tashkilot va korxonalarda o'tkaziladi.

- qisqartirilgan musobaqalar (blits turnirlar) g'olibni aniqlash uchun qisqartirilgan partiyalar bilan o'tkaziladi. Bunday musobaqalar bayram kunlarida, sport mavsumlarining ochilishida tashkil qilinadi.

- tasnif musobaqalari – sport tayyorgarligi darajasini aniqlash va sport tasniflarini (razryadlar) berish maqsadida tashkil qilinadi.

- tenglashtiruvchi musobaqalarning asosiy vazifasi kuchli raqib jamoasi bilan uchrashishga imkon berish yo‘li bilan kichik tasnifdagi sportchilarning o‘shini rag‘batlantirishdan iborat.

- nazorat va tayyorlov musobaqalari jamoa va alohida o‘yinchilarning oldindagi rasmiy musobaqalarga tayyorgarlik holatini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Mashg‘ulot jarayonida tayyorlov va nazorat musobaqalari katta o‘rinni egallaydi.

Yordamchi musobaqalar asosan tayyorlov va musobaqa davrlarining yarmida rejalashtiriladi. Tanlov va asosiy musobaqalar ko‘pincha bir yilda 2-3 marotaba o‘tkaziladi. Turli xil musobaqalarning ahamiyati va o‘rni ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichiga bog‘liq bo‘ladi.

Shunday qilib, boshlang‘ich bosqichlarda faqat tayyorlov va nazorat musobaqalari rejalashtiriladi va o‘tkaziladi.

Sportchilar malakasining o‘sib borishga qarab, keyingi ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichida musobaqalar soni ortib boradi, musobaqa davriga tanlov va asosiy musobaqalar kiritiladi. Musobaqalar sportchining tayyorgarlik darajasining asosiy nazorat shakli bo‘libgina qolmay, balki sport mahoratini takomillashtirishning zarur omilidir.

Musobaqalarni rejalashtirganda tayyorgarlikning o‘ziga xos xususiyatlariga alohida e‘tibor qaratish lozim. Birinchidan, musobaqalar shunday tanlanishi kerakki, ularning yo‘nalishi, qiyinchilik darajasi ko‘p yillik tayyorgarlikning tuzilishi, vazifasi bilan qat‘iy mos kelsin. Ikkinchidan, agar sportchi uni o‘zining jismoniy, texnik-taktik va psixologik qobiliyatiga qo‘yilgan vazifalarni yecha oladigan bo‘lsa musobaqalarga jalb qilsin. Uchinchidan, musobaqa va mashg‘ulot amaliyotini rejalashtirish kerak, ayniqsa, tayyorgarlik jarayoni samarali amalga oshishi va sportchi tanlov hamda asosiy musobaqalarda o‘z imkoniyatini ochib berishi zarur. To‘rtinchidan, musobaqalar dasturi va qatnashuvchilar tarkibi kuchli raqobat muhitini ta‘minlashi kerak.

#### 6.4. Musobaqa o'tkazish tizimlari

Birinchi navbatda, o'yin tizimini tanlashdan oldin quyidagi vazifalar hisobga olinishi lozim. Uni o'tkazish mumkin bo'lgan muddati, qatnashuvchilarning sport tayyorgarligi darajasi, musobaqani o'tkazish uchun hududiy joylashish to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lishi kerak. Musobaqalar aylanma, yutqazgan chiqib ketadigan va aralash tizimlar asosida o'tkaziladi.

**Aylanma tizim.** Aylanma tizim bo'yicha hamma qatnashuvchi jamoalar bir-birlari bilan uchrashishadi. Musobaqalashuvchilarning kuchlari o'rtasidagi nisbatini aylanma usul, ayniqsa obyektiv aniqlashga imkon beradi. Bu tizim tasodifiy natijalar oldini oladi va sportchilar tayyorgarligini tekshirishga va g'oliblarni aniqlashga to'liq imkoniyat beradi.

Aylanma tizim bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalar ko'p vaqt talab qiladi, bu uning asosiy zaif tomonidir.

Aylanma tizim bo'yicha o'yin taqvimini quyidagicha tuziladi.


O'yinlarning navbati maxsus jadval yordamida aniqlanadi. Barcha jamoalar qur'a tashlash asosida tartib raqamlarini oladilar. Shundan so'ng musobaqaning har bir kunida qaysi jamoalar (qur'ada tushgan raqam bo'yicha) bir-biri bilan uchrashishi jadval yordamida aniqlanadi. Agar ishtirok etuvchi jamoalar soni toq bo'lsa, unda har kuni bir jamoa qavs ichida raqami ko'rsatilgan jamoa bilan uchrashadigan kun (jamoaga yo'qligi) dam oladi.

Jadval tuzishda qatnashuvchilar soniga qarab vertikal chiziqlar chizib chiqiladi. Chiziqlar asosan toq olinadi. Masalan 7, 8 ta jamoa qatnashuvida 7 ta, 9–10 ta jamoa bo'lganda 9 ta vertikal chiziq chizib olinadi.


Unda qatnashuvchilar raqami (qur'a natijasiga asosan) quyidagicha yoziladi: birinchi chiziq tagida 1 raqami qo'yiladi, bitta chiziqdan so'ng 2 raqami, yana bittadan so'ng 3 raqami va hokazo. Yuqoridagi ikkinchi chiziqdan boshlab, keyingi raqamlarning joylashishini davom ettiramiz: 4 raqami, bittadan so'ng 5 raqami va hokazo. Oxirgi, juft raqam mavjud bo'lganda yuqoridagi raqamlar yoniga yoziladi.

Qatnashuvchi jamoalar soni besh yoki oltita bo'lgandagi namuna:





Undan keyin 1 dan 5 gacha raqamlar egri chiziq bo'yicha namunada ko'rsatilganidek yozib chiqiladi.




Raqamlardan har bir vertikal chiziqning o'ng tomonidan boshlab o'ynaydigan juftlik kelib chiqadi va ular birinchi chiziqning pastidan yuqorisiga, o'ngidan chapiga, ikkinchi vertikal chiziqning yuqorisidan pastiga qarab yoziladi.

1-kun	2-kun	3-kun	4-kun	5-kun
1 - (6)	(6) - 4	2 - (6)	(6) - 5	3 - (6)
2 - 5	5 - 3	3 - 1	1 - 4	4 - 2
3 - 4	1 - 2	4 - 5	2 - 3	5 - 1

Chap tomonda turgan jamoalar maydon egalari hisoblanib, ular mehmon jamoalarning sport kiyimidan rangi bilan farq qiladigan ikkinchi sport kiyimiga ham ega bo'lishlari kerak.

**Chiqib ketish tizimi.** Yutqazgan chiqib ketish tartibida o'tkazilayotgan musobaqada uchrashuvda mag'lub bo'lgan jamoa musobaqalardan chiqib ketadi. Bu tartibning kamchiligi shundaki, o'yin natijasi tasodifiy bo'lishi ham mumkin.

8 ta jamoa uchun namuna:



Ustunligi shundaki, ko‘p sonli jamoalar qatnashayotgan musobaqalarni o‘tkazish uchun ozgina vaqt kerak bo‘ladi. Musobaqada ishtirok etayotgan jamoalar soni 4, 8, 16, 32 va hokazo bo‘lganda, hamma qatnashuvchilar musobaqaning birinchi turidan qatnashishadi. Juftliklar tartib raqamlari yuqoridan pastga qarab tuziladi.

Agar jamoalar soni 2 ning darajasiga barobar bo‘lmasa, unda ayrim jamoalar (qur’a natijasiga ko‘ra) ikkinchi davradan boshlab qatnashadilar. Jadvalni shunday tuzish kerakki, ikkinchi turda o‘ynaydigan jamoalar soni teng bo‘lishi kerak. Birinchi davrada nechta jamoa ishtirok etishi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$(A - 2^n) \times 2,$$

bunda A - jami jamoalar soni; n –qatnashadigan jamoalar soniga yaqin bo‘lgan daraja.



jamoalarning umumiy soni	ishtirok etuvchi jamolar soni	jami	yuqoridan	pastdan
4	4	-	-	-
5	2	3	1	2
6	4	2	1	1
7	6	1	-	-
8	8	-	-	-
9	2	7	3	4
10	4	6	3	3
11	6	5	2	3
12	8	4	2	2
13	10	3	1	2
14	12	2	1	1
15	14	1	-	1
16	16	-	-	-
17	2	15	7	8
18	4	14	7	7
19	6	13	6	7
20	8	12	6	6

Birinchi turda 6 ta jamoa o'ynashi kerak. Ikkinchi davradan boshlab o'ynaydigan jamoalar uchun 2 ta yuqoridagi va 2 ta pastdagi raqamlar belgilanadi. Barcha raqamlar (birinchi davrada o'ynaydigan raqamlar ham) jadvalda yuqorida va pastda joylashgan jamoalar o'rtasida teng taqsimlanadi. Agar jamoalar soni toq bo'lsa, unda ikkinchi davradan o'yinni boshlaydigan jamoalarning soni jadvalning pastida yuqoridagiga nisbatan bitta ortiq bo'ladi. Birinchi davradan o'yinni boshlaydigan jamoalarda esa, aksincha, jadvalning yuqorisida bitta raqam ortiq bo'ladi (6.1-jadval).

Bir musobaqa doirasida ikki tizimdan ham foydalanish mumkin bo'lib, bu tizim shartli ravishda aralash tizim deb nomlanadi.

Aralash tizimga muvofiq guruhlar yoki zonalarda o'yin aylanma tizimda, so'ngra esa yutqazgan chiqib ketish tizimida olib boriladi yoki aksincha bo'lishi mumkin.

## 6.5. Musobaqa o'tkazishning ilmiy-tashkiliy asoslari

Sport musobaqalarini tashkil qilish va o'tkazish shu musobaqalarga rahbarlik qiluvchi (sport federatsiyasi, tashkiliy qo'mita va h.k.), mezbon tashkilotchi, hakamlar uyushmasi hamda nazoratchi (ekspert) hakamlarga katta mas'uliyat yuklaydi. Ular musobaqa o'tkazish joylarini (sport saroylari, kommunikatsion, tibbiy va yordamchi xonalar) rasmiy musobaqa qoidalari, musobaqa Nizomi va boshqa me'yoriy standartlar talablariga muvofiq tayyorlash ekspertiza va sinovdan o'tkazish choralari ko'rish tadbirlarini amalga oshiradi. Tomoshabinlar, ishtirokchi sportchilar, murabbiylar, tibbiy va xavfsizlik xizmati xodimlari, akkreditatsiyadan o'tgan barcha ommaviy axborot vositalari vakillariga barcha qulayliklar yaratilishi mezbon tashkilotchilar tomonidan ta'minlanadi.

#### **6.6. Musobaqa o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish**

Musobaqalar muvofiq mutasaddi tashkilot (yoki tashkilotlar) tomonidan tasdiqlangan yillik musobaqa taqvim rejasiga asosan o'tkaziladi. Odatda musobaqa o'tkazish joyi (mamlakat, viloyat, shahar va h.k.) va vaqti shu taqvim rejasida qayd etiladi.

Musobaqaning nomi, maqsad va vazifalari, o'tkazish joylari va muddatlari, musobaqada ishtirok etish huquqiga ega jamoalar (klublar, terma jamoalar), musobaqada ishtirok etish shartlari, bosh hakam, musobaqaga rahbarlik qiluvchi tashkilot, musobaqa shart-sharoitlarini ta'minlovchi mezbon tashkilot, musobaqa o'tkazish va o'rinlarni aniqlash tizimi, rag'batlantirish kabi masalalar musobaqa Nizomida batafsil ifodalanadi.

Musobaqa o'tkazishdan avval nazoratchi (ekspert) hakam (yoki hakamlar) musobaqa o'tkazish joyini qabul qilingan ilmiy-texnologik vositalar (o'lchov asboblari) yordamida ko'zdan kechiradi. Jumladan, musobaqa o'tkaziladigan sport inshootida havo namligi, harorat, atmosfera bosimi, tabiiy va sun'iy yorug'lik, maydon chiziqlari, to'r va ustunlar, o'rindiqlar, bo'shlik zonalar va boshqa ko'rsatkichlar belgilangan me'yoriy standartlar asosida ekspertizadan o'tkaziladi.

Sportchilarga mo'ljallangan yechinish-kiyinish, yuvinish, gigiyenik, kommunikatsion, tibbiyot va hakamlar xonalari nazoratdan o'tkaziladi.

Amalga oshirilgan ekspert-nazorat tadbirlari natijalariga ko'ra xulosa tayyorlanadi va bu haqida musobaqa o'tkazuvchi mas'ul tashkilot rahbariga ma'lumot beriladi.

## **6.7. Musobaqa Nizomi**

### **(O'zbekiston Chempionati misolida)**

#### **Chempionatning maqsadi va vazifalari**

- O'zbekistonda voleybolni yanada ommalashtirish;
- voleybolni rivojlantirish va jamoalarning sport mahoratini oshirish;
- mamlakat yagona sport tasnifi talablariga muvofiq voleybolchilarga sport razryadlarini rasmiylashtirish;
- kuchli klublarni aniqlash va Osiyo musobaqalarida ishtirok etish uchun mamlakat terma jamoasini tuzish.

#### **Musobaqaga rahbarlik qilish**

Musobaqalar FIVB – Halqaro voleybol Federatsiyasi tomonidan tasdiqlangan rasmiy qoidalar bo'yicha o'tkaziladi. O'yinlarda «Mikasa» firmasining MVP 200 rangli to'plari qo'llaniladi.

Musobaqaga rahbarlik qilish mas'uliyati O'zbekiston voleybol federatsiyasiga yuklatiladi.

Musobaqa o'yinlarini Respublika hakamlar uyushmasi tomonidan tasdiqlangan hakamlar guruhi boshqaradi. Musobaqaning bosh hakami vazifasiga – milliy toifadagi hakam tayinlanadi.

Jamoalarni qabul qilish, joylashtirish va musobaqa o'tkazish joylarini tayyorlash musobaqa o'tkazilayotgan shahar klubi zimmasiga yuklatiladi.

Mehmonxona, ovqatlanish va safar xarajatlari muvofiq jamoa-klublari tomonidan qoplanadi.

#### **Musobaqa o'tkazish joyi va vaqti**

Chempionatni o'tkazish tartibi, tizimi, joylari va vaqti ishtirokchi jamoalar soniga qarab chempionatdan 1 oy oldin e'lon qilinadi.

#### **Musobaqa ishtirokchilari**

Chempionatda klublar jamoalari, ko'ngilli sport jamiyatlari, tashkilot va korxonalar, viloyatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahar terma jamoalari ishtirok etishi mumkin.

O'zbekiston voleybol Federatsiyasining ijroiyy qo'mitasi qaroriga muvofiq chempionatda ishtirok etish istagini bildirgan jamoalar O'VF hisob raqami \_\_\_\_\_ ga \_\_\_\_\_ so'm miqdorida a'zolik badali uchun mablag' o'tkazishlari lozim. Chempionatda ishtirok etishni tasdiqlovchi xabarnoma \_\_\_\_\_ yil \_\_\_\_\_ oktabrgacha taqdim etilishi shart. Ushbu muddatdan kech taqdim etilgan xabarnoma qabul qilinmaydi va jamoa chempionatda ishtirok etish huquqidan mahrum qilinadi.

Chempionatda ishtirok etish huquqini olgan jamoa tarkibi 22 kishi, shu jumladan 18 nafar o'yinchilar, 2 ta murabbiy, shifokor va jamoa rahbaridan iborat bo'lishi mumkin.

Jamoa tarkibiga ko'pi bilan 2 nafar chet el o'yinchilari federatsiya ruxsati bilan jalb qilinishi mumkin.

### **Natijalarni aniqlash**

Chempionatda jamoalarni guruhlariga bo'linishi yoki bo'linmasligi ishtirokchi jamoalar soniga qarab belgilanadi. Musobaqalar va ishtirokchi jamoalar sport bazasida «tur» shaklida aylanma tizim bo'yicha o'tkaziladi. Chempionat jadvalidagi o'rinlar barcha turlarda o'tkazilgan o'yinlarda to'plangan ochkolar yig'indisiga qarab aniqlanadi. G'alaba uchun jamoaga 2 ochko, mag'lubiyat uchun 1 ochko, o'yinga kelmaganligi uchun 0 ochko beriladi.

Ikki yoki undan ortiq jamoalar bir xil ochkolar sonini to'plagan bo'lsa, o'rinlar quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

- a) barcha uchrashuvlardagi partiyalar nisbati;
- b) barcha uchrashuvlardagi to'plar (hisob) nisbati;
- v) o'zaro uchrashuvlardagi partiyalar nisbati;
- g) o'zaro uchrashuvlardagi to'plar (hisob) nisbati.

Agar qaysi bir jamoa uchrashuv davomida o'yinni davom ettirishdan voz kechsa, u chempionatda ishtirok etish huquqidan mahrum qilinadi, barcha

uchrashuv natijalari bekor qilinadi va unga O'VDning «Intizom Kodeksi»ga muvofiq jarima choralari ko'riladi. Ushbu jamoaga qarshi uchrashuv o'tkazgan barcha jamoalar 3:0 (25:0; 25:0; 25:0) hisobida g'olib deb topiladi.

Agar biror-bir jamoa chempionatda o'tkaziladigan barcha o'yinlarning yarmidan kamiga kelgan bo'lib, keyingi biror-bir turga kelmasa, ushbu jamoaga ham yuqorida qayd etilgan tartibda jarima choralari ko'riladi.

### **Rag'batlantirish**

Mamlakat chempioni maqomiga ega bo'lgan joriy yilda o'rta umumta'lim maktab, KHKlari yoki ALLarni bitirgan jamoa o'yinchilari O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligining O'zDJTU hamda viloyatlardagi OO'Yulari jismoniy tarbiya fakultetlariga imtiyozli asosda qabul qilinish huquqini beruvchi sertifikatini olishga muvassar bo'ladilar.

Chempion jamoa ko'chma Kubok, qimmatbaho sovg'alar, diplomlar va oltin medallar bilan taqdirlanadi.

2 va 3-o'rinni egallagan jamoalar qimmatbaho sovg'alar, muvofiq diplomlar kumush va bronza medallari bilan taqdirlanadi.

O'yinchilar O'zbekiston Chempionati va boshqa musobaqalarda ishtirok etib kelgan natijalariga asosan O'zbekiston yagona sport tasnifida belgilangan me'yoriy talablarga muvofiq navbatdagi sport razryadlari bilan taqdirlanishga muvassar bo'ladilar.

### **6.8. Musobaqani ochilish va yopilish marosimlari**

Musobaqalarning turi (birinchiliklar, saralash musobaqalari, chempionatlar, Kubok musobaqalari, xotira musobaqalari, Osiyo yoki Olimpiya o'yinlari va h.k.) va miqyosidan (tuman, viloyat, shahar, Respublika, Osiyo, Yevropa, Jahon) qat'i nazar, har bir musobaqa o'ziga xos ssenariy va dastur asosida o'tkaziladigan ochilish hamda yopilish marosimlari bilan farqlanadi. Musobaqaning ochilishi va yopilishiga doir senariyda rasmiy dasturlardan tashqari mahalliy, milliy va umumbashariy an'analar, rasm-rusumlar, urf-odatlar hamda udumlarga xos turli ko'ngilochar tadbirlar (san'atkorlar, yozuvchi va shoirlar, davlat va jamoat arboblarning chiqishlari va h.k.) joy olishi mumkin.



Musobaqaning ochilish va yopilish ssenariysida belgilangan dastur avvaldan puxta ishlab chiqiladi, muhokama etiladi va tashkiliy qo'mita tomonidan tasdiqlanganidan so'ng tayyorgarlik jarayoni tashkil etiladi.

Quyida namuna sifatida musobaqaning ochilish va yopilish marosimiga doir senariysi keltirilgan:

- musobaqaning ochilishi: musobaqaning bosh hakami musiqa sadolari ostida ishtirokchi jamoalarni maydonga olib chiqadi va ularni saflantirib joylashtiradi;

- bosh hakam jamoalar e'tiborini ko'rsatma (jamoalar) bilan tashkiliy qo'mita «markazi»ga qaratadi va tantanavor ravishda kelib tashkiliy qo'mita raisiga ishtirokchi jamoalarning musobaqaning ochilishiga saf tortganlari haqida ma'lumot beradi;

- tashkiliy qo'mita raisi qisqacha musobaqaning maqsadi va ijtimoiy-siyosiy ahamiyati haqida gap yuritib, tabrik so'zini faxriy shaxs (rahbar yoki rahbar nomidan tabriklaydigan shaxs)ga beradi;

- tabrik so'zi yakunlanganidan so'ng, bosh hakam ishtirokchi jamoalar nigohini davlat bayrog'i joylashtirilgan tomonga qaratadi;

- davlat madhiyasi yangraydi, davlat bayrog'i ko'tariladi;

- davlat madhiyasi tugab, davlat bayrog'i ko'tarilganidan so'ng bosh hakam musobaqa ishtirokchilariga murojaat qilib, ularga sihat-salomatlik, musobaqa o'yinlarida mahorat va yuksak natijalar tilaydi;

- bosh hakam ishtirokchi jamoalarni musiqa sadosi ostida maydondan olib chiqadi;

- musobaqaning ochilishi marosimidan so'ng musobaqa jadvali bo'yicha birinchi o'yinda ishtirok etadigan jamoalar maydonga tashrif buyurishadi va musobaqa o'yiniga tayyorgarlik ko'rishadi.

### **Musobaqaning yopilish marosimi**

Musobaqada ishtirok etuvchi barcha jamoalar o'yinlari yakunlanganidan so'ng musobaqaning yopilish marosimi o'tkaziladi. Musobaqaning yopilish marosimida g'olib va sovrindor jamoalar (ayrim hollarda barcha jamoalar) ishtirok etadi.



«Tasdiqlayman»  
Yuboruvchi tashkilot rahbari

imzo \_\_\_\_\_, ismi sharifi

muhr « » \_\_\_\_\_ 2020 yil

« Tasdiqlayman »  
Hududiy jismoniy tarbiya  
va sport boshqarmasi boshlig`i  
imzo \_\_\_\_\_, ismi sharifi

muhr « » \_\_\_\_\_ 2020 yil

Voleybol bo`yicha erkaklar o`rtasida XXIV O`zbekiston kubogi musobaqasida  
ishtirok etish uchun \_\_\_\_\_ jamoasidan

### TALABNOMA

T/r	F.I.SH	Tug`ilgan yili, oy, kun	Bo`yi	Sport unvoni yoki razryadi	O`qish va ish joyi	Pasport (guvohnoma) ma`lumotlari	Pasport bo`yicha yashash manzili	Shifokor imzosi	RASM
1.									
2.									
3.									
4.									
5.									
6.									
7.									
8.									
9.									
10.									
11.									
12.									
13.									
14.									

Jamoa formasi Bosh trener \_\_\_\_\_ imzo \_\_\_\_\_ F.I.SH

Asosiy trener \_\_\_\_\_ imzo \_\_\_\_\_ F.I.SH

Vakili: \_\_\_\_\_ imzo \_\_\_\_\_ F.I.SH

Shifokor: \_\_\_\_\_ imzo \_\_\_\_\_ F.I.SH





**VOLEYBOL BO`YICHA 2001-2003 YILLARDA TUG`ILGAN O`G`IL BOLALAR O`RTASIDA  
I.A.KARIMOV XOTIRASIDA BAG`ISHLANGAN O`ZBEKISTON RESPUBLIKASINING  
I TURNIR MUSOBAQASI  
NATIJALARI JADVALI**

**23-28 AVGUST 2018 yil. SAMARQAND SH.**

**“A” gurux**

№	Jamoalar	1	2	3	Ochkolar soni	Partiyalar nisbati	O`rni
1.							
2.							
3.							

**Bosh hakam**

**VOLEYBOL BO`YICHA 2001-2003 YILLARDA TUG`ILGAN O`G`IL BOLALAR O`RTASIDA  
I.A.KARIMOV XOTIRASIDA BAG`ISHLANGAN O`ZBEKISTON RESPUBLIKASINING  
I TURNIR MUSOBAQASI  
NATIJALARI JADVALI**

**23-28 AVGUST 2018 yil. SAMARQAND SH.**

**“B” gurux**

№	Jamoalar	1	2	3	Ochkolar soni	Partiyalar nisbati	O`rni
1.							
2.							
3.							

**Bosh hakam**

\_\_\_\_\_

**VOLEYBOL BO`YICHA 2001-2003 YILLARDA TUG`ILGAN O`G`IL BOLALAR O`RTASIDA  
I.A.KARIMOV XOTIRASIDA BAG`ISHLANGAN O`ZBEKISTON RESPUBLIKASINING  
I TURNIR MUSOBAQASI  
NATIJALARI JADVALI**

**23-28 AVGUST 2018 yil. SAMARQAND SH.**

**“C” gurux**

№	Jamoalar	1	2	3	Ochkolar soni	Partiyalar nisbati	O`rni
1.							
2.							
3.							

**Bosh hakam**

\_\_\_\_\_



**Voleybol bo`yicha 2001-2003 yillarda tug`ilgan o`g`il bolalar  
o`rtasida I.A.Karimov xotirasiga bag`ishlangan O`zbekiston  
Respublikasining I turnir musobaqasi**

**JADVALI.**

**24 avgust**

10.00	
11.30	<b>MUSOBAQA OCHILISH MAROSIMI</b>
12.00	
13.30	

**25 avgust**

10.00	
11.30	
13.00	

**26 avgust**

10.00	
11.30	
13.00	

**27 avgust**

**Yarim final**

10.00	
11.30	

**28 avgust**

**Final**

10.00	
11.30	
	<b>Turnirning yopilish marosimi</b>

**Bosh hakam** \_\_\_\_\_

**Voleybol bo'yicha 2001-2003 yillarda tug'ilgan o'g'il bolalar o'rtasida  
I.A.Karimov xotirasida bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasining  
I turnir musobaqasi  
N A T I J A L A R I  
23-28 avgust 2018 yil. Samarqand sh.**

Sana	O'yinlar №	JAMOALAR	O'yin hisobi	Partiyalar hisobi	O'yinlar vaqti
24.08.2018	1				
	2				
	3				
25.08.2018	4				
	5				
	6				
26.08.2018	7				
	8				
	9				
27.08.2018	10				
	11				
28.08.2018	12				
	13				


**Bosh hakam** \_\_\_\_\_

**Voleybol bo'yicha 2001-2003 yillarda tug'ilgan o'g'il bolalar  
o'rtasida I.A.Karimov xotirasiga bag'ishlangan O'zbekiston  
Respublikasining I turnir musobaqasida ishtirok etgan jamoalar  
egallagan o'rinlari haqida umumiy ma'lumot  
23-28 avgust 2018 yil. Samarqand sh.**


- I – o'rin –
- II – o'rin –
- III – o'rin –
- IV – o'rin –
- V – o'rin –
- VI – o'rin –
- VII – o'rin –
- VIII – o'rin –
- IX – o'rin –

**Bosh hakam** \_\_\_\_\_


**6.9. Voleybol hakamlarning harakatlari**




1. To'pni o'yinga kiritishga ruxsat berish




2. To'pni o'yinga kiritadigan jamoa




3. Maydonni almashtirish




4. Taym-aut




5. O'yinchi almashtirish




6. Tartib buzganligi uchun ogohlantirish



7. Maydondan chetlashtirish




8. Diskvalifikatsiya




9. Partiyaning tugallanishi



10. To'p havoga uloqtirilmagan yoki podacha urilayotgan vaqtda to'p qo'ldan havoga irg'itilmagan




11. Hakam xushtak chalgandan so'ng 8 sekund vaqt ichida to'pni o'yinga kiritilmaganligi



12. To'pni qabul qilayotgan jamoani harakatda to'pni qabul qilishga halaqit qilish




13. O'yinchilarning noto'g'ri joy almashinishi




14. To'p maydonda


15. To'p maydondan tashqarida




16. To'pni ilib qolish




17. To'pga ikki marta teginish




18. To'pga bir jamoani to'rt marta teginishi




19. O'yinchi to'rga tegsa va to'p to'rga tegib maydonga tushsa




20. Raqib tomonidan uchib kelayotgan to'pga to'r ustida yoki o'tmagan holda to'siq qo'yish



21. Himoya zonasi o'yinchilarni hujum zonasi chizig'ini bosib hujum qilishi




22. O'yinchilarni chiziqdan o'tib ketishi yoki to'p o'yinga kiritilayotganda chiziqni bosishi



23. Bahsli to'p







24. To'p raqib qo'liga tegib maydondan chiqib ketishi




25. O'yinni cho'zganligi sababli ogohlantirish




1. To'p maydonda




2. To'p maydondan tashqarida



3. To'p raqib qo'liga tegib maydondan chiqib ketishi



4. To'p o'yinga kiritilishida o'yinchini belgilangan chiziqni bosishi



5. Hech qanday qaror qabul qilmaslik

### **Mavzuga oid nazorat savollari:**

1. Maydon o'lchamlarini ayting?
2. To'pning standart vaznini ayting?
3. Zahiradagi o'yinchi kimning ruxsati bilan maydonga kirishi mumkin?
4. Bosh hakam huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?

### **Adabiyotlar**

1. Айрапетьянц Л.Р. Волейбол. Учебник для высших учебных заведений. Т.: Зар qalam. 2006. - 240 с.

2. Ayrapetyants L.R., Pulatov A.A., Isroilov Sh.X. Voleybol. Oliy o'quv yurtlari umumiy kurs talabalari uchun o'quv qo'llanma.T.: 2009. - 77 b.

3.Ibragimov A.K. Sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish va hakamlik qilish. Ma`ruza matn. – B. 2018.

4. sportzone.ru.sport.rules tarmog'idan olingan ma'lumotlar.

## **VII BOB. GANDBOL O`YINI BO`YICHA MUSOBAQALAR O`TKAZISH VA HAKAMLIK QILISH**

Qo'l to'pi musobaqalari o'quv-mashg'ulot ishlarining asosiy qismini tashkil etadi. U shug'ullanuvchilarning mashg'ulotlarga qiziqishini oshiradi, mamlakatda qo'l to'pini ommaviy rivojlantirishga yordam beradi. Gandbolchi o'yinlarda muntazam qatnashmay turib yuqori natijalarga erisha olmaydi. Musobaqalar musobaqa qatnashchilarining va, umuman, jamoaning jismoniy, texnik, taktik va axloqiy-irodaviy tayyorgarligi darajasini aniqlaydi, o'quv-mashg'ulot jarayonining ahvoli va yo'nalishini aniqlash imkonini beradi. Musobaqa natijalari o'quv-mashg'ulot ishlarini yakunlash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Musobaqalar qatilylikni, g'alabaga erishish yo'lidagi iroda kuchini, jamoa, tuman, shahar, respublika, qolaversa, mamlakat oldidagi mas'uliyat hissini tarbiyalaydi. O'yinchilarning emostional keskinligi gandbolchilarning ruhiy xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

### **7.1. Musobaqalarni boshqarish**

Musobaqalarni tayyorlash va o'tkazishga umumiy rahbarlikni amalga oshiradigan tashkilot, shuningdek, musobaqani o'tkazish uchun aniq javobgar shaxs bo'lishi, musobaqalar joyini tayyorlash, sportchi va hakamlarni kutib olish, joylashtirish, ovqatlantirish, ularga tibbiy xizmat ko'rsatish, shuningdek, madaniy tadbirlarni o'tkazish uchun ham javobgar tayinlanishi kerak.

### **7.2. Musobaqa turlari**

Oldiga qo'yilgan vazifalariga qarab musobaqalarni asosiy va yordamchi musobaqalarga bo'lish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport Vazirligi tomonidan tasdiqlangan sport tasnifi talablariga muvofiq tashkil etiladigan hamda natijalariga ko'ra g'olib va chempion degan nom beriladigan musobaqalar asosiy musobaqalarga kiradi.

Musobaqalarning asosiy turi – taqvim musobaqalari bo'lib, ular sport tadbirlarining yagona taqvimiy rejasida nazarda tutiladi va tasdiqlangan nizomga

muvofoiq ravishda o'tkaziladi. Musobaqaning asosiy turlariga: birinchilik yoki chempionatlar, kubok musobaqalari, saralash musobaqalari kiradi.

Birinchilik yoki chempionatlar – eng mas'uliyatli musobaqalar bo'lib, ularning natijalari bo'yicha g'olib jamoalarga chempionlik unvoni beriladi. Musobaqalarni tashkil etishning bu turi jamoalar kuchini xolisona baholashga, olib borilayotgan o'quv-mashg'ulot ishining sifatini taqqoslashga imkon beradi.

Kubok musobaqalariga juda ko'p jamoalarni jalb etish mumkin va ular g'olibni qisqa muddatlarda aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Kubok musobaqalari eng yaxshilarni izchillik bilan tanlab olish taomili bo'yicha o'tkaziladi.

Saralash musobaqalari musobaqaning keyingi bosqichida qatnashish uchun eng kuchli jamoalarni aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Musobaqaning yordamchi turlariga quyidagilar kiradi: nazorat uchrashuvlari, o'rtoqlik uchrashuvlari, qisqartirilgan musobaqalar.

Nazorat uchrashuvlari jamoalarni bo'lajak musobaqalarga tayyorlash va ularning tayyorgarligini tekshirish maqsadida o'tkaziladi.

O'rtoqlik uchrashuvlar o'quv-mashg'ulot maqsadlarida yoki an'anaviy musobaqalar rejasida o'tkaziladi.

Qisqartirilgan musobaqalar bir necha soat mobaynida o'tkaziladi. Ular, odatda, bayram kunlariga va sport mavsumining ochilish yoki yopilish kunlariga rejalashtiriladi.

### **7.3. Musobaqalarni rejalashtirish**

Gandbol musobaqalarini rejalashtirish markazlashtirilgan tarzda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport Vazirligi barcha idoralar va sport tashkilotlari bilan kelishib, musobaqalarning taqvim rejasini ishlab chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi gandbol federatsiyasining viloyat, o'lka va shahar musobaqalari yig'ma taqvim rejasini yuqori tashkilotlar tomonidan rejalashtirilgan musobaqalarni hisobga olgan holda tuzishi maqsadga muvofiqdir.

Zarur o'zgartirishlar kiritilgandan keyin, gandbol bo'yicha umumiy yig'ma reja tegishli jismoniy tarbiya va sport qo'mitalarining ommaviy sport tadbirlari

rejasiga kiritiladi hamda barcha sport tashkilotlari uchun majburiy hisoblanadi.

#### **7.4. Musobaqa o'tkazish tizimlari**

Musobaqa o'tkazishda asosan ikki tizim - aylanma tizim va chiqib ketish tizimi qo'llaniladi. Boshqa hamma tizimlar shunga asoslangan bo'ladi.

#### **7.5. Aylanma tizim**

Musobaqa o'yinlarini aylanma tizim bo'yicha o'tkazish uchun jamoalar bir-birlari bilan bir marotaba uchrashishlari kerak. Agar musobaqa bir davrada o'tkazilsa, bir marta uchrashishadi. Eng to'g'ri yo'l - musobaqani ikki davrada o'tkazishdir. Aylanma tizim bo'yicha musobaqada uchrashganlarning hamma o'rinlari belgilanadi. Eng ko'p ochko to'plagan jamoa g'olib hisoblanadi. Davra tizimini o'tkazish tartibi, musobaqaga qatnashuvchi jamoa tartib raqamlari qura o'tkazilgandan so'ng belgilanadi. Jamoa nomerlari belgilangandan so'ng shu nomerlarga asoslanib o'yin jadvali tuziladi. Davra tizimining o'yin taqvimlarini esa ikki xil usulda tuzish mumkin:

***Birinchi usul:*** Taqvimning tuzilishi musobaqaga qatnashuvchi jamoalar soniga bog'liq. Buning uchun jamoalar soniga yaqin toq son olinadi va shunga loyiq vertikal chiziqlar chiziladi. Masalan: 6 jamoa olsak, unga yaqin toq - 5, demak, besh vertikal chiziq chiziladi. 8 jamoa olsak unga yaqin toq son - 7 va hokazo.

So'ngra birinchi vertikal chiziqning tagiga birinchi raqam qo'yiladi. Qatnashuvchi qolgan jamoalarning tartib raqamini esa shu chiziqning o'ng tarafidan ketma-ket yuqoriga, keyin pastga qarab soat strelkasiga qarama-qarshi ravishda chiziqning chap tarafidan yoziladi.

Vertikal chiziqlarning tagi va ustiga, tagidan boshlab ishtirok etuvchi jamoalarning umumiy soniga yaqin toq sonigacha, chapdan o'ngga qarab bittadan ustun tashlab jamoalarning raqamlari yoziladi (7.1-jadval). Bu raqamlar vertikal chiziqlarining o'ng va chap tarafiga qatnashuvchi jamoalarni yozishga dastlabki raqam bo'lib xizmat qiladi.

Qolgan raqamlar soat strelkasiga qarama-qarshi, vertikal chiziq tagidagi raqamdan ko'paytirilib, vertikal chiziq tepasidagi raqamdan esa kamaytirilib

yoziladi. Shu grafalar to'ldirilgandan so'ng o'yin kalendari tuziladi. Buning uchun vertikal chiziqlarining ikki tomonidagi bir-biriga paralel raqamlarni juftlab qo'shib yozish zarur.

Ishtirok etuvchi jamoalarning umumiy soni toq bo'lsa, u holda vertikal chiziqlarning ustidagi va tagidagi raqamlar shu kungi o'yinda ishtirok etmaydigan jamoalarni ko'rsatadi. O'yinning taqvim kuni jadvalini tuzishda bo'sh raqamlar (vertikal chiziqlarning usti va tagidagi) oxirgi jamoa bilan boshlanadi.(bizning misolimizda 1-6 bilan).

7.1-jadval

**6-jamoaga taqvim tuzish**

	<b>6 · 4</b>		<b>6 · 5</b>	
4 : 3	5 : 3	5 : 4	1 : 4	1 : 5
5 : 2	1 : 2	1 : 3	2 : 3	2 : 4
<b>1 · 6</b>		<b>2 · 6</b>		<b>3 · 6</b>

**O'yinning taqvim kunlari**

1-kun	2-kun	3-kun	4-kun	5-kun
1-6	6-4	2-6	6-5	3-6
2-5	5-3	3-1	1-4	4-2
3-4	1-2	4-5	2-3	5-1

**Ikkinchi usul:** Bu oddiy usul o'yin jarayonida maydon almashtirish hech qanday rol o'ynamaganda, ya'ni musobaqa bir joyda o'tkazilganda qo'llaniladi. Bu usul bevosita taqvim kunlari tartibi bilan tuziladi. Qatnashuvchi jamoalar soniga mos raqamlar (jamoalar soni juft bo'lsa), yuqoridan chap tarafdagi birinchi raqamdan boshlab ikki ustunga yozib chiqiladi. So'ngra ikkinchi raqamdan boshlab, birinchi raqamga qarama-qarshi soat strelkasiga ketma-ket boshqa raqamlar ikkinchi ustunga yoziladi. Keyingi taqvim kunlarda raqamlarni, birinchi raqamni bir joyda, ya'ni oldingi joyda qoldirib soat strelkasiga qarama-qarshi boshqa raqamlar siljtiladi. Agar musobaqaga qatnashadigan jamoalar soni toq

bo'lsa, oxirgi juft sonlar o'rniga nol raqami qo'yiladi, qolgan raqamlar esa joy-joyida qoldiriladi. Nol raqami bilan juftlashgan jamoa shu taqvim kuni o'ynamaydi.

7.2- jadval

### Taqvim bo'yicha o'yin kunlarini 7 jamoaga ikkinchi usul bilan taqsimlash

1- kun	2-kun	3-kun	4-kun	5-kun	6- kun	7- kun
1-0	1-3	1-4	1-5	1-6	1-7	1-0
0-3	2-4	3-5	4-6	5-7	6-0	7-2
7-4	0-5	2-6	3-7	4-0	5-2	6-3
6-5	7-6	0-7	2-0	3-2	4-3	5-4

Musobaqani aylanma tizim bo'yicha o'tkazishga ketgan vaqtni aniqlash uchun umumiy o'yinlar hisobini olish kerak. Bu quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$M = \frac{K(K-1)}{2}$$

M – o'yinlar soni;

K – musobaqada qatnashuvchi jamoalar soni.

O'yin jadvalini tuzishda taqvim bo'yicha o'yin kunlari orasidagi vaqtga ahamiyat berish kerak. Agar jamoalar boshqa joyga borib o'ynashi kerak bo'lsa, musobaqa boshlanishidan bir kun oldin kelishadi. Agar musobaqa bir joyda o'tkaziladigan bo'lsa, uchrashuv orasidagi vaqt jamoalarning mashq qilishi va dam olishiga yetarli bo'lishi kerak.

### 7.6. O'yindan yutilgandan so'ng chiqib ketish tizimi

Bu tizim qoida bo'yicha qatnashadigan jamoalar soni ko'p bo'lsa, oz muhlat ichida musobaqani o'tkazish uchun qo'llaniladi.

Yutqazgan jamoalar musobaqani davom ettirmaydi. Musobaqa taqvimining setkasini tuzish uchun musobaqaga qatnashuvchi jamolarning sonini aniqlab, so'ng qura tashlash o'tkaziladi. Qura tashlash o'tkazilgandan so'ng tashgan raqamlar tartib bilan yoziladi. Shunday qilib uchrashadigan jamoalar qura tashlash orqali ma'lum bo'ladi. Jamoalar soniga binoan setka tuziladi.



Agar jamoalar soni 2 ning qandaydir darajasiga teng bo'lsa:

( $2^2$  q 4;  $2^3$  q 8;  $2^4$  q 16;  $2^5$  q 32 va hokazo), bunday hollarda hamma jamoalar uchrashuvini birinchi davrada boshlaydilar. Agar qatnashuvchi jamoalar soni  $2^n$  dara-jasiga teng bo'lmasa, u holda ikkinchi davraga qolgan jamoalar soni  $2^n$  darajasiga teng bo'lishi kerak.

Demak, jamoalarning bir qismi birinchi kundan, ikkinchi qismi ikkinchi kundan boshlab uchrashadilar. Birinchi kunda uchrashuvchi jamoalar sonini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$K \text{ q} (M - 2^n) \cdot 2$$

K-birinchi kundan o'yinga qatnashadigan jamoalar soni;

M-musobaqaga qatnashuvchi jamoalar soni;

$2^n$  - qatnashuvchi jamoalar soniga eng yaqin 2 sonining darajasi. Masalan: o'yinga qatnashuvchi jamoalar soni 11. Shu songa setka tuzish zarurdir. Buning uchun 11-ga eng yaqin  $2^n$  darajasi olinadi. Bu son  $2^4 = 16$  bo'ladi. So'ng 16 dan qatnashuvchi jamoalar soni ayiriladi.  $16 - 11 = 5$

Ayirish natijasida qolgan besh - jamoalar soni bo'lib, o'yinning ikkinchi davrasidan musobaqaga qo'shiladi. O'yinning 2-darajasidan qo'shiladigan jamoalar soni toq bo'lsa, setkaning yuqorisiga qaraganda pastga bir jamoani ko'p qo'yamiz.

### 11 jamoaga setka tuzish

1-davra	2-davra	3-davra	g'olib
1	2		
3	4		
5	6		
7	8		
9	10		
11			

Yutilgandan so'ng chiqib ketish tizimining yutug'i shundan iborat: musobaqaga qatnashuvchi jamoalar sonining ko'pligiga qaramay qisqa vaqt ichida g'oliblar aniqlanadi.

Ammo bu tizimning muhim kamchiligi - uchrashuvchi jamoalar jufti qura tashlash natijasida aniqlanadi. Bu esa tasodifiy narsa, chunki eng kuchli ikki jamoa qura natijasida bir setkaga tushib qolishi mumkin. Shu ikkala jamoaning biri finalgacha musobaqani davom ettirmay, chiqib ketishi kerak. Buning natijasida finalga kuchsiz jamoa chiqadi.

Bu tizimda, odatda, birinchi uch o'rin aniqlanadi.

1-o'rin - final g'olibi.

2-o'rin – finalda mag'lubiyatga uchragan jamoa.

3-o'rin - yarim finalda mag'lubiyatga uchragan jamoalar uchrashuvi g'olibi.

### **7.7. Musobaqa nizomi**

Sovrinli o'rinlar, shuningdek, musobaqada qatnashuvchi jamoalar yoki jismoniy tarbiya jamoalari (natijalar klublar bo'yicha hisobga olinganda) egallaydigan barcha keyingi o'rinlar aniqlanadigan biron-bir rasmiy musobaqa o'tkazishdan avval musobaqa haqidagi nizom tuzilgan bo'lishi kerak. Bu nizom gandbol federastiyasi yoki musobaqani o'tkazuvchi boshqa biror tashkilot tomonidan tasdiqlanadi.

Musobaqa haqidagi nizom katta yuridik kuchga ega bo'lgan hujjatdir. Unda asosiy tashkiliy va texnik shart-sharoitlar aniq bayon qilingan bo'ladi. Nizom o'quv-mashq ishlarining mazmunini belgilab beradi, chunki jamoalarning tashkiliy-uslubiy tayyorgarligi bo'lajak musobaqalarning xususiyatlarini hisobga olgan holda o'tkaziladi. Musobaqada qatnashuvchi jamoalarning tayyorgarlik ko'rish uchun yetarli vaqtga ega bo'lishlari nazarda tutilib, nizom oldindan tasdiqlanishi va tarqatilishi kerak.

Musobaqani o'tkazish davrida tasdiqlangan nizomdan chetga chiqishga yo'l qo'yilmaydi, aks holda mazkur musobaqa uni o'tkazayotgan tashkilotning obro'yiga putur etkazadi va keraksiz nizolarni keltirib chiqaradi, xolos.

Musobaqa nizomida quyidagi masalalar aks ettirilgan bo'lishi kerak:

1. O'tkazilayotgan musobaqaning maqsadi va vazifalari.
2. Musobaqaning kim tomonidan o'tkazilayotgani (federastiya, tashkiliy qo'mita va hokazolar).

3. Musobaqa o'tkazish muddatlari va shartlari.
4. Musobaqaga qo'yiladigan jamoalar soni va nomi, «zayavka»ga kiritiladigan qatnashchilarning maksimal miqdori.
5. Musobaqa o'tkaziladigan o'yin tizimi (davrali – bir yoki ikki davrali, mag'lubiyatdan keyin o'yindan chiqib ketiladigan, aralash tizim).
6. Hisobga olish tizimi va jamoalarning (natijalar klublar bo'yicha hisoblanganda) egallagan o'rinlarini aniqlash tartibi.
7. Musobaqaning alohida shartlari (qanday hollarda o'yinda qo'shimcha vaqt belgilanishi va uning davomiyligi, o'yin durang bilan tugallanganda yoki o'tkazilgan musobaqa natijasida ochkolar soni teng bo'lganda g'olibni aniqlash usullari, o'yin qoidalarida ko'rsatilganidan tashqari nechta zahiradagi o'yinchini almashtirish mumkinligi va hokazolar).
8. Jamoalarni va musobaqa qatnashchilarini rasmiylashtirish tartibi, shakli, o'yinchilarning talabnomalar berish va qayta talabnoma berish muddati.
9. Musobaqalarni olib boradigan hakamlar hay'atining nomi.
10. O'tkazilgan o'yinga norozilik bildirish va uni qarab chiqish, shuningdek, o'yinchilarni maydondan chiqarib yuborish yoki ularni ogohlantirish bilan bog'liq bo'lgan intizom masalalarini ko'rib chiqish tartibi.
11. O'yinchilari intizomni buzganligi uchun jamoalarning javobgarligi hamda maydon(sport zal) va klublar ma'muriyatining o'yin o'tkazish vaqtida tartib saqlanishi uchun javobgar bo'lishi.
12. Musobaqa o'tkaziladigan joylar va ularga qo'yiladigan talablar.
13. G'oliblarni mukofotlash hamda oxirgi o'rinlarni egallagan jamoaning yoki jamoalarning keyingi xuddi shunday musobaqada qatnashish shartlari.

**NA`MUNA**

**2005-yil gandbol bo'yicha erkaklar, ayollar, o'smir bolalar va qizlar o'rtasida  
o'tkaziladigan o'zbekiston respublikasi chempionati va kuboklari**

**musobaqalarining**

**N I Z O M I**

## 1. Maqsad va vazifalar

O'zbekiston Respublikasi chempionati va kubok musobaqalari quyidagi maqsadlarda o'tkaziladi:

- kuchli jamoalarni, klub va o'yinchilarni aniqlash, ularni Osiyo va boshqa xalqaro musobaqalarda ishtirok etuvchi O'zbekiston Respublikasi terma jamoasiga saralash;

- gandbolchilarning sport mahoratini oshirish;
- chempionat va kubok g'oliblarini aniqlash;
- Respublikada gandbolni ommaviylashtirish.

### 1. Musobaqaga rahbarlik qilish

Musobaqalar 2001-yil Jahon Gandbol federatsiyasi tomonidan tasdiqlangan mas'ul qoida bo'yicha o'tkaziladi.

Musobaqani o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport Vazirligi, sport o'yinlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabi va O'zbekiston gandbol federatsiyasi bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Musobaqani o'tkazish bevosita O'zGF tomonidan tasdiqlangan hakamlar zimmasiga yuklatiladi.

Musobaqalarni o'tkazish joyi, hakam va jamoalarni kutib olish, joylashtirish, ovqatlantirish hamda kuzatib qo'yish viloyat gandbol federatsiyasi va musobaqa egasi bo'lgan jamoa zimmasiga yuklatiladi.

### 1. Musobaqalarni o'tkazish vaqti va joyi

**O'zbekiston Respublikasi chempionatlari aylanma tizimda o'tkaziladi**

<b>Tur</b>	<b>Jamoalar</b>	<b>Muddati</b>	<b>O'tkazish joyi</b>
I tur	Erkaklar	21-27 fevral	Andijon sh.
	Ayollar	21-27 fevral	Olmaliq sh.
II tur	Erkaklar	9-15 mart	Samarqand sh.
	Ayollar	16-22 mart	Samarqand sh.
III tur	Erkaklar	11-17 aprel	Farg'ona sh.

	Ayollar	18-24 aprel	Farg'ona sh.
IV tur	Erkaklar	6-12 iyun	Toshkent sh.
	Ayollar	13-19 iyun	Toshkent sh.

## **2. Mustaqil O'zbekiston kubogi**

1. Erkaklar jamoalari 12-16 sentyabr Toshkent sh.
2. Ayollar jamolari 19-25 sentyabr Toshkent sh.

## **3. O'zbekiston kubogi**

1. Erkaklar jamoalari 12-16 sentyabr Farg'ona sh.
2. Ayollar jamolari 19-25 sentyabr Olmaliq sh.

## **4. O'zbekiston birinchiligi**

1. 1986-87 yilda tug'ilgan o'smirlar	2-8 may	Andijon sh.
2. 1986-87 yilda tug'ilgan qizlar	10-17 may	Samarqand sh.
3. 1989-90 yilda tug'ilgan o'smirlar	7-13 noyabr	Farg'ona sh.
4. 1989-90 yilda tug'ilgan qizlar	14-20 noyabr	Samarqand sh.
5. 1991-92 yilda tug'ilgan bolalar	Belgilanayotgan vaqtda	Belgilanayotgan joyda
6. 1991-92 yilda tug'ilgan qizlar	Belgilanayotgan vaqtda	Belgilanayotgan joyda

## **4. Musobaqa qatnashchilari**

O'zbekiston chempionati va Kuboklariga klub jamoalari, BO'SM, sport tashkilotlari, viloyatlar, Qoraqalpog'iston va Toshkent shahar BO'SMlari ishtirok etishiga ruxsat etiladi.

Jamoa tarkibi 20 kishi, shu jumladan, Gandbol Federastiyasi listenziyasiga ega bo'lgan 16 o'yinchi, 2 murabbiy (trener), shifokor-uqalovchi va jamoa vakili.

Viloyatlar Qoraqalpog'iston va Toshkent shahar g'olibligini qo'lga kiritgan o'smirlar hamda qizlar jamoalari, O'zbekiston Respublikasi birinchilik musobaqalariga qatnashishiga ruxsat beriladi.

Jamoa tarkibi 14 kishi, shu jumladan, 12 o'yinchi, 1 murabbiy, 1 hakam.

Har bir tur yoki birinchilikka ishtirok etuvchi jamoalar hakamlar hay'ati viloyat sport qo'mitasi, mahalliy tibbiy dispanser va qatnashuvchi klub tomonidan tasdiqlangan 2 nusxadagi talabnomani (zayavka) topshirishi shart.

O'yinchi Chempionat va Kubok davomida faqat bitta jamoada (klubda) o'ynashi mumkin.

Ayrim holatlarda, ya'ni harbiy xizmatga chaqirilganda va zahiraga chiqqanda, doimiy yashash uchun boshqa joyga ko'chganda, oliy o'quv yurtlariga kirganda, Federasiya ijro qo'mitasi ruxsati bilan boshqa jamoaga o'tishi mumkin.

Respublika terma jamoa zahiralarini tayyorlash maqsadida, Toshkent shahar maktab va yoshlar jamoalari Respublika terma jamoasi sifatida Chempionat va Kubok musobaqalarida ishtirok etishiga ruxsat beriladi.

Bir jamoadan ikkinchi jamoaga o'tish muddati 2004-yil 1-dekabr dan 2005-yil 25-yanvargacha belgilanadi.

O'zbekiston terma jamoa o'yinchilari va stajerlarining boshqa jamoaga o'tishi faqat O'zRGF ijro qo'mitasi ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Musobaqalarga ishtirok etish uchun beriladigan talabnomalar har bir tur boshlanishidan 3 kun avval har bir o'yinchi uchun 10000 (o'n ming) so'm miqdorida Gandbol Federatsiyasi hisobiga badal o'tkazilgandan so'ng ko'riladi.

O'zbekiston Respublikasi klublari o'yinchisi Respublikaning boshqa klublariga o'tish gandbol federatsiyasi hisobiga 5000 (besh ming) so'm miqdorida pul o'tkazgandan so'ng amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi klublari o'yinchilari MDH (SNG) hamda chet el klublariga o'tadigan bo'lsa, 200 AQSH dollari milliy valyuta kursi hisobida Gandbol Federatsiyasi hisobiga o'tkazishi lozim.

Musobaqaning 1-turiga kelgan kuni barcha jamoalar hakamlar hay'atiga quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari shart:

– nomdor talabnoma (ismi sharifi, otasining ismi, tug'ilgan kun, oy, yili, sport unvoni, bo'yi va o'yinchining raqami, doimiy yashash joyi, ish joyi, o'qish va xizmat joyi);

– shaxsni tasdiqlovchi hujjat (ksero-nusxasi);

– pul to'langanligi to'g'risida hujjat nusxasi;

– ishtirok etuvchi jamoa klubining manzili, telefoni, faksi va ma'lumoti.

Yuqoridagi ko'rsatilgan hujjatlar asosida o'yinchi va trenerlarga listenziyalar beriladi.

Litsenziya musobaqalarga ishtirok etish uchun asosiy yuridik hujjat hisoblanadi. Litsenziya narxi – 1000 (bir ming) so'm.

### **5. Imtiyozli shartlar**

O'zbekiston birinchiligida g'olib bo'lgan 1986-87 yilda tug'ilgan yigit-qizlar Oliy o'quv yurtlari jismoniy madaniyat fakultetiga imtiyozli ravishda kirishga nomzodlik huquqiga egadirlar.

### **6. Jamoa natijalarini aniqlash**

Chempionatda jamoaning egallagan o'rni, Kubok va birinchilikda barcha o'yinlarida eng ko'p ochko to'plagan jamoa hisoblanadi.

Jamoaga g'alaba uchun 2 ochko, durang uchun 1 ochko, mag'lubiyat uchun 0 ochko, o'yinga kelmagan jamoaga 0:10 natija qayd etiladi.

Chempionat va birinchilikda ikki va undan ortiq jamoalar to'plagan ochkolari bir xil bo'lsa, ustunlik quyidagicha aniqlanadi:

- jamoalar o'rtasidagi uchrashuvlarda ko'p ochko to'plagan jamoa;
- barcha o'yinlarda ko'p g'alabaga erishgan jamoa;
- jamoalar o'rtasida o'tkazilgan o'yinda kiritilgan va qo'yib yuborilgan to'plar farqi;
- barcha o'yinlarda kiritilgan va qo'yib yuborilgan to'plar farqi.

Kubok musobaqalarida ikki jamoa uchrashuvida durang qayd etilsa, g'olibni aniqlash quyidagicha hal etiladi:

- 2 marta (5 daqiqalik ikki taym) qo'shimcha vaqt beriladi.
- 7 metrlik jarima to'pi otish (5 tadan) va g'olib aniqlanganicha.

Agar jamoalar o'yinga uzrli sabab bilan kech qolsa yoki kelmay qolsa, u holda qoldirilgan o'yin muddati bosh hakamlar hay'ati qarori bilan belgilanadi.

O'yinga sababsiz kelmagan yoki o'yin vaqti tugamasdan maydonni tark etgan jamoa musobaqadan chetlashtiriladi va uchrashuvda erishgan g'alabalari bekor qilinadi. Jamoaning xulq-atvori O'zbekiston Ganbol Federatsiyasi prezidiumida ko'rib chiqiladi.

### **7. Musobaqa o'tkazilish joylariga talablar**

O'zbekiston chempionati, Kuboklari va birinchiliklari XGF tomonidan tasdiqlangan xalqaro qoida bo'yicha, mazkur Nizom asosida yopiq inshootlarda o'tkaziladi.

- maydon yuzasi yog'och yoki sintetika bilan qoplangan bo'lishi shart;
- beton, asfalt, tabiiy tuproq bilan qoplangan maydonlarda musobaqa o'tkazish man etiladi.

Musobaqani tashkil etuvchi va qabul qiluvchi jamoalar zimmasiga quyidagilar yuklatiladi:

- ishtirokchi va hakamlarni joylashtirish va ovqatlantirishni tashkil etish;
  - jamoalarga sport zallarida ko'nikma xosil qilish uchun vaqt belgilash;
  - musobaqa o'tkaziladigan va jamoalar turar joylarida xavfsizlikni ta'minlash;
  - jamoa va hakamlarga qaytib ketishlari uchun chiptalar olishga ko'maklashish;
  - ishtirokchi, hakamlar va matbuot xodimlari uchun sport zalidan joy ajratish.
- Musobaqa o'tkazilish joylarini qoniqarsiz holda tashkil etgan mezbon jamoasi musobaqa o'tkazish huquqidan mahrum etiladi.

## **8. Intizomga zid harakatlar**

O'yinchi va murabbiylarning tartibsiz xulqi (hakamlikka appelyastiya qilish, bir-biriga, raqiblarga, muxlislarga qo'pollik qilish) sportchiga xos bo'lmagan qo'pol harakat hisoblanadi.

Sportchiga xos bo'lmagan harakati uchun o'yindan chetlatilgan o'yinchi bevosita keyingi o'yinga qo'yilmaydi.

O'yinni boshqaruvchi hakamlar va bosh hakam tomonidan o'yin maydonidan tashqarida turgan o'yinchilar, murabbiylar va boshqa mas'ul shaxslar, shuningdek, ogohlantiriladi va diskvalifikastiya qilinadi.

## **9. Norozilik (protest)**

Hakamlarni tayinlash, o'yin jadvali, qoida asosida hakamlar tomonidan qilingan qarorga norozilik (protest) berish mumkin emas.



Norozilik o'yin tugaganidan so'ng bir soat ichida bosh hakamga yozma ravishda berilishi shart (o'yindan so'ng darhol raqiblar jamoasi ogohlantirilib, o'yin bayonnomasiga belgilanib qo'yiladi)

### **10. O'yin ishtirokchilarini qayd etish tartibi**

O'zbekiston Gandbol Federatsiyasi tekshiruv hay'ati sport texnik hay'ati (STK) talablarini asosida jamoalarning hujjatlarini (jamoadan boshqa jamoaga o'tish va hokazo) tekshiradi.

Jamoa vakili chempionat va Kuboklarga qatnashish uchun muhr bilan tasdiqlangan 2 nusxadagi talabnoma, o'yinchilarning jamoa bilan shartnomasini taqdim etishlari lozim.

Hujjatlar nazoratdan o'tgandan so'ng o'yinchiga ushbu jamoa tarkibida musobaqalarga qatnashish xuquqini beruvchi listenziya beriladi.

O'zbekiston birinchiligida ishtirok etuvchi jamoa vakillari tekshiruv hay'atiga quyidagi xujjatlarni taqdim etishi kerak:

- bitiruv sinf o'quvchilari pasporti (pasportsiz musobaqaga qo'yilmaydi);
- boshqa o'quvchilarga tug'ilganligi to'g'risidagi guvohnoma va turar joyidan ma'lumotnoma;
- viloyat sport qo'mitasi va jismoniy tarbiya tibbiy dispanseri tomonidan tasdiqlangan 2 nusxada talabnoma.

Musobaqalar boshlanishidan bir kun oldin musobaqa mezbonlari jamoasi sport bazasida soat 17:00 da jamoa vakillari bilan yig'ilish o'tkaziladi.

Chempionat, Kuboklar va birinchilikda ishtirok etishni tasdiqlash uchun jamoalar 10-fevral 2004-yilgacha UzGFning qo'yidagi manzilgohiga yuborilishi lozim:

Toshkent sh. 700059, U.Nosir ko'chasi 81 «A» uy

BO'OZSM № 5. O'zbekiston gandbol Federatsiyasi bosh kotibi.

Tel: 50-88-46

Musobaqada ishtirok etish uchun talabnoma 10-fevralgacha O'zbekiston gandbol federatsiyasi Prezidiumiga yuboriladi va jamoalar uchun ayrim cheklashlar ko'rsatilib, musobaqaga qatnashishiga ruxsat beriladi.

Musobaqani o'tkazish tizimi qatnashuvchi jamoalar soniga bog'liq bo'lib, jamoa vakillari ishtirokida bosh hakamlar hay'ati tomonidan aniqlanadi.

## **11. Moliya shartlari**

Mazkur Nizom 2005-yilda o'tkaziladigan O'zbekiston chempionati, Kuboklari va birinchilik musobaqalariga taklif vazifasini o'taydi.

O'zbekiston chempionati va Kubok musobaqalarini o'tkazish xarajatlari (sport inshootlaridan foydalanishga ketadigan mablag', hakamlar uchun to'lov, ovqatlanish, joylashish, yo'l xarajatlari (yo'l harajatlari, musobaqa hakamlik to'lovlari, jamoa va o'yinchilarni taqdirlash) O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport Vazirligi hisobidan qoplanadi.

O'zbekiston chempionati va Kubok musobaqalarida qatnashish uchun sarf-harajatlar (yo'l harajatlari, ovqatlanish, joylashish) musobaqaga qatnashuvchi tashkilot hisobidan qoplanadi.

1986-87 yillarda tug'ilgan o'smirlar (qizlar) orasida O'zbekiston Respublikasi birinchiligi o'tkazish sarf-harajatlari (sport inshootlar arizasi, ishtirokchilarni joylashtirish va ovqatlantirish, yo'l harajatlari; hakamlarni joylashtirish, ovqatlantirish, maosh to'lash, jamoa va o'yinchilarni taqdirlash) O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport Vazirligi mablag'i hisobidan amalga oshiriladi.

Birinchilik musobaqalariga qatnashuvchi jamoalar yo'l harajatlari, musobaqaga qatnashmoqchi bo'lgan tashkilot hisobidan qoplanadi.

1988-89, 1990-91 yilda tug'ilgan o'smirlar (qizlar) orasida O'zR birinchiligini o'tkazish sarf-harajatlari musobaqaga qatnashuvchi va musobaqani o'tkazuvchi tashkilotlar mablag'i hisobidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston chempionati va Kubok musobaqalariga ishtirok etuvchi barcha jamoalar chempionatning 2-turi boshlangunga qadar federasiya ishini tashkil etish, shuningdek, chempionatni o'tkazish va o'yinchilar, murabbiylar va hakamlarni rag'batlantirish uchun – O'zGF hisobiga 100000 (yuz ming) so'm badal to'lashi shart.

## **12. Taqdirlash**

Birinchi o'rinni egallagan jamoaga «O'zbekiston Respublikasi chempioni» unvoni va O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport Vazirligining I darajali diplomi beriladi.

Jamoa o'yinchilari O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport Vazirligining I darajali diplomlari va qimmatbaho mukofotlari bilan mukofotlantiriladilar.

2, 3-o'rin sohiblari tegishli darajali diplomlar bilan taqdirlanadilar.

*Eslatma:* Oliy o'quv yurtlariga imtiyoz beruvchi musobaqalar hisoboti musobaqalar tugagandan so'ng 3 kun mobaynida O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligining OSYu boshqarmasiga topshirilishi shart, o'z vaqtida topshirilmagan hisobotlar qabul qilinmaydi.

O'zRGF Prezidiumi tomonidan tasdiqlangan chempionat, Kubok va birinchiliklarga kelishilgan «qo'shimchalar», ayrim uzgarishlar kiritilishi mumkin.

***Sport o'yinlari bo'yicha ROSMM***

***OSYu boshqarmasi***

***O'zR gandbol federasiyasi.***

**“TASDIQLAYMAN”**  
**Buxoro viloyati jismoniy tarbiya va sport bo`limi boshlig`i**

.....  
 “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2020 yil

**T A L A B N O M A**

**Buxoro shaxrida Gandbol sport turi bo'yicha erkaklar jamoalari o`rtasida viloyat birinchiligi o`yinlarida ishtirok etadigan Buxoro shahar terma jamoasi sportchilari tomonidan**

№	F.I.Sh.	Tug`ilgan kun, oy, yili	Sport unvoni	Bo`yi	Vazni	Ish, o`qish joyi	Pasport (yoki tug`ilganligi t/da guvohnoma) nomeri, kim tomonidan va qachon berilgan	Uy manzili	Shifokor ruxsati
1									
2									
3									
4									
5									
6									
7									
8									
9									
10									
11									
12									
13									
14									

**Murabbiy** \_\_\_\_\_

**Hakam** \_\_\_\_\_

**Shifokor** \_\_\_\_\_



**HISOBOT**

1. O`tkazish joyi :
2. O`tkazish muddati:
3. Qatnashuvchi jamoalar

№	Shaxar va tumanlar	Qatnashchilar soni	Ulardan qizlar soni	№	Shaxar va tumanlar	Qatnashchilar soni	Ulardan qizlar soni
1		10				10	
2		10				10	
3		10				10	
4		10				10	
5		10				10	
6		10				10	
7		10				10	
8		10					

Musobaqada 15 ta jamoa ishtirok etdi, jami qatnashchilar soni 150 ta ulardan qizlar \_\_\_\_

**4. MUSOBAQA NATIJALARI**  
(jamoaviy birinchilik)

I _____	V _____	IX _____
II _____	VI _____	X _____
III _____	VII _____	XI _____
IV _____	VIII _____	XII _____

**5. Hakamlar ro`yxati :**

1. _____	8. _____
2. _____	9. _____
3. _____	10. _____
4. _____	11. _____
5. _____	12. _____
6. _____	13. _____
7. _____	_____

**6. Moddiy baza holati va qatnashuvchilar intizomi**

**7. Protest va shikoyatlar**

Bosh hakam: \_\_\_\_\_

### **Mavzuga oid nazorat savollari:**

1. Gandbol maydoni o`lchamini ayting?
2. Zahiradagi o`yinchi kimning ruxsati bilan maydonga kirishi mumkin?
3. Darvozabon kiyimi (epikirovkasi) nimalardan iborat?
4. Hakam huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?
5. Musobaqa tizimlari haqida nimalarni bilasiz?

### **Adabiyotlar**

1. Pavlov SH.K va b. Sport ta`limi muassasalari uchun gandbol. – T. 2019.
2. Tulaganov SH.F., Raxmonova M.M. Gandbol nazariyasi va uslibiyati. – T. 2019.
3. sportzone.ru.sport.rules tarmog`idan olingan ma'lumotlar.

## GLOSSARIY

**ABSOLYUT KUCH** - bu o'z tana og'irligiga nisbatan ko'rsata oladigan kuchi. Masalan, shtanga ko'tarish, dinometrda kuchni ko'rsatish.

**AMALIY NAZORAT** Amaliy holatiga baho beriladi ya'ni sportchi organizimiga musobaqa va mashg'ulot darslaridagi yuklamalar ta'siri. Shuningdek: nazoratni chuqurlashtirilgan, tanlangan, maxalliy kabi turlari bor.

**APELLYASTION HAKAMLAR HAY'ATI** - yengil atletika bo'yicha ma'lum bir aniq musobaqalarda 3 – 5 – 7 kishidan tashkil topgan mutaxassislar guruhi bo'lib (ushbu musobaqa hakamlar kollegiyasi tarkibida ishirok etmaydigan kishilardan tashkil topgan bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi), ularning asosiy vazifasi tarkibiga musobaqa davomida vujudga keluvchi masalalarni hal qilish, barcha norozilik arizalari va baxsli masalalarni yechish kabilar kiritiladi. Hakamlar hay'atining qarori yakuniy, hal qiluvchi o'ringa ega hisoblanadi.

**ARBITR** – tortishuvlar o'rtasidagi vositachi, hakam. Futbolda bu tushuncha klassik kurashdan kelgan. Unda kurash maydonida (gilamda) bo'lgan, ikkita kurashchining kurashini boshqarayotgan hakam arbitr deb aytiladi. Futbolda maydondagi hakam arbitr deyiladi.

**ASOSIY VAQT** – futbolda bitta bo'lim uchun 45 – minut, to'liq o'yin uchun 90 – minut qilib belgilangan vaqt. Bo'lim va o'yin – ko'rsatilgan vaqtdan kam davom etmasligi kerak (favquloddagi vaziyat va holatlar bundan mustasno).

**AUT** (ing.outs) – bu tushuncha inglizcha “tashqarida, chetda” so'zlaridan kelib chiqqan. To'pning maydon yon chizig'idan chiqib ketishi. Agar futbolda to'p yon chiziqdan chiqib ketsa, o'yin to'xtatiladi va xuddi shu joydan ikki qo'l bilan boshning tepasidan otish bilan to'p o'yinga kiritiladi.

**BALANDLIKKA SAKRASH** – vertikal holatdagi yengil atletika sakrash turi bo'lib, yugurib kelish orqali, bitta oyoqqa tiralib sakrash va ma'lum bir balandlikka o'rnatilgan plankadan oshib o'tib, maxsus porolondan tayyorlangan gilamga tushishdan tashkil topadi.



**BALANDLIKKA SAKRASH USULLARI** – sportchilarning tiralib itarilishga tayyorlanishi, tiralib itarilish va plankani zabt etish uchun sakrashning uchish fazasi ko'rinishidagi farqlanuvchi harakatlaridan tashkil topadi. Yugurib kelib, balandlikka sakrashda nisbatan samarali sakrash usullari sifatida «*fosbyuri-flop*» usuli (hozirgi kunda balandlikka sakrash bo'yicha ta'lim oluvchi deyarli barcha sportchilar foydalanuvchi usul), «*hatlab o'tish*» usuli (balandlikka sakrashda boshlang'ich o'rganish davrida foydalaniluvchi, nisbatan oddiy usul) va «*oshib o'tish*» usuli (XX asrning 1980 – yillarida foydalanilgan usul) kabilar ko'rsatib o'tiladi.

**BAHSLI TO`P** – to`p o`yinda bo`lgan vaqtda o`yin qoidasida ko`zda tutilmagan holat bo`yicha vaqtincha to`xtatilgandan so`ng o`yinni yangilash usulidir. Hakam o`yinni to`xtatganda to`p qayerda bo`lsa o`sha joydan to`pni tashlab beradi. To`p yerga tegishi bilan o`yin davom ettiriladi. Agar o`yinchi to`p yerga tegmasidan oldin tegsa, to`p yerga tekkandan so`ng maydon tashqarisiga chiqib ketsa va bunda hech qaysi o`yinchi to`pga tegmagan bo`lsa qaytadan bajariladi.

**BO`SM** - Bolalar o`smirlar sport maktabi

**BOSQICHLI NAZORAT**- Sportchining uzoq vaqt shug'ullangan mashg'ulot natijalarini bosqichlardagi holatini baholaydi. Sportchilarning bunday holati yillarda, makrostiklda, bosqichlardagi tayyorgarligining natijasidir.

**BOSQON**– yengil atlektikada uloqtirishning maxsus snaryadi hisoblanib, sharsimon yadro va unga mahkamlangan po'lat sim (*tros*) va snaryadni ulash uchun dastakka ega bo'lgan anjom hisoblanadi. Bosqonning og'irligi 3, 4, 5, 6, 7,26 kg ga teng hisoblanadi (sportchilarning jinsi va yoshiga bog'liq holatda).

**BOSQICH** – musobaqa yoki chempionat davri.

**BOSQICHLAR**– tahminan 192 metrga teng bo'lgan yugurish uzunligi masofasini anglatadi. Masofaga yugurish bosqichi – bu eramizgacha 776 yilda Qadimiy Grestiyada bosqichlar bo'yicha yugurish yengil atletikaning turlaridan biri hisoblangan. Ushbu atama (*stadiya*) asosida «*stadion*» so'zi kelib chiqqan.

**BOSQON ULOQTIRISH**– maxsus sport anjomini (*snaryad*) – bosqonni 2,135 diametr o'lchamdagi doira ko'rinishidagi sohadan turib, uloqtirishdan tashkil topgan yengil atletika uloqtirish mashqi turidan iborat hisoblanadi.

**BOSHLANG'ICH YUGURISH**– yengil atlektikaning yugurishga oid turlarida eng yaxshi sportchilarni ushbu sport turi bo'yicha final yoki yarim final bellashuvlari uchun saralab olish maqsadidagi birinchi bosqich hisoblanadi.

**BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK BOSQICHI**– yengil atletikada sportchilarning ko'p yillik tayyorgarligi tarkibida boshlang'ich bosqichdan tashkil topgan bo'lib, uning maqsadi – bolalarning yengil atletika sport turi bo'yicha har tomonlama jismoniy va texnik jihatdan tayyorgarligidan tashkil topadi, shundan keyingina tur guruhlari bo'yicha saralash ixtisoslashtirilishini amalga oshirish mumkin. Mashq qiluvchilarning yoshi 10 – 14 yosh oralig'ini tashkil qiladi. Bu bosqichda sportchilar o'smirlik razryadiga ega bo'lishlari mumkin.

**BOSHLANG'ICH IXTISOSLASHTIRILISH BOSQICHI**– yengil atletikada sportchilarning ko'p yillik tayyorgarligida bosqichlardan biri bo'lib, uning maqsadi – yengil atletika tur guruhlarida sportchilarning har tomonlama tayyorlanishi va asta – sekin alohida turlar bo'yicha nisbatan tor doiradagi ixtisoslashtirishga o'tkazilishi bilan belgilanadi. Bunda mashq qiluvchilarning yoshi 13 – 15 yoshni tashkil qiladi. Bu bosqichda sportchilar III, II, I razryadlar uchun belgilangan me'yorlarni (*normativ*) bajarishadi.

**BOSHLANG'ICH ZARBA** – futbol sportida boshlang'ich zarba bu o'yinni boshlash yoki o'yinni yangilash uchun qo'llaniladigan usuldir: o'yin boshida; urilgan goldan so'ng; ikkinchi taym boshida.

**BHH** – Bosh hakamlar hay'ati.

**BURCHAK SEKTORI** – futbol maydonining har bir burchagi ichidan radiusi 1 m. bo'lgan yoy chiziladi. Mazkur yoy hosil qilgan maydonchaga burchak sektori deyiladi.

**BURCHAK TO'PI** – futbol o'yinida to'p himoyalananayotgan jamoa o'yinchilariga tegib maydondan to'liq havoda yoki yerga tegib maydonni tark etsa, burchak to'pi hakamning ko'rsatmasiga asosan amalga oshiriladi. To'p

ko`rsatilgan 1 m radiusli burchakdagi bayroqcha oldidan (maxsus sektor ichidan) tepiladi. Burchak to`pi amalga oshirilayotganda raqib o`yinchisi tepilayotgan joydan kamida 9 m masofada turishi lozim.

**BUTSI** – futbol o`yini uchun mo`ljallangan, charmdan tayyorlangan maxsus oyoq kiyimidir. Oddiy oyoq kiyimidan butsining asosiy farqi, butsida cho`g`ir va maxsus qo`njning bo`lganligidadir.

**GOL** – ingliz tilidan tarjimasi maqsad, mazmuniga ko`ra “mo`ljal” ma`nosini bildiradi, maydonda to`p urish uchun o`rnatilgan darvozalarning shartli belgilanishi. O`yin 19-asrda paydo bo`lgan, u paytda hozirgidek darvozalar maydonda bo`lmagan. O`yin vaqtida to`p, raqib maydonining yarmiga, ikkita ustun o`rtasidagi chiziq orqasiga keltirilishi – maqsadli mo`ljalga tegishi, kerak bo`lgan. Keyinchalik ustunlar yuqoridan gorizontal ustun bilan birlashtirilib, zamonaviy darvozani hosil qildi, ammo nomlanish eskicha – gol, ya`ni mo`ljal bo`lib qoldi. Urilgan to`plarning nomi shundan kelib chiqqan.

**G`OV**– har bir yo`lakda o`rtantiluvchi to`siq ko`rinishidagi holat hisoblanib, yuqorigi plankasiga oyoq tekkan holatda yiqilishi mumkin. Uning ko`rsatkichlari: balandligi masofa va sportchilarning jinsiga bog`liq holatda, 76,2 sm dan 106,7 sm gacha belgilanadi, to`siqning umumiy og`irligi qiymati 10 kg dan ortiq bo`lmaydi.

**G`OVLAR OSHA YUGURISH**– sportchilar masofani yugurib o`tish davomida g`ovlarni oshib o`tishi belgilangan, guruh holatidagi yugurishdan tashkil topgan yengil atletika turi hisoblanadi. Qisqa masofali g`ovlar osha yugurishda masofa ayollar uchun 100 metrni tashkil qilib, erkaklar uchun esa – 110 metr qilib belgilanadi (inshoot ichida to`siqlar bilan 60 metr masofa belgilanadi), uzoq masofaga yugurishda g`ovlar bilan birgalikdagi masofa 400 metr sifatida belgilanadi.

**G`OVLARDAN OSHUVCHI (BARERIST)** – to`siqlar osha yugurishni amalga oshiruvchi yengil atletikachi sportchi hisoblanadi.

**DARVOZA** – futbol maydoni burchak flanglaridan bir xil uzoqlikda turgan, 7,32 m masofada joylashgan, 2, 44 m balandlikda gorizontal metall bilan ulangan, ikkita vertikal ustun. Darvozaning o`lchamlari bu sport turi asoschilari bo`lgan

inglizlar tomonidan kiritilgan. Ingliz o`lchov birliklari bo`yicha darvoza kenligi 24 - fut, balandligi – 8 fut.

**DARVOZA ICHI** – futbol darvoza maydoni chizig`ining ichkari qismi (to`sin va ustki qismi kirmaydi).

**DARVOZABON** – darvozabonning asosiy vazifasi bevosita o`z darvozasini himoya qilishdir. Bunda «darvozadagi harakatlar» bilan «darvozadan chiqqandagi harakatlar»ni ajratib ko`rsatish mumkin.

**DARVOZABON KIYIMI** – darvozabonlar kiyimining rangi boshqa o`z jamoasi, raqib jamoa o`yinchilari hakam va hakamning yordamchilari kiyimi rangidan farq qilishi kerak.

**DARVOZABON MAYDONCHASI** – futbolda jarima maydoni ichkarisi, unda darvozabon bilan har qanday kurashish taqiqlanadi.

**DASTUR** – musobaqalar dasturi – yengil atletikaning mazkur musobaqa o`tkazilayotgan turlari ro`yxati.

**DISK**– doira shaklidagi, og`irligi 1, 1,5, 1,75, 2 kg va diametr o`lchami 180 – 220 mm ga teng bo`lgan (sportchilarning jinsi va yoshiga bog`liq holatda) sport anjomi (*snaryad*) hisoblanadi.

**DISK ULOQTIRISH** – maxsus sport anjomini (*snaryad*) – diskni aylana diametri 2,5 metr bo`lgan sohadan turib uloqtirishdan tashkil topgan, yengil atletika uloqtirish mashqi turidan iborat hisoblanadi.

**DISKVALIFIKATSIYA** – bitta sportchini yoki butun bir jamoani reglament (o`rnatilgan tartibni), qoidalarni buzganligi, hurmatga loyiq bo`lmagan harakatlar qilganligi uchun musobaqalarga qatnashish huquqidan mahrum etish.

**YERGA TUSHISH JOYI** – gorizontal holatdagi yengil atletika sakrash turida ichi qum bilan to`ldirilgan handaq (qazilgan soha), vertikal holatda sakrashda esa – maxsus parolondan tayyorlangan gilam (*mat*) hisoblanadi.

**JADVAL** – musobaqalar jadvali – sport turlarining ulardan har biri bo`yicha musobaqa o`tkaziladigan kun va soat ko`rsatilgan ro`yxati.

**JARIMA ZARBASI** – ongli ravishda qoida buzilganda, masalan, raqibga nisbatan qo`pol o`ynalganda, kiritiladigan jazo tadbiri. Futbolda qoidani buzgan

jamoaning o'yinchilari to'pga 9 m dan kichik masofada, to'p o'yinga kiritilgunga qadar, yaqinlashishlari mumkin emas. Jarima zarba erkin zarbadan mana shunisi bilan farq qiladi.

**JARIMA MAYDONCHASI** – futbolda darvoza oldidagi maydonning cheklangan sohasi. Turg'un o'lchamlarga ega: darvozaning har bir ustunidan uning bir tomoniga 16,5 m va maydon markaziga tomon 16,5 m. belgilangan umumiy maydoni 665 m<sup>2</sup>. Jarima maydonchasi ichida darvozadan 11 m masofada penaltini bajarish uchun nuqta belgilanadi. Bu nuqtadan jarima chegarasidan tashqarida 9 m masofaga yoy chiziladi, futbolchilarga penaltini urish vaqtida bu chegaraga kirish mumkin emas, darvozabon va penaltini uruvchi bundan mustasno.

**«JAVOHIR (BRILLIANT) LIGA» («OLTIN LIGA»)**– IAAF tomonidan o'tkaziluvchi, yengil atletika bo'yicha tijorat maqsadlaridagi musobaqalar seriyasi.

**JQTSI** - Jami qurib topshirilgan sport inshootlari

**JT va SBSH** - Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilar

**JISMONIY TARBIYANING VOSITASI** - Ko'p yillik jismoniy tarbiya jarayonida *jismoniy mashqlar, tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlari va gigienik omillardan* jismoniy tarbiyaning vositasi sifatida foydalaniladi.

**JISMONIY MASHQ** - deb, jismoniy tarbiya qonuniyatlari talablariga javob beruvchi, ongli ravishda bajariladigan ixtiyoriy harakat faoliyatlarining turli turkumi tushuniladi. Bunday harakat faoliyatlari gimnastika, o'yinlar, sport, turizm mashqlari sifatida tarixan tizimlashtirildi, usuliyati to'plandi va to'ldirildi.

**IAAF** – Yengil atletika bo'yicha Xalqaro assostiastiya (*IAAF*) – dunyo miqyosida yengil atletika musobaqalarini o'tkazish va uni rivojlantirishni boshqarish organi hisoblanadi. IAAF 6 ta mintaqaviy yengil atletika assostiastiyalarini o'z tarkibiga birlashtiradi. IAAF a'zolari sifatida 213 ta mamlakat qayd qilib o'tiladi.

**IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK NAZORAT** - Sportchi shaxsini, uning ruhiy holatini, tayyorgarligini, musobaqa faoliyatidagi umumiy mikroklimatni va mashg'ulot holati xususiyatlarini ko'rib chiqadi.

**ITARILISH UCHUN BRUSOK** – joyidan turib gorizontol holatda sakrash uchun sportchining itarilishi sohasi hisoblanadi.

**ICHKI KUCH** - a) harakat tayanch apparatining *passiv kuchi* — muskulning elastikligi kuchi, muskullarni taranglashish kuchi, cho'zila olishligi va boshqalar; b) harakat apparatining *aktiv kuchi* — muskulni tortisha olish kuchi; v) *reaktiv kuchlar* — tana muskullari zvenolarining o'zaro munosabatida vujudga keladigan yuqori tezlanish hosil qiladigan tezlanish harakatlari bilan namoyon bo'ladigan kuch.

**KAF** – Afrika futbol konfederatsiyasi.

**KVALIFIKASTION MUSOBAQA** – final musobaqasida ishtirok etish uchun eng yaxshi sportchilarni saralab olishda uloqtirish va sakrash yengil atletika sport turlari bo'yicha o'tkaziluvchi musobaqa turi hisoblanadi.

**KROSS** – kesishuvchi joy bo'ylab o'rta va uzoq masofaga yugurish hisoblanadi. Bu sport turi Olimpiya o'yinlari turi sifatida qayd qilinmagan.

**KUNDALIK NAZORAT** - Kundalik holatni baholashga qaratiladi ya'ni mashg'ulotlar yoki musobaqa makrostiklida bir qator darslar yuklamasining oqibatida paydo bo'ladi.

**KUCH** - Kundalik turmushda kuch so'ziga har xil ahamiyat beriladi. Kuch ilmiy tushuncha sifatida, imkoniyati boricha aniq bo'lishi kerak. Quyidagi kuchlarni farq qilinishi quyidagicha:

1. Kuch harakatning mexanik xarakteristikasi sifatida (tanaga "T" massa bilan kuch ta'sir etadi).

2. Kuch insonga xos bo'lgan sifat jarayoni. Misol: Sportchining kuchi yoshi o'zgarishi bilan kuchni rivojlantirish; sport bilan shugullanuvchilar kuchi sport bilan shug'ullanmaganlarga qaraganda katta bo'ladi. Masalan: ilmiy tadqiqot ko'rsatkichlari bo'yicha maktab o'quvchilarining kuchlarini rivojlanishi sport bilan shug'ullanuvchilarga nisbatan past bo'ladi.

**KONKAKAF** – shimoliy va markaziy Amerika mamlakatlari hamda Karib dengizi havzasi mamlakatlarning futbol konfederatsiyasi.

**KONMEBOL** – Janubiy Amerika mamlakatlari futbol konfederatsiyasi.

**KO'PKURASH** - yugurish, sakrash va uloqtirishning har xil turlarini o'z ichiga oladi. Ko'pkurash tarkibidagi turlar miqdoriga qarab nomlanadi. Uchkurash, to'rtkurash, beshkurash. oltikurash, sakkizkurash, o'nkurash. Ko'pkurashning asosiy turlari: erkaklar uchun - o'nkurash va ayollar uchun beshkurash va o'spirinlar uchun oltikurash va sakkizkurash. Musobaqa esa ikki kunda o'tkaziladi.

**KUBOK** – g'alaba uchun beriladigan mukofot. Nom idish yoki bochka ma'nosini bildiruvchi lotincha “kupe” so'zidan kelib chiqqan. Mukofot internatsional bo'lgani uchun uning nomi hamma tillarda bir-biriga o'xshash jaranglaydi. Angliyada – kap, Frantsiyada – kup, Ispaniya va Italiyada – kopa, Vengriyada yaupa.

**KUBOK O'YINI** – mag'lubiyatdan so'ng musobaqani tark etish tizimidagi o'yinlar. Odatda, bu o'yinlar natija uchun yuqori javobgarlikni talab qiluvchi hisoblanadi, bu esa kubok o'yinlarini ancha sermazmun va tomoshabinbopligini oshiradi. Kerak bo'lsa, har bir o'yinchining maydonning har bir qarichida to'p uchun, g'alaba uchun qat'iy kurash olib borishi bilan qiziqarlidir.

**KFO** – Okeaniya futbol konfederatsiyasidir.

**QISQA MASOFAGA YUGURISH (SPRINTER YUGURISH)** – 400 metr masofaga yugurishni o'z ichiga oluvchi, guruh holidagi amalga oshiriluvchi yengil atletika sport turi hisoblanadi.

**QIZIL KARTOCHKA** – futbolda, shu bilan birga, qo'l to'pi, xokkey (to'p bilan), regbi, yengil atletika kabi sport turlarida hakam tomonidan maydondan chetlashtirish, chiqarib yuborish ko'rsatmasi belgisi tarzida ko'rsatiladi. Futbol qoidasiga ko'ra, hakam tomonidan qizil kartochka ko'rsatilgan sportchi o'yinni va maydonni albatta, shu zahoti tark etishi lozim (o'yin oxirigacha o'yinga kirmaydi). Uning jamoasi esa uni boshqa o'yinchiga almashtirish huquqiga ega emas. Qizil kartochka o'yinda o'yinchining qo'pol ravishda qoida buzganligi, rejalashtirilgan atayin zarba berishi yoki haqorat qilishi oqibatida ko'rsatiladi. Shu bilan birga quyidagi sabablarga ko'ra o'yinda o'yinchiga qizil kartochka beriladi: Futbolda o'yinchi tomonidan o'yin qoidasining jiddiy buzilishi; o'yinchi tomonidan tajovuzkor harakat yoki tartibsizlik qilinishi; o'yinchi tomonidan raqib

yuziga tuflash yoki boshqa shunga o`xshash xatti – harakatlar; raqib o`yinchisining gol kiritishiga unga nisbatan o`yin qoidasini buzgan holda xalaqit berib, uni gol urish imkoniyatidan mahrum qilganda yoki qo`l bilan atayin o`ynaganda (darvozabonlar o`z jarima maydonlari ichida bo`lgan vaqtda bundan istisno); o`yinchi raqib darvozasi tomon harakatlanganida yoki gol urish imkoniyatini qo`pol buzib, uni mahrum qilsa, bunda hakam tomonidan erkin zarba berish yoki jarima to`p belgilash yoki 11 metrlik masofadan darvozaga zarba berishi amalga oshiriladi; o`yinchini kamsitadigan, xafa qiladigan va boshqa shunga o`xshash so`zlarni aytganda yoki raqib o`yinchisi bilan o`zaro aytishuvlar yoki unga nisbatan qo`pol xatti-harakatlar, imo-ishoralar va boshqalar uchun; o`yin davomida ikkinchi sariq kartochka bilan jazolanganda.

**QISQARTIRILGAN MUSOBAQALAR** – bir necha soat mobaynida o`tkaziladi. Ular, odatda, bayram kunlariga va sport mavsumining ochilish yoki yopilish kunlariga rejalashtiriladi.

**QTSH** – Qayta ta`mirlangan suzish havzalari

**QOIDALAR** – musobaqalarni o`tkazishning asosiy shartlarini belgilaydigan qoidalar.

**QURA TASHLASH (jerebyovka)** – musobaqalarga qatnashuvchi jamoalarning maydon tomonlarini va ma`lum tartiblarni tanlashi.

**QO`SHIB BERILGAN VAQT** – quyidagi holatlarga ketgan vaqt ikki bo`limning har qaysisiga qo`shib beriladi: o`yinchilarni almashtirishga; o`yinchining jarohatini jiddiyligini aniqlashga; jarohatlangan o`yinchilarga tibbiy yordam ko`rsatish uchun ularni maydon tashqarisiga olib chiqishga; qasddan o`yin vaqtini cho`zish. Qo`shib berilgan vaqtning davomiyligini faqat hakam aniqlaydi.

**QO`SHIMCHA VAQT** – o`yinining asosiy va qo`shib berilgan vaqtdan tashqari beriladigan vaqt ya`ni *ekstra-taym*. Asosan o`yinining g`olibini aniqlash yoki ikki o`yin hisobiga ko`ra g`olibni aniqlash maqsadida belgilanadi. Qo`shimcha vaqt – ikki bo`limdan iborat, har bir bo`lim 15 minutdan o`ynaladi. Undan tashqari har bir bo`lim uchun vaqt qo`shilib berilishi mumkin.



**LANGARCHO'P BILAN SAKRASH** – vertikal holatdagi yengil atletika sport turi bo'lib, maxsus moslama – tayoq (*shest*) yordamida ma'lum bir balandlikka o'rnatilgan plankani oshib o'tish va maxsus porolondan tayyorlangan gilamga tushishdan tashkil topadi.

**LIBERO** – italyan atamalariga ko'ra “tozalovchi” ma'nosini bildiradi, bu himoya vaqtida o'z kasbdoshlari o'rnini bo'sh qoldirmaslikka harakat qiladi.

**LIDER** – bu mamlakatda yoki dunyoda eng kuchli bo'lgan, chempionat jadvalining boshida turgan jamoa. Bu ibora terma jamoa yoki klubning yetakchi o'yinchilariga nisbatan ham qo'llaniladi. Yuqori o'yin mahoratini ko'rsata oluvchi, natijaga olib keluvchi kombinatsiyalarni tuza oluvchi forfard (yetakchi, oldingi) o'yinchi hujum lideri deyiladi.

**MAYDON** – o'yin bo'lib o'tadigan joy. Uzunligi 90 dan 120 metrgacha, eni 45 dan 90 metrgacha bo'ladi.

**MAYDON MARKAZI** – maydon o'rta chizig'ining o'rtasida joylashgan nuqta. Markaz atrofida radiusi 9 m ga teng bo'lgan aylana soha chizilgan. Har bir taym boshida va urilgan goldan keyin to'p maydon markaziga o'rnatiladi. Futbolchilar to'pni markazdan to'p aylanasi uzunligiga teng bo'lgan masofaga surishgan vaqtda o'yin tiklanadi. O'yin markazidan o'ynashda raqiblar 9 metrli sohadan keyinda turishlari kerak.

**MARKAZIY DOIRA** – maydondagi belgi elementi. Maydon markazidan hisoblaganda 9 metrli radiusga ega. Boshlang'ich zarba berilayotganda raqib o'yinchilari bo'lmasliklari kerak bo'lgan sohani bildiradi.

**MASHG'ULOT** – bu olingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va takomillashtirishga qaratilgan tayyorgarlikning keyingi bosqichi. Mashg'ulotning asosiy mazmuni - texnik usullarni taktikadagi individual, grupp va jamoa harakatlarini takomillashtirishdan, jismoniy, axloqiy va irodaviy xislatlarni rivojlantirishdan iborat. Sport mashg'uloti bu boshqarish metodi asosida tizimli tarzda sportchilar tayyorlashdir.

**MARAFON** – yengil atletikada eng uzoq masofaga yugurish hisoblanib, uzunlik masofasi 42 km 195 metrni tashkil qiladi.

**MARAFONCHI** – marafon yugurish musobaqasida ishtirok etuvchi yengil atletikasi sportchi hisoblanadi.

**MAHALLIY NAZORAT** – Bitta yoki bir nechta ko'rsatkichlarda foydalanilishga asoslangan ya'ni, harakat funksiyalarini, alohida funksional tizimining imkoniyatlarini tor tomonlarini baholashga yo'l qo'yishdir. Chuqurlashtirilgan nazorat odatda bosqich holati amaliyotida ishlatiladi. Tanlash va mahalliy nazorat kundalik va amaliy nazoratda ishlatiladi. Nazorat usul va vositalardan tashqari, ijtimoiy psixologik va medistina-biologik xarakterda bo'ladi.

**MIKROSIKL** – sport turlarining kichik mashg'ulotlar siklidan tashkil topgan bo'lib, tarkibi 5 – 10 ta mashg'ulotlar mashqlaridan iborat hisoblanadi. O'z navbatida, mikrostiklni rejalashtirishda haftalik oraliq davrdan foydalaniladi.

**MO'T** – musobaqa o'tkazayotgan tashkilot.

**MEZOSIKL (BOSQICH)** – sport turlarining yillik tayyorgarligi davomida 4 – 8 haftadan tashkil topgan (*mikrosikllar*) mashg'ulotlar sikli bo'lib, uning asosiy vazifasi – sportchilarda bitta yoki ikkita aralash holatdagi maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirishdan tashkil topadi.

**MUSOBAQANING BOSH KOTIBI** – musobaqaning barcha bayonnomalarni tayyorlash va yuritish uchun, ishtirokchilardan arizalarni qabul qilish, musobaqa yakunlarini amalga oshirish javobgar bo'lgan hakam hisoblanadi.

**MUSOBAQANING BOSH HAKAMI** – musobaqaning tayyorlanishi, tashkil qilinishi va to'g'ri tartibda o'tkazilishi uchun javobgar bo'lgan, hakamlar brigadasi faoliyatini nazorat qiluvchi, musobaqaning yakunlarini amalga oshiruvchi hakam hisoblanadi.

**MEDISINALI-BIOLOGIK NAZORAT** - Sog'ligini, funksional tizimlari imkoniyatlarini, alohida organlar va mexanizmlarni, musobaqa faoliyatidagi asosiy mashg'ulotlarni olib boruvchi yuklamalarni ko'rib chiqadi. Hozirgi vaqtda sport mashg'ulotlari nazariyasi va uslubiyatining turli xil vositalari, usullari qo'llanilayotgangani uchun oxir oqibatda «majmuaviy nazorat» tushunchasi paydo bo'lishiga olib keldi. Majmuaviy nazorat musobaqa faoliyatida va mashqlar jarayonida sportchining har tomonlama tayyorgarligini ta'minlaydi.

**MURAKKAB REAKSIYA** - tanlay olish reakstiyasidir. Oldindan belgilangan harakatni bajarish uchun bir necha signal ichidan shartlangani tanlab olinadi yoki bir signalga oldindan belgilangan bir necha harakatdan kelishib olinganini bajarish tushuniladi.

**NAYZA** – yengil atletika sport turida uloqtirish anjomi bo'lib, uchta asosiy qismdan tashkil topgan: jumladan, dasta, metaldan yasalgan uchlik va o'rama qismi. Dasta qismi butun yoki ichi bo'sh holatda ishlangan bo'lib, metaldan yasaladi va metal uchlikka mahkamlanadi, metal uchlik o'tkir oxirgi qism bilan tugallanadi. Nayzaning og'irligi 600, 700, 800 gramm, uzunligi ayollar uchun 2,20–2,37, erkaklar uchun 2,60 – 2,70 metrni tashkil qiladi (sportchilarning jinsi va yoshiga bog'liq holatda).

**NAYZA ULOQTIRISH** – maxsus sport anjomini (*snaryad*) – nayzani belgilangan masofa bo'ylab to'g'ri yo'nalishda yugurishdan keyin uloqtirishdan tashkil topgan yengil atletika uloqtirish mashqi turidan iborat hisoblanadi.

**NIZOM** – O'zbekiston hududida sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish uchun rasmiy qoidalar.

**NP** – nazorat punkti, ishtirokchilarning yig'ilish joyi.

**OZIB CHARHASH** - unga uchragan kishi gavdasini qurigan va kovjiraganrok sezadi.

**OGOHLANTIRISH:** 1) o'yin qoidasini buzgan o'yinchiga hakam tomonidan beriladigan og`zaki ogohlantirish; 2) hakam tomonidan sariq kartochka ko`rsatilishi.

**OFK** – Osiyo futbol konfederatsiyasi.

**OFSAYD** – o'yindan tashqari holat.

**OXIRGI JAZO UMIDI** – o'yinchi yugurayotganda raqib darvozasi tomon gol urish imkoniyati yaxshi bir vaziyatda raqibi qoidani qo`pol buzib, uni goldan mahrum qilsa, bunda hakam tomonidan erkin zarba berish yoki 11 metrlik masofadan darvozaga jarima zarba beriladi yoki qizil kartochka ko`rsatilib, o'yin qoidasini buzgan o'yinchi maydondan chetlatiladi.

**PLANKA** – vertikal holtdagi yengil atletika sakrash turida maxsus moslama bo'lib, shishatoladan (*fiberglass*) tayyorlanadi yoki boshqa ushbu maqsad uchun yaroqli materiallardan ishlanishi mumkin, biroq metaldan yasalmaydi, planka ma'lum bir aniqlikdagi ustunga o'rnatiladi. Balandlikkaa sakrashda plankaning umumiy o'rnatilish balandligi 4 metrni tashkil qiladi, langarcho'p bilan sakrashda esa uning o'rnatilish balandligi 4,5 metrni tashkil qiladi. Plankaning dumaloq shakldagi qismining diametr o'lchami 30 mm ni tashkil qiladi.

**PENALTI** - (inglizcha “penaltu” – jazolash, “penaltu kick”, – jarima zarba) – futbolda darvoza chizig`idan, maxsus darvoza tomon belgilanadigan zarba, faqatgina darvozabon tomonidan himoyalangan, 11 metrli belgidan tepiladi.

**PORTLASH KUCHI** – deb, qisqa vaqt ichida katta kuch ko'rsata olishlik qobiliyatidir.

**PSIXOLOGIK TAYYORGARLIK** – yengil atletikachining sport tayyorgarligining bitta jihati bo'lib, sportchida ma'naviy – ahloqiy – iroda sifatlarining rivojlantirilishiga yo'naltiriladi, shuningdek uning muvozanatlashgan holatda bo'lishni o'zlashtirishi, sport janglarini sovuqqonlik bilan o'tkazishi, o'quv – mashg'ulotlar va musobaqa faoliyatida qiyinchiliklarni yengib o'tishiga qaratiladi.

**REGLAMENT** – musobaqalarni umumiy tashkil etish va alohida turlar bo'yicha bellashuvlar o'tkazish tartibini belgilaydigan reglament.

**REFERI** – futbol hakami (bosh hakam, maydondagi hakam).

**SAKRASH** – yugurib kelib yerdan depsinish natijasida hosil bo'lgani uchun, ya'ni tayanchsiz faza vaqti uzoqligi bilan harakterlanadi.

**SAKRASH** – odamning vertikal yoki gorizontal holatdagi to'siqni oshib o'tishi usuli hisoblanadi.

**SARIQ KARTOCHKA** – futbol va boshqa sport turida o'yinchiga ogohlantiruvchi jazo belgisini bildiradigan o'yinni boshqarayotgan hakam qarori. Bu kartochka o'yinchi tomonidan quyidagi o'yin qoidalari buzilgan paytda hakam tomonidan o'yinchiga ko'rsatiladi: Futbolchi harakatidagi shartga xiloflik paytida; hakam ko'rsatmasi, qarori bilan rozi bo'lmagan, o'yinchi tomonidan noroziliklari

(aytilgan soʻzi yoki imo-ishoralari)ni bildirishi va namoyish etishida; oʻyinchi tomonidan oʻyin qoidasining muntazam buzilganda; oʻyinda oʻyin vaqti boshlanishini atayin choʻzgan oʻyinchiga; oʻyinda, burchak toʻpi, jarima yoki erkin zarba vaqtida kerakli masofada turishga rioya qilmagan oʻyinchiga; hakam ruxsatisiz maydonga tushgan yoki maydondan chiqqan oʻyinchiga; hakam ruxsatisiz maydondan oʻzboshimchalik bilan chiqib ketgan oʻyinchiga.

**SPORT OʻYINLARI MAYDONI (stadion)** – oʻyin oʻtkaziladigan sport inshoot joyi.

**SPORT FORMASI** – bu nafaqat ekipirovka. Oʻyinchi tayyorgarligining fiziologik holati va uning tayyorgarlik bosqichi ham sport formasi deyiladi. Bu asosan uning jismoniy holati va mahoratining bir koʻrinishi. Mashgʻulot hamda musobaqalarda ancha vaqtgacha ishtirok etmaslik natijasida futbolchi oʻzining sport formasini yoʻqotib qoʻyadi.

**STANDART VAZIYATLAR** – oʻyinining erkin, jarima yoki burchak zarbasi, autdan tepish kabi elementlari uchun umumiy nomlanish. Ular uchun, bu elementlar sodir boʻlganda oʻyinni toʻxtatish uchun hakam tomonidan hushtak chalinishi - umumiy holatdir. Bunda, jamoa oʻyinchilariga, tayyorlanish mashqlarida bajarilgan, oldindan maʼlum jadval boʻyicha maydonda joylashish imkoniyati beriladi. Futbolchilar bu imkoniyatdan oʻzlari uchun maksimal darajada foydalanishga intilishadi.

**SB** – sport bazasi.

**SUN** - Sport ustaligiga nomzod

**SU** - Sport ustasi

**SPRINTER**– yengil atletikaning sprinterlik turi boʻyicha ishtirok etuvchi yengil atletikachi hisoblanadi.

**STAYER**– uzoq masofaga yuguruvchi yengil atletikachi hisoblanadi.

**STARTYOR (START BERUVCHI)** – yengil atletikaning yugurish turlarida sportchilarga start beruvchi hakam hisoblanadi.

**TANLANGAN NAZORAT** - Ish qobiliyati va o'quv mashq jarayoning yoki tayyorgarlikning qaysidir tomonini ko'rsatuvchilar guruhi yordamida baholanadi.

**TASHQI KUCH** – inson jismiga tashqaridan ta'sir qiladigan kuchlar: a) tananing o'z og'irligi (vazni)dan vujudga keladigan kuch; b) tayanish reakstiyasi kuchlari; v) tashqi ta'sir qarshiligi (suv, havo)ni engish va jisman tashqi ta'sirga qarshi (yakka kurashlar) kuch namoyon qilish, inerstiya kuchi va boshqalar.

**TAYYORGARLIK DAVRI** – sportchilarning yillik tayyorgarlik davrida mashg'ulotlar sikli bo'lib, 3 – 4 ta bosqichdan (*makrostikllar*) tashkil topadi va sporchida maxsus jismoniy sifatlar rivojlantirilishi va uning sport formasiga kirishiga yo'naltiriladi.

**TAYM (bo`lim)** – futbol o`yinining ikkidan bir qismi. Har bir taym 45 minutdan iborat. O`yin – qoida va hakam tomonidan qo`shimcha vaqt qo`shilishi bilan o`tkazilishi muqarrar.

**TAKTIK TIZIM** – har bir o`yinchining alohida xususiyatlari asosida futbol maydonida to`g`ri joylashtirilgan holda jamoa bo`lib o`ynash xarkatlarini tashkil etishdir. Taktik tizim futbol o`yini taraqqiyotida bir necha bor o`zgarib kelgan. Taktik tizimning birinchi ko`rinishlari jamoalarda 2-3-5 tizimida qo`llanilgan. Ushbu tizimni tarix manbalarida italyancha tizim yoki bo`lmasa avstriya jamoalarning tizimi deb yuritilgan.

**TAKTIKA** – o`yinchilarning raqib ustidan g`alaba qozonishga qaratilgan individual va jamoaviy harakatlarini tashkil qilishi, ya`ni jamoa futbolchilarning muayyan rejaga binoan ayni shu muayyan raqib bilan muvaffaqiyatli kurash olib borishiga imkon beradigan birgalikdagi harakatlarini tushunish kerak.

**TANAFFUS** – o`yin taymlari oralig`idagi vaqt.

**TEZKOR** - kuch (dinamik kuch) - tez bajariladigan harakatlarda. Tezkor - kuch 2 ga bo`linadi: a) yenguvchi va b) yengiluvchi (amortizastion kuch)

**TEZKORLIK** - deganda, individ harakatlarining tezlik xarakteristikasi, asosan harakat reakstiyasining vaqtini belgilovchi funkstional xususiyatlarning kompleksi tushuniladi.

**TEXNIKA** - grekcha so'z bo'lib «bajara olish san'ati» degan ma'noni bildiradi. Jismoniy mashk texnikasi doim o'zgarib turadi va takomillashadi. Takomillashgan harakat texnikasi yuqori natija ko'rsatish garovi bo'lib unga sportchilarning tinimsiz ter to'kishi orkali erishiladi. Sportchining jismoniy tayyorgarligini ortishi yoki uning gavdasi tuzilishi (anatomiyasi), boshqacha aytganda jismoniy rivojlanganlikni ko'rsatuvchi ko'rsatkichlarning turli-tumanligi (son suyagini kaltali yoki uzunligi, elka suyagi o'lchamining turli xilligi va h.k.) sport turi – jismoniy mashqlar bajarish texnikasini asosini uning zvenolari yoki detallarini o'zgarishiga, almashishiga sabab bo'lishi mumkin.

**TO'SIQLAR OSHA YUGURISH** – 3000 metr masofaga yugurishda sportchi qo'shimcha holatda to'siqlarni oshib o'tishi belgilanuvchi yengil atletika sport turi hisoblanadi.

**TO'SIQ** – to'siqlar osha yugurish bellashuvlarida sportchilar tomonidan oshib o'tish talab qilinuvchi moslama bo'lib, uni sakrab oshib o'tish yoki eng yuqorigi to'sini ustidan o'tish talab qilinadi. Uning ko'rsatkichlari: balandligi erkaklar uchun – 91,4 sm va ayollar uchun 76,2 sm, kengligi 3,94 metrni tashkil qiladi. To'siqning yuqorigi to'sini kesimi maydoni  $12,7 \times 12,7$  sm va og'irligi qiymati 80 – 100 kg ni tashkil qiladi.

**TO`P** – futbol o'yini uchun sport anjomi. To`p – charm yoki shunga o'xshash xom-ashyodan tayyorlanib yumaloq shaklga ega bo'lishi kerak, To`pni tayyorlashda o'yinchilarga shikast yetkazadigan materialdan foydalanishga r u x s a t e t i l m a y d i. To`p aylanasi uzunligi 68- 71 sm, o'yin boshida uning og'irligi 400-450 g. bo'lib, ichidagi havo bosimi dengiz satxida 0,6-1,1 atm. (600-1100 g.  $\text{sm}^2$ ) bo'lishi kerak. O'yin paytida to`p faqat hakamning ruxsati bilangina almashtirilishi mumkin.

**TURLAR** – yugurish, yurish, sakrashlar, uloqtirishlar, ko'pkurashlar bo'yicha yengil atletika musobaqalari dasturining alohida turlari.

**ULOQTIRISH** – xohlagan predmetni ma'lum bir aniq masofaga uloqtirish maqsadiga qaratilgan, odamning harakatlaridan tashkil topadi (bunda uloqtirish

nishon tomonga yoki masofa uzunligi bo'ylab amalga oshiriladi). Bularning natijalari metr va santimetr bilan aniqlanadi.

**UZOQ MASOFAGA YUGURISH** - 3000 metr va 10 000 metr masofaga yugurishni o'z ichiga oluvchi, guruh holatida yugurish bellashuvidan iborat yengil atletika sport turi hisoblanadi.

**UZUNLIKKA SAKRASH** – gorizontal holatdagi yengil atletika sakrash turi bo'lib, sportchi tomonidan ma'lum bir masofadan yugurib kelib, itarilib sakrashdan keyin ma'lum bir uzunlik masofasini zabt etishi hisoblanadi.

**UEFA** – Yevropa ittifoqi futbol uyushmasi.

**FAHRIYLAR (VETERAN)** – ayrim sport turlarida 35 yoshdan katta bo'lgan sportchilar (erkak va ayollar) hisoblanadi.

**FINAL** – kubok uchun o'tkaziladigan musobaqalarda ikkita raqib jamoaning hal qiluvchi uchrashuvi. Shuningdek bu ta'rifni, oldindan o'tkazilgan o'yinlardan yoki malaka (kvalifikatsion) o'yinlaridan keyin (masalan, dunyo chempionatining final bosqichi) keladigan bellashuvlariga tegishli deb ham hisoblash mumkin.

**FINT** – raqibni chalkashtirish, uni aldash maqsadida bajariladigan texnik element.

**FIFA** – futbol assotsiatsiyalarining xalqaro federatsiyasi, futbol musobaqalarini nazorat qiluvchi bosh tashkilot. O'z tarixini 21-may 1904-yildan, Frantsiyaning poytaxti Parijda oltita Yevropa mamlakatlarning: Belgiya, Gollandiya, Frantsiya, Shvetsariya, Daniya va Shvetsiya funktsionerlari to'plangan vaqtdan boshlagan. Shu vaqtdan beri FIFA chempionatlarni ham o'z ichiga olgan yirik futbol turnirlarini o'tkazishga javob beradi. FIFA ning shtab-kvartirasi Shvetsariyaning Tsyurix shahrida joylashgan.

**FOL** (ingliz. foul) – o'yin qoidasining buzilishi. Mayda fol taktikasi bilan provokatsiya (ig'vo) orqali qo'pollik qilishga, majbur qildilar (ingl. foul play tirriq, g'irrom o'yin - qo'pol o'yinni bildiruvchi ) atama, masalan, futbolda - qo'pol turtish, chalish, raqibga atayin zarba berish va hokazo



**FORVARD** – hujum chizig`ining o`yinchisi, uning asosiy vazifasi – raqib darvozasiga hujum qilish.

**FUTBOL** – sport turi, to`pni oyoq bilan o`ynash o`yini. Inglizcha “foot” (oyoq) va “ball” (to`p) so`zlaridan olingan. Bu so`z ko`plab tillarda o`zgartirilmasdan qabul qilingan.

**XUSHTAK** – futbol hakamining eng muhim va ajratib bo`lmaydigan anjomi hisoblanadi. Futbol hakamlarida hushtaklarning paydo bo`lishidan oldin, arbitrlar o`yin qoidalarining buzilishi yoki o`yin to`xtatilishi haqidagi signallarni ro`molchalari bilan harakat qildirishgan (bu borada juda ko`p qarama-qarshi taxminlar mavjud – sirenalari (signal beradigan asbob), qo`ng`iroqchalar va baqiriqlar, dod urishlar).

**XTSU** - Xalqaro toifadagi sport ustasi

**CHIDAMLILIK** - Muskul ishi faoliyatida jismoniy mashqlar bilan shug`ullanish davomida charchoqqa qarshilik ko`rsatish darajasi chidamlilik sifati deb ataladi.

**CHUQURLASHTIRILGAN NAZORAT** - Ko`rsatkichlar doirasini kengaytirgan holda foydalanishi bilan bog`liq ya`ni sportchi tayyorgarlikning har tomonlama baholash, musobaqa faoliyatini natijaviyligi, o`tgan bosqichlardagi o`quv mashg`ulotlari.

**CHEMPION** – chempionatni yutgan, kubok yoki oltin medallar olgan jamoa. Bunday jamoaning har bir o`yinchisi chempion deb hisoblanadi.

**CHEMPIONAT** – aylanma tizimi tarzida o`tkaziladigan musobaqa. Chempionatda jamoa (klub) har bir jamoa bilan bittadan kam o`yin o`tkazmasligi kerak. Qoida bo`yicha chempionat ikki davradan iborat.

**CHETLASHTIRISH** – maydondan o`yinchi quyidagi sabablarga ko`ra chetlashtiriladi: Futbolda o`yinchi tomonidan o`yin qoidasining jiddiy buzilishi, tajovuzkor harakat yoki tartibsizlik; Raqib o`yinchisining gol kiritishiga unga nisbatan o`yin qoidasini buzgan holda halaqit berib, uni gol urish imkoniyatidan mahrum qilganda yoki qo`l bilan atayin o`ynaganda (darvozaabonlar o`z jarima maydonchalari ichida bo`lgan vaqtida darvozaabonlar bundan istisno); O`yinchini

kamsitadigan, xafa qiladigan va boshqa shunga o`xshash so`zlarni aytganda yoki raqib o`yinchisi bilan o`zaro aytishuvlar yoki unga nisbatan qo`pol xatti-harakatlar, imo-ishoralar va boshqalar uchun; O`yin davomida ikkinchi (ogohlantirish) sariq kartochka bilan jazolanganda. O`yinchini chetlashtirayotgan paytda unga hakam tomonidan qizil kartochka ko`rsatiladi va bu o`yinchi albatta maydonni tark etishi shart. Hakam nafaqat maydondagi o`yinchini, balki zahiradagi o`yinchi va murabbiyni ham maydondan chetlashtirishi mumkin.

**SHAXSIY KUCH** – bu statik rejim sekin bajariladigan harakatlardir (tana massasi oshishi bilan, absolyut kuch ham oshadi).

**SHISHLI CHARCHASH** – bunda tana odatdagidan qizarganroq bo`lib, g`ovlaganga o`xshash hissiyot sezadi.

**EGILUVCHANLIK** – jismoniy fazilat bo`lib, harakat tayanch apparatlarining morfofunkstional xususiyatlari demakdir. Bu xususiyatlar shu apparat zvenolarining harakatchanligi, uning maksimal amplitudasi (og`ishi, egilishi, buklanishi, cho`zilishi, qayishqoqligi, buralishi va hokazolar) bilan o`lchanadi.

**ESTAFETANI UZATISH ZONASI** – estafetali yugurish davomida 20 metr masofa bo`ylab belgilangan soha bo`lib, bu sohada estafeta tayoqchasining uzatilishi amalga oshiriladi. Bu zonadan tashqarida estafeta tayoqchasining uzatilishi musobaqa tartibining buzilishi hisoblanadi va jamoa diskvalifikastiya qilinadi.

**ESTAFETALI YUGURISHDA YUGURISH ZONASI** – alohida yugurish yo`lagida 200 metrlik bosqichda estafetali yugurish bo`yicha, estafeta tayoqchasini uzatish zonasi oldida joylashgan 10 metrga teng bo`lgan masofa sohasi bo`lib, estafeta tayoqchasini qabul qilgunga qadar bu sohada start olishga ruxsat etiladi.

**EKS-CHEMPION** – ilgari o`tkazilgan musobaqalar g`olibi, hozirgi kunda bu titulga ega emas.

**EMBLEMA** – sport klubining rasmiy belgisi, u jamoa nomi, ba`zan asos solingan yil va yana qandaydir bir qo`shimcha belgilarni o`z ichiga olgan tasvir.

Emblema har bir klubda bo`ladi. U futbolchi formasiga yoziladi, suvenir mahsulotda tasvirlanadi.

**EPIKIROVKA** – futbolchilarning majburiy ekipirovka elementlari quyidagilar hisoblanadi: ko`ylak yoki futbolka; kalta ishton (agar kalta ishton tagidan ichki kiyim kiyiladigan bo`lsa, ichki kiyim rangi kalta ishton rangidan) bo`lishi kerak; getralar; oyoq qalqoni; oyoq kiyim.

**YAKUNIY BAYONNOMA** – sportchilarning yengil atletika musobaqalari bo`yicha egallagan o`rni, eng yaxshi natijalari qayd qilingan xujjat hisoblanadi.

**YAQSI** – yangi qurilgan sport inshootlari

**YUGURISH** – bitta tayanch va uchish fazalaridan tashkil topgan, odamning harakatlanish usuli hisoblanadi.

**YUQORI START** – o`rta va uzoq masofaga yugurishda yugurish masofasining boshlanishi usuli, bunda ikkita tayanch nuqtasining mavjudligi (yo`lakka ikkala oyoq bilan tegib turish, qo`llar erkin holatda) va quyidagi buyruqlardan foydalanish: «*Startga*», «*Qadam bos*» («*Marsh*») bilan tavsiflanadi.

**YUGURISH** – futboldagi asosiy harakatlanish vositasi yugurishdir. To`pni boshqarmayotgan futbolchilar yugurish yordamida maydonda turlicha joylashib oladilar. Bundan tashqari yugurish tarkibiy qism sifatida to`pni boshqarish texnikasiga ham kiradi. Futbolda yugurishning quyidagi usullari qo`llaniladi: oddiy yugurish, tisarilib yugurish, chalishtirma qadam tashlab yugurish, juftlama qadam tashlab yugurish.

**YUKLAMA** – sport o`yinlarida raqib jarima maydonchasiga to`pni havolatib o`zining jamoadoshi hujumchisiga yetkazib berish raqibning mustahkam himoyasidan o`tishda qo`l keladi.

**YULDUZ** – mashhur sportchi.

**O`YIN, bahs (match)** – ikki futbol jamoasining futbol qoidasi va hakam qo`shgan vaqti mobaynida musobaqalashishi. O`yin ikki taymdan iborat.

**O`RTA MASOFAGA YUGURISH** – 500 metr va 2000 metr masofaga guruh holida yugurish dasturidan tashkil topgan yengil atletika sport turi hisoblanadi.

**O'TIB TUSHISH (ZASTUP)** – gorizontal holatda sakrash davomida itarilishda plankaning chekka sohasi bo'ylab oshib o'tish. O'tib tushish holatida sportchining urinishi hisobga olinmaydi.

**QOTIB CHARCHASH** - unda kishi go'yo gavdasini ezilgan yoki majag'langan gumon qilib tanasida issiqlik va bo'shashishni sezadi.

**G`OLIB** – mamlakat chempionati g`olibi, Osiyo chempionlar ligasi g`olibi yoki va hokazo.

**G`OLIB JAMOA** – o`yin davomida eng ko`p to`p urgan jamoa g`olib bo`ladi. Agar ikkala jamoada to`plar nisbati teng bo`lsa yoki bitta ham to`p urilmagan bo`lsa bunday o`yin natijasi durang bo`ladi.

**HAA** – hakamlar va axborot apparatlari.

**HARAKAT KO'NIKMALARI VA MALAKALARI** – mashqlarni harakat ko'nikmasi va harakat malakasi bo'lgan taqdirdagina bajarish mumkin. Bu ko'nikma va malakalar harakatlarni bajarishning muayyan usullarini ifoda etadi.

**HARAKATLI O'YINLAR** - jismoniy tarbiya vositasi sifatida jamoali, jamoaga uyushmay, o'zining ma'lum sport maydoniga, standart qoidasiga ega bo'lmagan, qiyin jismoniy mashqlarning ayrim elementlarini o'z ichiga olgan harakatlar tarzida ular asta-sekinlik bilan kiyinlashtirilib bir shaklga kirgizilib, sport o'yinlariga aylandi. Demak, sport o'yini ham harakatli o'yindir.

**HARAKAT REAKSIYASINING TEZLIGI** – Individning qandaydir tanlangan signalga, buyruqqa, ovozga javoban tezkorligini tushuniladi.

**HARAKAT REAKSIYASI IKKI TURGA AJRATILADI** – sodda (oddiy) reaksiya - bu kutilgan signalga oldindan belgilangan harakatlar orqali beriladigan javob.

**HARAKATLARNING KOORDINASIYAVIY MURAKKABLIGI** - chakkonlikning birinchi o'lchovidir. Agar harakatning fazo, vaqt, kuch xarakteristikalari harakat vazifasiga mos bo'lsa, harakat yetarli darajada anik bo'ladi, harakat vazifalari *harakatning apiqligi* tushunchasini keltirib chiqaradi. Harakatning aniqligi chaqqonlikning ikkinchi o'lchovidir.

**HIMOYA** – jamoadoshlarining kuchli xatti-harakati bilan o`z darvozasi oldidagi xavfni bartaraf etish yoki xavfli vaziyatning paydo bo`lishiga yo`l qo`ymaslik.

**HUJUM** – o`yinchilarning to`p bilan raqib darvozasi tomon iloji boricha yaqinroq borib gol urishga harakat qilishi. Raqib darvozasi tomon zarbalar, to`p oshirishlar, to`pni olib yurishlar, himoyachilarni aldashlar, to`psiz raqib tomon yurishlar, darvoza tomon kuchli zarbalar – bularning barchasi futbolchilarning yorib kirish, hujumkor harakatlaridir. Hujumga, shuningdek, o`yinchining raqibdan to`pni olib qo`yib uni o`zida egallashga intilishi ham kiradi.

**HUJUM TAKTIKASI** – to`p ixtiyorida bo`lgan jamoaning raqib darvozasini zabt etish uchun qiladigan harakatlarini uyushtirish tushuniladi. Himoya (nazorat)ga olish – himoyani amalga oshirish usullari, ular quyidagilar: asosiy himoyachi bo`sh zonalarni qisqartiradi va hujum qilayotgan jamoaning zarbasi yo`liga to`g`anoq bo`ladi (zonal himoya); himoyachi raqib hujumchilariga imkon qadar yaqin yuradi, bo`sh zonalarni yopadi va raqibga zarba berish, qisqa va uzoq masofalarga to`p oshirishga xalaqit beradi (shaxsiy nazorat).

**HUJUMCHISI** – hujum chizig`idagi o`yinchi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Akramov R.A. Futbol. Darslik. – T., 2006.
2. Aliev M.B. Usmonxo‘jaev T.S. Sagdiev X.X. Sport o‘yinlari futbol. O‘quv qo‘llanma. – T., 2007.
3. Atoyev A.Q. Yosh-o‘smirlarga o‘zbek kurashini o‘rgatish uslubiyoti.–T.: O‘ZDJTI nashriyoti-matbaa bo‘limi, 2005.
4. Blinkov V.V Sportivniye igri i metodika prepodavaniya. Toshkent (o‘quv qo‘llanma), 2001 yil - 200 b.
5. Bulgakova N.J. Sportivnoye plavaniye. Uchebnik – M. 1996.
6. Ibragimov M.B. Futbol madaniyati. O‘quv qo‘llanma. – T., 2013.
7. Isroilov Sh.X. Voleybol. Olimpiya zaxiralari kollejlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. T.: Tasvir, 2008.
8. Isroilov Sh.X, Nurimov Z.R, Abidov Sh.U, Davletmuratov S.R, Karimov A.A. Sport va harakatli oyinlar (Futbol). Darslik. – T., 2017.
9. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati. - T.: O‘ZDJTI nashriyot matbaa bo‘limi, 2005.
10. Korbut V.M., Israilova R.G., Voljin V.I. Suzish. – Toshkent, 2018.
11. Koshbaxtiev I.A. “Osnovi ozdorovitelnoy fizkulturi molodeji”, T., 1994.
12. Mahkamdjonov K.M. Futbol o‘yin texnikasi. Toshkent (metodik qo‘llanma), 1999 yil.
13. Nurimov R.I. Yosh futbolchilarni texnik va taktik tayyorlash. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2005.
14. Nurshin J.M., Salomov R.S., Kerimov F.A. “O‘zbekcha milliy sport kurashi” - T., 1993.
15. Pavlov SH.K. “Gandbol”. Jismoniy tarbiya instituti uchun dastur. Toshkent, O‘zDJTI nashriyot bo‘limi.
16. Platonov V.N Plavaniye – Kiev: Olimpiyskaya literatura 2000-290 s.

17. Pulatov A.A., Isroilov Sh.X., Qurbonova M.A. Voleybol. JTilari II kurs talabalari uchun ixtisoslik fanidan ma'ruza matnlari. T.: 2003.
18. Rasulov O.T. Basketbol o'yinning rasmiy qoidalari. Toshkent (metodik qo'llanma), 1993 yil.
19. Rasulov O.T. "Basketbol". Toshkent, O'zDJTI nashriyot bo'limi, 1998.
20. Suslova F.P., Sicha V.L., Shustina B.N. Sovremennaya sistema sportivnoy podgotovki – M.: 1995
21. Usmonxo'jaev T., va boshqalar. Jismoniy tarbiya nazariyasi – T.: "O'qituvchi", 2004.
22. Usmonxo'jaev T. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari. – T.: "O'qituvchi", 2005.
23. Usmonxo'jaev T. Jismoniy tarbiya – T.: "O'qituvchi", 2011.
24. Usmonxo'jaev T.S, Yusupov V.J, Akramov J.A., Usmonxo'jaev S.T. Jismoniy tarbiya. (Kasb-hunar kollejlari uchun darslik). –T.: "O'qituvchi", 2008.1
25. Tulenova X.B., Malinina N.N., Umumrivojlantiruvchi mashqlarni URM o'rgatish metodikasi. Toshkent (o'quv qo'llanma), 2004 yil - 57 b.
26. Usmonxo'jaev T.S., Arzumanov S.G'., Qodirov V.A. Jismoniy tarbiya darsligi. Toshkent (darslik), O'qituvchi 2004 yil - 206 b.
27. Xo'jaev P., Usmonxo'jaev T. Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya, o'quv qo'llanma. T., "O'qituvchi", 1996.
28. Xoldorov J.K., Kuznetsov V.S. Teoriya i metodika fizicheskogo vospitaniya i sporta. M.: Akademiya. 2000. Shiyan V.M. "Teoriya i metodika fizicheskogo vospitaniya" M. "Prosveshenie" 1988 g.
30. Erkayev A. Ma'naviyat - millat nishoni.- T.: Ma'naviyat, 1997.
31. Erkayev A. Milliy g'oya va ma'naviyat.-T.: Ma'naviyat, 2002.
32. Yusupov E. Yoshlar o'rtasida vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish yo'llari.- T.: O'qituvchi, 1996.

33. Yarashev K.D. “Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish”. Toshkent, “Abu Ali ibn Sino”, 2002.

### **Elektron ta’lim resurslari**

1. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www. pedagog. uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)
4. [www. edu. uz](http://www.edu.uz)



## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	4
<b>1-MODUL. YAKKA KURASH SPORT TURLARI BO`YICHA MUSOBAQALAR O`TKAZISH VA HAKAMLIK QILISH.</b>	
<b>1-BOB. Yengil atletika turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish va hakamlik qilish</b> .....	7
<b>2-BOB. Kurash turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish va hakamlik qilish</b> .....	54
<b>3-BOB. Suzish sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish va hakamlik qilish</b> .....	91
<b>2-MODUL. SPORT O`YINLARI BO`YICHA MUSOBAQALAR O`TKAZISH VA HAKAMLIK QILISH.</b>	
<b>4-BOB. Futbol o'yini bo'yicha musobaqalar o'tkazish va hakamlik qilish</b> .....	125
4.1. Futbol musobaqalarni tashkil etish, o'tkazish va uning ahamiyati.....	125
4.2. Musobaqa turlari.....	126
4.3. Musobaqalarni rejalashtirish.....	127
4.4. O'yin tizimlari.....	128
4.5. Davrali tizim.....	128
4.6. O'yinlar (musobaqa)da o'rinlarni aniqlash.....	133
4.7. Musobaqa nizomi.....	136
4.8. Futbol qoidalariga eslatmalar .....	137
4.9. Futbol o'yin qoidalari.....	138
<b>5-BOB. Basketbol o'yini bo'yicha musobaqalar o'tkazish va hakamlik qilish</b> .....	194
5.1. O'yin qoidasi va musobaqa tashkil qilish asoslari.....	194
5.2. Jamoalar, o'yinchilar, zahiradagi o'yinchilar, sardor, murabbiylar.....	203
5.3. Murabbiy va murabbiy yordamchisining stol atrofidagi hakamlar bilan muloqoti.....	205
5.4. O'yin holatlari.....	205
5.5. Qoidalarga rioya qilmaslik va jazo.....	211
5.6. Hakamlar .....	212
5.7. Musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazish. Musobaqalarning ahamiyati.....	216
5.8. Musobaqalarning turlari.....	216
5.9. Musobaqa o'tkazish tizimlari.....	217
5.10. Musobaqa nizomi.....	219
<b>6-BOB. Voleybol o'yini bo'yicha musobaqalar o'tkazish va hakamlik qilish.</b>	
6.1. Musobaqa qoidalarining vujudga kelishi va shakllanishi.....	232
6.2. O'yinning mohiyati va mazmuni.....	234
6.3. Hakamlar va hakamlik qilish.....	236
6.4. Musobaqa o'tkazish tizimlari.....	240

6.5. Musobaqa o'tkazishning ilmiy-tashkiliy asoslari.....	244
6.6. Musobaqa o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish.....	245
6.7. Musobaqa Nizomi.....	246
6.8. Musobaqani ochilish va yopilish marosimlari.....	248
6.9. Voleybol hakamlarning harakatlari.....	259
<b>7-BOB. Gandbol o'yini bo'yicha musobaqalar o'tkazish va hakamlik qilish.</b>	
7.1. Musobaqalarni boshqarish.....	268
7.2. Musobaqa turlari.....	268
7.3. Musobaqalarni rejalashtirish.....	269
7.4. Musobaqa o'tkazish tizimlari.....	270
7.5. Aylanma tizim.....	270
7.6. O'yindan yutilgandan so'ng chiqib ketish tizimi.....	272
7.7. Musobaqa nizomi.....	274
<b>GLOSSARIY.....</b>	<b>288</b>
<b>ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>310</b>

## СОДЕРЖАНИЕ

Введение.....	4
<b>МОДУЛЬ 1. Проведение и арбитраж в индивидуальных видах спорта.</b>	
<b>ГЛАВА 1. Проведение и судейство на соревнованиях по легкой атлетике.....</b>	<b>7</b>
<b>ГЛАВА 2. Проведение соревнований спортивным видам борьбы и их судейство .....</b>	<b>54</b>
<b>ГЛАВА 3. Проведение соревнований по спортивным видам плавания и их арбитраж .....</b>	<b>91</b>
<b>МОДУЛЬ 2. КОНКУРС И АРБИТРАЖ СПОРТИВНЫХ ИГР.</b>	
<b>ГЛАВА 4. Футбольные матчи и их судейство.</b>	
4.1. Организация, проведение и значимость футбольных соревнований ...	125
4.2. Типы соревнований.....	126
4.3. Планирование соревнований .....	127
4.4. Игровые системы.....	128
4.5. Круговая система.....	128
4.6. Определение мест в играх (соревнованиях) .....	133
4.7. Правила конкурса .....	136
4.8. Заметки о правилах футбола .....	137
4.9. Правила футбольных игр.....	138
<b>ГЛАВА 5 Баскетбольные турниры и судейство</b>	
5.1. Правила игры и основы соревнования .....	194
5.2. Команды, игроки, резервные игроки, капитаны, тренеры .....	203
5.3. Общение тренера и помощника тренера с судьями за столом .....	205
5.4. Условия игры .....	205
5.5. Несоблюдение и штрафы .....	211
5.6. Судьи .....	212
5.7. Организация и проведение соревнований. Важность соревнований....	216
5.8. Типы соревнований .....	216
5.9. Конкурсные системы .....	217
5.10. Правила конкурса .....	219
<b>ГЛАВА 6. Соревнования по волейболу и судейство.</b>	
6.1. Формирование и формирование правил соревнования.....	232
6.2. Суть и содержание игры .....	234
6.3. Арбитры и арбитраж .....	236
6.4. Конкурсные системы .....	240
6.5. Научные и организационные основы конкурса .....	244
6.6. Подготовка к соревнованию .....	245
6.7. Положение о соревнование.....	246
6.8. Церемонии открытия и закрытия соревнования.....	248
6.9. Действия волейбольных судей .....	259

<b>ГЛАВА 7. Соревнования по гандболу и судейство.</b>	
7.1. Управление соревнованиями .....	268
7.2. Типы соревнований .....	268
7.3. Планирование соревнований .....	269
7.4. Конкурсные системы .....	270
7.5. Циркуляционная система .....	270
7.6. Выход из системы после победы в игре .....	272
7.7. Правила соревнований .....	274
<b>ГЛОССАРИЙ</b> .....	288
<b>СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ</b> .....	310

# CONTENT

<b>Introduction</b> .....	4
<b>MODULE 1. Conducting and arbitration in individual sports.</b>	
<b>CHAPTER 1. Conducting and refereeing in athletics competitions</b> .....	7
<b>CHAPTER 2. Conducting competitions in sports wrestling and their refereeing</b> .....	54
<b>CHAPTER 3. Competitions in sports and their swimming arbitration</b> .....	91
<b>MODULE 2. COMPETITION AND ARBITRATION OF SPORTS GAMES.</b>	
<b>CHAPTER 4. Football matches and their refereeing</b> .....	125
4.1. Organization, conduct and significance of football competitions.....	125
4.2. Types of competitions .....	126
4.3. Competition Planning .....	127
4.4. Gaming systems .....	128
4.5. Circular system .....	128
4.6. Determination of places in games (competitions) .....	133
4.7 Competition Rules .....	136
4.8. Notes on the rules of football .....	137
4.9. Rules of football games .....	138
<b>CHAPTER 5 Basketball Tournaments and Refereeing</b> .....	194
5.1. Rules of the game and the basics of the competition.....	194
5.2. Teams, players, reserve players, captains, coaches .....	203
5.3. Communication of the coach and assistant coach with the judges at the table.....	205
5.4. The conditions of the game .....	205
5.5. Non-compliance and fines .....	211
5.6. Judges .....	212
5.7. Organization and holding of competitions. The importance of competition..	216
5.8. Types of Competition .....	216
5.9. Competitive systems .....	217
5.10. Rules of the competition .....	219
<b>CHAPTER 6. Volleyball competitions and refereeing</b> .....	232
6.1. Formation and formation of the rules of the competition .....	232
6.2. The essence and content of the game.....	234
6.3. Arbitrators and Arbitration.....	236
6.4. Competitive systems.....	240
6.5. Scientific and organizational basis of the competition .....	244
6.6. Preparation for the competition .....	245
6.7. Regulation on the competition.....	246
6.8. Competition opening and closing ceremonies.....	248
6.9. The actions of volleyball referees.....	259
<b>CHAPTER 7 Handball competitions and refereeing</b> .....	268
7.1. Competition Management.....	268

7.2. Types of competitions .....	268
7.3. Competition Planning .....	269
7.4. Competitive systems.....	270
7.5. Circulation system.....	270
7.6 Logout after winning the game .....	272
7.7. Competition Rules .....	274
<b>GLOSSARY</b> .....	288
<b>BIBLIOGRAPHY</b> .....	310